

65
и 73

USMANOVA N.YU.

IQTISODIYOT VA MOLIYAVIY MENEJMENT



О · ОУН О · ЛЛАНМА

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK -TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Usmanova N.Yu.

**IQTISODIYOT VA
MOLIYAVIY
MENEJMENT**

BUXORO – 2020
«DURDONA» NASHRIYOTI

65.290-93я73

33:005.915(075.8)

U 73

Iqtisodiyot va moliyaviy menejment.[Matn]: o`quv qo'llanma/. Usmanova N.Yu. – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2020. – 240 b.

BBK 65.290-93я73

UDK 33:005.915(075.8)

Taqrizchilar:


Mo'minov X.I.

– Buxoro Davlat Universiteti
«Iqtisodiyot» kafedrasи dosenti.

Xayitov Sh.N.

– Buxoro muhandislik texnologiya instituti «Menejment» kafedrasи mudiri, dotsent, i.f.n.

Mazkur o`quv qo'llanma Buxoro Muhandislik va Texnologiya instituti 2020 yil 5-martdagи 6-sonli buyrug`iga asosan nashr qilishga ruxsat etilgan.



ISBN -978-9943-6894-9-7

© Usmanova N.Yu.

ANNOTATSIYA

Ushbu o`quv qo'llanma yengil sanoat yo`nalishida ta`lim oluvchi talabalar uchun mo`ljallangan. O`quv qo'llanma ma`ruza rejasi, tayanch iboralari, ma`ruza bayoni va takrorlash uchun savollarni o`z ichiga oladi. O`quv qo'llanma iqtisodiyotni barqarorlashtirish sharoitida umumiqtisodiy qonunlar, tamoyillar, shuningdek iqtisodiy jarayonlarning mohiyati, texnologik xususiyatlarni xisobga olgan holda fan-tehnika yutuqlari asosida korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish, boshqarish usullari, uslublari va shakllarini tanlashni asoslashning mohiyatini o'chib berish masalalarini qamrab olgan. Shuningdek, o`quv qo'llanma respublikamizda mavjud umumiqtisodiy qonunlar asosida ularning sanoat korxonalarida amal qilish mehanizmlarini o'rganishda zaruriy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. O`quv qo'llanma orqali talabalar ishlab chiqarish, yangi texnikaning samaradorligini aniqlash usullarini tanlash, mehnatni ilmiy tashkil etish, me`yorlashtirish, moliyaviy menejment masalalari, biznes-reja va uning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash yo'llarini o'rganadilar.

АННОТАЦИЯ

Учебник предназначен для студентов, обучающихся в сфере легкой промышленности. Учебник включает план лекции, ключевые фразы, конспекты лекций и вопросы для повторения. Учебник освещает общезэкономические закономерности, принципы экономической стабилизации, а также сущность экономических процессов, обосновывает суть выбора методов управления, приемов и форм эффективной организации производственных процессов на предприятиях на основе научных и технический прогресс. Учебник также вооружает студентов необходимыми знаниями при формировании необходимых знаний и умений при изучении механизмов их применения на промышленных предприятиях на основе действующих экономических законов республики. С помощью учебника студенты узнают, как рассчитать эффективность производства, новые методы, научную организацию труда, стандартизацию, финансовый менеджмент, бизнес-план и расчет его основных показателей.

Abstract

This training manual is intended for students studying in the Light Industry area. The manual includes a lecture plan, key phrases, lecture notes and overview questions. The textbook deals with

general economic laws, principles, as well as the essence of economic processes in conditions of economic stabilization, the essence of the rationale for the choice of management methods, techniques and forms of effective organization of production processes at enterprises based on scientific and technological achievements. The textbook will help students in forming the necessary knowledge and skills in studying the mechanisms of their work at industrial enterprises on the basis of existing economic laws of the country. Through the manual, students will learn about production, how to choose methods to determine the effectiveness of new techniques, the scientific organization of work, standardization, the problems of financial management, the business plan and the calculation of its main indicators.

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida oliv ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashda chuqr o'zgarishlarga o'z bilim va tajribalari bilan moslasha oladigan, jahon andozalariga javob bera oladigan zamonaviy kadrlarni yetkazib berish muhim masala hisoblanadi.

«Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» fanining maqsadi bo'lib ushbu fan bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga boshqaruv asoslarini makro va mikroiqtisodiy darajada o'rgatish asosida ularning yetuk va yuqori malakali mutaxassis bo'lishlarini hamda olingan bilimlari asosida o'qish va ilmiy izlanishlarini davom ettirishlarini ta'minlashdir.

2017 yil 7 fevralda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonni imzoladi. Ushbu Farmon bilan mamlakatimizni yanada rivojlantirishga bag'ishlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi

Ma'lumki, 2017-2021 yillarda umumiyl qiymati 40 mlrd. AQSH dollarlik 649 ta investitsiya loyihasini kiritish rejalashtirildi. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36

foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

Qayd etilgan natijalarning o'sish su'ratini saqlab qolish yoki yanada oshirish ishlab chiqarishga yangi loyihalarni joriy qilish, ularning samaradorligini oshirishni talab qiladi.

Ma'lumki korxonalar faoliyati bevosita bozorga yo'naltirilgan. Korxonalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va xizmatlar rakobatbardoshligini oshirish, bozorda mustahkam mavqega ega bo'lish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llashga faoliyatni qaratishi kerakdir. Samarali moliyaviy boshqaruv faoliyatini olib borish esa korxonalar foydasini oshirishga, mahsulot tannarxini kamaytirishga va korxonaning rejalashtirilgan, ko'zlagan maqsadiga erishishida katta yordam beradi.

I BOB. «IQTISODIYOT VA MOLIYAVIY MENEJMENT» FANNING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI

Reja:

- 1.1. Fanning o'rganish obyekti.
- 1.2. Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan bog'liqligi
- 1.3. Fanning o'rganish usullari
- 1.4. Fanning bozor iqtisodi sharoitiga va islohotlar talabiga xos va mos vazifalari

Tayanch iboralar: Iqtisodiyot, moliyaviy menejmet, fanning obyekti, fanning predmeti, sanoat, umuiqtisodiy fanlar, xususiy iqtisodiy fanlar.

1.1. Fanning o'rganish obyekti

Har qanday fan o'zining o'rganish obyektiga ega bo'ladi. Shunday obyektning bo'lishi u yoki bu fanning dunyoga kelishi, shakllanishi va rivojlanishining muhim shartidir. «Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» fani ham o'z o'rganish obyektiga ega. Uning o'rganish obyekti umuman sanoat, xususan, paxta tozalash sanoati hisoblanadi. Shu bois eng avvalo, ushbu fanning obyekti hisoblangan «Sanoat» haqidagi ta'limot bilan tanishish zaruriyati tug'iladi.

Sanoat – bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Demak, sanoat obyektiv reallik (borliq)ning in'ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida

sohasi bo`lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog`liqdir. Sanoat ham obyektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma`lum davr (vaqt va fazo)da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma`lum miqdor va sifatlarga, zaruriyat va imkoniyatlarga ega bo`lgan hamda ziddiyatlar qurbanini ham bo`lgan.

O`zbekiston sanoati ham o`z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o`tgan. eng avvalo, uy sanoati, so`ngra, hunarmandchilik, ya`ni xonaki sanoat, kooperatsiya, manufaktura, fabrika kabi shakllari yuzaga kelgan. Bu yerda hunarmandchilikning juda ko`p turlari, ya`ni kulolchilik, duradgorchilik, toshtarashlik, binokorlik, o`ymakorlik, kashtado`zlik, ko`nchilik, to`quvchilik va temirchilik va boshqalar keng tarqalgan.

Bu yerda hunarmandchilik («xonaki sanoat») bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqgan. Milodning dastlabki asrlarida hozirgi O`zbekiston hududida anchagina hunarmandchilik markazlari tashkil topgan. XX asr boshlarida esa hunarmandchilikning asosiy qismi artellarga, keyinchaliq zavod va fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga aylantirilgan.

XVIII asrning 60-70-yillarida Angliyada ro`y bergen sanoat to`ntarilishidan keyin O`zbekistonda asta-sekin manufakturadan mashinalashgan industriyaga o`tish boshlandi. Xom ashyoga birlamchi ishlov beradigan sanoat sohalari paxta tozalash, ipak tortish, to`qimachilik vujudga keldi.

XX asrda O`zbekiston sanoatida juda katta o`zgarishlar ro`y berdi. Agar asr boshlarida sanoat mahsulotining eng muhim turlaridan 5-10 xili (paxta tolasi, xom ipak, kimyo mahsulotlari, matbaa mahsulotlari va boshqalar) ishlab chiqarilgan bo`lsa, hozirgi paytda yuzlab-minglab turlari tayyorlanmoqda.

1.2. Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan bog`liqligi

Ishlab chiqarish va bozorni oqilona tashkil etish, ularning samaradorligini, natijaliligini oshirmoq uchun jamiyatning umumiy iqtisodiy qonunlarini bilish, xo`jalik yuritishning ilmiy asoslarini chuqur egallash zarur. Iqtisodiyot sohasida ro`y berayotgan barcha voqeliklardan xabardor bo`lish, ularning mohiyati va ahamiyatini to`g`ri tushunish, iqtisodiy muammolarni oqilona hal etish korxonalar, firmalar, tarmoqlar va komplekslar oldida turgan

vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun iqtisodiy bilimlar bilan qurollanmoq, ularni chuqur egallamoq kerak. Bunday bilimlarni bizga iqtisodiy fanlar tizimi o'rgatadi. Iqtisodiy fanlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi - **Umumiqtisodiy fanlar**, ya'ni iqtisodni yaxlit o'rganuvchi fanlar. Ikkinci - **Xususiy iqtisodiy fanlar**, ya'ni iqtisodning u yoki bu sohasini, yoxud korxona (firma) iqtisodini o'rganuvchi fanlar. Birinchi guruhga eng avvalo «Iqtisodiyot nazariyasi» fani kiradi. Uning o'zi o'z nomi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi va umum iqtisodga nazariy jihatdan yondoshadi, unga xos qonun va qoidalarni o'rganadi.

Iqtisodiyot nazariyasi - insonlarning ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan o'zaro aloqada o'rganuvchi fandir. Bu fan kishilik jamiyatni taraqqiyotining turli bosqichlarida moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilishni boshqarish qonunlarini, shuningdek, ulardan amaliy faoliyatda foydalanish yo'llarini o'rganadi. Lekin iqtisodiy nazariya xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari va tarmoqlararo komplekslarida iqtisodiy qonunlarning namoyon bo'lish, ro'y berish shakllarini va xususiyatlarini o'rganmaydi. Bu bilan konkret, aniq iqtisodiy fanlar shug'ullanadi. Ana shunday fanlardan biri «**Tarmoq iqtisodiyoti**» fani hisoblanadi. Bu fan jamiyatning iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalari sanoat va uning tarmoqlari sohasida namoyon bo'lishini, ro'y berishini, tuzilmaviy o'zgarishlarning «falsafasini», boshqarishning ilmiy asoslarini, rejalarshirish va proqnozlashning metodologiyasi va metodikasini, fan-texnika taraq-qiyotining asosiy yo'naliishlari, sanoat resurslarining mohiyati, ahamiyati va turlari hamda ulardan foydalanishni yaxshilash shart-sharoitlari va sanoatning boshqa qator muammolarini o'rganadi.

«**Tarmoq iqtisodiyoti**» fani bir qator iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'langan. Ular jumlasiga ekonomiks, Iqtisodiyot nazariyasi, Makro va Mikroiqtisodiyot, Statistika, ayniqsa Iqtisodiy statistika, Mehnat iqtisodi, Marketing, Menejment, Buxgalteriya hisobi va audit, Moliya-kredit va Bozor iqtisodiyoti va boshqa bir qator fanlar kiradi.

«**Makroiqtisodiyot**» fani iqtisodni bir butun sifatida qaraydi va umumiy (majmuiy) talab va taklifning, milliy daromad va yalpi milliy mahsulotning shakllanish jarayonlarini tadqiq etadi, hukumat byudjet siyosatining iqtisodiy o'sishiga, inflyatsiya va ishsizlik

darajasiga ta'sirini tahlil etadi. Boshqacha aytganda, bu fan makroiqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish muammolarini o'rganadi va o'rgatadi.

«Mikroiqtisodiyot» fani ishlab chiqarish tarmog'i va korxona, tovar va moliya bozorlari, banklar, turli firmalar, uy xo'jaligi kabi alohida subyektlar va tuzilmalarning fe'l-atvorini tadqiq etadi. U alohida tovarlarning ishlab chiqarish hajmi va ularga baho qanday belgilanishini, soliqlar va boshqa to'lovlarining aholi jamg`armalariga qanday ta'sir etishini o'rganadi.

«Iqtisodiyot va menejment asoslari» fani «Menejment» fani bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki sanoat boshqaruvining muhim muammolari menejment nazariyasi va amaliyoti asosida o'z echimini topishi mumkin.

«Menejment» fani – bu boshqaruvchiga tanlovnı to'g'ri amalga oshirish va ishchan qarorni qabul qilishni o'rgatuvchi fandir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo`g`inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat.

Bu fanning muhim muammolarini o'rganishda xalq xo'jaligida texnika va texnologiya taraqqiyotining yo'llarini belgilab beradigan fanlarning xulosalaridan ham keng foydalanish g`oyat zarurdir.

Shunday qilib «Iqtisodiyot va menejment asoslari» fanining predmeti deganda jamiyatning obyektiv iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalarining shu sohada namoyon bo`lish shakllarini, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish jarayonida jonli va buyumlashgan mehnatning eng muqobil xarajatlari asosida eng yaxshi natijalarga erishishni ta'minlab beradigan shart-sharoitlar va omillarni o'rganish tushuniladi.

1.3. Fanning o'rganish usullari

Ilm-fan metodologiyasi deyilganda, uni bilish va o'rganish faoliyatining shakllari va usullari majmuasi tushuniladi. Shu fan bo'yicha masalani o'rtaga tashlash, tadqiqot mavzusi va ilmiy nazariyani shakllantirish, shuningdek, aniqlangan natijaning haqiqiyligi, ya'ni o'rganilayotgan obyektga muvofiqligi jihatidan tekshirish metodologiyani qo'llashning eng muhim tomoni hisoblanadi. Demak, **metodologiya** – bu tadqiqot yoki bilish,

anglash yo'li, voqelikni amaliy va nazariy o'zlashtirish usullari majmuasidir.

«Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» fanining nazariy, metodologik asosini sanoatning vujudga kelishi va rivojlanish muammolari bo'yicha hozirgi nazariya, o'zbek eli va xorijiy mamlakatlar iqtisodchilarining ilmiy asarlari, O'zbekiston Davlatining qonun-qoidalari, Respublika Prezidentining farmonlari tashkil etadi.

Xalq xo'jaligining etakchi sohasi bo'lgan sanoatda ro'y beradigan barcha hodisa va o'zgarishlarni tadbiq etish anchagina murakkab jarayondir. U jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyatga, ya`ni - haqiqatni bilishning, obyektiv reallikni tan olishning dialektik yo'lidan foydalanishni taqozo etadi. Bunday uslubiy yondashish sanoat, uning tarmoqlari hamda korxonalarida ro'y beradigan hodisalar, voqeliklar va iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini, ularning uzluksiz harakati, taraqqiyot va o'zgarishi, miqdor ko'rsatkichdan sifat ko'rsatkichga o'tishi, vaqt va fazoda rivojlanishini anglab olishga yordam beradi.

Dialektika usuli muammolar o'rganilayotgan omillar, shartsharoitlarning namoyon bo'lishi va yuz berishi, ziddiyatlarga, qarama-qarshiliklarga boy ekanligini inobatga olishni taqozo etadi.

«Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» fani va ilmining barcha muammolarini o'rganishda unga tarixiy yondashish kerak. Ayniqla, gumanitar fanlar masalasida eng ishonarli narsa - bu asosiy tarixiy bog'lanishni unutmasliqidir. Har bir masalaga tarixdagi ma'lum hodisa qanday paydo bo'lganligi, bu hodisa o'z rivojlanishida qanday bosqichlardan o'tganligi nuqtai nazaridan qarab ana shu rivojlanish, taraqqiyot qanday bo'lib ro'y berganligiga e'tibor qaratish zarur.

«Iqtisodiyot va menejment asoslari» fanining eng muhim muammolarini o'rganishda qo'yidagi bir qator aniq usullardan foydalilanildi. Bular jumlasiga mushohada, abstrakt tafakkur, induktsiya va deduktsiya, analiz va sintez, monografik usul, statistik usullar (sifat va miqdor, indeks, guruhlash, balans va u bilan bog'liq bo'lgan normativ usul, ehtimollar nazariyasi), iqtisodiy matematik modellashtirish, muqobillasshtirish, muvozanatni aniqlash, «Aqliy hujum», tajribaviy usullar kiradi.

«Iqtisodiyot va menejment asoslari» fanining barcha masalalarini yuqorida keltirilgan va boshqa bir qator usullar yordamida o'rghanish, tahlil qilish bu fanni o'rGANUVCHILARNING VA UNING MUAMMOLARI YECHIMINI HAL ETUVCHILARNING BILISH VA ILMIY SALOHIYATINI KUCHAYTIRADI, AQLIY ZAKOVATINI BOYITADI.

1.4. Fanning bozor iqtisodiyoti sharoitiga va islohotlar talabiga xos va mos vazifalari

Har qanday fan kabi «Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» fani ham eng avvalo, bilish vazifasini bajaradi. Uning asosiy vazifasi o'quvchini sanoat sohasiga taalluqli iqtisodiy bilim va ko'nikma bilan qurollantirishdan iboratdir.

Bu fan, birinchidan, iqtisodiyotning sanoat sohasidagi sir-asrорларини билиб олишга; иккинчидан, бу тармоқ iqtisodiyotida qo'llaniladigan barcha iqtisodiy tushunchalarni tavsiflashga, ular real iqtisodiy vogelikning ilmiy in'ikosi, ifoda etilishi ekanligini biliб олишга yordam beradi; uchinchidan, ishlab chiqarish san'atini egallash bo'yicha bilim va ko'nikma beradi. Demak, tarmoq iqtisodining nazariy vazifalari bilan uning amaliy vazifalari ham mavjuddir. Shu tufayli har bir iqtisodchi mavjud iqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati va ahamiyatini yaxshi tushunishi, ularni to`g`ri hisoblash va aniqlashni bilishi, ular dinamikasidan tegishli xulosa chiqarishi kerak bo`ladi.

«Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» ham fundamental fanlar qatoridan o'rin olib, iqtisodiy taraqqiyotning muhim qonun-qoidalardan sanoat sohasida foydalanish yo'llarini ko'rsatib beradi.

«Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» fanining muhim vazifalaridan biri – bu metodologik vazifadir. «Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» iqtisodiy fanlar majmuida alohida o'rin egallaydi, chunki barcha iqtisodiy metodologik masalalarning ilmiy va amaliy talqini, eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshiriladi. Bilimning turli tarmoqlari chegarasida tutashgan bir qator fanlar, xususan, mikro va makroiqtisod, marketing va menejment, statistika nazariyasi, buxgalteriya hisobi va audit, moliya va kredit fanlari tarmoq iqtisodi bilan chambarchas bog'liq. Bu fanlar tadqiqot yoki bilish, anglash yo'lini shakllantirish jarayonida «Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» fanining tajribasiga suyanadi va tarixiy nuqtai nazardan yondashadi.

Bu fanning vazifalari Respublikada amalga oshirilayotan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning obyektiv sharoitlari, O`zbekiston Davlati iqtisodiy siyosatining asosiy yo`nalishlari va bu erda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimlari qo`yidagilardan iborat:

- mustaqil va qudratli davlat iqtisodiy siyosatining mohiyati va maqsadini tushungan holda sanoat ishlab chiqarishi hamda uning bo`g`inlarida bu siyosatni amalga oshirishning yo`l-yo`riqlarini to`la anglash;
- sanoat ishlab chiqarishining holati va rivojlanish xususiyatlarini o`rganish, tahlil etish va uning istiqbolini belgilashni fikrash;
- sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish, boshqarish, samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash bo`yicha bilim va ko`nikma berish;
- sanoat resurslari, ishlab chiqarish fondlari va quvvatlaridan bekamu-ko`s, oqilona foydalanish;
- fan-texnika taraqqiyotining iqtisodiy ahamiyati va mohiyatini tahlil etish, sanoat mahsulotlarining sifati va uning raqobatbardoshligini ta`minlash, ishlab chiqarishning foydaliligini kuchaytirish san`atini egallahsga yordam beradigan bilim va ko`nikma berish.

Shu bilan birga bu fanning vazifasi sanoat sohasida tashqi iqtisodiy faoliyat mohiyatini, ahamiyati va mazmuni hamda sanoat ishlab chiqarishi bo`yicha o`zaro hamkorlik va iqtisodiy integratsiyaning rolini tushuntirib berishdan ham iborat.

Nazorat savollari:

1. «Iqtisodiyot va moliyaviy menejment « fani nima uchun o`qitiladi?
2. Bu fanning o`rganish obyekti deganda nimalarni tushunasiz?
3. Ushbu fan yordami bilan qanday qonunlar va qonuniyatlar o`rganiladi?
4. Ushbu kursni o`rganishda qanday usullardan foydalilanadi?
5. «Iqtisodiyot va moliyaviy menejment» fani qanday fanlar bilan chambarchas bog`liq?
6. Jamiyatni demokratlashtirish va ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiga o`tish davrida ushbu fan oldida qanday vazifalar turibdi?

II BOB. SANOAT – MILLIY IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG’I

Reja:

- 2.1. Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o’rni
- 2.2. Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar
- 2.3. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog’ining shakllanishi.
- 2.4. Sanoat tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar

Tayanch iboralar: sanoat, milliy iqtisodiyot, sanoat tarmoqlari, struktura siyosati, ijtimoiy mehnat taqsimoti, korxona tuzilmasi.

2.1. Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o’rni

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik etakchi tarmog’i bo’lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste’mol tovarlarining ko’pchilik qismi yaratiladi. Unda mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o’simlik va hayvon xom ashyosiga ishlov beriladi hamda keng iste’mol mollari tayyorlanadi.

Sanoat xalq xo’jaligining barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta’minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog’liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog’liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo’lsa, davlatning mavqeい shunchalik kuchli bo’ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo’lgan ishchilar sinfini o’zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo’lgan xodimlarning soni ko’payadi, ularning bilim va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko’tariladi.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishning eng oliy turi, kontsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab

chiqarishni uyuşdırıshning ilg`or usullari – ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish, ko`plab ishlab chiqarish va o`zluksiz oqim tizimi yordami bilan tashkil etish sanoat sohasida hukmronlik qiladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnikaning barcha yutuqlarini o`zida tuplab, mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va uning unumdarligini yuqori darajaga ko`tarishi mumkin.

Sanoat va ayniqsa, uning eng muhim sohasi bo`lgan og`ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishninig asosi hisoblanadi. U moddiy texnika vositalarini o`zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtida jamiyat a`zolari o`rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib boradi.

Sanoat qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta`minlash orqali sanoat dehqon xo`jaligini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko`tarishga, shahar bilan qishloq o`rtasidagi muhim tafovutni yo`qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta`minlovchi muhim sohadir. O`zbekiston davlatining mudofaa qibiliyatini yanada mustahkamlashda sanoatning roli muhimdir.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo`jalik jihatdan hamkorligi sanoat sohasida ham o`z ifodasini topadi. Davlatlarning tabiiy, mehnat resurslaridan, ilm-fan va texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishida sanoatning ahamiyati salmoqlidir.

Sanoat uchun uzluksiz fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishining o'sishi xarakterlidir. Unda elektrorashtirish va elektronizatsiyalash, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va ximiyalashtirish sohasidagi ilg`or yutuqlardan keng foydalaniladi va ularning yutuqlarini tinchlik maqsadida qo'llaydi.

Sanoat ayniqsa uning ustuvor sohalari butun ishlab chiqarishni globalallashtirish muammolarini hal etishning kalitidir.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishniing bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo'lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan bir moddiy negizi bo'lishi mumkin. Mamlakat aholisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyosdir.

O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 13 foizi sanoat ishlab chiqarishi hissasiga to'g'ri keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, respublika sanoatining jadal sur'atlar bilan ta'minlanishi yanada yaxshilanib borishi natijasida mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, ya'ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi. Jamiyatning yetakchi, buniyodkor, qudratli kuchi bo'lgan kadrlar (xodimlar)ning asosiy qismi sanoatda xizmat qiladi. Bu tarmoqning yanada ulkan rivoji sanoat kadrlari sonining oshishiga va ularning jamiyatdagi mavqeini ko'tarishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi sanoatining taraqqiyoti yuqori malakali ishchi kadrlar, muxandis va texnik xodimlarni yaratdi. Hozirgi paytda O'zbekiston sanoatida 1,8 millionga yaqin xodim ishlamoqda. Ulardan 482 ming kishi oliy ma'lumotli mutaxassis, 700 mingdan ortig'i o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli xodimlardir.

Taraqqiyot qonunlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy - texnik saviyasi o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasini tinmay oshib borishidir.

Oliy Majlisning qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va sezilarli samara bermoqda.

Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, ularni va qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o'z ichiga qamrab oladi. Sanoat barcha xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini birmuncha orttiradigan, texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdorligini oshirishga imkon beradigan, mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

Hozirgi zamon yirik sanoati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'pgina tarmoqlar va ishlab chiqarishlardan tashkil topadi.

Bugungi kunda respublika sanoatida 175 tarmoq, 1500 ga yaqin yirik va o'rta sanoat korxonalarini mavjud.

O'zbekiston ko'rsatkichlari ijobjiy bo'lishining eng muhim sabablari – bu mavjud sanoat tarmoqlarining kerakli hajmda saqlab qolib, yangi tarmoqlarni yaratish strategiyasi bo'ldi. Mustaqillikning birinchi yillardanoq O'zbekiston hukumati uchun real sektorni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, yengil sanoatlarining rivoji ham qayd etildi.

2.2. Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar

Struktura siyosati haqida mulohaza yuritishdan oldin, strukturaning o'zi nima ekanligini bilib olishimiz zarur.

Struktura lotincha, «structura» so'zidan olingan bo'lib, narsalar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq ravishda joylashish, tuzilishini bildiradi.

Struktura siyosatining mohiyati sohalarning tuzilmaviy jihatlarini belgilab berish, yo'lga solib turishdan iboratdir.

Mustaqillikning o'tgan 27 yilligida va 2017-2021 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy siyosatning yo'nalishi va xususiyatlari doirasida belgilangan milliy iqtisod strukturasida progressiv o'zgarishlarni amalga oshirish, tarmoqlararo va tarmoq ichki proportsiyalarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyotini belgilovchilarni ustuvor rivojlantirishni davom ettirish vazifasi muhim ahamiyatga molikdir.

Davlat strategiyasiga muvofiq ijtimoiy ishlab chiqarish va jumladan, sanoat strukturasini rejali tarzda takomillashtirish ko'z ilg'aydigan istiqbolda:

- xalq xo'jaligi va uning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoatni balanslashtirilgan tarzda va izchil rivojlantirish;
- iqtisodiyotni, xususan, sanoatni asosan intensiv rivojlantirish yo'liga o'tkazish, uning samaradorligini oshirish, moddiy mehnat va moliyaviy resurslarni iste'mol qilishni ratsionallashtirishni, ularni har tomonlama tejash;
- iqtisodiyotning, jumladan, sanoatning ijtimoiy yo'nalishini yanada kuchaytirish, milliy iqtisodning aholi faravonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan xil vazifalar tomon yanada chuqurroq burilishini ta'minlash lozim.

Bir butun qismlarning muayyan o'zaro aloqasi, bir biriga nisbatan joylashuvi bo'lgan strukturaning ahvolini proportsiyalar (mutanosibliklar) juda ham aniq va konkret tarzda ifodalaydi. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini chuqur bilib olish va ularni rejalar, prognozlar va loyihalarda tatbiq etish, ijtimoiy va shaxsiy iste'molni, fan-texnika taraqqiyotining, milliy iqtisodning tegishli ishlab chiqarishlari va tarmoqlari rivoji istiqbollarini sinchkovlik bilan hisobga olish, rejalarни zarur rezervlar bilan mustahkamlash – ana shularning hammasi rejalahtirish texnologiyasining eng muhim tarkibiy, tuzilmaviy qismlari bo'lib, ularga qat'iy rioya qilish vazifalarining proportionalligi, balanslashtirilganligi, realligi, qo'yilgan maqsadlarga erishishdagi ishonchliligi, ta'sirchanligining shartidir.

O'zbekiston davlatining iqtisodiy strategiyasida xalq xo'jaligi strukturasini takomillashtirish, uning tarmoqlarini rivojlantirish yuzasidan muhim topshiriqlar hamda bu tarmoqlarning marralari bat afsil belgilab berilgan.

Takror ishlab chiqarishning hozirgi sharoitlarida iqtisodiy o'sish iqtisodiyot ko'lamining o'sishi bilangina emas, balki iste'molda ham, ishlab chiqarishda ham strukturaviy siljishlar, ularning tezligi va samaradorligi bilan aniqlanadi.

Strukturani aniqlovchi siyosatni shakllantirish iqtisodiyotdagi strukturaviy o'zgarishlarni sifat jihatdan baholashni aniqlashning printsipial xususiyati iqtisodiyotning o'sish sur'ati ko'rsatkichlarining degragratsiya yuz berishi muammosini hal etishi zarurligidir, chunki ayni bir sur'atning o'zi bir necha tarmoqlarning turli o'sish sur'atlarida ifodalanishi mumkin, bu bir xil bo'limgan iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Bu muammo oqibatda u yoki bu sohaga ustuvorlik (afzallik) berish sistemasini yaratishni taqozo etadi. Strukturaviy o'zgarishlarning yo'nalishi, ularning jadalligi va ko'lamenti aniqlash muhim ish. Ayni vaktda iqtisodiy darajasi bir xil bo'lgan yoki iqtisodiyotidagi struktura yo'nalishlari o'zgarishi o'xshash bo'lgan mamlakatlar guruhi bo'yicha tarmoqlararo komplekslar va ayrim tarmoqlar ishlab chiqarishi va iste'molining rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash – bu


barcha analitik materiallar istiqbolni rejalashtirishning muhim zamini hisoblanadi.

Shu bilan birga struktura yo`nalishlari o`zaro muvofiqlashtirilishi kerak, chunki rivojlanish strategiyasiga muvofiq tarmoqlararo komplekslar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg`unlashtirilishi zarur.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasi va keyingi chiqishlarida mamlakatimizning istiqboldagi asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Ularda tabiiyki, yangi asrga qadam qo`ygan mamlakatimizning «iqtisodiyotni isloh etish va jamiyatni o`zgartirish borasidagi ishlar natijasini xolis baholash» bilan birligida «ustuvor yo`nalishlar va bundan keyingi rivojlanish strategiyasini shakllantirish» masalalariga alohida e`tibor qaratilgan.

Yangi asrning dastlabki yillaridagi **taraqqiyot strategiyasi**, **jamiyatni yangilash**, **barcha sohadagi isloxtlarni yanada chuqurlashtirish borasidagi faoliyat** 6 ta ustuvor yo`nalish vositasidan iborat. Birinchi ustuvor yo`nalish - aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish, ikkinchi ustuvor yo`nalish - mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada jadallashtirish, uchinchi ustuvor yo`nalish - jamiyat ma`naviyatini yanada yuksaltirish, to`rtinchi ustuvor yo`nalish - kadrlar tayyorlash, beshinchi ustuvor yo`nalish - iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlarni ta`minlash, oltinchi ustuvor yo`nalish - jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta`minlashdan iborat.

Ana shu ustuvor yo`nalishlardan biri iqtisodiyotda, shujumladan, sanoatda ham tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish bo`lib, sanoat boshqaruvi tuzilmasini yaxshilashdan tortib, korxonalarini yangilash va texnik jihatdan qayta jihozlashga, mamlakatning boy tabiiy va mineral xomashyo salohiyatidan to`la, samarali foydalanishga, eksportga moslangan va import o`rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaradigan quvvatlarni barpo etishga qaratilmog`i darkor.



2.3. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog`ining shakllanishi

Ijtimoiy mehnat taqsimoti ma'lum buyum va mahsulotlari shlab chiqarish hajmining o'sishi va fan-texnika taraqqiyoti natijasidir. Ishlab chiqarish ko'laming kengayishi esa ixtisoslashgan ishlab chiqarishning kontsentratsiyalashuvi va kichiklashuvi, yangi sanoat tarmoqlarining tashkil topishi va ilgari bunyod etilganlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining mohiyati va ahamiyati to`g'risida so`z borganda, shuni aytish kerakki, u tufayli xo`jalik rivojlanishi natijasida sanoatning ayrim va mustaqil tarmoqlari ko`payadi, bu rivojlanish tendentsiyasi har bir ayrim mahsulotni chiqarishnigina emas, hatto mahsulotning har bir ayrim qismini ishlab chiqarishni ham va faqat mahsulot ishlab chiqarishnigina emas, hatto mahsulotni iste'mol qilishga tayyorlashdagi ayrim ishlarni ham sanoatning alohida tarmog`iga aylantirishdan iborat.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti uch shaklda: umumiyl, xususiy va ayrim, birlamchi shaklda ro'y beradi. Xalq xo`jaligining yirik sohalari, ya`ni sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish, transport va aloqaning vujudga kelishi **umumiyl mehnat taqsimotining** mahsulidir. Bu tarmoqlarning har birida sohalarning mustaqil ravishda ajralib chiqishi **xususiy mehnat taqsimoti** natijasidir. **Birlamchi mehnat taqsimoti** esa ishlab chiqarishni korxona ichida - sexlar, uchastkalar va yangi ish joylarni tashkil etish bilan bog'liqdir. Bunday turkumlarga ajratish va uning maxsulini 2.1-sxemadan ko'rish mumkin.

Xususiy va ayrim hollarda birlamchi mehnat taqsimotining ta'siri bilan O'zbekiston sanoatida ham tarmoqlar va ishlab chiqarishlar soni uzluksiz ko`payib bormoqda. U yoki bu ishlab chiqarish faqat ma'lum texnik - iqtisodiy asos (zamin) yaratilgandagina alohida sanoat tarmog`iga aylanishi mumkin. Buning uchun eng avvalo bir necha turdosh korxonalar bo'lishi lozim.

Ular aniq mustaqil sanoat tarmog`iga birlashtirish imkoniyatini beradigan ma'lum belgiga ega bo'lishi kerak.



2.1-sxema. Milliy iqtisodiyotning tarmoqlarga bo'linishi

Sanoat tarmog'i ishlab chiqarish uyushmalari, kombinatlari va korxona (firma)lari yig'indisidir. Tarmoq hosil etish uchun korxonalar bir necha umumiy xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak:

- ishlab chiqariladigan mahsulot iqtisodiy mazmunining bir xilligi;
- ishlatiladigan xomashyo va asosiy materiallarning o'xshashligi;
- ishlab chiqarishning texnik bazasi va texnologik jarayonlarining umumiyligi;
- ma'lum kasbdagi kadrlar tarkibining umumiyligi;
- ijtimoiy mehnatni tashkil etish darajasi va shakllarining bir biriga o'xshashligi va hokazolar.

Sanoat tarmoqlarini guruhashda asosiy e'tibor tayyorlanadigan mahsulotning iqtisodiy mazmuniga qaratiladi. Mahsulotning iqtisodiy jihatdan bir maqsadga javob berishi belgisiga qarab sanoat ikki yirik guruhga bo'linadi: *ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi* («A» guruh), *iste'mol buyumlari ishlab chiqaruvchi* («B» guruh) turlarga bo'linadi.

Ma'lumki, deyarli barcha sanoat tarmoqlarida ham ishlab chiqarish vositalari, hami ste'mol buyumlari sifatida foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlar tayyorlanadi. Shu sababli rejalashtirish va hisob-kitob yuritishda ba'zi bir sanoat tarmoqlari «A» yoki «B» guruhga kiritilishi mumkin.

Mehnat vositalarning mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatishiga qarab sanoat *qazib oluvchi* va *ishlov beruvchi tarmoqlarga* bo'linadi. Sanoatning bunday ikki qismga bo'linishi ishlab chiqarish aloqalarini ko'rsatishga, material va yoqilg'i-energetika resurslarini, ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni asoslab berishga imkon yaratib beradi.

Hozirgi paytda Statistika davlat qo'mitasi tasnifsiga ko'ra, barcha sanoat tarmoqlari 18 kompleks tarmoqqa birlashtirilgan (2.1-jadval).

2.1-jadval

O'zbekiston sanoatining kompleks tarmoqlari

No	Kompleks tarmoqlari	Kompleks tarmoqqa kiruvchi tarmoqlar soni
1.	Elektroenergetika sanoati	3
2.	Ko`mir sanoati	2
3.	Gaz sanoati	2
4.	Neft va neftni qayta ishlash	2
5.	Qora metallurgiya	2
6.	Rangli metallurgiya	4
7.	Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	40
8.	Kimyo va neft-kimyo sanoati	12
9.	O'rmonsozlik, yog'ochni qayta ishlash va qog'oz sanoati	3
10.	Qurilish materiallari sanoati	14
11.	Oyna va chinni-fayans sanoati	2
12.	Mikrobiologiya sanoati	12
13.	Meditrina (farmatsevtika) sanoati	3
14.	Poligrafiya	1
15.	Yengil sanoat	18
16.	Oziq-ovqat sanoati	22
17.	Un, yorma va yem sanoati	3
18.	Qolgan tarmoqlar	21

2.4. Sanoat tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar

Tarmoq tuzilmasi deyilganda, uning tarkibi, tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlar va o'zaro bog'liqlik tushuniladi. Tarmoq tuzilmasi sanoat taraqqiyoti darajasini belgilaydi hamda unda yuz bergen va yuz beradigan o'zgarishlarni aks ettiradi.

Tarmoq tuzilmasiga binoan quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin bo'ladi:

- ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyaning darajasini;
- mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil ekanligini;
- sanoat va butun xalq xo'jaligining ilmiy-texnika salohiyatini;
- mamlakat va uning viloyatlari sanoatining rivojlanish darajasini;
- sanoat tarmoq'ining «A» guruhi bilan «B» guruhi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqadorligini;
- ijtimoiy mehnat unumidorligi yoki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining darajasini;
- mehnatkashlarning moddiy faravonligi va madaniy darajasi o'sganligini.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini tavsiflash uchun ayrim tarmoqlar o'rtasidagi ma'lum ishlab chiqarish aloqadorligini ifodalovchi miqdoriy nisbatlarni aniqlab olish kerak. Bu muammoni hal etish uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan biri tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni ifodalasa, ikkinchisi ma'lum davr ichidagi tuzilmaviy o'zgarishlarni, uchinchisi esa ishlab chiqarish aloqalarini ifodalaydi.

Tarmoq tuzilmasini ifodalovchi ko'rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- mustaqil sanoat tarmoqlarining soni;
- tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi salmog'i;
- tarmoq rivojining sur'ati;
- tarmoqning ilgarilab ketish koeffitsienti.

Mustaqil sanoat tarmoqlarining soni mamlakat industrial taraqqiyoti, uning iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyati, iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ifodalaydi.

Tarmoqning yalpi mahsulot sanoat ishlab chiqarishi umumiyligi hajmidagi ulushi, ishchilar soni va asosiy fondlar qiyamatidagi salmog'i ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi.

Tarmoqning rivojlanish sur'atini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$S = \frac{100 \times P}{X};$$

bu yerda: S – tarmoqning rivojlanish sur'ati;

P – tarmoq rivojlanishining rejali darajasi;

X – tarmoq rivojining hisobot davridagi darajasi.

Tarmoqning rivojlanish koeffitsienti tarmoqlar tarkibidagi miqdor o'zgarishlarni ifodalaydi va ma'lum davrdagi sanoat tarmoq

tuzilmasidagi siljishlarni ko'rsatib beradi. Bu koeffitsient quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K = \frac{T_r \cdot s}{S_r \cdot s};$$

bu yerda: $T_r \cdot s$ – tarmoqning rivojlanish sur'ati;

$S_r \cdot s$ – sanoatning rivojlanish sur'ati.

Sanoat tarmoqlari orasidagi yuzaga kelgan mutanosibliklar va ularning o'zgarishiga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi hamda boshqa bir qator omillar ta'sir etadi.

Sanoat ishlab chiqarish tarmoq tuzilmasini belgilovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish;
- material va yoqilg'i, energetika resurslarini iqtisodiy tejashni kuchaytirish;
- ijtimoiy mehnat taqsimoti, ixtisoslashtirish va kooperativlashtirishning darajasi;
- sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari;
- aholining moddiy va madaniy darajasi o'sishi;
- ijtimoiy-tarixiy sharoitlar;
- mamlakatning tabiiy resurslari va ularni o'zlashtirish darajasi;
- mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni va uning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligi.

Sanoat tuzilmasining o'zgarishiga ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari – kontsentratsiyalash, ixtisoslashtirish va kombinatlashtirish juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishda kichik korxonalarining ko'payishi tarmoq taraqqiyotini tezlashtirgani holda uning umumsanoat mahsulotidagi miqyosini oshirishga olib keladi. Ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonini ifodalagani holda ayrim mahsulotlar yoki mahsulot qismlarini mustaqil ishlab chiqarishga, tayyorlashga, yangi sanoat tarmoqlari tashkil qilinishiga sabab bo'ladi.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan yana biri, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat sohalarining shakllanishi.
2. Davlatning iqtisodiyot, jumladan, sanoat sohasidagi tarkibiy o'zgarishlarga tegishli siyosati.
3. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash deganda nimalar tushuniladi?
4. Tarmoq va tarmoq tuzilmasining tushunchasi.
5. Tarmoqlarning iqtisodiy guruhlanishi.

III BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIY SAMARADORLIGI

Reja:

- 3.1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati va mezoni.
- 3.2. Iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi ko`rsatkichlar.
- 3.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari va yo'llari.

Tayanch iboralar: Iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish samaradorligi, nisbiy samaradorlik, fan-texnika taraqqiyoti, mahsulot tannarxi,

3.1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati va mezoni.

Bozor iqtisodiyotining o'tish sharoitida har bir qilingan ishning, yangi qurilishning, jalg etilgan investitsion mablag'larning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'i hisoblangan sanoatda joriy etiladigan har bir tadbirning iqtisodiy samaradorlik darajasini to'g'ri va mufassal aniqlash ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini ilmiy asosda rejalahtirishni maqsadga muvofiq tashkil etishning, xo'jalik ishlari sifatini sanoatning har bir tarmog'ida hamda alohida korxonada boshqarishni ob'yektiv baholashning muhim omilidir. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash zaruriyatini bozor holatini baholash, loyihalarni baholash, narx va mahsulot hajmini aniqlash va kelgusi ishlarni amalga oshirishni bashoratlashda doimo sezib turamiz. Bu esa sanoatda ijtimoiy mehnat xarajatining samaradorligini aniqlash uslubiyati va uslubi oldiga katta talablar qo'yadi. Ma'lumki, mahsulot ishlab chiqarilishida ijtimoiy mehnat sarflanishi talab etiladi. Lekin, bir xil mahsulotni ishlab chiqarish uchun har xil miqdorda ijtimoiy mehnat surf qilinishi mumkin. Shuni ham nazarda tutish kerakki, fan-texnika taraqqiyoti hamda mahsulotishlab chiqarish texnologiyasi va sharoitlari to'xtovsiz o'zgarishi natijasida mahsulotning har bir birligi uchun kerak bo'lgan buyumlashgan mehnat xarajati kamayib boradi.

Sanoat mahsulotini qaysi usul va vositalar bilan ishlab chiqarishmasalasini xal etish ko`p jihatdan sanoat ayrim tarmoqlarida ishlab chiqarish fondlarini barpo qilishga, texnik qurollantirishga va ishlab chiqarishni tashkil etishga sarf qilinadigan kapital mablag`lar miqdoriga bog`liq. Biroq ishlab chiqarish fondlarini barpo qilish va ularni kenggaytirilgan takror ishlab chiqarishga, texnik qayta qurollantirishga yo`naltiradigan kapital mablag`larning hajmi har bir davr uchun yalpi milliy dromad miqdori hamda uning iste`mol qilinadigan va jamg`ariladigan qismlarga taqsimlash xarakteri bilan belgilanadi. Shu sababdan ham bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning sanoat mollariga bo`lgan ehtiyojlarini to`la qondira borish uchun kapital mablag`larni eng ko`p samara beradigan qilib sarflamoq lozim. Xulosa qilib aytganda, agarda kapital mablag`larning hajmi miliy daromadning va uning jamg`ariladigan qismini hajmiga bog`liq bo`lsa, milliy daromadning o'sishi, binobarin, halq moddiy- ma`naviy farovonligining yana yaxshilanishi bu kapital mablag`lardan va ular orqali bunyod etilgan asosiy kapitallardan samarali foydalanishga bevosita bog`liqdir.

Ishlab chiqarish ayrim sohalarini rivojlantirish masalasi mahsulot birligiga sarf qilinadigan xarajat miqdori va mahsulot ishlab chiqarish muddatlari bo`yicha bir biridan farqlanuvchi bir nechta yo`llar bilan hal etilishi mumkin. Chunonchi, xalq xo`jaligining mahsulot u yoki bu turiga bo`lgan ehtiyojini quyidagicha ta`min etish mumkin: a) bir xildagi yoki biri ikkinchisining o`rnini bosa oladigan mahsulot turlarini ishlab chiqarish; b) yangi korxonalar qurish yoki ishlab turganlarini kengaytirish va rekonstruktsiyalash; v) mamlakatning boshqa-boshqa iqtisodiy hududlarida turli katta-kichiklikda ixtisoslashuv darajasi har xil bo`lgan korxonalar barpo qilish; g) yangi texnika, texnologiyaning turli xil vositalarini qo`llash, xom ashyo turlarini va ishlab chiqarishni tashkil etish shakllarining maqsadga muvofiqlarini tanlab olish va shunga o`xshashlar. Sarflangan xarajatlar jamiyat ehtiyojlarini xar tomonlama qondirishga imkon beradigan bo`lgandagina u samarali hisoblanadi. Bunday xarajatlar mehnat sarfining har bir birligiga eng qisqa muddat ichida mahsulot ishlab chiqarishning maksimal o'sishini ta`minlaydi. Iqtisodiy samaradorlik pirovardida ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishida namoyon bo`ladi. Demak, ijtimoiy mehnat

unumdorligining darjasи butun ishlab chiqarish samaradorligining asosiy mezonidir.

Ishlab chiqarish samaradorligining mezoni bo'lgan ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish mablag'larni turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar o'rtasida iqtisodiy jihatdan asoslangan holda taqsimlashga, mablag'larni tejamli sarflash variantlarini to'g'ri tanlab olishga bog'liqdir. Ijtimoiy xarajatlarning iqtisodiy samaradorlik darjasи hoh uning ayrim tarmoqlarida bo'lsin, hoh butun ishlab chiqarish miqyosida bo'lsin, sanoat mahsulotining u yoki bu turini ishlab chiqarishning eng foydali variantini tanlab olishga bog'liqdir. Sanoatni va uning ayrim tarmoqlarini bozor iqtisodi sharoitida muvaffaqiyat bilan rivojlantirishda asosiy fondlarni ko'paytirish uchun, texnika bilan qurollantirish uchun va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish uchun sarf qilinadigan xarajatlarning iqtisodiy samarasini to'g'ri va aniq usullar bilan topish nihoyatda muhimdir. Iqstisodiy samaradorlikka xalq xo'jaligi va uning yetakchi tarmoqlarini bozor har tomonlama o'rghanish orqali perspektiv rejalashtirish, loyihalashtirilayotgan qurilish ob'yektlarini va yangi texnikani eng progressiv va tejamli variantlarini va boshqa qator tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan erishiladi.

Ammo ijtimoiy mehnat sarfining mutloq (absolyut) va nisbiy (qiyyosiy) iqtisodiy samaradorligini oshirish zarur.

Mutloq samaradorlik har doim olinadigan natijani uni olish uchun zarur bo'lgan harakatlarga nisbatini ifodalaydi.

Nisbiy samaradorlik bir variantning ikkinchi variantga nisbatan iqtisodiy afzalligini va foydalilik darajasini ifodalaydi. Turli xil xo'jalik va texnikaviy vazifalarni hal etishning variantlari quyidagilardan iborat:

- yangi korxonani qurish yoki ishlab turganini kengaytirish va qayta jihozlash;
- bir-birining o'rnini bosa oladigan xom ashyolardan foydalanish va mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- eski texnika o'rniga, yangi takomillashgan, unumdor va sifatlilarini kiritish;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va korxonalar birligini tanlash;
- quriladigan korxonalar joyini tanlash;

- ishlab chiqarish quvvatini oshirish yo'llari va ishlab chiqarishni tashkil etish usullarini tanlash;

Mutloq va nisbiy samaradorlikni hisoblash ishlari bir-birini to'ldiradi va birgalikda mo'ljallangan kapital qo'yilmalarning samaradorligini ta'minlaydi.

Eng foydali variantlarni tanlash ishlab chiqarishning mutloq samaradorligi ko'rsatkichlarini taqqoslashga asoslanadi.

Mutloq samaradorlik – foyda, daromad, tejam olish maqsadida reja topshiriqlarini ishlab chiqarishda aniqlanadi. Bunda sarflangan xarajat va resurslardan olinadigan haqiqiy samarani olish ko'rildi.

Nisbiy samaradorlik – variantlarning birortasining afzalligini, foydalilagini texnik – iqtisodiy jihatdan asosash uchun hisoblab chiqiladi. Bunda natija sifatida mahsulot tannarxini kamayishi o'rganiladi. Yangi texnika va boshqa tadbirlar uchun sarflangan kapital mablag'lari samaradorligini ta'minlash mahsulot tannarxini kamaytirish hisobiga erishladi.

Nisbiy samaradorlikni aniqlash usuli bir xil hajmdagi mahsulot tannarxining kamayishiga asoslanadi.

Mutloq samaradorlik esa mahsulotning xili va hajmidan qat'iy nazar milliy daromad yoki foydaning miqdoriga asoslanadi.

Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxona faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingen natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Afsuski, bozor sharoitlarida «samaradorlik» tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasada, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilmoqda. Samarali ishslash degani o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

«Samara», «samaradorlik», «ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik» kabi tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur.

Samara – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxona faoliyatining ijobjiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U «samara» toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

Samaradorlik chora sifatida ko`plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo`jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o`zining xo`jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma`noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo`jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar(ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo`lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jiemoniy mehnat o`rtasidagi farqni yo`qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o`zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko`rishining uzayishida aks ettiriladi.

3.2. Iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi ko`rsatkichlar.

O`zbekistondagi sanoat korxonalari va butun xalq xo`jaligining ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi bir qancha iqtisodiy ko`rsatkichlarni tahlil qilish asosida aniqlashi mumkin. Ulardan eng muhimplari – quvvat yoki mahsulot birligiga to`g`ri keladigan kapital qo`yilmasi miqdori; mahsulot tannarxi; qo`shimcha kapital xarajatlarini qoplanish muddati; mehnat unumdarligi; foyda, daromad; mahsulot hajmining ko`payishi, sifatining yaxshilanishi, xom-ashyo va materiallarning birligidan olinadigan mahsulot hajmining ko`payishi yoki bir birlik mahsulot ishlab chiqarishda ularning xarajat miqdori va bu miqdorni belgilangan me`yor, reja darajasiga nisbatan kamayishi; fond qaytimi; fond rentabelligi; dastgohlar ish unumi; ish vaqt va korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darjasи va boshqalar. Shuning uchun barcha ishlab chiqarish samaradorligi ko`rsatkichlari 6 turga ajratilgan:

- 1) umumiy ko`rsatkichlar;
- 2) mehnat resurslaridan foydalanish ko`rsatkichlari;
- 3) asosiy ishlab chiqarish fondlari;
- 4) aylanma mablag`lari;
- 5) kapital qo`yilmalardan foydalanish ko`rsatkichlari;
- 6) tashqi iqtisodiy aloqalarning samaradorlik ko`rsatkichlari.

Variantlarning absolyut (mutlaq) va nisbiy (qiyosiy) iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari iqtisodiy samaradolikni, ya`ni ijtimoiy mehnat unumdarliginint oshishi mezonini to`g`ri aks ettirishi kerak. Ammo, bu talabga alohida olingan ko`rsatkichlardan hech biri to`liq javob bermaydi.

Turli vaqtdagi kapital mablag`larni va joriy xarajatlarni quyidagi holda keltiriladi:

- a) qurilish muddatlari har xil bo`lganda;
- b) kapital mablag`lar qurilish davri ichida bir xilda taqsim etilganda;
- c) qurilishni navbat bilan olib borishga imkoniyat bo`lganda;
- d) ishlatish jarayonida joriy xarajatlar xar xil dinamikaga ega bo`lganda.

Ma`lum bir obyektni qurish uchun ketadigan xarajatlarning samaradorligini aniqlashda, odatda o`zaro bog`liq bo`lgan

tarmoqlardagi yoki ishlab chiqarishdagi kapital xarajatlar va mahsulotning tannarxi hisobga olinadi. Agar muayyan tadbirni amalga oshirish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan tarmoqlarda kapital xarajatlar va erishilgan iqtisod nazarda tutilsa, samaradorlik miqdori to'g'ri aniqlangan bo'ladi. Masalan, issiqlik elektr stantsiyasini qurish yoqilg'i sanoatining rivojlanishi uchun va transportni ko`paytirish, yo'llar qurish uchun ajratiladigan kapital mablag'larning o'sishiga olib keladi.

Odatda, kapital xarajatlar muayyan tarmoq yoki obyekt uchun kerak bo'lgan aylanma fondlar elementlarini (xom-ashyo, yoqilg'i, muhim yordamchi materiallar) ishlab chiqaruvchi o'zaro bog'liq bo'lgan tarmoqlar to'plami uchun hisoblanadi. Shu tarmoq yoki obyekt uchun kerak bo'lgan asosiy fondlar elementlarini ishlab chiqaruvchi o'zaro bog'liq tarmoq guruhlari uchun esa bunday kapital xarajatlar hisobga olinmaydi. Chunki, asosiy fondlarning elementlari ishlab chiqarish jarayonida doimo iste'mol etiladi va muayyan obyektning normal ishlab turishi uchun ularning yonmav-yon turgan tarmoqlarida uzluksiz ravishda ishlab chiqarib turishi kifoya. Sababi, asosiy fondlar muayyan obyektda uzoq vaqt ichida bir marta iste'mol qilinadi. Kapital mablag'lar samaradorligini hisoblash jarayonida o'zaro bog'liq bo'lgan tarmoqlarni nazarda tutish darajasiga kelganda zamonaviy EHMLar bunday vazifani muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini beradi. Lekin amalda bunday hisoblashga hojat yo'q. Chunki, har bir navbatdagi bog'lanish pog'onasida bevosita xarajatlarga qo'shiladigan tutash mablag'lar miqdori kamayib boradi va uchinchi tutashgan tarmoqlar doirasidan boshlab bevosita xarajatlarning o'sishi juda xam pasayib ketadi. Tutash xarajatlar har bir tutashish doirasida oldingi xarajatlarning 25 foizini tashkil qilsin deb, faraz qilaylik Bunda bog'lanishning birinchi doirasi bevosita xarajatlarni 25 foizga ko`paytiradi, ikkinchisi 6,75, uchinchisi 1,86 foizga va shunga o'xshash.

Kapital mablag'larni hisoblashda bog'lanish koeffitsienti deb, umumiyligi bog'lanish xarajatlarining asosiy ishlab chiqarishni tashkil etish uchun ketgan bevosita xarajatlarga nisbatan tushunish kerak. Bu koeffitsient umumiy xarajatlarning asosiy xarajatlardan necha

marta ko'pligini ko'rsatadi. Shuning uchun xarajatlarning samaradorligini ifodalashda qo'llash nihoyatda zarur.

Tutashgan kapital xarajatlar ko'pincha bevosita ketgan kapital mablag'lar hajmiga nisbatan bir necha marta ko'p bo'ladi. Masalan, bu koeffitsient qora metallurgiyada 2,5 ga, avtomobil' sanoatida – 4, alyuminiy ishlab chiqarishda 3,7 ga teng.

Masalan, tannarx faqat korxonaning mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarinigina aks ettiradi. Bunda qo'shimcha mahsulot nazarda tutilmaydi. Mehnat unumidorligi ko'rsatkichida esa, buyumlashgan mehnat sarfi aks etmaydi. Kapital mablag'larning solishtirma birligi xarajatini ifodalovchi ko'rsatkichlar esa korxonada sarflangan xarajatlarni o'zida mujassamlashtirmaydi va shuning uchun iqtisodiy samaradorlikni to'la ifodalab bermaydi. Rentabellik ko'rsatkichi esa ishlab chiqarish, taqsimot va muomala sharoitlarini nazarda tutgan holda aniqlanadi, shuning uchun bu ko'rsatkich haqiqiy iqtisodiy samaradorlikni noto'g'ri ifodalanishi mumkin.

Asosiy ko'rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

kapital mablag'larning solishtirma birligi; mahsulot tannarxi, mehnat unumidorligi, qo'shimcha kapial mablag'larning qoplanish muddati yoki samaradorlik koeffitsienti.

1. Kapital mablag'larning solishtirma birligi deb, ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirish uchun yoki tayyor mahsulotlarning natural yoki qiymat ifodada o'sishi uchun ketgan kapital mablag' miqdoriga aytildi. Bu ko'rsatkichni qo'llanish uchun yangi texnika va texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil etishda eng yangi, progressiv usullarni joriy etish va boshqa omillarni ko'zda tutgan holda har bir sanoat tarmog'i uchun kapital mablag'ning solishtirma birligi hisoblab chiqiladi.

2. Mahsulot tannarxi iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Variantlarni taqqoslanayotganda shunday tannarx ko'rsatkichi olinishi kerakki, uning tarkibiga ishlab chiqarilayotgan mahsulotni iste'mol qiluvchiga tashib berish uchun ketadigan xarajatlar ham kirgan bo'lsin.

3. Mehnat unumidorligi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ishchilar soniga emas, balki korxona yoki tarmoqparda bevosita

ishlab chiqarish bilan band bo'lgan ishlovchilar soniga bo'linib topiladi. Iqtisodiy samaradorlikni kunlik yoki oylik mehnat unumdarlikni emas, balki bir soatda erishilgan mehnat unumdarligi aniqroq ifodalaydi.

4. O'shimcha kapital mablag`lar samaradorlik koeffitsienti taqqoslanayotgan variantlar mahsulot tannarxlari ayirmasidan olingan miqdorni bu variantlarni joriy etishga kerak bo'lgan kapital mablag`lar ayirmasidan kelib chiqqan miqdorga nisbati bilan topiladi. Bu ko`rsatkich qo'shimcha kapital mablag`larning xar bir so`miga mahsulot tannarxining kamayishi natijasida olinadigan iqtisodiy samarani ifodalaydi.

5. Ooplanish muddati yoki qo'shimcha kapital mablag`larning samaradorlik koeffitsienti ushbu formulalar bilan topiladi.

$$T = \frac{K_1 - K_2}{S_1 - S_2} \quad E = \frac{S_1 - S_2}{K_1 - K_2}$$

bu yerda: S_1, S_2 – eski va yangi texnika yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotni tannarxi, so'm;

K_1, K_2 – eski va yangi mehnat vositalarining kapital xarajatlari, so'm;

T – qoplanish muddati (yil)

E – samaradorlik koeffitsienti.

Har bir variant bo'yicha keltirilgan xarajatlar deb, mahsulot tannarxi va kapital mablag`larning yig`indisini shu sanoat tarmogi uchun belgilangan samaradorlik koeffitsientiga ko`paytirgan holda bir xil natijaga keltirishga aytildi. Bir necha variantlardan eng yaxshisini tanlab olish uchun quyidagi keltirilgan xarajatlar formulasidan foydalanish kerak.

$$S + E_N \cdot K \leq min \quad \text{yoki} \quad K + T_P \cdot S \leq min$$

bu yerda: K – har bir variant bo'yicha sarflanadigan kapital mablag`lar.

S – muayyan variant bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi;

T_P – kapital mablag`larning normativ qoplanish muddati;

E_N – capital mablag`larning samaradorlik normativ koeffitsienti.

3.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari va yo'llari.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo'jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida samaradorlikning, ijobjiy natijalarning mavjud bo'lmasligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo'qotish bilan izohlash mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo'llar bilan foydalanish mumkin:

- * ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda kompleks ravishdagi mexanizatsiyalashtirish;
- * asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;
- * progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;
- * xom ashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;
- * ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;
- * ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amrimahol. Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina hohish va istaklarning o'ziga yetarli emas. Buning uchun *birinchidan*, fan-texnika taraqqiyotining ayni paytda zarur bo'lgan yo'nalishlarini izlash va aniqlash, *ikkinchidan*, pul mablag'larini va boshqa zarur bo'lgan resurslar (investitsiyalar) izlab topish, *uchinchidan*, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlamalarga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari, konstrukturlik, texnologik va boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalarni «*bog'lash*», *to'rtinchidan*, o'z ilmiy-texnikaviy maqsadlarining samaralilagini hisoblab chiqish talab qilinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti so`nggi paytlargacha evolyutsion ravishda rivojlanib kelmoqda edi. Asosiy e'tibor amaldagi texnologiyalarni takomillashtirish, mashina va uskunalarni qisman zamонавиylashtirishga qaratilgan edi. Bunday chora-tadbirlar ma'lum bir cheklangan natijalarga olib kelardi.

Yangi texnikalarni ishlab chiqish va amaliyatga kiritishdan manfaatdorlik talab darajasida emasdi. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning xorijiy progressiv texnologiyalari «ekspluatorlik belgisi» sifatida, ishlab chiqarishni avtomatashtirish va mexanizatsiyalashtirish esa ishsizlikning asosi sifatida qabul qilinar edi. Xorij tajribalariga kapitalistik tajriba deb qaralardi hamda bu tajribalarning keng tarqalishiga yo'l qo'yilmas edi.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitlarda, chuqur sifat o'zgarishlari, tamoyillari yangi texnologiyalar va so`nggi avlod texnikasiga o'tish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida qayta qurollantirish zarur. Shu bilan bir qatorda olimlar, konstrukturlar, muhandis va ishchilarning ijodiy ruhda mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy manfaatdorlikni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yaponiya korxona va firmalarida ijodiy guruhi, sifat guruhlari tashkil qilingan, ya`ni fan-texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo`lmish universitetlar, ilmiy markaz va laborotoriyalar bilan aloqalar rivojlantirilmoqda. Yaponianing bugungi kunda robotlar hamda zamонавиy texnika va texnologiyalarning boshqa turlarini yaratishda birinchi o'rnlarda turishi ham bejiz emas.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida *mavjud ishlab chiqarish salohiyati* - asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko`rsatish mumkin. Bundan tashqari ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya`ni korxonaning bugungi egalaridan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Bozor sharoitlarida ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanish zaruriyati haqida qayta ta`kidlashga ehtiyoj yo`q: birinchidan, bozor «vakuumni», harakatsizlikni, xo`jasizlikni va yo`qotishlarni kechirmaydi, ikkinchidan, o`z imkoniyatlari va resurslaridan yetarlicha foydalanmaydigan korxona istiqbolga ega

bo`lmaydi hamda bankrotga uchrashga asos yaratadi. Shu sababli barcha turdag'i resurslardan samarali foydalanish va ayniqsa ishlab chiqarishning barcha bo`g`inlarida tejamkorlikka rioya qilish har bir korxona faoliyatining muvaffaqiyat qozonishining garovi hisoblanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda *tashkiliy-iqtisodiy omillar*, jumladan, boshqaruв ham muhim o`ringa ega. Ularning ahmiyati ishlab chiqarish miqyosining o`sishi va xo`jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o`rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish – kontsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag`batlantirishning usul va shakllarini, ya`ni korxona faoliyatining butun xo`jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxona rahbarining ish stili va usullari fan-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos kelishi zarur. Masalan, korxona direktori bilimi, tajribasi va professional malakasiga ko`ra, oddiy xodimlar va bo`linma (xizmat) rahbarlaridan yuqori turishi lozim. Aks holda u jamoani kerakli tarzda boshqara olishi hamda muvaffaqiyatga erishishi va imidjga ega bo`lishi qiyin.

Rejalahtirishda rejalarining balanslashtirilishi, ko`rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalahtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta`minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o`z navbatida korxonadagi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni, rejalahtirish va iqtisodiy hisob-kitoblarni hamda zamonaviy kompyuter texnikasi va uning reja iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirishdagi imkoniyatlarini yaxshi biluvchi, savodli va malakali iqtisodchilarni tanlashni talab qiladi.

Korxona faoliyatining samarali bo`lishida *ishlab chiqarishni intensivlashtirish*, ishlab chiqarilayotgan *mahsulotlarning turi va sifatini oshirish* hamda jahon standartlari darajasiga yetkazish, *korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash* kabi omillar ham

muhim o`rinni egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashina va asbob- uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg`or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

Albatta, yuqorida keltirib o`tilgan omillarni amalga oshirish ma`lum bir resurslar va vaqt sarflashni talab qiladi. Biroq bu muammolarning mohiyati va ahamiyatini o`zgartirmaydi. Amaliyat shuni ko`rsatadiki, zamon bilan hamnafas holda harakat qiluvchi, barcha faoliyat turlarida tejamkorlikka rioya etuvchi, o`z salohiyatidan unumliroq foydalanuvchi, zamonaviy fan va texnika yutuqlariga tayanuvchi korxona o`zining bugungi kundagi muvaffaqiyatlaridan tashqari, kelajakda ham muvaffaqiyatlarga erishishini, jumladan, bozordagi o`z o`rni va raqobatchilik muhitida qulay ahvolda bo`lishini ta`minlaydi.

Nazorat savollari:

1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati nimada va u korxona umumiy faoliyati samaradorligidan qanday farq qiladi?
2. Samaradorlikning qanday turlarini bilasiz? Samaraning samaradorlikdan farqi nimada?
3. Korxona ishlab chiqarish faoliyati samaradorligining muhim ko`rsatkichlari mazmunini ochib bering. Bu ko`rsatkichlarni hisoblash usuli qanday?
4. Sizning fikringizcha, qaysi ko`rsatkich korxona faoliyati samaradorligini ko`proq aks etitradи?
5. Korxona faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo`llari va omillarini sanab bering.
6. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy o`rin kimga tegishli: insonlargami, resurslargami yoki fan-texnika taraqqiyotigami?

IV BOB. SANOATDA FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI

Reja:

- 4.1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati
- 4.2. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo`nalishlari
- 4.3. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash

Tayanch iboralar: samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, fan-texnika, mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, innovatsiya, nou-xau, tender, innovatsiya, venchur.

4.1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati

Hozirgi davrning eng muhim o`ziga xos xususiyatlaridan biri – bu milliy iqtisodiyotning barcha sohalarda chuqur keskin o`zgarishlar hosil qilayotgan fan va texnikaning shiddatli rivojidir.

Fan-texnika taraqqiyoti – bu juda murakkab va ko`p qirrali jarayondir. U ijtimoiy va shaxsiy hayotning hamma tomonlarini o`z ichiga oladi. Shu sababli ham fan-texnika taraqqiyoti harakatdagi jarayon hisoblanadi.

Texnika taraqqiyotining asosini fan, ilmiy bilimlar tashkil etadi. Yuqorida aytilganlardan shunday savol tug`ilishi mumkin: fan nima?

Fan – bu inson faoliyatining ma`lum sohasi. U shunday sohaki, voqeа- hodisalar haqidagi bilimlar yaratiladi va ular nazariy nuqtai nazardan bir yo`lga solinadi. Fan ijtimoiy fikrlash va bilishning shakllaridan biridir.

Fan yoki ilm – bu o`qish, o`rganish va hayotiy tajriba asosida fikrlanadigan bilim va malakalar majmuasidir. Uning asosiy vazifasi avvalo voqeа va hodisalarni, shu jumladan, texnik va texnologik hodisalarni tasvirlash, keyin tushuntirish, oldindan aytib berish, bashorat qilishdan iboratdir.

Endi texnika va texnologiya nima degan savolga javob topish kerak.

Texnika – bu eng tor ma`noda mehnat quroli, mehnat vositasi. Keng ma`noda esa u ishlab chiqarish vositalari, texnologiya usullarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarining yiginsidir. U ishlab chiqarish kuchlarining eng faol elementi hisoblanadi.

Texnologiya (yunoncha «techue» – san`at, mahorat, uddalash va ...logiya) – ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulot olish uchun ishlataladigan xom ashyo, material yoki yarim fabrikatlarning holati, xossasi va shakllarini o`zgartirish, ularga ishlov berish, tayyorlash usullari majmuidir.

Fan-texnika taraqqiyoti juda murakkab jarayon bo`lib, ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini o`z ichiga qamrab oladi.

Fan va texnikani bir biridan faqat shartli ajratib ko`rish mumkin. Aslida esa ular yonma-yon turadi. Shu sababli «Fan-texnika» atamasi ko`p ishlataladi.

Fan-texnika taraqqiyotining asosini ilmiy bilimlar tashkil etadi. Ilm va bilim asosida yangi texnika va texnologiya yaratiladi, eskilari esa takomillashadi.

Fan-texnika taraqqiyoti – bu mehnat vositalarini, ishlab chiqarishning eng yangi xom-ashyosi va materiallarini, yoqilg`i va energiyaning, texnologik jarayonning, boshqarishning, mehnatni texnik jihatdan qurollantirish va yuqoridagilarning hammasini yangidan yaratishni o`z ichiga oladi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo`lgan ishlovchilarining umumiy ma`lumotini, mahoratini uzlusiz sistematik rivojlantirish va takomillashtirish ham fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati bilan chambarchas bog`liqdir.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohozalar umumjamiyat miqyosida, xalq xo`jaligi, uning tarmoqlari, korxona (firma)larda va tashkilotlar miqyosida ham hisobga olinishi mumkin.

Fan-texnika taraqqiyotining vazifasi quyidagilardan iborat:

- tejamkorlikni amalga oshirish (vaqtini, xom ashyo va materiallarni, yoqilg`i, elektr energiyasi va h.k. larni tejash);
- ishlab chiqarish jarayonlarini osonlashtirish, mehnatni engillashtirish;
- mehnatning mazmuni va xarakterini o`zgartirish;
- ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini yanada yuqori darajaga ko`tarish.

Mustaqillikni mustahkamlash, kelajagi buyuk davlatni qurish, iqtisodiy o`sishni izchil olib borish, ishlab chiqarish taraqqiyotini tezlashtirishni ilm-fansiz mutlaqo tasavvur qilib bo`lmaydi. Demak, hamma joyda, hamma vaqtida fan-texnika taraqqiyoti tomon olg`a siljimoq kerak bo`ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fan-texnika siyosati umumdavlat siyosati sifatidagina samarali amalga oshirilishi mumkin bo`lib, uning butun tarkibiy qismlari, shuningdek, uni amalga oshirishda ishtirok etuvchilarning butun faoliyati strategik maqsadga bo`ysundirilgan.

O`nlab ilmiy-tadqiqot institutlari va oliv o`quv yurtlari, yuzlab loyiha-konstrukturlik tashkilotlari tadqiqotlar olib bormoqdalar, yangi texnika va texnologiyalarni yaratmoqdalar. Hozirgi ilmiy-tadqiqot institutlari eng mukammal texnika bilan jihozlangan va yuksak malakali ilmiy kadrlar bilan ta`minlangan muassasa hisoblanadi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojini yuqori darajaga ko`tarish fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni yanada izchil, yanada qat`iyat bilan talab qiladi. Ayni chog`da ilmiy-texnika rivojinining yutuqlarini ishlab chiqarishda ro`yobga chiqarish mexanizmini takomillashtirish hozirgi bosqichda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning hal qiluvchi omili ekanligi davlat siyosatining eng muhim qoidasi hisoblanadi. Ana shu mexanizmni takomillashtirish fan-texnika taraqqiyotini tashkil etish va boshqarish, rejalshtirish va bashoratlash, mablag` bilan ta`minlash va rag`batlantirish kabi elementlarni o`z ichiga oladi.

4.2. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo`nalishlari

Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida fan-texnika taraqqiyotining uchta asosiy yo`nalishidan foydalanish mumkin:

- ✓ an`anaviv yo`nalish;
- ✓ zamonaviv yo`nalish;
- ✓ istiqbolli, ustuvorlik yo`nalishlar.

An`anaviv yo`nalishga elektrorashtirish, mexanizatsiyalash, qisman avtomatrashtirish, kimyolashtirish kiradi.

Zamonaviv yo`nalishga elektronizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash, kompleks avtomatrashtirish (robotrashtirish, kompyuterlashtirish), atom energetikasini jadal rivojlantirish, yangi materiallarni ishlab chiqarish va ularga ishlov berish, hozirgi davr talabiga javob beradigan texnologiyalarni qo`llash, undan foydalanishda texnologiyaning ekologiyaga salbiy ta`sirini kamaytirish, imkonli bo`lsa butunlay yo`qotish yo`llari kiradi.

Afzallik, ustuvor yo`nalishlarga quyidagilar kiradi:

➤ elektronizatsiyalash, biotexnologiyani keng joriy etish, iqtisodiy informatikani ko`paytirib, rivojlantirib, ishlab chiqarishni to`la axborotlashtirish, fundamental fanlar bo'yicha izlanishlarni kuchaytirish;

➤ yangi, ilg`or (progressiv) texnologiyalarini joriy etish;

➤ texnika va texnologiya, elektr energiyasi va yoqilg`ilarning, xom ashyo va materiallarning eng yangi turlarini yaratish;

➤ mavjud mashina va mexanizmlarni, asbob-uskuna hamda jihozlarni modernizatsiyalash kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga kirib borish munosabati bilan ilm-fan sohasiga juda ko`p atamalar (terminlar), tushunchalar kirib kelmoqda. Masalan, «Nou-xau», innovatsiya, lizing, texnopolis, vechur, injinering, tender va h.k.

«Nou-xau» – bu texnik, tashkiliy-iqtisodiy, tijorat bilimlari va tajribaning yig`indisi bo`lib, almashish predmeti hisoblanadi. «Nou-xau» tipidagi axborot (informatsiya) raqobatli ishlab chiqarishning, savdoning omili sifatida ro`y berishi mumkin. «Nou-xau»ning eng xarakterli, tavsifiy tomoni – bu texnik bilimlarning yangiligidagi va aniq ishlab chiqarish va tijorat vazifalarini bajarish uchun foydaliligidadir. Uni amalga oshirishda shartnomalar tuziladi: har xil chizmalar, loyihamalar, smeta (bo`ladigan kirim-chiqim hisobi), texkartalar, metodikalar (biror narsaga o`rgatish usullari), formulalar (shartli belgililar bilan ifodalangan matematik miqdorlar), texnik ma`lumotlar va h.k. tanishtiriladi. Eksporter bu ma`lumotlarni etqazib beradi, importer esa qabul qilib oladi.

Innovatsiya – iqtisodiyotga mablag` solish jarayoni. Yangilikni joriy etish: birinchidan, texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta`minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag`lar bo`lsa; ikkinchidan esa, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari natijalari bo`lgan yangi texnika va texnologiya. Ixtirochilikning rivojlanishi, biror yo`nalishdagi yirik ixtiro va kashfiyotlar maydonga kelishi innovatsiyaning muhim omillari hisoblanadi.

Lizing – mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini uzoq muddatli ijara olish; uzoq muddat foydalilanidigan tovarlar eksportini kreditlash shakllaridan biri. Lizingning asosan moliyaviy va oddiy turi mavjud.

Moliyaviy lizing muayyan muddatda ijaraga beruvchining kapital xarajatlarini to`liq qoplashga yetarli to`lovlardan iborat bo`lib, mulk egasiga bir miqdor foyda ham beradi.

Oddiv lizing – ijara davrida ijaraga olingan mulk qisman amortizatsiyalanadi. Lizing kompaniyasi asbob-uskunalar sotib olib, ularni ijarachi firmaga odatda bir yildan 10-15 yilgacha ijaraga beradi. Lizingda ijarachining shartnoma muddati tugagandan so`ng asbob-uskunalarни qoldiq qiymat bo`yicha sotib olish (bu holda egalik huquqi yangi sohibga o`tadi); yangi kelishuv asosida shartnoma muddatini cho`zish; moddiy boyliklarni lizing kompaniyalariga qaytarish va boshqalar ko`zda tutilishi mumkin. Tomonlar lizing shartnomasida ko`rsatilgan davr mobaynida uni buzishga haqi yo`q. Lizing kompaniyalari mashina va uskunalar sotib olish uchun shaxsiy va qarzga olingan mablag`lardan foydalanadilar. Davlat odatda, ularga qarz olishlari uchun imtiyozli sharoitlar yaratib beradi.

Venchur – kichik biznesning bir turi. Uning mohiyati ilmiy-muxandislik ishlari, yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarini yaratish, ishlab chiqarishni boshqarish, tijorat ishini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, yirik firmalar va davlat ijara kontrakti buyurtmalarini bajarishdan iborat. Bu ishlar bilan «Venchur korxonalar» shug`ullanadi. Ular tarkibida tijoratda vositachi bo`lgan korxonalar ham bo`ladi. Venchur korxonalar texnikaning yangi yo`nalishlarida ish ko`rib, fan-texnika taraqqiyotiga katta hissa qo`shadilar. Ular vechur moliyalashtirishda ham faol qatnashadilar va moliyaviy mablag` to`plab, uni ishga soladilar.

Injinering (injinerlik – maslahat xizmatlari) – tijoratchilik qoidalariga asoslangan injinerlik – maslahat xizmatlari; ishlab chiqarishni ta`minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish obyektlarini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish. Bu ish bilan injinering firmalari shug`ullanadi, ular mustaqil firma sifatida bir vaqtning o`zida bir necha mijozlarga xizmat qiladi. eksport injinering firmalari boshqa mamlakatlarga xizmat ko`rsatadi. Ular chet eldag`i ilmiy g`oyalar va texnik ishlannalar bozorida litsenziya sotadi, texnik yangiliklarni xorijda joriy etadi. Injinering kompaniyalari daromadi ko`rsatilgan injinering xizmatiga bog`liq bo`ladi. Xalqaro injinering xizmati ishning texnik-tashkili va

tijorat tomonlari ko`rsatilgan kontrakt shaklida rasmiylashtiriladi, mohiyati bilan muayyan xizmatlarga buyurtmaning bir ko`rinishidir. Injinering xizmatlari bozori – xalqaro bozorning bir turi, injinering xizmatlarining davlatlararo oldi-sotdi qilinishidir.

Tenderlar – bozorda yoki xalqaro bozorda **mashina** va **uskunalarни** xarid etish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, injinering xizmati ko`rsatish uchun konkurs asosida buyurtma berish. Xaridor yoki buyurtmachi eng avval konkurs e`lon qilib hammani o`z shartlari bilan tanishtiradi. Shunga asosan konkursda ishtirok etuvchi firmalar, konsortsiumlar yoki korxonalar o`z takliflarini – tenderlarini xaridor, buyurtmachiga yuboradi. Tenderni injinering firmalari hujjatlashtiradi.

Elektronizatsivalash deganda ishlab chiqarish jarayonlarida elektronikadan keng foydalanish, ya`ni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan axborotni kompyuterlarda yig`ish, o`tkazish va ishslash tushuniladi. elektronikaning makro va mikro turlari mavjud bo`lib, ular sanoat ishlab chiqarishi boshqaruvida alohida o`rin tutadi. Ayniqsa, lahzali biznes borasida juda qo`l keladi.

Mexanizatsivalash – bu qo`l mehnatini mashina mehnati bilan almashtirishdir. U ikki xil bo`ladi:

- ✓ kichik mexanizatsiyalash;
- ✓ kompleks mexanizatsiyalash.

U ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Avtomatlashtirish – bu ilgari odam bajaradigan, boshqarish va nazorat qilish vazifalari asboblar, avtomatik qurilmalar zimmasiga yuklanadigan mashinali ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayoni. Avtomatlashtirish jarayonida inson faqat operatorlik vazifasini ado etadi. Sanoat ishlab chiqarishini avtomatlashtirishdan maqsad – mehnat unumdarligini oshirish, mahsulotlar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishning barcha resurslaridan foydalanishning optimal sharoitini yaratish.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishning uch turi, ya`ni qisman (ayrim ishlab chiqarish operatsiyalarinigina avtomatlashtiradigan), kompleks va to`la xillari mavjud.

Kimyolashtirish – bu ishlab chiqarishning hamma sohalarida kimyo fanining barcha yutuqlaridan keng foydalanish. Ishlab chiqarishning barcha jarayonlariga kimyo materiallarni, xom ashyo va materiallarni qayta ishslashning kimyoviy usullarini joriy

etishdash iboratdir. Kimyolashadirish yordami bilan oldindan belgilangan xususiyatlari xom ashyo materiallarni tayyorlash mumkin. Masalan, bo`yoq va laklar, sintetik kauchuk, sintetik tola, plastmassalar va h.k.

Keng ko`lamda globallashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda olimlarning yutuqlari tijoratlashib bormoqda va hozirgi paytda dunyo bozoridagi eng qimmat mahsulot turlaridan biriga aylanmoqda.

4.3. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash

Yangi texnika va texnologiyani joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligni aniqlash kerak bo`ladi. Shu sababli yangi texnika va texnologiyani joriy etish asosida xalq xo`jaligida, jumladan, sanoat ishlab chiqarishida yuqori ko`rsatkichlarga erishish uchun texnik chora-tadbirlarning qaysi biri foydali ekanligini aniqlash zarur.

Texnik tadbirlarning asosiy guruhlari quyidagilardan iborat:

- mashina va mexanizmlar, jihozlar va asboblarning yangi hamda takomillashgan turlari va konstruktsiyalari;
- xom ashyo, materiallar, yoqilg`i va energiyaning yangi turlari;
- texnologik jarayonlarning yangi va takomillashgan turlari;
- mahsulotning ximik va fizik xossalalarini, parametr va assortimentlarini yaxshilash;
- texnologik jarayonlarni mechanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- jihozlarni modernizatsiyalash;
- bino va inshootlarning yangi tiplarini yaratish;
- mehnatni tashkil etish va boshqarishning yangi va takomillashgan usullari;
- ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari.

Korxonalar, tarmoqlar va tarmoqlararo komplekslarda ishlab chiqarish sur`atini tezlashtirish, mahsulot hajmini ko`paytirish, uning sifatini oshirish, ishlab chiqarishning foydaliligini ko`tarish uchun fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish kerak bo`ladi. Bu ish ma`lum chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga bo`lishi mumkin. Chora-tadbirlar albatta samarali bo`lishi kerak. Uni hisobga

olmasdan, bahslashmasdan fan-texnika bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqarishga joriy etilmaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti tadbirlari iqtisodiy samarasini hisoblash tartibi rasmiy hujjatlar, ya'ni metodik qo'llanmalarda izohlab berilgan.

Ularga quyidagilar kiradi:

- kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha namunaviy metodika;
- xalq xo'jaligida yangi texnika, ixtirochilik va ratsionalizatorlik tavsiflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyoti;
- korxonalar va ishalb chiqarish birlashmalari boshqaruvinining avtomatlashtirilgan sistemasining iqtisodiy samaradorligini hisoblash uslubiyoti;
- boshqaruuvning avtomatlashtirilgan sistemasi samaradorligini hisoblash uslubiyoti.
- atrof-muhitni muhofaza etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlarning iqtisodiy samarasini aniqlash uchun vaqtinchalik uslubiyot;
- mehnatni ilmiy tashkil etish bo'yicha tadbir-choralarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyoti.

Undan tashqari, tarmoq vazifalari, ilmiy tekshirish institutlari, loyiha tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari ham uslubiy materiallar tayyorlash mumkin.

Texnika taraqqiyoti eng avvalo yangi texnikani yaratish orqali amalga oshiriladi, ro'y beradi. Shu sababli yaratilgan va joriy etilayotgan texnika samarali yoki samarasizligini bilish kerak bo'ladi. Demak, samarani o'lchash va baho'lash kerak.

Yangi texnikaning iqtisodiy samaradorligi barcha sanoat tarmoqlarida, ilmiy-tekshirish institutlarda, loyihalash tashkilotlarida tegishli tadbirlarni avvalgi yillardagi o'zlashtirish natijalarini ifodalovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.

Ilmiy-texnikaviy tadbirlarning ko'p yillik tajribalariga asoslangan turli ko'rsatkichlar, jumladan, mashina va texnikaviy vositalarni ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish natijasida erishiladigan yillik iqtisodiy samaradorlik quyidagicha aniqlanadi:

$$E = [X_1 \cdot a - X_2 \cdot P] \cdot A_2 - S$$

bu yerda: X_1 va X_2 – mavjud va yangi texnika yordamida mahsulot birligini ishlab chiqarish xarajatlari (keltirilgan xarajatlar);

a – yangi texnikaviy vositalarning sifatini, nisbiy afzalligini ifodalovchi koeffitsient bo'lib:

$$a = \frac{Q_2 P_1 + E_N}{Q_1 P_2 + E_N}$$

bu yerda: Q_1 va Q_2 – mavjud va yangi texnikaviy vositalar birligi yordamida yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

P_1 va P_2 – mavjud va yangi texnikaviy vositalar kiymatidan ularni tiklash uchun ajratmalar salmog'i;

P – yangi texnikadan foydalanish davrida erishiladigan samaradorlik. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P = \frac{[U_1^I - U_2^I] - E_N [K_2^I - K_1^I]}{P_2 + E_N}$$

bu yerda: U_1^I va U_2^I – mavjud va yangi texnikadan foydalanish davridagi joriy xarajatlar;

K_1^I va K_2^I – mavjud va yangi texnikadan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kapital quyilmalar;

E_N – kapital quyilmalarining me'yor darajasidagi samaradorlik koeffitsienti (0,15);

A_2 – yangi texnika joriy etilgandan keyin uning yordami bilan ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi;

S – yangi texnikani loyihalashtirish xarajatlari.

Yangi texnika samaradorligini hisoblash qiyosiy samaradorlikni aniqlash tamoyillariga asoslanadi. Hozirgi kunda bunday hisob-kitoblar xalq xo'jaligida yangi texnikadan, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyoti asosida amalga oshiriladi.

Bu uslubiyotga binoan iqtisodiy samara quyidagi formula yordami bilan ifodalananadi:

$$S = (X_1 - X_2) \cdot A_2;$$

bu yerda: S – yillik iqtisodiy samara, so'm;

X_1 va X_2 – yangi texnika yordami bilan tayyorlangan mahsulot birligiga sarflangan keltirilgan xarajatlar ($T + E_N \cdot K$);

A_2 – hisobot yilida yangi texnika yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotning yillik hajmi.

Yangi texnika va texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini rejalahtirish va bashorat qilishda uning bir qator asosiy texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlarga, jumladan foydaning ko`payishi, mehnat unumdorligini oshishi, mehnat, moddiy va kapital sig`imining pasayishi, mahsulot tannarxining kamayishiga ta`sir etishi hisobga olinadi. Masalan, yangi mahsulotni ishlab chiqarish hisobiga olinadigan rejali foydaning ko`payishi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\Delta F_i = [(B_i - T_i) \cdot A_i - (B_1 - T_1) \cdot A_1]$$

- bunda ΔF_t – kelgusi davrda foydaning oshishi (so`m hisobida);
 B_t va T_t – korxona ulgurji bahosi va yangi mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxi;
 B_1 va T_1 – korxona ulgurji bahosi va almashtiriladigan mahsulotning yangi texnikani joriy etilgungacha bo`lgan yildagi tannarxi (so`m hisobida);
 A_t va A_1 – kelgusi davrda ishlab chiqariladigan yangi mahsulot va yangi texnikani joriy etishgacha bo`lgan yildagi almashtiriladigan mahsulotning hajmi (so`m hisobida).

Yangi texnikaning samaradorligini hisoblash va tahlil etish uning ijtimoiy natijalari va oqibatlarini ham hisobga olish kerak bo`ladi. Ular jumlasiga, mehnat sharoitlarini yaxshilish, xavfsizlik va qulaylikni ta`minlash, xodimlarning bilimi va ilmi hamda malakasini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish, inson faoliyati uchun eng yaxshi sharoitlar yaratish kiradi.

Nazorat savollari:

1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Texnika va texnologiyaning tavsifi va uning turlarini ko`rsatib bering?
3. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo`nalishlarini sanab o`ting?
4. Yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning qanday usullari mavjud?

V BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARI

Reja:

- 5.1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi
- 5.2. Asosiy fondlarni baholash usullari
- 5.3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi
- 5.4. Asosiy fondlardan foydalanish ko`rsatkichlari.
- 5.5. Ishlab chiqarish quvvatini hisoblash usullari.
- 5.6. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishniyaxshilash yo'llari

Tayanch iboralar: asosiy fondlar, amortizatsiya, amortizatsiya normasi, amortizatsiya ajratmasi, modernizatsiya, jismoniy eskirish, ma`naviy eskirish, ishlab chiqarish quvvati

5.1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi

Zamonaviy iqtisodiyot fani **asosiy fondlarni** ma'lum bir iste'mol qiymati ko`rinishida ijtimoiy mehnat asosida yaratiluvchi, ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan material omillari qatoriga kiritadi. Hozirgi bozor sharoitlarida korxona kuchi va vositalari yordamida yaratilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta'sir ko`rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun xalq xo'jaligi miqyosida asosiy fondlar mamlakatning milliy boyligini tashkil qiladi.

Asosiy fondlar korxona ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo`lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etada va o`zining natural-moddiy holatini yo`qotmaydi hamda o`z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o`tqazib beradi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o`tkazish jarayoni amortzitsiya deb, ushbu jarayonda to`plangan mablag'lar esa amortizatsiya ajratmalari deb ataladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko`ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari o`z mohiyatiga ko`ra, korxonaning ishlab chiqarish potentsialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- * ishlab chiqarish binolari va inshoatlari;

- * uzatish qurilmalari;
- * quvvat mashinalari va uskunalari;
- * ishchi mashinalar va uskunalar;
- * transport vositalari;
- * o'lchov va tartibga solish asboblari va qurilmalari;
- * foydalanish muddati bir yildan kam bo'limgan va qonunchilikda belgilab qo'yilgan qiymatlardagi asboblar va ishlab chiqarish inventari.


Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, **korxonaning ishlab chiqarish apparati** deb ataladi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxona asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, shu sababli o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxona balansida turuvchi turarjoy (uy-joy fondi), oshxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog'chasi va yasllar, sport-sog'lomlashtirish va boshqa obyektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog'lomlashtirish yo'nalishitidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o'z qiymatini sekin-asta yo'qotishi kabi ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

Korxona asosiy fondlari tarkibini quyidagi 5.1-rasm ko'rinishida aks ettirish mumkin.

Mehnat predmetiga o'tkazuvchi ta'siriga ko'ra, asosiy ishlab chiqarish fondlari **aktiv va passiv** turlarga bo'linadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv turiga bino va inshoatlar, aktiv turiga esa quvvat mashina va uskunalari, ishchi mashina va uskunalar, transport vositalari, texnologik liniyalar, ya'ni biron-bir turdag'i mahsulot yaratishda foydalanimuvchi mehnat qurollari kiritiladi.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va boshqa ijobjiy o'zgarishlar sharoitlarida, ba'zan korxonaning asosiy fondlari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalar, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokazolar etmay qoladi. Bunday hollar ro'y berganda korxona shartnoma asosida o'ziga kerakli bo'lgan asosiy fondlarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari **lizing** deb ataladi (ingl. Lease - ijara).



5.1-rasm. Korxona asosiy fondlarining tarkibi

Asosiy fondlarning umumiyligi hajmida alohida guruhlarining qiymat bo'yicha o'zaro nisbati *asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasini* aks ettiradi hamda amaliyotda foizlarda o'lchanadi. Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasining, birinchi o'rinda uning aktiv qismini – mashina va asbob-uskunalarni ko'paytirishga yo'naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta'minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o'rta korxonalarga qaraganda ko'proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi

moslashuvchanroq bo`lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

«Korxona iqtisodiyoti»ga ekspluatatsiya qilinayotgan asosiy fondlarning yoshi, birinchi o`rinda mashina va asbob-uskunalarining yoshi katta ta`sir ko`rsatadi. Hozirgi paytda mashina va sanoat uskunalarini yosh bo`yicha guruhlashda taxminan quyidagi muddatlardan kelib chiqiladi: 5 yilgacha, 5 yildan 10 yilgacha, 10 yildan 15 yilgacha, 15 yildan 20 yilgacha, 20 yildan 25 yilgacha va hokazo. Mashina va uskunalarining ekspluatatsiya muddati qanchalik yuqori bo`lsa, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari shunchalik past bo`ladi, mahsulotlar sifati pasayadi, bekor turib qolish va talofatlar ko`payadi hamda aksincha. Bundan tashqari, korxona asbob-uskunalaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanilganida ta`mirlash uchun ham ko`p xarajatlar sarflanadi.

5.2. Asosiy fondlarni baholash usullari

Xo`jalik amaliyotida asosiy fondlar natural va qiymat ko`rinishida hisobga olinadi. Agar asosiy fondlarni *natural baholash* - ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish masalalarini hal qilish, asbob-uskunalarini ta`mirlash uchun ularning guruh va turlari bo`yicha grafiklar tuzish, shuningdek, ta`mirlash vositalariga bo`lgan ehtiyojni aniqlash imkonini bersa, *qiymat bo`yicha baholash* esa, asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarishni rejalashtirish, ularning mavjud hajmini aniqlash, amortizatsiya hajmini belgilash, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlil qilish va hokazolarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy fondlarni baholashning quyidagi usullari mavjud:
boshlang`ich qiymat bo`yicha – asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo`lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog`liq bo`lgan-ularni keltirish, o`rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat. Masalan, bitta mashina yoki uskunaning boshlang`ich qiymati – bu, korxonaning mazkur mashina yoki


uskunani ma'lum bir sanada sotib olgan va bu haqda buxgalteriya hujjatlarida qayd qilingan sotib olish narxidir.

Tiklanish qiymati bo'yicha – asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini (binolar, qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish uskunalari va hokazo) hozirgi paytdagi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash. Baholashning bu usuli obyektning hozirgi paytdagi qayta ishlab chiqarish davrida qancha turishini ko'rsatadi. Korxona asosiy fondlarining tiklanish qiymati, taftish va inventarizatsiya paytida, mamlakat miqyosida va davlat chora-tadbiri sifatida esa, asosiy fondlarni qayta baholash paytida amalga oshiriladi.

Qoldiq qiymati bo'yicha – asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholashdir. Boshqacha qilib aytganda, bu asosiy fondlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o'tkazilmagan qismidir. Korxonalar tomonidan foydalanimaydigan hamda hisobdan chiqarish yoki sotib yuborish mo'ljallangan asosiy fondlar ham, ko'pincha qoldiq qiymati bo'yicha, mazkur xo'jalik yilidagi narxlarda baholanadi.

Korxona asosiy fondlarini baholashning turlarini quyidagi 5.2-chizma ko'rinishda aks ettirish mumkin.

Iqtisodiyotning globallashuvi hamda hisob va hisobotlarning mukammallahuvi, jumladan, milliy hisob standartlarining jahon standartlari talablari darajasiga keltirilishi tufayli, garchi asosiy vositalar, asosiy fondlarning pul ko'rinishidagi ifodasi sifatida avvaldan qo'llanib kelgan bo'lsada, hayotimizga «asosiy kapital», «asosiy vositalar» kabi atamalar endilikda keng ravishda kirib kelmoqda.



5.2-rasm. Korxona asosiy fondlarini baholashning turlari

Hozirigi kunda amaliyotda asosiy vositalarning korxona balansi va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ya'ni, boshlang'ich, belgilangan tartibda o'tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), hisobga olish qiymati **balans qiymati** deb ataladi. Bundan asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash yordamida topish mumkinligi anglashaladi.

Qabul qilingan baholash usuli va korxona balansida aks ettiriluvchi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida, **korxona asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati** (F_{sr}) belgilanib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$F_{sr} = F_n + \frac{F_p T_1 - F_r T_2}{12};$$

bu yerda: F_n – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati;

F_p – yil davomida kelib tushgan (foydalanishga topshirilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

F_v – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo`q qilingan) asosiy fondlar qiymati;

T_1 – foydalanishga topshiriluvchi asosiy ishlab chiqarish fondlari amalda bo`lувчи о`rtacha muddati (oylarda), qabul qilingandan keyingi oydan boshlab;

T_2 – ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo`q qilingan) asosiy ishlab chiqarish fondlari foydalanilmaydigan о`rtacha muddat (oylar) chiqarilgan oydan to yil oxirigacha).

5.3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi

Asosiy fondlarni boshlang`ich yoki tiklanish qiymati bo`yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy fondlar jismoniy va ma`naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Jismoniy (moddiy) eskirish asosiy fondlarning birlamchi xislatalarini ishlab chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo`qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko`p jihatdan iqlimning ta`siri, asosiy fondlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog`liq bo`ladi.

Jismoniy eskirishni (IF) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$IF = \frac{T_f}{T_n} \times 100; \quad \text{yoki} \quad IF = \frac{I}{P_s} \times 100.$$

bu yerda: T_f – asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati;

T_n – asosiy fondlar xizmat qilishi kerak bo`lgan normativ muddat;

I – hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi);

P_s – asosiy fondlarning boshlang`ich(qayta tashkil qilish) qiymati.

Asosiy fondlarning eskirishi va uni belgilovchi omillar

Jismoniy eskirish

- ✓ Asosiy fondlarni ish bilan ta'minlash darajasi
- ✓ Mehnat qurollarining sifati
- ✓ Xodimlar malakasining darajasi
- ✓ Asosiy fondlardan foydalanish qoidalariga rivoja qilish

Ma'naviy eskirish

- ✓ Asosiy fonlarni qayta ishlab chiqarish qaytimining pasayishi
- ✓ Asosiy fondler (texnika) ning ishlab chiqarish darajasi yuqoriroq bo'lgan turlaridan foydalanish

5.3-rasm. Asosiy fondlarning eskirishi va uni belgilovchi omillar

Ma'naviy eskirish – asosiy fondlarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo'qotilishidir. U ikki shaklda yuzaga keladi: bиринчи shaklda asosiy fondlar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, ikkinchi shaklda asosiy fondlarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida, yanada samaraliroq fondlarning paydo bo'lishi natijasida ro'y beradi. Asosiy fondlar ma'naviy eskirishining yuqorida keltirilgan shakllarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

$$IM_1 = \frac{P - V}{P} \times 100;$$

$$IM_2 = \frac{P_n - P}{P_n} \times 100$$

bu yerda: P – asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati;

V – asosiy fondlarning tiklanish qiymati;

P_n – yangi texnikaning unumdorligi.

Asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish, ya'ni jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlarning o'rnini iqtisodiy

to`ldirish uchun korxona bu vositalar qiymatidan *amortizatsiya ajratmalarni* ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar keyinchalik xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Amortizatsiya ajratmalari quyidagi formula asosida aniqlanuvchi amortizatsiya normalari (N_a) asosida amalga oishiriladi:

$$N_a = \frac{A}{P} \times 100$$

bu yerda: A – amortizatsiya ajratmalari;

P – asosiy fondlarning to`liq boshlang`ich qiymati.

Yillik amortizatsiya ajratmalari (AO) miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$A = \frac{P + R_k + M - O}{T}$$

bu yerda: R_k – asosiy fondlar xizmat qilgan muddat davomida kapital ta`mirlashga sarflangan xarajatlar;

M – uskuna, mashina va qurilmalarni, ular xizmat qilgan davr mobaynida modernizatsiya qilishga sarflangan xarajatlar;

O – asosiy fondlarning qoldiq (likvidatsion) qiymati;

T – asosiy fondlarning xizmat qilish muddati, yil.

Amalda amortizatsiya mablag`lari asosiy fondlarni to`liq qayta tiklash (renovatsiya), kapital ta`mirlash va uskunalarini modernizatsiya qilish uchun alohida ravishda yo`naltiriladi. Bundan kelib chiqqan holda amortizatsiya normasi ikki qismdan - fondlarni renovatsiya qilish (N_v) hamda kapital ta`mirlash va modernizatsiya qilish (N_r) uchun ajratiluvchi mablag`dan iborat bo`ladi.

Birinchi holda amortizatsiya normasi quyidagi formula:

$$N_v = \frac{P - O}{TP} \times 100;$$

ikkinci holda esa:

$$N_r = \frac{R_k + M}{TP}$$

asosida aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta`mirlash orqali tiklash zaruriyati tug`iladi. O`z vaqtida ta`mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning

xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy fondlarni ta`mirlash kapital, o`rta va joriy turlarga bo`linadi. Bino va inshootlarni ta`mirlash o`z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag`larga ko`ra, mashina va uskunalarni ta`mirlashdan farq qiladi.

Masalan, mashina va asbob-uskunalarini **kapital ta`mirlashda** ular to`liq qismlarga bo`linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi. Uskunalarini ikki marta kapital ta`mirlash orasidagi muddat *ta`mirlash tsikli* deb ataladi. Mashina va uskunalar, qoidaga ko`ra, maxsus zavodlarda ta`mirlanadi.


O`rtacha ta`mirlash texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyigiga ko`ra, kapital ta`mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag`, vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab etadi. Joriy ta`mirlash kabi u ham mashina yoki uskunadan foydalanuvchi korxonaning o`zida amalga oshirilishi mumkin.

Joriy ta`mirlashda asosan asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, ya`ni uskunalarining foydalanishga doimiy tayyorligi ta`minlanadi.

5.4. Asosiy fondlardan foydalanish ko`rsatkichlari

Asosiy fondlarni ta`mirlash va ularga xizmat ko`rsatish majmuasi *rejali-oldini oluvchi ta`mirlash tizimiga* (ROOT) birlashtiriladi va korxona bosh mexanigi tomonidan boshqariladi. Deyarli har bir korxonada ROOT o`tkazilishini qayd qilish jurnallari mavjud bo`lib, ularda profilaktika va ta`mirlash tadbirlarini o`tkazish tartibi va grafigi belgilab qo`yiladi.

Ta`mirlash ishlari tufayli korxona asosiy fondlarning joriy ekspluatatsiyaga tayyorligini ta`minlaydi. Biroq shu bilan bir qatorda korxona asosiy fondlarni yaratish, foydalanish, amortizatsiya, qayta tiklash kabi bosqichlarni o`z ichiga oluvchi takror ishlab chiqarish amallarini doimiy ravishda bajarishga intilishi lozim. Bu bosqichlarni quyidagi chizma yordamida aks ettirish mumkin (5.4-rasm).



5.4-rasm. Asosiy fondlardan foydalanish ko`rsatkichlari

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning turli xil ko`rsatkichlari mavjud bo`lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo`lish mumkin:

birinchi guruh – *umumlashtiruvchi* va *qiymat* ko`rsatkichlari bo`lib, ular asosiy fondlarning turli guruqlarini dinamika va statikada baholash, tahlil qilish, zahiralarni aniqlash va bashorat qilish imkonini yaratadi. Bunday ko`rsatkichlarga fond qaytimi, fond sig`imi, fond rentabelligi va boshqalarini kiritish mumkin.

ikkinchi guruh – *xususiy* va *natural* ko`rsatkichlar bo`lib, ko`proq asosiy ishlab chiqarish fondlarining faol qismi – ishchilar, mashina va asbob-uskunalaridan foydalanish bilan bog`liq.

Ko`rsatkichlarning bu guruhi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- * asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar)dan ekstensiv foydalanish koeffitsienti, ulardan vaqt bo`yicha foydalanganlik darajasini aks ettiradi;
- * asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar)dan intensiv foydalanish koeffitsienti, ulardan quvvat bo`yicha foydalanganlik (unumдорлик) darajasini aks ettiradi;
- * asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish koeffitsienti, barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanishni hisobga oladi.

Ko`rsatilgan ko`rsatkichlarning har biri amaliyotda mustaqil ma`noga ega bo`lib, turli maqsadlarga erishish uchun foydalaniladi.

Masalan, asosiy ishlab chiqarish fondlaridan vaqt bo'yicha qanday foydalanilganligini (ekstensiv foydalanish) baholash asbob- uskunalarning smenalik koeffitsienti, uskunalarni koeffitsienti, smena davomida uskunalarning bekor turib qolishi, uskunalardan smenalarda foydalanish koeffitsienti kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Asbob-uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsienti mazkur uskunalardan amalda haqiqiy foydalanilgan vaqtning ulardan reja bo'yicha foydalanish muddatiga nisbati orqali aniqlanadi.

$$K_{eks} = \frac{t_{haq}}{t_{rej}}$$

bu yerda: t_{haq} – uskunalardan haqiqiy foydalanilgan vaqt, soatlar;

t_{rej} – uskunalarning normaga asosan foydalanish muddati, soatlar.

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni to'liq baholash uchun ekstensiv ko'rsatkichlardan tashqari, ularning quvvat bo'yicha yuklanish tabiatini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu erda yuqorida aytib o'tilganidek, texnologik uskunalar amalagi unumdorligining, ya'ni texnik asoslangan progressiv unumdorlikning normativ unumdorlikka nisbati asosida, ya'ni **uskunalardan intensiv foydalanish koeffitsientidan foydalanish**, uni quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$K_{int} = \frac{V_F}{V_p};$$

bu yerda: V_F – vaqt birligida uskunada ishlab chiqarilgan haqaqiy mahsulot miqdori;

V_p – vaqt birligida uskunada texnik jihatdan asoslangan mahsulot ishlab chiqarish

Uskunadan integral foydalanish koeffitsienti uskunadan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsientlarining ko'paytmasi orqali aniqlanib, uning vaqt va quvvat bo'yicha band bo'l shini (foydalanilishini) kompleks xarakterlaydi.

$$K_{int,gr} = K_{eks} \times K_{int} = 0,71 \times 0,8 = 0,57$$

Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumiyligi va qiymat ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, avvalo **fond qaytimi** haqida to'xtalib o'tish

kerak. U asosiy fondlar birligiga (qiymati bo'yicha) to'g'ri kelgan mahsulot ishlab chiqarishni xarakterlaydi.

U mahsulot sotishdan tushgan bir yillik tushumning (V) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$F_k = \frac{V}{F_e}$$

Mahsulotning fond sig'imi – fond qaytimiga teskari qiymat bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$F_s = \frac{F_k}{V}$$

Fond sig'imi kapital qo'yilmalari (investitsiyalar)ni tejash yoki ko'paytirish bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Masalan, mahsulot fond sig'imi pasayib, uning ishlab chiqarish hajmi doimiy yoki o'suvchi bo'lganda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish sharoitlari yaxshilanadi, demak, kapital qo'yilmalarini tejash uchun imkoniyat tug'iladi. Uni topish uchun quyidagi formuladan foydalaniлади:

$$E_k = F_e \times V$$

bu yerda: E_k – kapital qo'yilmalarni tejash, so'm;

F_e – hisobot yilida mahsulot fond sig'iming o'tgan yilda nisbatan o'zgarishi, so'm.

Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- smena davomida uskunalar bekor turib qolishini qisqartirish va uning oldini olish;
- uskunalarning smenalik koeffitsientini oshirish;
- bekor turuvchi uskunalarни qisqartirish va tugatish;
- ta'mirlash va profilaktika tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli ravishda amalga oshirish;
- uskunalarни ekspluatatsiya qiluvchi xodimlarning malakasini oshirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishni va resurslar bilan ta'mirlashni yaxshilash.

5.5. Ishlab chiqarish quvvatining mohiyati va hisoblash usullari

Asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilaydi. U ishlab chiqarish dasturini asoslashda katta rol` o`ynaydi hamda korxonaning belgilangan nomenklatura va sifatli mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha potentsial imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Bundan kelib chiqadiki, **ishlab chiqarish quvvati** – bu, ma`lum bir vaqt davomida ilg`or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg`or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo`lgan mahsulotlarning maksimal darajasidir. U qoidaga ko`ra, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining natural ko`rinishda, ushbu korxonaning ixtisoslashganligi va mahsulotning alohida turlari o`rtasidagi o`zaro nisbatiga ko`ra aniqlanadi.

Paxta tozalash korxonalari ishlab chiqarish quvvati tayyorlanadigan paxta xom ashyosi miqdori, foydalai ish vaqtini va asosiy uskuna sanalgan jin mashinalari soni bog`liq bo`ladi.

Taqvimiylar yil mobaynida ikki hosil yilida yetishtirilgan paxta qayta ishlanishi munosabati bilan paxta tozalash korxonasing bir yillik ish davri ikkita ekspluatatsiya davriga bo`linadi. Ana shu ikki davr orasidagi vaqt ekspluatatsiya qilinmaydigan davr bo`ladi.

Ekspluatatsiya davrining uzunligi asosan, paxta tozalash korxonasi hududida yetishtiriladigan paxtaning hajmiga va uskunaning ish rejimiga bog`liq.

Birinchi ekspluatatsiya davri uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmi o`tgan yildan qolgan paxtaning miqdoriga belgilanadi, paxta zavodidagi mavjud uskunalardan foydalanish darajasi ham anna shunga qarab belgilanadi.

Yangi paxta hosili tayyorlanadigan *ikkinci ekspluatatsiya* davrida esa, aksincha, uskunalardan foydalanishdarajasiga qarab ishlanadigan paxta hajmi belgilanadi.

Uskunalardan foydalanish rejasini tuzishda jinlarning texnik jihatdan asoslangan *ish unumi me`yori* asosiy ko`rsatkich bo`lib xizmat qiladi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati ilg`or (asosiy) tsexlar quvvati bilan, sexlar quvvati bosh uchastkalar quvvati bilan, uchastkalar quvvati esa bosh uskunalar quvvatiga asosan

aniqlanadi. Korxona ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilab beruvchi ko`rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ✓ uskunalar tarkibi va turlar bo'yicha soni;
- ✓ uskuna, agregat va dastgohlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy norma (normativ) lari;
- ✓ uskunalarning ishlash vaqtini fondi;
- ✓ ishchilar soni;
- ✓ ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va assortimenti (turlari va xilma-xilligi).

Korxona ishlab chiqarish quvvatining *boshlang'ich* (yil boshida), *yakuniy* (yil oxirida), *o'rtacha* yillik hamda *loyiha quvvati* turlari mavjud. Loyiha quvvati qurilish loyihasida ko`zda tutilgan bo`ladi. Qayta tiklash, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish davomida loyiha quvvati kattalashtirilishi mumkin. Shu sababli amaliyotda loyiha quvvati ko`pincha korxonaning amaldagi quvvati bilan solishtiriladi. Korxonaning amaldagi quvvati korxona ishlab chiqarish dasturini tayyorlash uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Korxona ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda zahiradagi uskunalaridan tashqari, barcha o`rnatilgan uskunalar hisobga olinadi. Ba`zi bir sexlarda (yig`uv, quyuv va boshqa sexlarda) ishlab chiqarish quvvati ishlab chiqarish maydonlariga asosan hisoblanadi.

Ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda mahsulot birligiga sarflanuvchi vaqt normasi yoki har bir uskunaning unumдорлик normalari muhim ahamiyatga ega bo`lib, ular ilg`or hamda progressiv bo`lishi talab qilinadi.

Korxona bosh bo`g`inining (asosiy tsexining) ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$M = \frac{n \times F_{maks}}{M_m}$$

bu yerda: M – sex yoki uchaskaning qabul qilingan o`lchov birligidagi ishlab chiqarish quvvati;
 n – sex yoki uchastkadagi ilg`or uskunalar soni;

F_{maks} – bosh uskunadan foydalanish mumkin bo`lgan maksimal muddat, soat;

M_m – bosh uskunada mahsulot tayyorlashning progressiv mehnat sig`imi, soat.

Amaliyotda ishlab chiqarish quvvati va uskunalarining yuklanishini hisoblashda ba`zida xatolar, ular o`rtasidagi farqni sezmaslik hollari ham uchrab turadi. Korxona quvvati asosiy ishlab chiqarish fondlari, yangi texnika va aniqlangan zahiralardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish mumkin bo`lgan maksimal darajani tavsiflaydi, uskunalarining yuklanishni hisoblash natijalari esa, ushbu quvvatlardan rejadagi davrda foydalanishning darajasini aniqlaydi.

Ishlab chiqarish dasturining korxonada mavjud bo`lgan quvvatlarga mos kelishini aniqlash uchun, o`rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati hisoblab topiladi. Uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$M_{\text{o`rtacha}} = M_n + \frac{M_v \times n_1}{12} - \frac{M_t \times n_2}{12}$$

bu yerda: $M_{\text{o`rtacha}}$ – korxonaning o`rtacha yillik quvvati;

M_n – korxonaning yil boshidagi quvvati;

M_v – yil mobaynida kiritiluvchi quvvati;

M_t – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqariluvchi (yo`q qilinuvchi) quvvat;

n_1, n_2 – ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirishdan yoki tugatilgan ishlab chiqarish quvvatlari yo`q qilingandan to yil oxirigacha o`tgan to`liq oylar soni.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog`liq bo`lgan mazkur chora-tadbirlar, ko`pincha ishlab chiqarish quvvatlari balansini tuzish yo`li bilan amalga oshirilib, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari va ularni ta`minlash manbalariga bo`lgan ehtiyoji aniqlanadi.

Paxta tozalash korxonalarida quvvatni hisoblashda asosiy uskuna sifatida jin uskunasi olinadi. Asosiy ishlab chiqarish bo`limi sanalgan jin bo`limida o`rnatilgan asbob-uskunalar ishi rejasini tuzishda quyidagi boshlang`ich ma`lumotlardan foydalaniladi:

- K_m – o`rnatilgan jinlar soni;
- T_{ch} – tola me`yoriy chiqishi (ushbu ko`rsatkich paxtaning selektsion navi, paxta yetishtiriladigan hududni hisobga olgan holda tarmoq bo`yicha o`rnatilgan me`yoriy ko`rsatkichdan kam bo`lmagan holda qabul qilinadi);

- P_r – o`rnatilgan jin uskunasi o`rtacha ish unumi (ko`p hollarda bu ko`rsatkich ilg`or korxonalar erishgan ko`rsatkich doirasida olinadi);
- K_a – o`rnatilgan jin uskunasidagi arralar soni (masalan 3XDDM rusumli jin uchun – 80 ta arra, DP-130 rusumidagi jinlar uchun 130 tarra va h.k.);
- T – ish vaqt yillik fondi;
- U_{fk} – ushbu korxona uchun foydali ish koeffitsienti.

Ushbu ma'lumotlar asosida ishlab chiqariladigan tola miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$Q_r = K_m \times K_a \times P_r \times T \times U_{fk}$$

bu yerda: K_m – o`rnatilgan jinlar soni, dona;

K_a – jindagi arralar soni, dona;

P_r – o`rnatilgan jin uskunasi o`rtacha ish unumi, kg. arra/soat (quvvatni hisoblashda ushbu ko`rsatkich uskuna pasportidagi ma'lumot asosida olinadi);

T – ish vaqt yillik fondi, soat;

U_{fk} – foydali ish koeffitsienti.

5.6. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash yo'llari

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida chegaralangan resurslar doirasida mavjud barcha resurslardan oqilona foydalanish korxonalar ish samaradorligini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu boisdan, paxta tozalash korxonalarida ham ishlab chiqarish quvvatidan imkon boricha maksimal foydalanish zarur bo`ladi. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish deganda qo'shimcha mablag'larni jalb etmasdan mahsulot hajmi va sifati oshishi, uni ishlab chiqarish xarakatlarining pasaytirilishi tushuniladi. Bu esa, o'z navbatida mavjud asbob-uskunalardan **ekstensiv** va **intensiv** foydalanish orqali erishiladi.

Asbob-uskunlardan ekstensiv foydalanishdagi qo'shimcha imkoniyatlар paxta tozalash korxonalarida kapital ta'minlashga ajratilgan vaqtни qisqartirish, ish jarayonida ichki to'xtashlarni kamaytirish, rejadan tashqari to'xtashlarni bartaraf etish orqali yillik foydali vaqtdan to'liq foydalanish hisoblanadi.

Kapital ta'mirlashga ajratilgan vaqt me'yorlari belgilangandir. Paxta tozalash korxonalarini reja-ogohlantiruvchi tiklash tizimini

qo'llash orqali ushbu vaqt me'yорини qisqartirish va natijada asbob-uskunalardan foydalanish samaradorligini oshirishi mumkin bo'ladi.

Paxta tozalash sanoatida ish jarayonidagi ichki to'xtashlar smena vaqtining 10-15 % ini tashkil etib, u asosan paxta xom-ashyosi partiyalarini almashtirish, asbob-uskunalarini texnologik tozalash, arralarni almashtirish vash u kabi ishlarni bajarishda ro'y beradi. Masala, asosan bu kabi to'xtashlarni me'yor darajasida bo'lishligini ta'minlash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Qabul qilingan tasnifga binoan, asbob-uskunalar to'xtashlari **texnik, texnologik va tashkiliy** kabi turlarga ajratiladi.

Texnik to'xtashlar asbob-uskunalarning buzilishi, texnik nosozligi, avariyaga uchrashi natijasida rejadan tashqari ular to'xtashi hisoblanadi.

Texnologik to'xtashlarga texnologik ohimni tozalashdagi tanaffuslar, texnologik oqim va transport uskunalaridagi tizilishlardagi to'xtashlar hisoblanadi.

Ko'pincha, paxtaning navi qanchalik yuqori bo'lsa, tolaning paxtadan chiqishi ham oshib boradi. Paxtaning namligi qancha yuqori bo'lsa, uning metall bilan ishqalanish koeffitsienti oshib boradi va bu ko'rsatkich uskunaning unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Paxtaning ifloslik darjasasi qancha ko'p bo'lsa, asbob-uskunalarda tizilish orqali to'xtab turish ko'payadi.

Tashkiliy to'xtashlarga xom-ashyo elektro-energiya yetishmasligi, asbob-uskunalar yuklanish darajasining to'g'ri tashkil etilmaganligi sababli asosiy oqimning to'xtab turishidir.

Paxta tolasining mashina (yoki arra) soatda ishlab chiqarilishi miqdori jin uskunasidan foydalanish intensivligini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish intensivligini oshirish korxona ishlab chiqarish quvvatidan oqilona foydalanishning eng muhim amali hisoblanadi.

Paxta tozalash korxonalarida asbob-uskunalardan intensiv foydalanishni oshirish imkoniyatlariga jin bo'lishi ishlab chiqarish quvvati bilan boshqa bo'limlar ish quvvati o'rtaSIDAGI yuklanishning muvofiq kelmasligini bartaraf etish, sermehnat jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish, asbob-uskunalar holatini yaxshilash va mehnatni tashkil etishni takomillashtirish sanaladi.

Har bo'lmlardagi o'rnatilgan asbob-uskunalarining yuklanishi o'rtaSIDAGI tafovut jin mashinasi unumdorligiga salbiy ta'sir qildi. Ko'p hollarda bu kabi tafovut ishlab chiqarishga paxta xom-ashyosini uzatishda ro'y beradi.

Asbob-uskunalar unumdorligini oshirish tadbirlarini amalga oshirish paxta tolasi va boshqa qo'shimcha mahsulotlar sifatining

doimiy oshib borishini ta`minlash bilan uyg`un ravishda bo`lmog`i lozim. Ushbu paxta tozalash korxonalarini texnologik jarayonini takomillashtirish, texnologik asbob-uskunalar asosiy qismlari konstruktsiyasini yaxshilash paxta xom-ashyosini qurilish va tozalash hamda tola tozalash uskunalarining zamonaviy turlarini yaratish orqali erishiladi. Shunday qilib, paxta tozalash korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash quyidagilar orqali erishiladi.

- asbob-uskunalarni modernizatsiyalash va yangilash;
- texnologiyalarni takomillashtirish;
- xom-ashyo va elektroenergiya bilan to`liq ta`minlash;
- ishlab chiqarishga me`yor darajasidagi namlik va ifloslikka ega bo`lgan xom-ashyonni uzatish;
- doimiy ravishda reja-ogohlantirish ta`mirlash ishlarni tashkil etish va to`g`ri arra xo`jaligi ishini tashkil etish;
- texnik iqtisodiy rejalashtirish va boshqaruvni takomillashtirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishga keng miqyosda ilg`or ilmiy ishlab chiqarishni usullarini qo`llash ishchilar va muxandis-texnik xodimlar malakasini oshirish.

Nazorat savollari:

1. Asosiy fondlar nima va ularning kengaytirilgan ishlab chiqarishdagi roli qanday?
2. Asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasi deganda nima tushuniladi hamda ularning sanoat tarmoqlari bo`yicha farqlanishiga nima sabab bo`ladi?
3. Zamonaviy amortizatsiya siyosatining mohiyati va ahamiyati nimada?
4. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning ekstensiv va intensiv ko`rsatkichlari qanday?
5. Asosiy fondlarni baholashning qaysi usullarini bilasiz?
6. Asosiy fondlardan samarali foydalanishning asosiy yo`llarini aytib bering?
7. Sanoat korxonalarini ishlab chiqarish quvvati deb nimaga aytildi?
8. Korxona va sanoat tarmog`ining ishlab chiqarish quvvatlarini hisoblash usuli, turi va tushunchalari qanday?
9. Paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda qaysi uskuna tanlanadi?
10. Zamonaviy sharoitlarda asosiy fondlar va korxona ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilashning qanday yo`nalishlari mavjud?

VI BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING AYLANMA FONDLARI VA AYLANMA MABLAG'LARI

Reja:

- 6.1. Aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiatni va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyati.
- 6.2. Aylanma mablag'larning tuzilmasi va harakati hamda ularning korxona iqtisodiyotiga ta'siri.
- 6.3. Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish.
- 6.4. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari.

Tayanch iboralar: aylanma mablag'lar, aylanma fondlar, muomala fondlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, ishlab chiqarish zaxirasi, normalashtirilgan aylanma mablag'lar, aylanish koefitsienti, aylanish davri.

6.1. Aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiatni va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyati

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda mehnat qurollari (asosiy fondlar) va ishchi kuchidan tashqari, **aylanma mablag'larga** ham ega bo'lishlari zarur. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil qilishga mo'ljallangan pul mablag'laridan iborat. Aylanma mablag'lar, qoidaga ko'ra, korxonaning hisob raqamida naqd pul ko'rinishida jamg'ariladi. Har bir korxonaning aylanma mablag'lari asosiy fondlarning texnik holati va mahsulot ishlab chiqarish dasturi bilan bog'liq. Korxona qanchalik katta va uning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari turlari ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar shunchalik ko'p talab qilinadi. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish va uning uzuksizligini ta'minlashning moddiy asosi hisoblanadi.

«Aylanma mablag'lar « atamasidan tashqari «aylanma kapital» iborasi ham ko'p qo'llanilib, asosan iqtisodiy nazariya va xo'jalik yuritishning xorijiy tajribasidan olinadi. Mohiyatiga ko'ra, **aylanma kapital** korxona ishlab chiqarish kapitalining bir qismi bo'lib, uning qiymati ishlab chiqarishning har bir siklida ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkaziladi hamda ushbu tovarni sotgandan so'ng korxonaga qaytariladi. Aylanma kapital ko'pincha korxonaning pul

mablag'lari hisoblanuvchi yoki ishlab chiqarish jarayonida pul mablag'lariga aylantiriluvchi harakatchan aktivlari qatoriga kiritiladi.

Aylanma mablag'larga bo'lgan qo'shimcha talab banklardan olinadigan kreditlar hisobiga qoplanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalarning aylanma mablag'larga yetarli tarzda ega bo'lishi ularning normal faoliyat yuritishi garovi hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik zarurki, ishlab chiqarayotgan mahsulot birligiga sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilg'i va energiya miqdori mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik kam bo'lsa, mahsulot shunchalik arzonlashadi hamda aylanma mablag'lar kamroq sarflanib, ulardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi.

Korxonalarning aylanma mablag'lari aylanma fondlari va muomala fondlariga taqsimlanadi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari –korxona ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, bitta ishlab chiqarish sikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini o'zgartirib, o'z qiymatini to'lig'icha tayyor mahsulot tannarxiga o'tkazadi. Shu sababli aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonining majburiy elementi va ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismi hisoblanadi.

Korxona aylanma ishlab chiqarish fondlari qatoriga xom ashyo va materiallar zahirasi, yarim tayyor mahulotlar, yoqilg'i va energetika resurslari, qadoqlash va o'rov materiallari, ehtiyyot qismlari, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakkagi xarajatlarni kiritish mumkin. Rejalashtirish, sistemali hisob va hisobotni tashkil qilish uchun qulaylik yaratish maqsadida aylanma ishlab chiqarish fondlari uch guruhg'a bo'linadi:

- ishlab chiqarish zahiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar;
- kelgusi davr xarajatlari.

Muomala fondlari korxonaning tayyor mahsulot zahirasini yaratish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari, shuningdek, chek va veksellar, aktsiyadorlarning qarzları, turli xil debitorlik qarzları, bank va kassalarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan iborat bo'ladi. Muomala fondlari va aylanma ishlab chiqarish fondlari

majmuasi, korxonaning aylanma mablag`lari (kapitali)ni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishda band bo`lgan aylanma mablag`lar kattaligini belgilovchi asosiy omillar – bu, mahsulot tayyorlashning ishlab chiqarish tsikli uzunligi, mehnatni tashkil qilish, texnika va texnologiyaning rivojlanish darajasi, mehnat predmetlari va qurollaridan foydalanish normalaridir. Aylanma mablag`lar kattaligi, shuningdek, mahsulotlarni sotish sharoitlari, ta`minot va mahsulotni sotish tizimini tashkil qilish darajasi bilan ham bog`liq bo`ladi.

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, aylanma mablag`lardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- ✓ xom ashyo, material, ehtiyot qismlar hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishda zarur bo`lgan boshqa mehnat predmetlari;
- ✓ ishlab chiqarish jarayonida iste`mol qilinuvchi elektr energiyasi, yoqilg`i kabi resurslar uchun haq to`lash;
- ✓ korxonani tashkil etish va faoliyat yuritish davrida oylik ish haqi to`lanishi;
- ✓ soliq va boshqa majburiy to`lovlarni to`lash.

Bozor munosabatlari va deyarli barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida aylanma mablag`lar, birinchi o`rinda moddiy resurslardan ratsional foydalanish va ularni shakllantirish zahiralarini izlab topish har bir korxona oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bunda **zahira** deganda, moddiy va pul resurslarini yaxshilashning yuzaga kelgan yoki yuzaga kelayotgan, lekin hali foydalanilmagan (to`liq yoki qisman) imkoniyatlarini tushunish lozim.

Bu zahiralar kelib chiqishi va foydalanishiga ko`ra xalq xo`jaligiga va tarmoqlarga tegishli yoki tarmoqlararo, ishlab chiqarish ichidagi (zavod, sex va hokazo) turlariga bo`linadi. «Korxona iqtisodiyoti» da **ichki ishlab chiqarish zahiralari** – ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish hamda texnika va texnologiyani takomillashtirish, mahsulotlarning yangi va yanada mukammal turlarini o`zlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish bilan bevosita bog`liq bo`lgan moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash imkoniyatlari, katta ahamiyat kasb etadi.

Zahiralar shuningdek, moddiy resurslarni sarflashni normallashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning mehnat sig'imiini kamaytirish, mehnatni tashkil qilishning ratsional usullarini qo'llash natijasida ham aniqlanadi. Qisqacha aytganda har bir korxona, ayniqsa, yirik va mashinasozlik korxonalari hamda ularga yaqin bo'lgan korxonalar, moddiy va pul resurslaridan, ya'ni xususiy kapital va boshqa aktivlardan ratsional foydalanish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasiga ega bo'lishi zarur.

Resurslardan samarali foydalanishning texnik-ishlab chiqarish yo`nalishlari qatoriga, birlamchi xom ashymi ishlab chiqarishda foydalanishga sifatli ravishda tayyorlash, mashina va uskunalar konstruktsiyasini takomillashtirish, xom ashyo, material, yoqilg'ilarning tejamkor turlaridan foydalanish, ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytiruvchi hamda ikkilamchi resurslardan maksimal darajada foydalanish va barcha turdag'i yo'qotishlarning oldini olishni ta'minlovchi yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishni kiritish mumkin.

Resurslardan oqilona foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy yo`nalishlari qatoriga, mahsulotlar material sig'imiini rejalashtirish va normalashtirishning ilmiy darajasini oshirish, resurslarni sarflashning texnik jihatdan asoslab berilgan norma va normativlarini ishlab chiqish, «eski» va «yangi» mahsulot ishlab chiqarish o'rtaida progressiv proporsiyalarni belgilash, mehnatni tashkil qilishning samarali usullarini rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar kiritiladi.

Aylanma mablag'lar va ularning tarkibiy qismalaridan samarali foydalanishning asosiy yo`nalishlari ish joylarida (brigada, sex va ishlab chiqarish uchastkalarida) bitta miqdordagi xom ashyo va materiallardan tayyorlanuvchi yakuniy mahsulotlarni ko'paytirishdadir. U ishlab chiqarishni texnik jihatdan ta'minlash, xodimlarning malakasi, moddiy-texnika ta'minoti, moddiy resurslar zahiralarini sarflash normalariga bog'liq bo'ladi.

6.2. Aylanma mablag'larning tuzilmasi va harakati hamda ularning korxona iqtisodiyotiga ta'siri

Aylanma tuzilmalarni rejalashtirish va boshqarishning hozirgi paytdagi amaliyotida ushbu mablag'larning tarkibi va tuzilmasini baholash va tahsil qilishga, shuningdek, ularning funktsional roli va

harakatiga katta e'tibor qaratiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxona aylanma mablag'larining eng faol qismi bo'lsa, muomala fondlari ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi hamda yangi iste'mol qiymatini yaratmaydi. Bu yerda umumiy qoida shundayki, aylanma mablag'lar doimo aylanishda bo'lishi zarur - ularning samaradorligi va korxona iqtisodiyotiga ta'siri aynan shunda ko'zga tashlanadi.


Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxona aylanma mablag'larining asosiy va salmoqli qismi sifatida o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

* **ishlab chiqarish zahiralari** – bu ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyorlangan hamda xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, xarid qilinuvchi yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, qadoqlash va o'rov materiallari, asosiy fondlarni ta'mirlash uchun ehtiyyot qismlar, yoqilg'i-moylash materiallaridan tashkil topuvchi mehnat predmetlari;

* **tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar** – bu, ishlab chiqarish jarayonida foydalanishga topshirilgan hamda ishlov berish va yig'uv jarayonida bo'lgan, lekin ishlab chiqarish jarayoni to'liq tugallanmagan hamda ushbu korxonada keyinchalik ishlov berilishi lozim bo'lgan mehnat predmetlari;

* **kelgusi davr xarajatlari** – ayni paytda ishlab chiqarilayotgan, lekin kelajakdagi mahsulotlarga mansub bo'lgan yangi turdag'i mahsulotlarni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari (masalan, asbob-uskunalarni qayta rejalashtirish, mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash va loyihalashtirishga sarflanuvchi xarajatlar va boshqalar).

Aylanma ishlab chiqarish fondlari alohida tarkibiy qismlari yoki elementlari o'rtasidagi foizlarda ifodalanuvchi o'zaro munosabatlar **aylanma ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini** tashkil qiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari o'rtasidagi xuddi shunday foizlardagi munosabatlar korxona aylanma mablag'larining tuzilmasi deb ataladi. 6.1-chizmada korxona aylanma mablag'larining taxminiy (namunaviy) tuzilmasi ko'rsatilgan.



6.1-chizma. Korxona aylanma mablag'larining namunaviy tuzilmasi

Chizmadan ko'rish mumkinki, ishlab chiqarish zahiralarini aylanma ishlab chiqarish fondlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Biroq bozor iqtisodiyoti, ayniqsa, barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida ishlab chiqarish zahiralarining haddan tashqari oshirib yuborilishi korxona iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qilishidan tashqari, resurslarni «bog'lab» qo'yadi hamda ularning yo'qotilishiga olib keladi. Shu sababli aylanma mablag'lar hajmini optimallashtirish va ularni mahsulot ishlab chiqarish dasturlariga mos holga keltirish korxonaning tejamkorlik rejimida faoliyat yuritishi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxonalarning aylanma mablag'lari ishlab chiqarishning texnologik tashkil etish xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan farq qiladi. Bu xususiyatlarning xarakteri ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va murakkabligi, ixtisoslashtirish darajasi, mahsulotni realizatsiya qilish sharoitlari

va shu kabilar bilan izohlanadi. Aylanma mablag'lar tuzilmasining tarmoqlar bo'yicha farqlanishini quyidagi jadval orqali bilib olish mumkin (6.1-jadval).

6.1-jadval

Aylanma mablag'larning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi

<i>Aylanma fondlarning guruh va elementlari</i>	<i>Butun sanoat</i>	<i>Qora metal-lurgiya</i>	<i>Mashi-nasozlik</i>	<i>Energetika</i>	<i>Yengil sanoat</i>	<i>Oziq-ovqat sanoati</i>
1. Ishlab chiqarish zahiralari – jami	70,2	65,0	55,3	98,3	90,0	78,8
Jumladan: xom ashyo va asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar	46,2	23,8	37,5	-	76,7	52,2
Yordamchi materiallar	6,6	11,0	2,3	24,1	5,7	6,1
Yogilg'i	1,7	2,0	0,7	37,4	0,5	1,6
Ta'mirlash uchun ehtiyyot qismlar	3,9	11,0	2,0	23,0	1,7	2,0
Qadoqlash va o'rov materiallari	3,0	0,5	0,6	0,3	1,2	11,3
Instrumentlar, xo'jalik asboblari va qimmat bo'limgan, tez eskiruvchi boshqa predmetlar	9,8	16,7	12,2	19,5	3,2	5,6
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	24,0	18,3	42,2	0,5	9,8	19,5
3. Kelgusi davr xarajatlari va boshqa mehnat predmetlari	5,8	16,7	2,5	1,2	0,2	1,7
Jami aylanma ishlab chiqarish fondlari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Aylanma fondlar tuzilmasi nafaqat sanoatning turli tarmoqlarida, hattoki bir tarmoq va bir korxonaning o'zida ham farqlanadi. Bunday farqlanishga turli xildagi xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasidagi farqlar, korxonalarning geografik joylashuvi, ishlab chiqarishning tashkil etilishi va mehnat taqsimoti, moddiy-texnika ta'minoti sabab bo'lishi mumkin.

Korxonalar aylanma mablag`lari tarkibi va tuzilmasiga xo`jalik yuritish qobiliyati va uning samaradorligiga rioya qilish qoidalari katta ta`sir ko`rsatadi. Ya`ni korxona ishlab chiqarish zahiralarini va aylanma mablag`larning ta`minlanganligini haddan tashqari oshirishga intilmasligi zarur. Amaliyotning guvohlik berishicha, bu, resurslarning halok bo`lishiga va sun`iy tanqislikning yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Shu sababli xom ashyo va materiallarni sarflashning texnologik normalariga rioya qilish, ularni saqlashni to`g`ri yo`lga qo`yish, chiqitlar va yo`qotishlarni kamaytirish, zamonaviy va arzon materiallardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Biroq arzon materiallardan foydalanish doim ham korxona imkoniyatlari va xohishidan kelib chiqavermaydi va tashqi muhit, bиринчи о`rinda ishlab chiqarishdagi hamkorlar, bahoni shakllantirish, umumiy iqtisodiy barqarorlik va boshqa omillar bilan ham bog`liq bo`ladi.

Korxona iqtisodiyotiga aylanma mablag`larning tarkibi va tuzilmasidan tashqari, ularni ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish va muomalaning turli bosqichlarida izlab topish katta ta`sir ko`rsatadi. Aylanma mablag`larning to`liq aylanishi uch bosqichdan iborat bo`lib, bu jarayonda mahsulot ishlab chiqariladi va sotiladi.

Bиринчи bosqichda aylanma mablag`lar pul shaklidan moddiy boyliklarning ishlab chiqarish zahiralariga aylanadi, ya`ni pul – tovar (D-T).

Ikkinci bosqich ishlab chiqarish, yani mahsulotni tayyorlash jarayonini o`z ichiga oladi. Bu bosqichda aylanma mablag`lar va bиринчи о`rinda aylanma fodlar tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar holiga keltirilib, tovar shaklini oladi (T).

Uchinchi bosqichda aylanma mablag`lar tovar mahsuloti shaklida muomalaga kiritilib, sotiladi va yana pul shaklini oladi (T-P').

Shu tariqa aylanma mablag`lar barcha bosqichlardan o`tib, to`liq aylanishni amalga oshirishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin:

- 1-bosqich – pul-tovar (P-T);
- 2-bosqich – ishlab chiqarish (I.CH);
- 3-bosqich – Tovar-pul (T-P').

Shuni qayd qilib o'tish muhimki, korxonaning aylanma mablag'lari bir vaqtning o'zida uchala bosqichda ham pul mablag'lari, ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ko'rinishida mavjud bo'lishi mumkin. Korxonaning aylanma mablag'lari harakati ma'lum bir iqtisodiy qonunlar asosida ishlashi hamda ulardan ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida oqilona foydalanishni ko'zda tutishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonunlardan va aylanma mablag'lardan foydalanish qoidalaridan chetga chiqish aylanma mablag'larning yetishmasligiga yoki samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

6.3. Aylanma mablag'larni me`yorlashtirish

Shakllanish manbaiga ko'ra, aylanma mablag'lar xususiy va qarzga olingan turlarga bo'linadi.

Xususiy aylanma mablag'lar doimo korxona ixtiyorida bo'lib, xususiy resurslar, asosan foya hisobiga shakllanadi. Korxonaning xususiy aylanma mablag'lari qatoriga ish haqi bo'yicha qarzlar, ta'minotchilar yoki hamkorlar qarzları, buyurtmachilarining tayyorlangan mahsulot uchun to'lagan pullari kabilarni kiritish mumkin. Bu mablag'lar xususiy mablag'larga tenglashtirilgan mablag'lar yoki korxonaning barqaror passivlari deb ataladi.

Qarzga olingan aylanma mablag'lar doimo harakatda bo'lmaydi hamda korxonaning mahsulotlarni sotishdagi qiyinchiliklar, moddiy-tovar boyliklar bilan ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarish dasturini oshirib bajarish va boshqa vaqtinchalik ehtiyojlarni qoplash uchun foydalaniladi. Ular qatoriga bank kreditlari, kreditorlik qarzları (tijorat kreditlari) va boshqa passivlarni kiritish mumkin.

Aylanma mablag'larni boshqarish mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzlusizligini ta'minlashda aylanma mablag'lardan iloji boricha kamroq foydalanishda ifodalanadi. Bu esa korxona aylanma mablag'lari aylanishining barcha bosqichlarida mos ravishda minimal, lekin yetarli tarzda ratsional taqsimlanishi zarurligini anglatadi. Bu vazifa o'z navbatida moddiy resurslar zahiralari va xarajatlarini normalashtirish tufayli muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Aylanma mablag'larni normalashtirish korxonaning uzluksiz ishlashi ta'minlaydigan moddiy boylik va boshqa resurslarning minimal, lekin yetarli zahiralarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini aniqlashda ifodalanadi. U ichki zahiralarni aniqlash, ishlab chiqarish sikli davomiyligini qisqartirish va tayyor mahsulotni tezroq sotish imkon yaratadi.

Biroq amaliyotda korxonalarning barcha aylanma mablag'lari ham normalashtirilmaydi. Shu sababli aylanma mablag'lar normalashtiriluvchi va normalashtirilmaydigan turlarga taqsimlanadi va ular hozirgi bozor munosabatlari sharoitlarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Normalashtiriluvchi aylanma mablag'lar qatoriga korxona omborlaridagi ishlab chiqarish zahiralari (xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, unchalik qimmat bo'limgan predmetlar va jihozlar), tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va ombordagi tayyor mahsulotlar kiritiladi.

Normalashtirilmaydigan aylanma mablag'lar, bu – xaridorlarga berib yuborilgan tayyor mahsulot yoki tovarlar, hisob raqamidagi pul mablag'laridir.

Korxonalar faoliyatida barcha aylanma mablag'lar salmog'ida 70-80%ni tashkil qiluvchi normalashtiriluvchi aylanma mablag'lar asosiy o'rinni tutadi. Aylanma mablag'larni normalashtirish tejamkorlik rejimiga rioya qilish va resurslardan oqilona foydalinish imkonini yaratadi.

Resurslarni normalashtirish jarayonida aylanma mablag'larning norma va normativlari belgilanadi.

Aylanma mablag'larning normasi, korxona moddiy-tovar boyliklarining minimal zahiralarini tavsiflaydi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi pul o'lchovida, zahira kunlari va zahira normalarida hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning normativi aylanma mablag'lar normasini, normasi aniqlangan ko'rsatkichga ko'paytirishni ifodalaydi hamda qoidaga ko'ra, pul ko'rinishida o'lchanadi. U quyidagi formula asosida hisoblanishi mumkin:

$$N_{ay.m} = N_{ich.z} + N_{tich} + N_{t.m}$$

bu yerda: $N_{ich.z}$ – ishlab chiqarilgan zahiralar normasi;

N_{tich} – tugallanmagan ishlab chiqarish normasi;

$N_{t.m}$ – tayyor mahsulot normasi.

Aylanma mablag'larni normalashtirish va ayniqsa, moddiy resurslarni sarflash normalalarini belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- normalarning progressivligi va dinamikligi;
- normalarning iqtisodiy va ishlab chiqarish-texnikaviy jihatdan asoslanganligi;
- xom ashyo, material, yoqilg'i, elektr energiyasi va boshqa resurslar o'lchamini to'g'ri tanlash;
- chiqit va yo'qotishlarning oldini olish;
- eskirgan normalarni qayta ko'rib chiqish hamda ularni fantexnika taraqqiyoti yutuqlariga mos holga keltirish.

Moddiy va boshqa resurslarni normalashtirishda bir nechta usullar qo'llaniladi. Amaliyotda quyidagi usullar ko'proq uchraydi:

1. O'tgan yillar davomida amalda sarflangan resurslar to`g'risidagi hisobot ma'lumotlarini o'rganish hamda bir necha yillar davomida ro'y bergan pasayishlarni hisoblashga asoslanuvchi statistika-tajriba usuli.

2. Laboratoriya tajribalariga asosan yaratilgan hamda instrumentlar va yordamchi materiallar sarflanishi normasini aniqlashda qo'llaniluvchi -laboratoriya - texnikaviy usuli.

3. Yuzaga kelgan ishlab chiqarish sharoitlaridan tashqari boshqa korxonalarining ilg'or tajribalari va yutuqlarini ham hisobga olish imkonini beruvchi, moddiy resurslardan foydalanishni normalashtirishning mukammalroq usuli hisoblanuvchi - hisobtahliliy usuli.

Korxona aylanma mablag'larini normalashtirish tadbirlari ishlab chiqarish zahiralarini normalashtirish, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarishning optimal kattaligi, tayyor mahsulot qoldiqlari va kelgusi davr xarajatlarini aniqlash bilan bog'liq vazifalarni yechishga olib keladi.

Ishlab chiqarish zahiralarini normalashtirish, korxonaning uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar ishlab chiqarish zahiralari normativlardan past bo'lsa, ishlab chiqarish jarayonining izdan chiqishi, ishchi kuchi va uskunalarining bekor turib qolishi, korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlari pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan bir paytda, ishlab chiqarish zahiralarining belgilangan norma va normativlardan oshib ketishiga ham yo'l qo'ymaslik kerak, chunki

bu mablag`larning «muzlab» qolishiga va natijada korxona va davlatning zarar ko`rishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish zahiralari joriy, sug`urta (kafolatli), tayyorlov (texnologik) va mavsumiy turlarga bo`linadi.

Joriy zahira – bu, materiallar yetqazib berish oralig`ida ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta`minlash uchun zarur bo`lgan zahiradir. Joriy zahiralar material yetqazib berish davri, oralig`i hamda xom ashyo va boshqa materiallarning sutkalik sarflanishiga to`g`ridan-to`g`ri bog`liq bo`ladi.

Misol. Non kombinati bir sutkada 10 tonna un sarflaydi, tegirmondan esa bir oyda bir marta un qabul qiladi. Ya`ni yetqazib berish oralig`i 30 kunni tashkil qiladi. Demak, unning maksimal darajadagi joriy zahirasi 300 (10×30) tonnani, o`rtacha joriy zahirasi 150 ($10 \times 30 : 2$) tonnani, un har o`n kunda yetqazib berilgandagi minimal joriy zahirasi esa 50 ($10 \times 10 : 2$) tonnani tashkil qiladi.

Shu tariqa joriy zahiralar hajmi ko`p jihatdan yetqazib berish oralig`iga bog`liq bo`ladi: oraliq qanchalik kichik bo`lsa, zahira shunchalik kam bo`ladi. Bundan kelib chiqqan holda joriy zahira miqdorini quyidagi formula asosida topish mumkin:

$$Z_{max} = M_{o'r} \times T_{tts}$$

bu yerda: $M_{o'r}$ – ushbu materialdan o`rtacha sutkalik foydalanish miqdori (T , dona);

T_{tts} – yetkazib berish oralig`i yoki ta`minot sikli, kunlar.

Sug`urta (kafolat) zahirasidan ta`minotda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan uzilishlar yoki ko`zda tutilmagan holatlarda foydalanish mo`ljallanadi. Ko`pincha sug`o`rta zahirasining miqdori joriy zahira normasining 50% miqdorida belgilanadi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Z_{str} = M_{o'r} \times (T_1 + T_2 + T_3 + T_4)$$

bu yerda: T_1 – materialni yuklash uchun ketadigan vaqt;

T_2 – materiallar yo`lda bo`ladigan vaqt;

T_3 – materiallarni omborga qabul qilish vaqt;

T_4 – materiallarni foydalanishga tayyorlash vaqt.

Sug`urta zahirasi omborda joriy zahira bilan birgalikda saqlanadi hamda undan umuman farq qilmasada, alohida hisobga olinadi va faqat korxona rahbariyatining ruxsati bilangina sarflanadi.

Tayyorlov (texnologik) zahirasidan xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyor holga keltirishda foydalaniladi. Bunday zahiralar ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari va texnologiyalariga ega bo'lgan korxonalardagina yaratiladi. Bunday korxonalar qatoriga yog`-moy kombinati, yog`ochni qayta ishlash korxonasi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur hollarda tayyorlov zahiri miqdori tayyorlov texnologiyasi va operatsiyalariga mos holda normaga solinadi.

Mavsumiy zahiralar asosan uchta sababga ko'ra yuzaga keladi: birinchidan, xom ashyo tayyorlashning mavsumiyligi; ikkinchidan, uni iste'mol qilishning mavsumiyligi; uchinchidan, materiallarni yetqazib berishning mavsumiyligi. Mavsumiy zahiralar hajmi xuddi joriy zahiralar hajmi kabi, o'rtacha bir sutkada iste'mol qilish va mavsumiy zahiralar yaratilishi lozim bo'lgan vaqtga asosan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish zahiralarini normalashtirish, ishlab chiqarishda qo'llaniluvchi har bir mehnat predmeti (xom ashyo va materiallar, yordamchi materiallar va boshqalar) uchun alohida amalga oshiriladi hamda bu o'z navbatida ishlab chiqarish zahiralarini yaratishda aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Misol. Poyabzal ishlab chiqaruvchi korxonada (xarajatlar smetasiga ko'ra) 1 chorak uchun 180 ming so'm miqdordagi xom ashyo va asosiy materiallarni 30 kunlik zahira normasida; 54 ming so'm miqdordagi yordamchi materiallarni 40 kun zahira normasida; 27 ming so'm miqdoridagi qadoqlash va o'rov materiallaridan 20 kun zahira normasida sarflash ko'nda tutilgan. Bunday sharoitlarda asosiy vositalar normativi (ehtiyoji) quyidagicha bo'ladi:

Xom ashyo va asosiy materiallar bo'yicha	$\frac{180}{90} \times 30 = 60 \text{ ming so'm}$
Qo'shimcha materiallar bo'yicha	$\frac{54}{90} \times 40 = 24 \text{ ming so'm}$
Qadoqlash va o'rov materiallari bo'yicha	$\frac{27}{90} \times 20 = 6 \text{ ming so'm}$

Tugallanmagan ishlab chiqarishni normalashtirish. Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma mablag'lar normativini aniqlash korxona faoliyatidagi eng murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida ishlab chiqarishning turli bosqichlarida – xom ashyni texnik nazorat bo'limi (TNB) tomonidan qabul qilishdan to tayyor mahsulot omboriga topshirgunga qadar ishlov berilayotgan mahsulotlarni ko'rsatshi mumkin.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma mablag'lar normativi miqdori quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi.
2. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanuvchi joriy xarajatlar, ya'ni tannarx.
3. Xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish vaqtidan to tayyor mahsulot chiqishigacha bo'lgan ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi. Ishlab chiqarish siklining davomiyligini topishda quyidagi formuladan foydalilaniladi:

$$T_{ish.b} = t_{texn} + t_{kontr} + t_{trans} + t_{tan}$$

bu yerda: t_{texn} – mahsulot ishlab chiqarishdagi barcha

operatsiyalarga sarflanuvchi vaqt;

t_{kontr} – mahsulotni yig'ish, qabul qilish va TNBga topshirish vaqt.

t_{trans} – transportda tashish vaqt;

t_{tan} – operatsiyalar oraliq'idagi vaqt (tanaffuslar);

Tugallanmagan ishlab chiqarishga jalb qilingan aylanma mablag'larning o'sishi xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish bilan boshlanadi hamda ishlab chiqarish tsikli yakunida (tayyor mahsulot omborga topshirilganda) eng yuqori nuqtasiga chiqadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish normativini hisoblashda ishlab chiqarish tsikli kunlarda belgilanadi hamda bunda quyidagi formuladan foydalilaniladi:

$$N_{tich} = M_k \times T_{ich.ts} \times K_{x.o}.$$

bu yerda: M_k – o'rtacha bir kunlik xarajatlar, so'mlarda;

$T_{ich.ts}$ – ishlab chiqarish sikli davomiyligi, kunlarda;

$K_{x.o}$ – xarajatlarning o'sish koeffitsienti.

Xarajatlarning o'sish koeffitsienti asosiy materiallar (M_a) to'liq qiymatda olinuvchi kattalik sifatida hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari (M_{ich}) butun ishlab chiqarish sikli mobaynida bir xil suratda o'sib boradi hamda 50% qiymatda hisobga olinadi:

$$K_{nz} = (M_a + 0,5M_{ich}) : S$$

bu yerda: S – mahsulot birligining rejadagi tannarxi.

Agar keyingi xarajatlар (M_{ich}) bir xil surat bilan o'zgarmasa, u holda o'sish koeffitsienti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{x.o} = (M_a + k \cdot S_{yaf} + k \cdot S_{but} + 0,5M_{ich}) : S$$

bu yerda: k , k – yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarni mos ravishda pasaytiruvchi koeffitsientlari;

S_{yaf} – yarim tayyor mahsulotlar qiymati;

S_{but} – butlovchi qismlar qiymati.

Pasaytiruvchi koeffitsientlar yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarga ishlov berilgan kunlarning ishlab chiqarish sikli davomiyligiga nisbatini ifodalaydi. Masalan, agar ishlab chiqarish tsikli 20 kun bo'lib, butlovchi qismlar 8 kun davomida ishlab chiqarishda bo'lган bo'lsa, pasaytiruvchi koeffitsient 0,4 (8:20) ga teng bo'ladi.

Tayyor mahsulot qoldiqlarini normalashtirish. Ishlab chiqarish jarayoni tugallangandan so'ng mehnat predmetlari tayyor mahsulot ko'rinishida muomalaga kiritiladi.

Aylanma mablag'larning tayyor mahsulotga aylanish normativi miqdori, o'rtacha bir sutkalik ishlab chiqarilgan mahsulotning (tannarxi bo'yicha) aylanma mablag'larning kunlardagi tayyor mahsulot normasiga sifatida, ya'ni tayyor mahsulotning korxona omborida saqlanish muddati sifatida aniqlanadi:

$$G_n = V : T \times N_{z.m}$$

bu yerda: G_n – tayyor mahsulot normativi;

V – rejalashtirilgan davrda rejadagi tannarx bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot;

$N_{z.n}$ – tayyor mahsulotlardagi aylanma mablag'lar zahiralari normasi, kunlarda;

T – rejadagi davrda kalendor kunlar miqdori.

Tayyor mahsulotning omborda saqlanish muddati tayyor mahsulotni transportirovka qilish va sotishga bog'liq bo'ladi. Aylanma mablag'larning ushbu normasidagi kunlar soni mahsulotni tayyorlash, yuklash, hujjatlarni tayyorlash va ularni bankka topshirish uchun zarur bo'lgan kundardan iborat bo'ladi.

Kelgusi davr xarajatlarni normalashtirish. O'sib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti sur'atlari aylanma mablag'larning kelgusi davr xarajatlari ahamiyatini oshirmoqda. Bu xarajatlar korxonaning maxsus buxgalteriya hisobida uchta manba: yangi texnikani o'zlashtirish fondi (agar korxonada shunday fond mavjud bo'lsa), bank krediti va foyda (xarajatarni mahsulot tannarxiga kiritish yo'li bilan) hisobiga yig'iladi. Aylanma mablag'larning kelgusi davr xarajatlari (N_{kd}) normasini hisoblashda quyidagi formulaga amal qilinadi:

$$N_{kd} = R + R_{ich} + R_t$$

bu yerda: R – yil boshida kelgusi davr xarajatlari uchun sarflanishi mo'ljallangan mablag'lar miqdori (buxgalteriya hisoboti bo'yicha);

R_{ich} – rejadagi yilda loyiha-smetalarda ko'zda tutilgan ishlab chiqarish xarajatlari;

R_t – o'zlashtirilayotgan mahsulot tannarxiga kiritiluvchi hamda smetalarda ko'zda tutiluvchi yoki maxsus manbalar hisobiga qoplanuvchi xarajatlar.

Alovida elementlar bo'yicha aylanma mablag'lar xarajatlari normalari aniqlangandan so'ng, aylanma mablag'larga bo'lган umumiy ehtiyojlar (normativ) miqdori hisoblanadi. Korxona aylanma mablag'lari bo'lgan umumiy ehtiyoj, ishlab chiqarish zahiralari (xom ashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, xarid qilinuvchi mahsulotlar, qadoqlash va o'rov materiallari, yoqilg'i va hokazolar), tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va kelgusi davr xarajatlaridan iborat bo'ladi.

6.2-jadval

Aylanma mablag`larning kelgusi davr xarajatlari normativini hisoblash bo'yicha misol

Xarajatlar turi yoki guruhi	Yil boshiga qoldiq, ming so'm	Bir yillik xarajatlar, ming so'm	Bo`lishi kerak	Yil oxiriga qoldiq, ming so'm
Yangi turdagи mahsulot-larni o'zlashtirish bo'yicha xarajatlar, jami	180	348	448	80
Jumladan:				
A mahsulot	90	148	238	-
B mahsulot	90	200	210	80

6.4. Aylanma mablag`lardan foydalanish ko`rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari

Aylanma mablag`lar aylanishini tezlashtirish nafaqat korxona uchun, balki butun xalq xo'jaligi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. U resurslarning nisbiy ozod qilinishi, ijtimoiy xarajatlarning kamaytirilishiga ko`maklashadi va iqtisodiy rejalashtirish sur'atini oshiradi.

Korxona aylanma mablag`laridan samarali foydalanish uchta asosiy ko`rsatkichni tavsiflaydi:

- aylanish koeffitsienti;
- aylanma mablag`larning yuklanish koeffitsienti;
- vositalarning bir marta aylanishi davomiyligi.

Aylanish koeffitsienti korxona aylanma mablag`larining ma'lum bir vaqt (yil, chorak) davomida amalga oshiruvchi aylanishini tavsiflaydi yoki aylanma mablag`larning har 1 so'miga to'g'ri keluvchi sotilgan mahsulotlarni ko`rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_a = R_m : S_a$$

bu yerda: R_m – sotilgan mahsulot hajmi, pul o'lchovida;

S_a – aylanma mablag`larning o'rtacha qoldiq

hajmi, pul o'lchovida (aylanma mablag`lar normativi).

Misol. Korxonaning bir yil mobaynida sotilgan mahsulotlari hajmi 800 mln so'mni tashkil qiladi. Bu holda aylanma mablag`lar normasi 200 mln so'mni tashkil qiladi. Demak $K_a = 4,4$ ($880 : 200$).

Aylanma mablag`larni yuklanish koeffitsienti aylanish koeffitsientiga teskari bo'lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so'm mahsulotga sarflangan aylanma mablag`larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_{yu} = S_a : R_m$$

Bir marta aylanish davomiyligi kunlarda o'lchanadi hamda shu davrdagi kunlar sonini aylanish koeffitsientiga nisbatli orqali quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T = D : K_a$$

bu yerda: D – shu davrdagi kunlar soni (360, 90).

Aylanma mablag'larning to'liq aylanish muddati qanchalik kichik yoki bu aylanishlar soni qanchalik ko'p bolsa, aylanma mablag'lar shunchalik kam talab qilinadi va aksincha, aylanma mablag'lar qanchalik tez aylanishda bolsa, shunchalik samarali ishlatiladi.

Bugungi kunda aylanma mablag'larda, ayniqsa, korxonalarining moddiy-tovar boyliklarida band bo'lgan yirik miqdordagi pul mablag'lari ularning to'liq saqlanishiga e'tibor qaratish, ulardan maqsadlarga muvofiq va samarali foydalanish, shuningdek, ularning aylanishini tezlashtirishni talab qiladi. Korxonalar oldiga qo'yilgan vazifalarни bajarish quyidagilarni amalgga oshirishni talab qiladi:

- ✓ fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng qo'llash;
- ✓ ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida ilmiy jihatdan asoslangan norma va normativlar tizimini yaratish;
- ✓ korxonalarini uzoq muddatli xo'jalik aloqalari yuritishga o'tkazish va kooperatsiya qilishni rivojlantirish;
- ✓ mahsulotlar, moliyaviy, moddiy va kuch-quvvat resurslarining sifat balansini tuzish;
- ✓ boshqarish tizimini tashkil etishning va rag'batlantirishning optimal shakllarini qo'llash.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish uchun ko'rashda har bir korxona ularning ishlab chiqarish va muomalada bo'lish muddatini qisqartirishga erishishi zarur. Gap shundaki, aylanma mablag'larning muomala sohasida sekin harakatlanishi korxonaning bu vositalardan ishlab chiqarishda foydalanishda erishgan yutuqlarini yo'qqa chiqarishdan tashqari, ularning umumiy aylanishini ham sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli tayyor mahsulotni iste'molchiga yetqazib berishni tezlashtirish yoki mahsulotni realizatsiya qilish muddatini qisqartirish ham aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirishning muhim yo'li hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish samarasini, ulardan foydalanishni yaxshilash tufayli kamroq iste'mol qilinishi yoki qisman ozod qilinishida aks etadi. Aylanma mablag'lar mutlaq yoki nisbiy ozod qilinishi mumkin.

Mutlaq ozod qilish korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishni tavsiflaydi hamda mayjud resurslardan ratsional foydalanishga oid turli tashkiliy-texnik choratadbirlar hisobiga amalgga oshiriladi.

Misol. Korxona aylanma mablag'larining o`rtacha miqdori 2000 yilda 100 mln so`mni tashkil qiladi. 2001 yilda ishlab chiqarish hajmini o`zgartirmagan holda 90 mln so`m miqdorida ehtiyoj rejalashtirilmoqda. Bu holda asosiy vositalarning mutlaq ozod qilinishi 10 mln so`mni tashkil qiladi.

Nisbiy ozod qilish aylanma mablag'lari hajmining o`zgarishi hamda sotilgan mahsulot hajmining o`zgarishini aks ettiradi. Uni aniqlash uchun hisobot yilda aylanma mablag'larga ehtiyojni, mahsulotni mazkur davr mobaynida sotish bo'yicha haqiqiy aylanish hamda o'tgan davrdagi aylanishni (kunlarda) inobatga olgan holda hisoblash zarur. Ular o`rtasidagi farq ozod qilingan vositalar miqdorini beradi.

Misol. Korxonada 1999 yilda sotilgan mahsulot qiymati 360 mln so`mni, 2000 yilda esa 400 mln so`mni tashkil qilgan. Aylanma mablag'larning o`rtacha qoldig'i 1999 yilda 100 mln so`m, 2000 yilda esa 95 mln so`mni tashkil qilgan. Aylanish muddati 1999 yilda 100 kun ($100 \times 360 : 360$). 2000 yilda aylanma mablag'larga ehtiyoj 111 mln so`m ($400 \times 100 : 360$). 1999 yilda aylanma mablag'larning o`rtacha qoldig'i 95 mln so`mni tashkil qilganini hisobga oladigan bo`lsak, vositalarning nisbiy ozod qilinishi 16 mln so`mni ($111 - 95$) tashkil etadi.

Nazorat savollari:

1. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish aylanma fondlaridan qanday farq qiladi?
2. Aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi asosiy elementlar qaysilar?
3. Aylanma mablag'lar tuzilmasi deganda nima tushuniladi? Qaysi omillar uning o`zgarishiga ta'sir ko`rsatadi?
4. Qaysi ko`rsatkichlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va aylanma mablag'lardan foydalanish darajasini tavsiflaydi?
5. Qaysi omillar aylanma mablag'larning aylanish darajasiga ta'sir ko`rsatadi?
6. Korxonaning normativ bazasi deganda nima tushuniladi?
7. Korxonaning normativ bazasini mukammallashtirish qanday ahamiyatga ega?
8. Korxonada mahsulotning material sig`imini kamaytirish qanday ahamiyat kasb etadi?
9. Aylanma mablag'larni normalashtirishning mohiyati va ahamiyati qanday?
10. Korxonada mahsulot material sig`imini kamaytirishning asosiy yo'llari va yo`nalishlari qanday?

VII BOB. SANOATDA KADRLAR VA MEHNATGA HAQ TO'LASH

Reja:

- 7.1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli.
- 7.2. Kadrlar, ularning tarkibiy tuzilmasi. Kadrlar tanlash va uni joy-joyiga qo'yish.
- 7.3. Xodimlar mehnatiga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari.
- 7.4. Tarif tizimi elementlari.
- 7.5. Mehnatga haq to'lash shakllari.

Tayanch iboralar: kadrlar saloxiyati, mutaxassislik, ixtisoslik, malaka, tarif tizimi, tarif setkasi, tarif stavkasi, tarif malaka ma'lumotnomasi, ishbay ish haqi, vaqtbay ish haqi.

7.1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli

Sanoat taraqqiyotining muammolari umumiy majmuida uni xodimlar bilan ta'minlash masalasi, ularning manbalari, tayyorlash va qayta tayyorlash shakllarini hamda ulardan oqilona foydalanish masalalarini aniqlash alohida o'rinni egallaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharotida sanoat korxona (firma) larni kadrlar (xodimlar) bilan ta'minlash va ulardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xodimlar (kadrlar) uzlарining bilimi va ilmi, mehnat malakasi, ishlab chiqarish tajribasi va ma'naviyati bilan ishlab chiqarish kuchlarining muhim unsuri hisoblanadi. Ular fan-tehnika taraqqiyoti rivojining, mehnat unumdorligini oshirish, asosiy va aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash, mahsulot sifatini oshirishning va uning tannarxini pasaytirishning hamma sohalari, hamma tomonlarining samaradorligini belgilaydilar.

Shu sababli ham «Hamma ishlarni kadrlar hal qiladi» - degan mashhur qoida hozirgi kunda ham aslo o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aksincha bu asosiy fikr Respublika Prezidentining asarlari, ma'ruzelari va suhbatlarida qayta-qayta tilga olinmoqda.

Zamonaviy korxonalar faoliyatida mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan tashqari kadrlar ham katta ahamiyatiga ega. Aynan kadrlar ishlab chiqarishni boshqarib, joriy va istiqboldagi rejalashtirishni amalga oshiradilar hamda ishlab chiqarish

vositalarini foydalanishga kiritadilar. Kadrlarning kasbiy malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, korxonalarining iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari shunchalik yaxshi bo'ladi.

Korxonaning «mehnat resurslari», «kadrlar», «personal» tushunchalarini, garchi ular o'tasida ma'joziy ma'noda aytganda «xitoy devori» yo'q bo'lsa va ular kadrlar salohiyatini shakllantirish va ulardan foydalanishda bir xilda qo'llansada, bir-biridan farqlash lozim. Salohiyat (potentsial) tushunchasining o'zi lotin tilidan olingen bo'lib (potentia), imkoniyat, kuch-quvvat, yashirish imkoniyat ma'nosini anglatadi. Lug'at va qo'llanmalarda u mavjud va harakatga keltirilishi, ma'lum bir maqsadlarga erishish uchun foydalanish mumkin bo'lgan vosita, zahira, manba deb ko'rsatilgan.

Kadrlar salohiyati – mehnat resurslarining umumiyligi soni va jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbiy ko'nikmalari, korxonaning u yoki bu bo'g'inalridera va jamoatchilik ishlab chiqarishida qatnashishi bilan ifodalanuvchi mehnat resurslari yoki imkoniyatlarini ifodalaydi. Kadrlar salohiyati jamiyat mehnat salohiyatining tarkibiy qismidir.

Kadrlar korxonada mehnat bilan band bo'lgan hamda korxona shaxsiy tarkibiga kiruvchi turli kasbiy-malakaviy guruhlardagi xodimlar majmuasidir. Korxonaning **mehnat resurslari** uning ishchi kuchini tavsiflaydi. **Korxona personali** doimiy va yollanib ishlovchi, malakali va malakasiz barcha xodimlardan iborat bo'lgan shaxsiy tarkibni izohlaydi.

Ishlab chiqarishdagi asosiy «shaxs», iqtisodiyot nazariyasida talqin qilinishicha, **ishchi kuchi** – insonning mehnat qilishga jismoniy va aqliy qobiliyatlarini hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat qobiliyati, ishchi kuchini tovar holiga keltiradi. Biroq bu oddiy tovar emas. Uning boshqa tovarlardan farqi shundaki, birinchidan, u o'z qiymatidan ortiq bo'lgan qiymat yaratadi, ikkinchidan, uni jalb qilmasdan biron-bir ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish mumkin emas, uchinchidan, asoiy fondlar va aylanma mablag'lardan samarali foydalanish darajasi, xo'jalik yuritish iqtisodiyoti ko'p jihatdan unga bog'liq bo'ladi.

Korxonalarda ishchi kuchi va umuman kadrlar salohiyatidan samarali foydalanishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: xodimlarning moddiy manfaatdorligi, atrof-muhit, aqliy, jismoniy va asablar kuchlanishi, boshqarish usullari va hokazolar. Ayniqsa

mehnat uchun ijtimoiy sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi (7.1-rasm).

Mehmatning ijtimoiy sharoitlari



7.1-rasm. Mehnat yuklamasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Kadrlar siyosatining dolzarb muammolari Prezident asarlari va nutqlarida nazariy jihatdan chuqur mushohada etilgan va har taraflama asoslاب berilgan. Kadrlar siyosati Senat tomonidan ko'rib chiqiladi, ko'pgina qonun va qarorlarda o'z ifodasini topadi.

1997 yilning avgust oyida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi va ta'lim tizimining aniq strategiyasi yaratildi. Bu dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafko'raviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yugori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Bu strategik fenomen mamlakatimizda ta'lim tizimini eng zamонавиy talab – ehtiyojlar asosida o'zgartirib yubordi. Davrimizning bu ulug'vor hujjati qabul qilingandan beri kadrlar tayyorlash borasida tub yangilanishlar yuz berdi.

Lekin keyingi vaqtida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan mutaxassislar yetishmayotganligi sezilib qoldi. Shu sababli Respublika Prezidenti va Senat hamda Vazirlar Mahkamasi istiqlol, mustaqillik bilan hamkorlik qilishga rozi bo`lgan, tayyor turgan barcha mutaxassislarni ishga jalb eta oldi. Ayni bir vaqtida yoshlardan orasidan rahbar kadrlarni izlash, tanlash, tayyorlash va tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Mavjud xodimlardan g`oyat oqilona foydalanish manfaatlarini ko`zlab, ularni bir ish sohasidan boshqa ish sohasiga hamda bir hududdan boshqa bir hududga yuborish usulini keng qo'lladi.

Mustaqillik yillarida xalq xo`jaligining barcha sohalari uchun yuksak malakali kadrlar tayyorlash borasida juda katta ishlar qilindi. Milliy iqtisodning, jumladan, sanoatning hal qiluvchi uchastkalariga rahbarlik izlanuvchan, yangilikka intiluvchi, fidoyi, tafakkuri o`tkir, tashkilotchilik qobiliyati zo`r, o`z ishini yaxshi biladigan mutaxassislar qo`lida jamlangandir.

Mamlakatimizda XXI asr kadrlari o'sib yetishmoqda, ular iqtisodiy, ijtimoiy va fan-texnika taraqqiyotining eng murakkab muammolarini hal etishga qodirdirlar.

7.2. Kadrlar, ularning tarkibiy tuzilmasi. Kadrlar tanlash va uni joy-joyiga qo'yish.

Kadrlar (xodimlar) – bu muayyan kasbni egallash bo'yicha tayyorgarlikni o'tgan, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmasiga ega bo`lgan ishlab chiqarish sohasida ish bilan band bo`lgan kishilardir.

Kadrlarga bo`lgan talabni aniqlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash, ulardan okilona foydalanish, kadrlarning mehnati bo'yicha rejalashtirish va hisobga olish va boshqa yo`nalishlar bilan mujassamlashtirish uchun xodimlarni guruhlarga ajratish kerak bo'ladi, ya`ni tasniflash zarur.

Ishlab chiqarish, xo`jalik faoliyatida qatnashishiga qarab sanoat tarmog`ida band bo`lgan barcha kadrlar ikki guruhg`a bo`linadi:

- ❖ sanoat ishlab chiqarish xodimlari;
- ❖ nosanoat ishlab chiqarish xodimlari;

Mahsulot ishlab chiqarish doirasida band bo`lgan xodimlarning barchasi sanoat ishlab chiqarish xodimlari guruhiga kiradi. Sanoat

ishlab chiqarish xodimlari o'z navbatida bajaradigan funktsiyasining tavsifiga qarab quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

1. Ishchi xodimlar;
2. Muhandis-texnik xodimlar;
3. Xizmatchilar;
4. Ish bajaruvchi kichik xodimlar;
5. Qorovullar va o't o'chiruvchilar, ya'ni korxonani qo'riqlaydigan va yong'indan muhofaza qiluvchi xodimlar.

Sanoat ishlab chiqarish xodimlarning eng muhim va juda ko'p qismi - bu ishchilar bo'lib, ular mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da bevosita qatnashadilar, jihozlarni ta'mirlash, mehnat buyumlari va tayyor mahsulotni bir yerdan ikkinchi joyga tashiydilar va nihoyat ta'mirlash - qurish ishlarini bajaradilar.

Ishchilardan keyingi o'rinda **muhandis-texnik xodimlar** turadi va ular rahbar xodimlar hisoblanadi. Ularga direktorlar, boshqaruvchilar, ularning muovinlari, bosh mutaxassislar, xizmat ko'rsatish bo'limlarining rahbarlari kiradi.

Xizmatchilar kategoriyasiga - hujjatlarni tayyorlovchi, ularni rasmiylashtiruvchi, hisob va nazorat ishlarini bajaruvchi, xo'jalik xizmatini bajaruvchi (agentlar, kassirlar, ish yurituvchilar, kotibalar, statistlar va boshqa Jlar kiradi.

Tarmoq va korxona faoliyatini rejalashtirish va tahlil etishda, ayniqsa mehnat unumdorligini hisoblash, o'rtacha ish haqini aniqlash, kadrlar qo'nimsizligini aniqlash uchun xodimlarning o'rtacha soni ko'rsatkichi ko'p ishlatiladi.

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi va tahlil qilinadi:

Ishchilarni qabul qilish bo'yicha aylanish koefitsienti (K_{pr}):

$$K_{pr} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan personal soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Ishdan ketish bo'yicha aylanish koefitsient (K_v):

$$K_v = \frac{\text{Ishdan bo'shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Kadrlar oqimi koefitsienti (K_t):

$$O'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganlik
K_t = \frac{\text{uchun ishdan bo'shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Korxona personali tarkibining doimiylik koeffitsienti ($K_{p.s.}$):

$$K_{p.s.} = \frac{\text{Butun yil davomida ishlagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o`rtacha ro`yxat soni}}$$

Kadrlar salohiyati miqdoriy tavsif berishdan tashqari korxona personalining sifat tavsifi ham muhim ahamiyatga ega bo`lib, u korxona xodimlarining mazkur ishlab chiqarishga kasbiy va malakaviy jihatdan yaroqlilik darajasi bilan aniqlanadi. Bu yerda birinchi o`ringa «mutaxassislik», «kasb», «malaka» «kabi tushunchalar chiqadi.

Mutaxassislik insonda ma`lum bir turdag'i ishlarni bajarish uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Masalan, iqtisodchi, buxgalter, moliyachi yoki texnik tilda – mexanik, quruvchi, energetik, geolog va boshqalar. Ishchilarning bilim va qobiliyatlariga bo`lgan talab yagona tarif-malakaviy ma`lumotnomasida (YaTMM), (MTP) va xizmatchilarga esa lavozimlar malakasi ma`lumotnomada aks ettirilgan. Bu hujjatlar asosida korxonalar ishchi va xizmatchilar tariflariga o`zgartirishlar kiritadilar.

Kasb – faoliyatning maxsus va tor ko`rinishdagi turi bo`lib, mutaxassislik kabi nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarni talab qilsada, mutaxassislikdan farqli ravishda ishlab chiqarishning o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo`shimcha ko`nikmalarni ham talab qiladi.

Malaka deganda biron-bir kasb yoki mutaxassilik bo`yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo`lgan mehnat ko`nikmalari va bilimlar darajasi tushuniladi. Ishchilar malakasi darajasini baholashda o`rtacha tarif koeffitsienti va o`rtacha tarif razryadi hisoblanadi. Tarif razryadlari va koeffitsientlari bir vaqtning o`zida bajarilayotgan ishlar murakkabligini tavsiflovchi ko`rsatkichlar hisoblanadi.

Yangidan-yangi ishlab chiqarish sohalari vujudga kelishi, fan va texnikaning rivoji, ish, shu jumladan, bir texnologik jarayonning boshqa jarayonga almashinishi bilan boshqaruv, rejalashtirish, tashkil etish, takomillashuvi bilan yangi mutaxassislliklar kasb va ixtisoslar yuzaga keladi, eskirganlari barxam topadi.

Kadrlar tarkibi va strukturasi fakat korxonalarda emas, balki tarmoqlarda ham bir-biridan farq qilishi mumkin. Bu tarmoqning murakkabligiga, korxona (firma)ning katta-kichikligiga, ularning

texnikaviy va texnologik jihatdan qurollanganligiga, ishchixizmatchilarning bilimi va ilm darajasiga va mehnat ko'nikmasiga, sohaning hamkorlik munosabatlari rivojlanganligiga va boshqa bir qator xususiyatlarga bog'liq.

7.3. Xodimlar mehnatiga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari.

Korxonalarda mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil qilish xodimlar faoliyatini rag'batlantirish, tayyor mahsulot va mehnat bozorida raqobatchilikni, rentabellikni va mahsulotlarning daromadliligini ta'minlashi lozim. Mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil etishdan maqsad – uning hajmi va xodimning korxona xo'jalik faoliyatiga mehnat faoliyatida qo'shgan hissasiga mos kelishini ta'minlash, ya'ni mehnat o'lchami va iste'mol o'lchami o'rtaсидagi mutanosiblikni ta'minlashdir.

Ish haqi – har bir xodimning sarflagan mehnati miqdori va sifatiga mos ravishda taqsimlanuvchi va xodim tasarrufiga pul shaklida kelib tushuvchi milliy daromadning bir qismidir. Ish haqi – bu mehnat uchun mukofotdir.

Xodimlar mehnatiga haq to'lash ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan mehnat resurslarining bahosidir. Boshqacha qilib aytganda, ish haqi – bu, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining korxona xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun sarflanuvchi qismidir.

Ish haqining *nominal* va *real* turlari mavjud.

Nominal ish haqi – bu xodimning ma'lum bir vaqt mobaynida bajargan mehnati uchun hisoblangan va to'langan ish haqidir.

Real ish haqi – nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori; real ish haqi – bu, nominal ish haqining «iste'mol qobiliyati»dir.

Korxonalarda ish haqi sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va uni tashkil etishda quyidagi tamoyillarni inobatga olish zarur:

- ✓ adolatlilik, ya'ni bir xil mehnat uchun bir xil haq to'lash;
- ✓ bajarilayotgan ishning murakkabligi va mehnat malakasi darajasini hisobga olish;
- ✓ mehnatning zararli sharoitlari va og'ir jismoniy mehnatni hisobga olish;

- ✓ sifatli, sidiqidildan mehnat qilishni rag`batlantirish, yo`l qo`yilgan yo`qotishlar yoki o`z majburiyatlariga mas`uliyatsiz yondashishni moddiy jazolash;
- ✓ mehnat unumdorligi sur`atini o`rtacha ish haqining o`sish sur`atlariga nisbatan tezroq o`stirish;
- ✓ ish haqi miqdorini inflyatsiya sur`atlariga mos ravishda muvofiqlashтирish;
- ✓ mehnatga haq to`lashning korxona ehtiyojlariga to`liq javob beruvchi ilg`or shakl va tizimlarini qo`llash.

7.4. Tarif tizimi elementlari

Ko`pchilik korxonalarda ish haqini hisoblash tarif tizimi, ayniqsa uning tarif stavkasi va tarif setkalari kabi elementlari asosida amalga oshiriladi.

Tarif tizimi turli normativ materiallar majmuidan iborat bo`lib, ular yordamida korxonadagi xodimlar ish haqi darajasi ularning malakasi, ishlarning murakkabligi, mehnat sharoitlari, korxonalarning jug`rofik joyi va boshqa tarmoq xususiyatlariga qarab belgilanadi. Tarif tizimining asosiy elementlariga tarif setkalari, tarif stavkalari, tarif-malaka ma`lumotnomalari, lavozim maoshlari, xizmatchilar lavozimlarining tarif ma`lumotnomalari, tarif stavkalariga ustama va qo`shimcha haqlar, ish haqiga doir mintakaviy malaka koeffitsientlari kiradi.

Tarif setkalari mehnatga haq to`lashdagi mutanosibliklarni malaka darajasini hisobga olgan holda, belgilash uchun xizmat qiladi. U tarif razryadlari va ularga mos keluvchi tarif koeffitsientlari yig`indisini ifodalaydi. Tarif koeffitsientining eng past razryadi birga teng deb olinadi. Undan keyingi tarif razryadlari mos keluvchi tarif stavkalari birinchi razryadli tarif stavkasidan necha marta katta bo`lishini ko`rsatadi.

Kadrlar, mehnat unumdorligi va ish haqi o`zaro chambarchas bog`liq bo`lgan tushunchalar hisoblanadi. Har bir korxonada mehnat va ish haqi bo`yicha reja tuzilib, uning maqsadlari ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilash zahiralarini topish va bu asosda mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo`lishi lozim. Bu rejalgara ko`ra mehnat unumdorligining o`sish sur`ati o`rtacha ish haqi suratlardan tezroq o`sishi lozim.

Tarif stavkasi – turli guruh va kategoriyadagi ishchilarning vaqt birligidagi mehnati uchun to’lanuvchi haqning mutlaq (absolyut) o’lchamidir. Minimal tarif stavkasi yoki birinchi razryadli stavka boshlang’ich hisoblanadi. U eng oddiy mehnat turiga to’lanuvchi haq darajasini belgilab beradi.

Tarif stavkalari – razryadlar shkalasidan iborat bo’lib, ularning xar biriga uz tarif koeffitsienti berilgan va xar qanday razryadning tarif stavkasi birinchi razryaddan necha marta ko`pligini kursatib turadi. Birinchi razryadning tarif koeffitsienti birga tengdir. Razryadlar miqdori va ularga tegishli tarif koeffitsentlarining miqdori korxonalarda tuziladigan jamoa shartnomasida belgilanadi. Jamoa shartnomasi tarif bitimi asosida ishlab chiqiladi va xodimlar ahvolining shartnoma shartlariga nisbatan yomonlashuvini nazarda tutmaslik lozim.

Tarif stavkasi -ish vaqtı birligi hisobiga mehnatga haq to’lashning pul bilan ifodalangan mutloq miqdoridir. Birinchi razryad tarif stavkasi va tarif stavkasi asosida shundan keyingi har bir razryadning tarif stavkasi hisoblab chiqiladi. Birinchi razryad tarif stavkasi korxonaning jamoa shartnomasi bilan belgilanadi va bir tomondan, uning moliyaviy imkoniyatlariga, ikkinchi tomondan, tarmoq bitimida aks ettirilgan mehnatga haq to’lash shartlariga bog’liq bo’ladi. Bunda u belgilangan eng kam ish haqi darajasidan kam bo’lmasligi lozim. Tarif stavkasi ishchilar mehnatiga haq to’lash darajasini belgilash uchun boshlang’ich miqdor hisoblanadi, bunda korxona mehnatga haq to’lashning qanday shakllari va tizimlari qu’llanilishini e’tiborga olmaydi.

Tanlangan vaqt birligiga qarab tarif stavkalari soatbay, kunbay va oylik maoshlardan iborat bo’ladi. Eng ko’p tarqalgan soatbay tarif stavkalari bo’lib, ular asosida turli qo’shimcha haqlar hisoblab chiqiladi. Kundalik va oylik stavkalar soatbay stavkalarni ish smenasidagi soatlar soniga va oy mobaynidagi ishlangan o’rtacha oylik soatlar soniga ko’paytirishi yo’li bilan hisoblab chiqiladi.

Tarif-malaka yo’riqnomasi normativ hujjatlardan iborat bo’lib, ular yordamida ish razryadi va ishchining razryadi belgilanadi. Ularda har bir mutaxassislikdagi har bir razryad ishchisi nazariy va amaliy jihatdan bilishi lozim bo’lgan axborot mavjud bo’ladi. Mazkur ma’lumotnomalar uch bo’limdan: «Ishlarning ta’rif-tavfsifi», «Bilish kerak» va «Ishlarga doir misollar» dan tashkil

topadi. Ilgari, 1991 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirgan «Korxonalar va tadbirkorlik faoliyati to'g'risida» gi qonun joriy qilinishiga qadar, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida foydalanish uchun majburiy bo'lgan tarif-malaka ma'lumotnomalari, hozirgi vaqtida tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, fakat ulardan foydalanuvchi korxona uchungina normativ hujjat hisoblanadi. Malaka razryadi ishchiga odatda sex yoki korxona malaka komissiyasi tomonidan beriladi.

Mehnatga haq to'lashni tashkil etish sohasidagi an'anaviy yondashuvlardan foydalanuvchi korxonalar xodimlar ish haqining miqdorini belgilash uchun tarif setkalari, tarif stavkalari va tarif-malaka ma'lumotnomalaridan foydalanadilar. Bunday korxonalarda boshqaruv mehnati xodimlari hisoblanuvchi xizmatchilar uchun shtat-maosh tizimi tatbiq etiladi. Uning o'ziga xos xususiyati shtat jadvalining tuzilishidan iborat bo'lib, unda muayyan korxonada mavjud bo'lgan lavozimlar ro'yxati, har bir lavozim bo'yicha xodimlar soni va maosh miqdori ko'rsatiladi.

Korxonaning attestatsiya (shahodat berish) komissiyasi lavozimlarining malaka ma'lumotnomalaridan foydalanishi asosida attestatsiya jarayonida xizmatchilarga malaka toifalarini beradi. Xizmatchilar lavozimlarining malaka ma'lumotnomasi alohida tavsliflardan tashkil topadi. Har bir malaka tavsifi uch bo'limdan iborat: «Lavozim vazifalari», «Bilish kerak», «Malaka talablari».

Tarif-malaka ma'lumotnomasi singari xizmatchilar lavozimlarining malaka ma'lumotnomasi tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, korxonalar ulardan ixtiyoriy ravishda foydalanishlari, uning bo'limlariga tuzatishlar va o'zgarishlar kiritishlari mumkin. Xizmatchilarini attestatsiyadan o'tqazib turish davriyilagini korxona rahbariyatining o'zi belgilaydi.

Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 18 martdagи «Mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq mehnatga haq to'lashning 0 dan 22 gacha bo'lgan razryad (daraja)lari qabul qilindi, unga ko'ra razryadlar o'rtasidagi farq 2-2,5 baravar ko'paydi. Boshlang'ich razryadning 550 so'm miqdori yagona tarif stavkasiga asos qilib olindi. Qo'shimcha haq va ustamalarning amaldagi tizimi, shuningdek, xodimlar ish haqiga qo'shiladigan rayon koeffitsentlari saqlab qolindi.

Hozirgi paytda iqtisodiyot sohasida qo'llanilatgan tarif setkasi 7.1-jadvalda keltirilgan.

Ko'pgina korxonalar hozirgi vaqtda an'anaviy tarif tizimi elementlari asosida mehnatga haq to'lashni tashkil etishning yangi, yanada samaraliroq usullarini izlash yo'lidan bormoqdalar. Bu ijobjiy hodisa bo'lib, korxonalarga o'zлari qarab chiqadigan masalalarni hal qilishda mustaqillik berishning natijasidir. Korxonada ishlovchi barcha xodimlarning mehnatga haq to'lashni tashkil etish uchun umumiy tarif setkasidan foydalanish ancha keng tatbih etilmoqda. Odatda ishchilarga beriladigan razryadlar soni avvalgidek, ya'ni 6-8 bo'lib qolmoqda. Setkadagi razryadlarning eng ko'p miqdori va ularga mos keluvchi tarif koeffitsienti muayyan korxonada ixtiyoriy ravishda belgilanishi va albatta jamoa shartnomasida mustahkamlab qo'yilishi lozim.

7.1-jadval

O'zbekistonda qo'llanilayotgan tarif setkasi

Mehnatga haq to'lash razryadi	Tarif koeffitsienti	Mehnatga haq to'lash razryadi	Tarif koeffitsienti
0	1.000	12	3.581
1	1.450	13	3.808
2	1.595	14	4.038
3	1.755	15	4.271
4	1.930	16	4.508
5	2.115	17	4.748
6	2.308	18	4.991
7	2.510	19	5.238
8	2.716	20	5.488
9	2.926	21	5.741
10	3.140	22	5.998
11	3.358		

Manba. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 24 iyuldagи Farmoni. «Xalq so'zi», 1996, 25 iyul'

7.5. Mehnatga haq to'lash shakllari

Zamonaviy sharoitlarda korxonalarda mehnatga haq to'lashning turli tizim va shakllari qo'llanilib, ulardan eng ko'p tarqalganlari sifatida ishbay va vaqtbay usulni ko'rsatish mumkin.

Mehnatga ishbay haq to'lash ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lanadigan haqni anglatadi.

Korxonalarda ko'pincha faqat ishbay emas, balki ishbay-mukofotli haq to'lashdan foydalaniladi.

Mehnatga ishbay-mukofotli haq to'lashda ishchi bajargan ishiga haq olishdan tashqari, mukofotga ham ega bo'ladi. Mukofot asosan ma'lum bir ko'rsatkichlarga erishish - mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish, mahsulot sifatini oshirish, xom ashyo va materiallarni tejash va shu kabilar uchun beriladi.

Mehnatga vaqtbay haq to'lash tarif tizimida ko'zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt - kalendar' vaqt emas, balki normativ vaqt uchun to'lanadigan haqni anglatadi.

Vaqtbay-mukofotli haq to'lashda ishchi ishlab bergen vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma'lum bir foiz hisobida mukofot ham oladi.

Mehnatgaakkord haq to'lash tizimi mehnatga ishbay haq to'lashning bir turi bo'lib, uning mohiyatiga ko'ra, bunda bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni muddatini ko'rsatgan holda baholash amalga oshiriladi.

Korxonada quyidagi hollardaakkord haq to'lash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. korxona biron-bir buyurtmani o'z vaqtida bajara olmasa va buning uchun shartnomaga asosan yirik miqdorda jarima to'laydigan bo'lsa;
2. korxonaning to'xtab qolishiga sabab bo'luvchi favqulodda vaziyatlar (yong'in, sel, zilzila, suv toshqini yoki jiddiy sabablarga ko'ra asosiy texnologik liniyalarning ishdan chiqish hollari) ro'y berganda;
3. alohida ishlarni bajarishga o'ta zarurat tug'ilganda yoki korxonada yangi asbob-uskunalar ishga tushirilganda.

Nazorat savollari:

1. Davlatning kadrlar siyosati: mohiyati , ahamiyati va mazmuni.
2. Sanoat ishlab chiqarishi va kadrlar. Ularni guruhlarga bo'lish.
3. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va ularni tarbiyalash.
4. Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.
5. Kadrlar sonini bashorat qilish va ulardan okilona foydalanish muammolari.
6. Mehnat atamasining tushunchasi, mohiyati, ahamiyati.

7. Mehnatga haq to'lash tamoyillari va shakllari.
8. Tarif tizimi va uning elementlari.
9. Ish haqining bozor iqtisodiyotiga mos turlari.
10. Mehnatga haq to'lashni erkinlashtirish masalalari.

VIII BOB. SANOAT MAHSULOTINING SIFATI VA UNING RAQOBATBARDOSHЛИGI

Reja:

- 8.1. Sifat tushunchasi va uni oshirish zaruriyati.
- 8.2. Mahsulotning sifat ko`rsatkichlari va ularni baholash usullari.
- 8.3. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo'llari
- 8.4. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, attestatsiya va nazorat qilish

Tayanch iboralar: mahsulot sifati, sifat ko`rsatkichlari, mahsulot sifatini boshqarish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, attestatsiya

8.1. Sifat tushunchasi va uni oshirish zaruriyati

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga boshqacha printsipial talablar qo'yadi. Chunki, hozirgi zamonda har qanday firmaning omon qolishi, uning tovarlar va xizmatlar bozoridagi mustahkam mavqeい raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. O'z navbatida raqobatbardoshlik ikki ko`rsatkich bilan – baho va mahsulot sifatining darajasi bilan bog'liqdir.

Ishlab chiqarishni erkinlashtirish davrida ikkinchi omil birinchi o'ringa ko'tarilmoxda. Chunki, sifat korxonaning obro'si va yanada gullashi hamda sifatni boshqarish bo'yicha ish – bu barcha xodimlar, rahbardan tortib aniq ish bajaruvchi uchun alfa va omegasi, ya`ni avvali va oxiridir. Shu tufayli davlatning iqtisodiy, shu jumladan, sanoat siyosatida sifat masalasi muhim o'rinn egallaydi. Mahsulot sifatini oshirish – bu oqibat natijada uning miqdori, resurslarni tejash, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni to'laroq qondirish masalasi hisoblanadi. Ya`ni, har qanday mahsulot eng yuqori texnikaviy-iqtisodiy va estetik hamda boshqa bir qator talablarga muvofiq kelishi, jahon bozorida raqobat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar sifat muammosi hal etilmasa, ijtimoiy ishlab chiqarish va aholining tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi.

Sifat nima?

Mahsulot (ish, xizmat) sifati - bu shu mahsulotning har tomonidan foydalanishga mukammal ekanligini belgilovchi xususiyatlar yig`indisidir.

Mahsulot sifati - bu shu mahsulotdan ma'lum maqsadda foydalanish uchun uning yaroqlilik darajasi, mahsulotning xalq xo`jaligi ehtiyojlarini, iste`molchilarning talab va didlarini qondirish qobiliyatidir.

Sanoat mahsulotining sifati tarmoqning, korxona(firma)ning faoliyatini rejalashtirishda va uni aniqlashda qo'llaniladigan asosiy ko`rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unda mehnatni tashkil qilish, uning jihozlanish darajasi, mutaxassislarning malakasi, ishlab chiqarishni boshqarishning holati ifodalanadi. Mahsulot sifati iqtisodiy jihatdan iste`mol qiyomatining o`lchovi va foydalanish darajasi ko`rinishida namoyon bo`ladi.

Mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya bo`lib, ishlab chiqaruvchi va iste`molchilarning munosabatlarini, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, reja topshiriqlarini bajarish hamda mahsulotga baho belgilash bo`yicha korxonaning davlat bilan munosabatlarini ifoda etadi. Undan tashqari, mahsulot sifati sifatli mahsulot uchun moddiy rag`batlantirish va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilgani uchun moddiy javobgarlikka tortish bo`yicha korxonalar o`rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Mahsulot sifati texnika taraqqiyotining sur`atlarini, mehnat unumdorligini va shu orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ta`riflovchi iqtisodiy kategoriyalidir. Mahsulot sifatini muntazam ravishda yaxshilash iqtisodiyotni rivojlantirishning zarur sharti, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xalk farovonligini o`stirishni asosiy omillaridan biri bo`lib hisoblanadi.

Mahsulotning miqdori va sifati o`zaro dialektik bog`liqidir. Yuqori sifatli mahsulot sifatsiz tayyorlangan mahsulotga nisbatan jamiyat ehtiyojlarini yuqoriroq darajada qondirishga qodir. Demak, mahsulot sifatini yaxshilash ishlab chiqarish hajmini qo`shimcha xarajatlarsiz oshirish demakdir. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va miqdorining o`zaro bog`liqligi mahsulot sifatini oshirish, jamiyat ehtiyojlarini to`la qondirishga imkon beradi, mamlakatimiz

ishlab chiqaruvchi kuchlari o'sishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Sifatli mahsulot doimo o'z xaridorlariga ega. Hozirgi davrda mazkur talab qondirilgandagina mahsulotni dunyo bozoriga chiqarish mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatga eksportdan keladigan valyuta tushumini ko'paytirish orqali yangi texnika va texnologiyalar sotib olish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda uning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga va uni sotishga erishgan korxona (firma) esa o'z ishlab chiqarish salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday subyektlarning ko'payishi esa mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishi esa uning aholisini daromadlari va demak turmush darajasining ham yuksalishiga olib keladi. Natijada sifatli mahsulot va yuqori darajada ko'rsatilgan xizmatlarga talab ko'payadi. Ya'ni, sifatli mahsulot (taklif) o'zining sifatli iste'molchisini (talab)ni yaratadi. Pirovardida jamiyatda yanada yuqoriroq darajada iqtisodiy o'sish ta'minlanadi.

8.2. Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari va ularni baholash usullari

Sanoat ishlab chiqarishi o'z mahsulotlarining g'oyat turli-tumanligi, ya'ni xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Bu mahsulotlar tabiiy xususiyatlariga ko'ra har xil me'yor va xilma-xil sifat ko'rsatkichlari ega bo'ladi. Lekin, ma'lum sanoat mahsulotlarining muayyan guruhi uchun umumiy ko'rsatkichlar ishlatalishi, boshqa guruhi uchun esa o'ziga xos ko'rsatkichlar qo'llanilishi mumkin.

Mahsulot sifatiga va uning texnikaviy xususiyatlariga baho berish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi:

Iste'mol qilish xususiyatlari bo'yicha talabni qondirish ko'rsatkichlari. Bunday ko'rsatkichlar mahsulotdan tayinli, belgilangan ravishda foydalanish natijasida kerakli (zaruriy) samarani tavsiflaydi. Ishlab chiqarish – texnik vazifani bajaruvchi mahsulot uchun mehnat unumdarligi ko'rsatkichi xizmat qilishi mumkin. U baholanayotgan mahsulot yordami bilan qanday hajmdagi mahsulotni tayyorlash yoki ma'lum davr ichida qanday

hajmdagi ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatishi mumkinligini ifodalab beradi.

Mustahkamlik ko`rsatkichlari – buyumlarning buzilmasligi, yaxshi saqlanishi, ta`mirlashga qulayligi, shuningdek, chidamliligidir. Mashina va o`lchov asboblarining sifati ularning mustahkamligiga va uzoq ishlash qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Har bir buyumning mustahkamligi mo`ljallangan muddatda, o`z xizmat parametrlarini o`zgartirmay, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni boshqarish xususiyatidir. Vositaning, ya`ni qurolning ishlash muddati – mo`ljallangan vaqtida, o`zining ishlash qobiliyatini o`zgartirmaslik xususiyatidir.

Texnologik ko`rsatkichlar mahsulotni tayyorlash va ta`mirlash jarayonida yuqori mehnat unumdorligini ta`minlash uchun konstruktor-texnologik echimlarning samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlardir. Aynan texnika va texnologiya yordamida mahsulot ishlab chiqarishning ommaviyligi, material xarajatlarini, mablag`lar, mehnat va vaqtini oqilona taqsimlash ta`minlanadi.

Standartlashtirish va unifikatsiyalash ko`rsatkichlari – bu mahsulotning standartli, unifikatsiyalashgan va original, ya`ni ajoyib, ajralmas qismlar bilan qondirilganligi, to`ydirilganligi, shuningdek, boshqa buyumlarga nisbatan unifikatsiyalashganlik darajasi. Ular traktorni boshqarish uchun kerak bo`lgan kuchlar, muzlatgichda ruchkaning joylashishi, harorat, namlik, yorug`lik, shovqin, vibratsiya, nurlanish, yonuvchi mahsulotlarda uchar gazi va suv bug`ining yig`ilishi bo`lishi mumkin.

Ergonomik ko`rsatkichlar insonning buyum bilan munosabatini va bu buyumdan foydalanishda ro`y beradigan gigienik, fiziologik va ruhiy xususiyatlar majmuini aks ettiradi.

Estetik ko`rsatkichlar buyumlarning badiiy-konstrukturlik xususiyatlarini ifodalaydi. Ular buyumning tovar qiyofasi jonliligini, shaklining ma`qulligini, kompozitsiyaning butunliligini, mukammal bajarilganligini va barqarorligini tavsiflaydilar.

Transportabellik ko`rsatkichlari mahsulotning tashish uchun moslashganligini ifodalaydi.

Patent-huquqiy ko`rsatkichlar mahsulotning patentli himoyasini va patentli sarkilligini (asilligini) tavsiflaydi va raqobatbordoshligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Patent-huquqiy ko`rsatkichlarni aniqlashda buyumlarda yangi texnik

omillar borligini, shuningdek, mamlakatda patentlar bilan himoyalangan yechimlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Ekologik ko'rsatkichlar - bu atrof-muhitga xavfli ta'sir ko'rsatish darajasi, qaysiki mahsulotni ekspluatatsiya qilish yoki iste'mol qilishda yuzaga keladi. Masalan, zararli qotishmalarning bo'lishi, mahsulotni saqlash, tashish va iste'mol qilishda zararli qismlar, gazlar va nurlarni chiqarish mumkinligi.

Xavfsizlik ko'rsatkichlari - xaridor va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xavfsizligi uchun mahsulot xususiyatlarini tavsiflaydi, ya'ni mahsulotni montaj qilish, xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, saqlash, tashish, iste'mol qilishda xavfsizlikni ta'minlaydilar.

Yuqorida qayd qilib etilgan ko'rsatkichlarning yig'indisi mahsulot sifatini tashkil etadi. Buyum mustahkam (pishiqli), estetik jihatdan ko'zni qamashtiradigan, o'z vazifasini yaxshi bajaradigan bo'lishi lozim. Lekin, shu barcha ko'rsatkichlardan tashqari, buyumning bahosi ham muhim. Chunki, iqtisodiy muqobil sifat masalasi baho bilan chambarchas bog'liqdir. Xaridor buyum sotib olganda buyum bahosi u ega bo'lgan xossalalar to'plamini qoplashini bilish uchun ularni doimo taqqoslaysaydi.

Iqtisodiy muqobil sifat deganda, sifat va xarajat nisbati yoki sifat birligining bahosi tushuniladi va u quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K_{opt} = \frac{B_s}{X_s}$$

bu yerda: K_{opt} - iqtisodiy muqobil sifat;

B_s - buyum sifati;

X_s - buyumni sotib olish va ekspluatatsiya qilish xarajatlari, so'm.

Formulaning maxrajini aniqlash murakkab emas, chunki u buyumning sotish bahosini, ekspluatatsiya, ta'mirlash va utilizatsiya qilish xarajatlarini o'z ichiga oladi. Formula sur'atini aniqlash esa qiyinroq kechadi, chunki buyumning sifati juda ko'p va turli-tuman ko'rsatkichlardan iborat. Bu bilan alohida fan - kvalametriya ilmi shug'ullanadi. U sifatni son jihatdan, ya'ni bir so'mlik xarajatga buyum sifati birligining o'sishini baholashning yetarli darajada ma'qul usulini ishlab chiqqan.

Demak, hozirgi zamon ishlab chiqarishi sharoitida mahsulotning sifati - korxona (firma) samaradorligining,

rentabelligining muhim tashkil etuvchisidir, shu sababli unga doimo e'tibor bermoq zarur. Sifat bilan barcha – korxona direktoridan tortib, aniq ish bajaruvchigacha shug' ullanishi kerak.

Sifatni ta'minlash, loyihalash, saqlash bo'yicha barcha jarayonlar sifatni boshqarish tizimiga birlashtirilgan.

8.3. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo'llari

Har qanday ishlab chiqarishni rivojlantirish va yuksak darajaga ko'tarish uchun uni boshqarish kerak bo'ladi. «Boshqarish» iborasini mahsulot sifatiga oid qo'llaganda, mahsulot sifati va uning raqobatbardoshligini doimiy nazorat qilish, uning belgilovchi shartlar va omillarini maqsadga muvofiq ta'sir qildirish yo'llari bilan mahsulot sifatini loyixalashtirish, ishlab chiqarish va foydalanishda uning zaurur darajada o'rnatilishini, ta'minlanishini va saqlanishini tushunmoq kerak.

Mahsulotning sifatini boshqarish operatsiyalari muxandis-texnik, tashkiliy-texnologik, nazorat va boshqa jarayonlarning o'zaro bog'liqligi majmuasini tashkil etuvchi tartib doirasida olib boriladi.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagi operatsiyalardan iborat:

- ✓ mahsulot sifati darajasini belgilash;
- ✓ mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi buyum va uni ishlab chiqarish jarayonining faoliyati to`g'risidagi axborotlarni yig'ish va o'rganish;
- ✓ mahsulot sifatini boshqarish to`g'risida qaror qabul qilish va obyektga ta'sir ko'rsatishga tayyorlanish;
- ✓ boshqaruvga tegishli buyruqlarni berish;
- ✓ boshqarish natijasida mahsulot sifatining o'zgarishi haqidagi axborotlarni yig'ish va tahlil qilish.

Mahsulot sifatini boshqarishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- mahsulotning texnikaviy darajasi va sifatini uzoq muddatlarga chamalash;

- mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirish va bashorat qilish;
- mahsulot sifatini attestatsiya qilish;
- mahsulot loyixasini chizish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- mahsulot sifatini moddiy-texnika tomondan ta'minlash;
- ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash;
- mahsulot sifatini o'lchashni tashkil etish;
- mutaxassislarni tanlash, joylashtirish, o'qitish va tarbiyalash;
- sifatli mahsulot ishlab chiqarish darajasini bir tekisda olib borish;
- ishlab chiqarish vositalarini saqlash, ta'mirlashni tashkil etish;
- mahsulot sifatini oshirishni rag'batlantirish;
- mahsulot sifatini nazorat qilish;
- standartlarga, o'lchash vositalariga va texnik shartlarga rioya qilish;
- mahsulot sifatini boshqarish huquqini ta'minlash.

Mahsulotning xossalari, texnologik jarayonlarning ixtisoslashtirish xususiyatlari, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va usullarini hisobga olgan holda bajariladi.

Mahsulot sifatini yaxshilashga oid vazifalar va tadbirlar tuzilayotganda ularni amalga oshirish imkoniyatlari va maksadga muvofiqligi texnikaviy-iqtisodiy jixatdan asoslanadi.

Buning uchun quyidagilar asos qilib olinadi:

- ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga bo'lgan talablar va kelgusida uni takomillashtirish imkoniyatlari;
- mahsulotning sifat darajasini baxolash;
- ishlab chiqarilgan mahsulotda uchragan nuqsonlarni yuzaga chiqarish va ularni tahlil etish;
- laboratoriyanan o'tkazilgan sinov natijalari, iste'molchilar tomonidan yuborilgan norozilik hujjatlari, texnikaviy nazorat va ma'lumotlar;
- ilg'or korxonalarining mahsulotlari bilan taqqoslash.

Mahsulot sifatini yaxshilashga oid tadbirlar majmuasiga quyidagilar kirdi:

➤ mahsulotning sifat ko`rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan asosiy tajriba va loyixalashtirish ishlari hamda tashkiliy-texnikaviy tadbirlar;

➤ ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini takomillashtirishga oid tadbirlar;

➤ xomashyo va materiallar sifatini oshirish bo`yicha ta`minlovchilarga quyiladigan talablar;

➤ mahsulot sifatini oshirish bo`yicha o`tkaziladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba va loyixalashtirish bo`yicha ilmiy-tekshirish, loyixalashtirish tashkilotlariga beriladigan topshiriqlar;

➤ texnikaviy xujjalarni yaxshilash tadbirlari;

➤ texnologik intizomga rioya qilishni tekshirish sharoiti, ishlab chiqarishni o`lchov asboblari bilan ta`minlash, ularning aniq ishlashini kuzatib turish tadbirlari;

➤ standartlarni o`zlashtirish, ularga ryoq qilish, buyumlarni unifikatsiyalashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, nuqsonlarning oldini olish va iste`molchilar tomonidan bo`ladigan noroziliklarni kamaytirish bo`yicha tadbirlar.

Ushbu va boshqa bir qator tadbirlarning o`z vaqtida bajarilishini to`la-to`kis ta`minlash uchun ularning bajarilish muddatlari, mas`ul kishilar, muayyan xarajatlar va ularning iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi hamda boshqa ko`rsatkichlar aniqlanadi.

Ma`lumki, raqobat va raqobatbardoshlik o`rtasida dialektik aloqadorlik mavjud bulib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Raqobat korxona (firma)larni raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga va raqobatbardosh xizmatlar ko`rsatishga undaydi.

Raqobatbardoshlik nisbiy o`lchov bo`lib, uning xususiyati shundan iboratki, uni raqobat predmeti (mahsulot raqobatbardoshligi)ga nisbatan ham qo`llash mumkin.

Mahsulotning raqobatbardoshligi deganda, iste`molchining aniq ehtiyojlarini qondirish va uni xarid qilish hamda keyinchalik undan foydalanish uchun sarflanadigan xarajatlar darajalari bo`yicha uni, ya`ni mahsulot boshqa shunday tovarlardan ajralib turadigan tavsiyalar yig`indisi tushuniladi.

Mahsulotning raqobatbardoshligi - u biror bir firma tomonidan ishlab chiqarilgan, raqobatchi firmalarning xuddi shunday tovarlariga qaraganda yaxshiroq iste`mol xususiyatlari va texnik-iqtisodiy parametrlariga ega bo`lgan tovarlarning iste`molchilar tomonidan ajratib olinish «qobiliyati»dir.

Raqobatbardoshlik aynan bozorda kuzatiladi va tovarlarning iste`molchi ehtiyojlariga muvofiq kelishi solishtirib va tekshirib kuriladi. Ana shunda tovarning rakobatbardoshligi real xaridni amalga oshirayotgan xaridor uchun jozibadorlik darajasini ko`rsatadi.

8.4. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, atesstatsiya va nazorat qilish

Mahsulot sifati muammosiga tegishli masalalardan biri standartlashtirishdir.

Standartlashtirish - standartlarni belgilash va qo`llash jarayoni. U normal ijodiy faoliyat bulib, sifatning optimal ko`rsatkichlarini, mahsulotning parametrik qatorlarini, nazorat qilish, sinash usullari va hokazolarni ishlab chiqishni va qat`iy belgilashni o`z ichiga oladi.

Standartlashtirish - bu mahsulot sifatini boshqarishning tashkiliy va normativ asosi hisoblanadi. U barcha normalarni standart, instruktsiya, mahsulotni asoslash uchun kerakli shartlar usuli kabi hujjalarda aks ettiradi.

Standartlashtirishning eng muhim ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarishning rivojlanish sur`ati va darajasiga zaruriy ta`sir kursatadi. Buning uchun esa standartlash fan va texnika xamda amaliy tajribalarning oxirgi yutuqlariga tayanadi.

O`zbekistonda standartlashtirish milliy iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etish bilan chambarchas bog`liqdir. Standarlashning asosiy, eng muhim vazifasi xalq xo`jaligi, axoli,

mamlakat mudofaasi uchun tayyorlanadigan mahsulotlarga yuqori talablar belgilovchi normativ-texnik xujjatlar tizimini yaratish hamda ushbu hujjatdan to`g`ri foydalanishni nazorat qilishdan iborat.

Harakatdagagi, mavjud standartlashtirish tizimi quyidagilarni ishlab chiqishga va doimiy faol holatda bo`lishiga imkoniyat yaratadi:

- yagona texnik til;
- mahsulotning muhim texnik tavsifining unifikatsiyalashgan qatorlari, ya`ni o`lcham ayirmasi (tushish, kuchlanish, tez-tez qaytalanish va boshqalar);
- umummashinasozlikda ishlatiladigan buyumlarning tipo-razmer qatorlari va namunali konstruktsiyalari (podshipniklar, krepej, kesuvchi asboblar va boshqalar);
- texnik-iqtisodiy axborotlar klassifikatorlari tizimi;
- materiallar va moddalar xossalari to`g`risida aniq ma'lumotlar beradigan dalillarni.

O`zbekiston standartlash tizimi xalqaro, regional va milliy tizimlar bilan uyg`unlashishi kerak va quyidagilarni ta`minlashi lozim:

- sifat va mahsulot nomenklaturasi, xizmat va jarayonlar, insonlarning hayoti va sog`ligi, atrof-muhitni muxofaza qilish masalalari bo`yicha iste`molchilar va davlat manfaatlarini;
- mahsulotning mos kelishining o`zaro almashuvi, ya`ni bir-birini almashtira olishini;
- inson va moddiy resurslarni tejashga ko`maklashish hamda ishlab chiqarishni iqtisodiy ko`rsatkichlarini yaxshilashni;
- ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va yirik loyihalarning normativ-texnik bazasini yaratishni;
- ishlab chiqarishda va savdoda texnik to`sirlarni bartaraf etishni dunyo bozorida mahsulot raqobatbardoshligini, xalqaro mehnat taqsimotida samarali qatnashishini va h.k.larni ta`minlashi kerak.

Standartlashtirish bir qator tamoyillarga asoslanadi:

- tarmoqlanish - bir xil umumiyl xususiyatga ega bo`lgan narsalar, jarayonlar, munosabatlар, tatbiq etish mumkin bo`lgan obyektlar doirasini aniqlaydi;

- variantlilik – oqilona xilma-xillik, rang-baranglikni yaratish
- standartlashgan obyektga kiruvchi standart elementlarning oqilona turlari minimumini ta'minlaydi;
 - tizimlilik – standartga tizim elementi sifatida qaraydi;
 - o'zaro almashuvchanlik – texnikaga muvofiq turli vaqt – makonning turli nuqtalarida tayyorlangan bir xil detallarni yig`ish yoki almashtirishni nazarda tutadi.

Standart deganda nima tushuniladi?

Standart inglizcha «standard» so`zidan olingan bo`lib, norma, namuna, o'lcham ma`nosini bildiradi. U boshqa obyektlarni taqqoslash uchun dastlabki obyekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model', standartlanadigan obyektga qo'yiladigan va vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangan normalar, qoidalar, talablarni belgilovchi normativ-texnik hujjat. Standart inson faoliyatining barcha sohasiga, ilm-fanga, texnikaga, sanoat, qishloq xo`jaligiga, qurilishga, transport va aloqaga, ta`lim va boshqa sohalarga taalluqlidir.

Mustaqillik yillarda O`zbekiston Respublikasining Davlat standartlash tizimi (DST) shakllandi va u O`zbekistonda standartlar tuzish, izohlash va tarqatish jarayonlarini tartibga keltirdi. Bu borada O`zbekiston Standartlashtirish, meteorologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O`zstandart») olib borayotgan keng ko`lamli ishlarni alohida e'tirof etish joiz.

«O`zstandart» agentligi bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotning sifat darajasini belgilovchi, ko`rsatkichlar raqobatdoshligini ta`minlovchi, ishlab chiqaruvchilarga yetarli miqdorda axborotlar yetkazib beruvchi markazdir.

«O`zstandart» agentligi tomonidan ishlab chiqilgan «Sifat menejmenti va mahsulotlarni sinash» tizimi mahsulot sifat ko`rsatkichini baholash bilan birga me`yoriy xujjatlar asosida to`g`ri ma'lumotga ega bo`lish talablarini o`rnatadi.

Hozirgi kunda Davlat standartlash tizimi (DST) beshta asosiy standartlarni o`z ichiga oladi:

1. O`zbekiston Respublikasi standartlashtirish tizimi. Asosiy qoidalar;

2. Tarmoq standartlari.

3. Texnik shartlarni kelishish, tasdiqlash va ro`yxatdan o`tkazish tartibi;

4. Korxonaning standartlari. Umumiy qoidalar.

5. Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan Xalqaro standartlashtirishning roli, ahamiyati beqiyos darajada kuchaydi. Chunki, xalqaro standartlashtirish ilmiy-teknika va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. Ular xalqaro aloqalarni kengaytirishga, mavjudlarini takomillashtirishga yordam beradi. Hozirgi kunda jahonda 400 dan ortiq Xalqaro va regional (hududiy) tashkilotlar mavjud (2000 yil). Standartlashtirish sohasida yirik xalqaro tashkilotlar - BMTga qarashli Yevropa iqtisodiy komissiyasi (EEKOON), standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot (ISO) ishlab turibdi.


Mahsulot sifati nazariyasи va amaliyotida mahsulotni sertifikatlashtirish masalasi muhim o'rın tutadi.

Mahsulotni sertifikatlashtirish, uning aniq belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash usullaridan biri hisoblanadi.

Mahsulot yoki bajarilgan ishning belgilangan talablarga muvofiqligiga oid faoliyat uchun tegishli xujjat beriladi. Uni «sertifikat» deb ataydilar.

Sertifikat lotincha «certificatis» so'zidan olingan bo'lib, tasdiqlangan degan ma'noni bildiradi. Birinchidan, u biror faktini tasdiqlovchi hujjat (masalan, malaka oshirilganligi to'g'risidagi hujjat); ikkinchidan, maxsus obligatsiyalar va aktsiyalarning nomi; uchinchidan, sug'urta shartnomasida uning shartlari yoziladigan hujjat; to'rtinchidan, maxsus idoralar (savdo palatasi, Davlat inspeksiyasi va boshqalar) beradigan va mahsulot, tovar, buyum, mol sifatini tasdiqlaydigan hujjat; beshinchidan, qishloq xo'jaligida urug'lik navini va sifatini tasdiqlaydigan hujjat. Sertifikat bo'lмаган taqdirda urug'lik (oddiy) navsiz don sifatida qabul qilinadi.

Muvofiqligini tasdiqlash jarayonida bajariladigan operatsiyalar, ya'ni har bir ayrim ish faoliyatlarini quyidagi chizmada ko'rish mumkin:



8.1-chizma. Sertifikatlashtirish.

Respublikada sertifikatlash ishlarni yaxshilash maqsadida 1993 yilning 28 dekabrida Oliy Majlis tomonidan «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to`g`risida»gi qonun qabul qilingan. Mazkur qonun sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek, majburiyatlар va javobgarliklarni belgilab beradi. Ushbu qonun 4 ta bob va 23 moddadidan iborat bo`lib, ularda Umumiy qoidalar, sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar, mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish, nizolarni qarab chiqish, sertifikatlashtirish to`g`risidagi qonun hujjalarni buzganligi uchun javobgarlik masalalari bayon etilgan.

Standartlashtirish va sertifikatlashtirish ishlarni tashkil etish, muvofiglashtirish O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O`zbekiston Davlat standartlash, metrologiya va sertifikatsiya markazi «O`zdavstandart», Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasi, tabiatni muhofaza qilish Davlat qo`mitasi va

O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Qisqacha xulosalar

1. Mahsulot sifati sanoat ishlab-chiqarish xo'jalik faoliyatining asosiy, eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifati mahsulotning iste'mol xususiyatlari majmui bo'lib, uning xalq xo'jaligi va aholining muayyan ehtiyojlariga yaroqliligini ifodalaydi.

2. Mahsulot sifati tayyorlangan mahsulotning mustaqilligi, qulayligi, ishonchliligi, chidamliligi, tejamkorligi, go'zalligi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli mahsulot sifatini yaxshilash jamiyatga juda katta samara keltiradi: mablag'larni tejaydi, tannarxni kamaytirish, foydani ko'paytirish va shu asosda mamlakat xazinasini to'ldirishga imkon beradi.

3. Mahsulot sifatini yaxshilash va uning raqobatbardoshlilagini ta'minlash davlat siyosatining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli Oliy Majlis qonunlarida, Prezident farmonlarida va hukumat qarorlarida mahsulot va ish sifatini oshirishga alohida e'tibor berilib, ularda barcha turdag'i mahsulotlarning texnik darajasi, tejamliligi va sifati oshirilsin deyiladi, yangi o'zlashtiriladigan mahsulotlar o'zining sifat va texnik-iqtisodiy xarakteristikalari jihatidan jahon fan-texnika va texnologiyasi erishgan ilg'or yutuqlarga mos boshqa bir qator ko'rsatmalar berilgan.

4. Mahsulot sifati muammosiga tegishli masalalardan biri standartlashtirishdir. Yana bir muhim masala - sertifikatlashtirishdir. Bu ikki faoliyat fan-texnika, amaliy tajribalarning oxirgi yutuqlariga tayangan holda ishlab chiqarish rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

5. Mahsulot sifati oshirilishini attestatsiya qilish va rag'batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mahsulot sifatini moddiy ragbatlantirishda mahsulotning bir me'yorda ishlab chiqarilishi ko'rsatkich sifatida e'tiborga olinishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti va sifat siyosati.
2. Sifat kategoriyasining mohiyati va ahamiyati.
3. Mahsulot sifati ko'rsatkichlari.
4. Sifat, baho va baholash.
5. Mahsulot sifatini boshqarish.
6. Standartlashtirish va standartlar.
7. Sertifikatsiyalash va sertifikatlar.
8. Sifat va xorijiy tajribalar.
9. Mustaqillik yillarda mahsulot sifatini va uning raqobatbardoshligini oshirish borasidagi yutuqlar va istiqboldagi vazifalar.

IX BOB. SANOATDA TANNARX, FOYDA VA ISHLAB CHIQARISH RENTABELLIGI

Reja:

- 9.1. Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari.
- 9.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhlash.
- 9.3. Foydaning mohiyati va uning turlari.
- 9.4. Rentabellik va uning turlari.
- 9.5. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari.

Tayanch iboralar: xarajatlar, mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya moddalarli, mahsulotdan olingan foyda, mahsulot rentabelligi, ishlab chiqarish rentabelligi.

9.1. Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari

Iqtisodiyot nazariyasida qiymat va tannarx masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qiymat tushunchasi borasida bir qator munozarali fikrlar mavjud. Ayrim iqtisodchi olimlar tovarning qiymatini uning natijaliligi bilan bog`lasalar, ayrimlari tovar qiymati - tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarda gavdalangan va unda moddiylashgan ijtimoiy mehnati, deb hisoblaydilar. Boshqalari esa tovarning qiymatini ushbu tovarga bo`lgan talab va taklif, ya`ni tovarning noyobligi belgilaydi, deb hisoblaydilar.

Umuman olganda, tovarning qiymati uning boshqa tovarga ayirboshlana olish darajasini aniqlash uchun zarurdir. Narx (baho) va qiymat tushunchalari orasida deyarli farq yo`q. Faqatgina narx (baho) - bu tovar qiymatining puldag'i ifodasidir xolos.

Iqtisodiyotda **mahsulot ishlab chiqarish tannarxi** kategoriyasidan ham keng foydalilaniladi. Qiymat va ishlab chiqarish tannarxi o`rtasidagi tafovut ishlab chiqarish subyektining daromadi yoki foydasi hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi - mahsulotni ishlab chiqarish bilan bevosita bog`liq bo`lgan, ya`ni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarning puldag'i ifodasidir.

Sanoat oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bu mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishdir. Bu vazifaning bajarilishi natijasida ishlab chiqarishni rivojlantirishga va aholining turmush darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha resurslardan bekami-ko'st foydalanish bu ko'rsatkichlarning rolini oshirish zaruriyatini taqozo etadi. SHU sababli tannarx atamasining mohiyati, ahamiyati, mazmuni va shakllarini yaxshi bilish hamda uni pasaytirish masalasiga katta e'tibor berish kerak bo'ladi.

Biron-bir mahsulot ishlab chiqarish uchun ma'lum miqdorda xomashyo va materiallar, mehnat va boshqa ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan yuklama xarajatlar sarflanadi. Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarning puldagi ifodasi **mahsulot ishlab chiqarish tannarxi** deb ataladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichi ishlab chiqarishni rivojlantirishda va uni tashqil etishda muhim o'rinn tutadi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, ya'ni foydani ko'paytirishning, mavjud resurslar bilan ishlab chiqarish hajmini o'stirishning muhim omili hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichi ishlab chiqarish sifat ko'rsatkichlari orasida alohida o'rinn tutadi.

Ishlab chiqarishni va mehnatni tashqil etish, texnika va materiallardan foydalanish, moddiy texnika ta'minotini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash borasidagi hamma o'zgarishlar xarajatlar darajasida aks etadi. Shu sababli ham biz mahsulot tannarxi ishlab chiqarish samaradorligining sifat ko'rsatkichlari tizimida muhim o'rinn egallaydi, deya olamiz. Binobarin, shuning uchun ham mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi.

9.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhash

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini aniqlash va uni hosil qiluvchi xarajatlarni turkumlash mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab

chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko`ra quyidagi **elementlar** bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarilib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan mehnatga haq to`lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyat iga ega bo`lgan boshqa xarajatlar.

I. Ishlab chiqarish bilan bog`liq moddiy xarajatlar.

Ishlab chiqarish bilan bog`liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo`ladi:

1. Ishlab chiqariladigan mahsulot asosini tashkil etib uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko`rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar.

2. Normal texnologiya jarayonini ta`minlash va mahsulotlarni o`rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o`tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalanadigan, harid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarini tuzatish uchun ehtiyoj qismlar, instrumentlar, moslamalar, inventar, priborlar laboratoriya asbob-uskunalarini va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa arzon baho ashyolarning eskirishi.

3. Sotib olinadigan, kelgusida ushbu Xo`jalik yurituvchi subyektda montaj qilinadigan yoki qo`shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

4. Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo`jalik yurituvchi subyektning ichki tarkibiy bo`linmalari tomonidan

bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo`lmagan, lekin ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan ishlar va xizmatlar.

5. Tabiiy xomashyo (yer rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to`lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to`lash, sanoat korxonalari tomonidan suv xo`jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to`lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun – yog`och-taxta materiallardan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari.

6. Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg`ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, Xo`jalik yurituvchi subyektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatish bo`yicha transport ishlari.

7. Xo`jalik yurituvchi subyektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish hamda Xo`jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdag'i xarid qilinadigan energiya.

8. Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo`qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo`qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

9. Xo`jalik yurituvchi subyektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog`liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumлага kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to`lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlari va boshqa lar).

10. Xo`jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moddiy resurslarni yetqazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymat iga kiritiladi.

11. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o`rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo`yicha chiqarib tashlanadi.

12. «Moddiy xarajatlar» elementi bo`yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, jumladan, barter bitishuvlarida, qo`shimcha narx (ustama) dan, ta`minot, tashqi

iqtisodiy tashqilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik takdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymat idan, xususan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'ilmardan, transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetqazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

II. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajariladigan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajariladigan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar.

2. Kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar.

3. Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar, shu jumladan:

- texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari, vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

- ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

- hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iklim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, xususan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish stoji uchun ustamalar;

- aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va katta yo'llar xodimlari doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega bo'lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo'jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan jo'nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytigacha to'lanadigan yo'lda o'tgan har bir sutka uchun tulanadigan ustamalar;

- qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va usuli bilan ishlarni bajargan xodimlarga ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

- doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq;

- mehnatga haq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffitsientlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho'l, suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to'lovlar;

- xo'jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan (yig'ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo'lda o'tadigan kunlar uchun va ishslash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko'ra va transport tashkilotlari aybi bilan yo'lda tutilib qolingan kunlar uchun tarif stavkasi.

4. Ish va usulida tashkil etilganda, ish vaqtini jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlagan ish vaqtini uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash.

5. Ishlamagan vaqt uchun haq to'lash:

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi (har yilgi) foydalanimagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

- majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to'lash;

- donor xodimlarga qonini tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqa lar) mehnat haqi to'lash.

6. Xo`jalik yurituvchi subyekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo`yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to`lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob Xo`jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumлага kiradi.

7. Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to`lash fondiga kiritiladigan to`lovlarning boshqa turlari.

III. Ishlab chiqarishga tegishli bo`lgan ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar.

Ijtimoiy sug`urtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

1. Qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo`yicha mehnatga haq to`lash fondiga ijtimoiy tusdagi majburiy ajratmalar.

2. Nodavlat pensiya jamgarmalariga, ixtiyoriy tibbiy sug`urtaga va ixtiyoriy sug`urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

IV. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo`lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo`yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmaları summasi (hisoblangan eskirish), lizing bo`yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumлага kiradi.

2. Ishlab chiqarish ahamiyat iga ega bo`lgan nomoddiy aktivlar eskirishi har oyda Xu`jalik yurituvchi subyekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo`jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo`ladi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkonи bo`lmagan nomoddiy aktivlar bo`yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo`jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

V. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarni hisobga olishning navbatdagi kompleks moddalari I, II, III, IV – bandlarda keltirilgan xarajatlar elementlari bo'yicha ajratiladi.

1. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari:

- ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari;

- asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o'rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo'jalik yurituvchi subyektning o'z kuchi bilan o'tkazish ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to'lash xarajatlari va boshqalar) bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi.

Zarurat bo'lganda ayrim tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi subyektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan mukammal tuzatish ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zahirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi va ko'zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir obyektini mukammal tuzatishlarning davriyiligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zahiraga ajratmalar normasi har bir hisobot yili oxirida qayta ko'rib chiqiladi va zarur bo'lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zahira mablag'lari summasi ushbu obyektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak: agar haqiqiy xarajatlar zahiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi.

- yong'indan saqlash va qo'riqlashni hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarni texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablar bilan ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Idoradan tashqari, qo'riqlash xarajatlari bunday qo'riqlash mavjud bo'lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus

talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

➤ ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar;

➤ tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, jumladan, ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yiladigan normalar doirasida va undan ortiqcha atrof-muhitga chiqarganlik uchun to'lovlar;

➤ ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlari va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari;

➤ xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan sog'likni muhofaza qilish tadbirdilari;

➤ tekin ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovqatlar qiymati, xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

➤ amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formalii kiyim-bosh, maxsus ovqatlar, yoki ular pasaytirilgan narxlar bo'yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi);

➤ ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan boshqaruvning texnik vositalarini, aloqa uzellarini, signalizatsiya vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini, hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

➤ qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to'lash.

2. Ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha normalar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar.

3. Ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'o'rtta qilish xarajatlari.

4. Brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.

5. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.

6. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari.

7. Mahsulot (xizmatlar)ni majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlari.

8. Ishlab chiqarish jaroxatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'kolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar.

9. Umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

Mahsulot tannarxi nazariyasida mahsulot tannarxi strukturasi degan muhim tushuncha mavjud. U ayrim xarajatlarning mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan jami xarajatlar summasidagi nisbatini ko'rsatadi. Odatda, struktura foiz hisobida o'lchanadi.

Tannarx strukturasi tarmoqlar va korxonalarning xususiyatiga, ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarishning tashkil qilinishiga bog'liqdir.

Mahsulot tannarxining strukturasi o'zgarmas miqdor hisoblanmaydi. Sanoatning o'sishi, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashishi, asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning yaxshilanishi, ish haqi miqdorining o'zgarishi, iste'mol buyumlari baholarining tartibga tushishi va transport tariflarining o'zgarishi bilan mahsulot tannarxi strukturasi ham o'zgaradi.

Mahsulot tannarxida qaysi guruhdagi xarajatlar asosiy o'rinn tutishiga qarab, sanoat tarmoqlari bir-biridan farq qiladi – ko'p mehnat, ko'p material, ko'p energiya, ko'p mablag' talab qiladigan bo'ladi.

Ish haqi uchun qilinadigan xarajatlar (mehnat xarajatlari) salmog'i eng katta bo'lgan ishlab chiqarish tarmog'i ko'p mehnat talab qiladigan tarmoq hisoblanadi (ko'mir sanoati, yog'och tayyorlash sanoati va boshqalar).

Xom-ashyo va materiallarga qilinadigan xarajatlar salmog'i eng katta bo'lgan ishlab chiqarish tarmogi ko'p material talab qiladigan tarmoq hisoblanadi (engil sanoat va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik).

Xarajatlarning ko'p qismi asosiy vositalar amortizatsiyasi uchun sarflanadigan tarmoqlar ko'p mablag'lar talab qiladigan

tarmoqlarga kiradi (masalan, neft` va gaz qazib chiqarish, gidroelektrostantsiyalarda elektr energiyasi ishlab chiqarish).

Ishlab chiqarishning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish, tannarx strukturasini va ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy tahlil qilish ishlab chiqarishda yuz beradigan asosiy texnik-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish, ishlab chiqarishdagi chiqimlarni kamaytirishning asosiy yo'llarini belgilashga imkon beradi.

9.3. Foydaning mohiyati va uning turlari

Korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri **foyadir**. **Foyda deb** - mahsulotni ulgurji bahoda sotishdan hosil bo'lgan pul miqdoridan uni ishlab chiqarishiga sarflangan xarajatlarni chegirib tashlangan holda paydo bo'lgan sof daromadga aytildi. Korxonalar bozor iqtisodi sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishida foyda olishning ahamiyati kattadir. Foyda ko'rsatkichi mavjud moddiy mehnat va boshqa resurslardan qay darajada foydalanganligini, tadbirkorlikning qaysi samarali shakllari qo'llanilganligini o'zida aks ettiruvchi natijaviy ko'rsatkich hisoblanadi.

Foydani bozor munosabatlarining o'ta muhim kategoriyasi sifatida talqin etish mumkin.

Birinchidan, foyda korxona faoliyati natijasida olingan iqtisodiy samarani ifodalaydi. Lekin yagona foyda ko'rsatkichi yordamida korxona faoliyatining barcha tomonlarini baholab bo'lmaydi. Bunday universal ko'rsatkichning bo'lishi ham mumkin emas, aynan shuning uchun korxonanig ishlab chiqarish-xo'jalik va moliyaviy faoliyatini tashkil qilishda ko'rsatkichlar tizimidan foydalilanildi.

Ikkinchidan, foyda rag'batlantiruvchi vazifani bajaradi. Buning mazmuni shundan iboratki, foyda bir vaqtning o'zida moliyaviy natija va korxonaning moliyaviy resurslarining asosiy elementi hisoblanadi. O'z-o'zini moliyalashtirish tamoyilining real ta'minlanishi olingan foyda bilan belgilanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari to'langandan keyin korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishni, korxonaning ilmiy-texnika va ijtimoiy rivojlanishini, xodimlarni moddiy rag'batlantirishni moliyalashtirish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Uchinchidan, foyda turli darajadagi byudjetlarni rag'batlantirish manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U soliqlar ko'rinishida byudjetlarga kelib tushadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foydaning ahamiyati juda katta. Olishga intilish tovar ishlab chiqaruvchilarni iste'molchiga kerak bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirishga, ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni kamaytirishga undaydi. Erkin raqobat sharoitida bu orqali nafaqat tadbirkorlarning maqsadiga, balki ijtimoiy ehtiyojlar qondirilishiga ham erishiladi.

Foya – bu korxonaning mahsulot sotishdan olingan foydasi (zarari) bilan mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'limgan foydalari (zararlari) yig'indisidir. Mahsulot sotish deyilganda nafaqat natural-moddiy shaklga ega bo'lgan ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish, balki ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish ham tushuniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda (YAF), bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rta sidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YAF = SST - MIT,$$

bu yerda: *YAF* – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

MIT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda – bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rta sidagi tafovut va qo'shimcha asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YAF - DX + BD - BZ,$$

bu yerda: *AFF* – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

- xo'jalik faoliyatidan olingen foyda (yoki zarar) - bu asosiy faoliyatdan olingen foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF = AFF + MD - MX,$$

bu yerda: UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingen foyda;
 MD – moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlar;
 MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliq to'lagungacha olingen foyda – bu umumxo'jalik faoliyatidan olingen foyda, plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FP - FZ,$$

bu yerda: STF – soliq to'lagungacha olingen foyda:

FP – favqulodda vaziyatlardan olingen foyda;
 FZ – favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

- yilning sof foydasi – bu soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o'zi dadaromad (foyda)dan to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlangan holda soliqlar to'lagunga qadar olingen foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS,$$

bu yerda: SF – sof foyda;
 DS – daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq;
 BS – boshqa soliqlar va to'lovlari.

Har bir korxona (firma) yashashi va ravnaq topishi uchun foyda olishi kerak. Korxona foydani o'z rivojini ta'minlovchi birinchi muhim omil deb biladi. Foydani maksimallashtirish bilan shug'ullanmaydigan korxonaning yashab ketish imkoniyati kam bo'ladi. Makroiqtisod sohasida uzoq muddatga foydani maksimallashtirish masalasiga katta e'tibor berilishi shundan iboratki, shu asosda firma faoliyati oldindan bashorat qilinadi.

Mulk egasini o'zi boshqaradigan unchalik katta bo'limgan korxona (firma)da ularni yuritish bilan bog'liq bo'lgan hamma qarorlarda foydani ko'paytirish asosiy o'rinni tutadi. Juda katta va

yirik korxona (firma) larda rahbar (boshqa ruvchi)lar kundalik qarorlarni qabul qilishda mulk egalari har doim ham boshqaruvchilar faoliyatini nazorat ostida saqlay olmaydilar. Shuning uchun boshqaruvchilarda va korxonaga rahbarlik qilishda ma'lum darajada erkinliklar bo'lib, foydani maksimallashtirish bilan yetarli shug'ullanmasliklari mumkin. Ular mulk egasi bo'limganliklari uchun uzoq muddatli manfaat o'rniga qisqa manfaatni afzal ko'rishlari mumkin. Boshqaruvchilar ko'pincha foydani maksimallashtirish o'rniga daromadni ko'paytirish yoki aktsiyadorlarni qiziqtirish uchun dividendni oshirishga harakat qilishlari mumkin. Bundan tashqari, ular yuqori lavozimga erishish yoki katta mukofotlar olish maqsadida foyda keyinchalik kamayib ketsa ham hozirgi kunning o'zida oshirishga harakat qiladilar. Shu tufayli bunday rahbarlar o'z lavozimlaridan chetlashtirilishi va korxonani boshqa rahbarlarga topshirish zaruriyati yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilgan foyda turlaridan tashqari, uning yana bir qancha turlari mavjud:

- haqiqiy foyda;
- o'rtacha foyda;
- monopol foyda yoki iqtisodiy renta;
- maksimal foyda.

Haqiqiy foyda – bu haqiqatda hisobot ma'lumotlari, ya'ni haqiqiy xarajatlar asosida aniqlangan foyda hisoblanadi. Bu foyda korxona moliyaviy faoliyatini tashkil etishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

O'rtacha foyda deganda boshqa hamma korxonalar kabi sarflangan kapitaliga bir xil foyda olish yoki bir xil rentabellikka ega bo'lish tushuniladi. O'rtacha foyda korxona (firma)ning faoliyat ko'rsatayotgan sohada, tarmoqda qolishini ta'minlaydi. Bunday foydaning yuzaga kelishi bozorning uzoq muddatli barqarorlikka erishganidan dalolat beradi. O'rtacha foydani ko'pincha iqtisodiy foyda deb ataydilar.

Iqtisodiy foyda qachon paydo bo'ladi? Agar korxona bir mahsulotni tayyorlab, sotib, haqiqatda 100 ming so'm foyda olgan bo'lsa-yu, ana shu mablag'ni boshqa mahsulot ishlab chiqarishga sarflab, uni sotganda 150 ming so'mlik foyda olsa, bunday foydani iqtisodiy foyda deb tushunish kerak. Bu holda foyda ijobjiy tus oladi. Ijobjiy iqtisodiy foyda korxonani biron-bir investor faoliyat

boshlashiga rag`batlantirsa, ijobiy haqiqiy foyda ishlab chiqarish yoki firmaning ancha oyoqqa turib olganidan darak beradi.

Monopol foyda yoki iqtisodiy renta – bu cheklangan ishlab chiqarish omillaridan foydalanish natijasida sodir bo`lgan foyda hisoblanadi. Masalan, ikkita korxona bir xil yerga ega bo`lib, yerni olish bilan bog`liq xarajatlar bir xil bo`lishi sharoitida birinchi yer transport tarmog`iga yaqin bo`lganligi uchun mahsulotni tashishga 10 mln.so`m kam sarf qilinishi mumkin, ana shu 10 mln.so`m uning qo`shimcha foydasi hisoblanadi. Iqtisodiy renta ishlab chiqarish omillari cheklanganligidan kelib chiqadi va u yoki bu ishlab chiqarish omiliga berish holatini bildirgan baho bilan shu omilning eng kam bahosi o`rtasidagi farqdan iborat bo`ladi.

Maksimal foyda – bu bir birlik qo`shimcha mahsulotni sotishdan olingen daromadni shu bir birlik qo`shimcha mahsulotga qilingan xarajat miqdori bilan bab-barobar kelishi natijasida olingen foyda. Shu holda rentabellikning eng yuqori darajasiga erishilgan bo`ladi. Shunga ko`ra, foydani maksimallashtirish degani, eng yuqori rentabellikni ta`minlash deganidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat sohasida o`tkazilayotgan tub iqtisodiy tadbirlar majmuida foydani taqsimlash masalalari muhim o`rin tutadi, zero uni,adolat yuzasidan va to`g`ri taqsimlash jamoa va har bir xodimning manfaatdorligini uyg`unlashtirish uchun sharoit yaratadi.

9.4. Rentabellik va uning turlari

Sanoat korxonalarining muhim moliyaviy ko`rsatkichlaridan biri rentabellikdir. Ishlab chiqarish rentabelligi korxona (firma) ishi samaradorligini umumlashtiruvchi ko`rsatkichlardan biridir. U korxonaning daromad olish darajisini ifodalaydi.

Rentabellik nazariyasida uning bir qancha turlari mavjud bo`lib, ularga jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ✓ sotish rentabelligi;
- ✓ asosiy faoliyat rentabelligi;
- ✓ xususiy kapital rentabelligi;
- ✓ asosiy kapital (fondlar) rentabelligi;
- ✓ permanent kapital rentabelligi;
- ✓ aylanma kapital rentabelligi;
- ✓ qarzga olingen kapital rentabelligi;

- ✓ real asosiy kapital rentabelligi;
- ✓ investirlashgan kapital samaradorligi.

1. Sotish rentabelligi deganda har bir sotilgan mahsulot summasiga qancha xarajat qilinganlik darajasi tushuniladi. Demak, bu ko`rsatkich sotilgan mahsulot qiymati bilan ana shu mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni taqqoslash asosida yuzaga keladi. Bunday koefitsient baholash siyosatidagi o`zgarishlarni va sotilgan mahsulot tannarxini nazorat qilish bo'yicha korxonaning qobiliyatini tavsiflaydi.

Sotish rentabelligini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$R_s = \frac{\text{sotilgan mahsulot tannarxi}}{\text{haqiqiy sotilgan mahsulot}}$$

2. Asosiv faolivat rentabelligi – bu ishlab chiqarishning foydaliligi, natijaliligidir. Bu ko`rsatkich ishlab chiqarish samaradorligini tavsiflaydi va quyidagicha ifodalanadi:

$$R_a = \frac{\text{mahsulotni sotishdan olingan foyda}}{\text{mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari (ishlab chiqarish tannarxi)}}$$

3. Xususiv kapitalning rentabelligi – bu korxona (firma), tarmoq xususiy kapitalining foydaliligi va natijaliligi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R_{rk} = \frac{\text{sof foyda}}{\text{xususiy xarajatlarning o'rtacha qiymati}}$$

Bunday koefitsient xususiy kapitaldan foydalanish darajasini, ya`ni korxona tomonidan xususiy kapitalning o'rtacha qiymatiga qancha sof foyda olinganligini ko`rsatadi.

4. Asosiv kapital (fondlar) rentabelligi – bu asosiy fondlar va boshqa oborotdan tashqari aktivlarning foydaliligi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$R_{ak} = \frac{\text{sof foyda}}{\text{ko'p muddatli aktivlarning qiymati}}$$

5. Permanent kapital rentabelligi – bu permanent kapitalning foydaliligi, natijaliligidir. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R_p = \frac{\text{sof foyda}}{\text{permanent kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

6. Aylanma kapitalning rentabelligi – bu aylanma kapitalning foydaliligi, natijaliligi. U har bir so`mli aylanma kapitaldan qanchalik

foyda olish mumkinligini ko`rsatadi. Uni quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

$$R_{ayl.k} = \frac{\text{sof foyda}}{\text{aylanma kapitalning o`rtacha qiymati}}$$

5. Qarzga olingen kapitalning rentabelligi - bu qarzga olingen kapitalning foydaliligi, unumliligi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$R_i = \frac{\text{sof foyda}}{\text{qarzga olingen kapitalning o`rtacha qiymati}}$$

Bu koeffitsient har bir so`mli qarzga olingen kapital qancha foyda keltirganligini ifodalaydi.

8. Real asosiy kapitalning rentabelligi uning foydaliligini ifodalaydi va har bir so`mli real asosiy kapital qancha so`m foyda keltirganligini ko`rsatadi. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$R_r = \frac{\text{sof foyda}}{\text{real asosiy kapital}}$$

9. Investirlangan kapital rentabelligi - bu investitsiya mablag`larining natijaliligi, foydaliligi. Bu ko`rsatkich investitsiya tufayli olingen mablag`larning qanchalik samara berishini ifodalaydi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R_d = \frac{\text{soliglarning foyda K to`langan foizlar summasi}}{\text{xususiy kapital K uzoq muddatli qarzli kapital}}$$

Rentabellik darajasi ko`rsatkichining yuqori bo`lishi korxona (firma) ixtiyoridagi asosiy va aylanma fondlardan oqilona foydalanilayotganini va korxona (firma)ning ma`lum miqdorda foyda (daromad) olayotganligini ko`rsatadi.

Rentabellik darajasini ko`tarish uchun sanoatning barcha tarmoqlari va korxonalarli sotilgan mahsulot hajmini oshirishga, uni ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirishga, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

9.5. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari

Mehnat unumdorligini oshirish, xom ashyo va material, yoqilg`i va elektroenergetika xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko`rsatish va boshqarish sarflarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan tashqari,

xarajatlarni tejash sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishning eng muhim manbalari hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun yangi texnika, texnologiya jarayonlarini va ishlab chiqarishni o'stirish yoki tashkil etishning ilg'or usullarini joriy qilish orqali har bir mehnatchi tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotni ko'paytirish kerak bo'ladi. Bu holda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan ish haqi qisqaradi, ammo ishchining umumiy ish haqi esa ortib boradi. Mehnat unumdorligi ish haqiga nisbatan jadal o'sgandagina tannarx pasayadi.

Mehnat unumdorligining o'sish mohiyati shundan iboratki, bunda mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan jonli mehnat ulushi kamayadi, ilgari sarflangan mehnatning ulushi esa ortadi, biroq mahsulot birligi uchun ketadigan mehnat sarfi qisqaradi.

Material, yoqilg'i va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish uchun ularni tejab sarflash, qimmatbaho materiallarni arzon, lekin yaxshi materiallar bilan almashtirish, ularni sotib olish va korxonaga keltirish bilan bog'liq bo'lган sarflarni qisqartirish kerak bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish va boshqarish uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirishga esa tarmoq va korxonalardagi ma'muriy boshqaruв apparatining sarflarini kamaytirish, asbob-uskuna, bino va inshootlarni saqlash, yoritish, isitish uchun ketadigan mablag'larni tejab-tergab sarflash orqali erishiladi.

Unumsiz xarajatlarni (jarima to'lash, penya va hokazolar) tugatish mahsulot tannarxini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllarini takomillashtirishning, ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ishlab chiqarish va mehnatni korxonaning ichida uyushtirishni yaxshilash mahsulot tannarxini pasaytirishning ta'minlovchi omillari bo'lib hisoblanadi. Masalan, texnika taraqqiyoti mahsulot tannarxini pasaytirishning barcha manbalariga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash hamda kompleks avtomatlashtirish, ximiyalash

mahsulot tayyorlash uchun sarflanadigan solishtirma xarajatlarni kamaytiradi.

Har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish darajasini hisoblash uchun eng avvalo undagi rezervlarni, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash kerak. Ular ko'zga tashlanadigan, yuzaki, juda murakkab, ko'z ilg`amaydigan bo'lishi mumkin. Faqat chuqur, har taraflama iqtisodiy-texnik tahlildan keyin ularni aniqlash, topish mumkin bo'ladi.

Rezervlar har xil belgilarga qarab guruhlarga ajratilishi mumkin. Ular eng avvalo to`planish joyiga qarab ichki ishlab chiqarish va tashqi rezervlarga ajraladi.

Tashqi rezervlarga tarmoqlar bo'yicha rezervlar, regional (hududiy) va tabiiy-ekologik rezervlar kiradi.

Rezervlar safarbar etilishi muddati bo'yicha joriy va istiqbolli rezervlarga ajraladi.

Rezervlarni ishlab chiqarish jarayonlarining elementlari bo'yicha ham guruhlarga bo'lish mumkin. Bunday rezervlarga mehnat, moddiy va asosiy fondlardan foydalanish rezervlari kiradi.

Korxona yoki tarmoq faoliyatini tahlil etish uchun rezervlarni ikkiga bo'lib ko'rish mumkin:

- tashkiliy-texnikaviy rezervlar;
- ijtimoiy-iqtisodiy rezervlar.

Mana shu yuqorida keltirilgan barcha rezervlar, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni safarbar etish, ishga solish hamda shu asosda tannarxni keskin pasaytirish uchun bir qator omillardan keng foydalanish va ularni hisoblab chiqish kerak. U ishning metodikasi, usulini «Korxonalar faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish» fanidan o'qiladigan ma'ruzalarda, amaliy mashgulotlarda chuqqurroq va har tomonlama tushuntirib beriladi.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish mehnat, moddiy va moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishishga qaratilgandir. Tannarx rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Mahsulot tannarxini pasaytirish rejasi;

2. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya etish;
3. Ishlab chiqarish xarajatlari smetasi;
4. Tovar va sotiladigan mahsulot tannarxining hisobi.

Tannarx rejasi, ikki bosqichda ishlab chiqiladi. Birinchi bosqichda, eng avvalo, hisobot yilida rejalarning bajaralishi tahlil etiladi, mahsulot tannarxini pasaytirish, foyda va rentabellikni oshirish rezervlari aniqlanadi va aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlari belgilanadi, reja loyihasi ishlab chiqiladi. Ikkinci bosqichda esa rejaning uzil-kesil loyihasi ishlab chiqiladi va bu reja topshiriqlari korxona bo'limlariga etkaziladi.

Mahsulot tannarxi va uni pasaytirish topshiriqlari davlat va korxona rejasida yuqoridan belgilanmaydigan, aksincha, korxonalarning o'zida hisob qilinadigan ko'rsatkich hisoblanadi. Shunga qaramay, mahsulot tannarxi sanoat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib qolaveradi. Chunki, sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirish ishlab chiqarishning rentabellik darajasini oshirish rezervlardan biri hisoblanadi. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo'lsa, albatta, boshqa shart-sharoitlar bir xil bo'lgan holda (masalan, xuddi o'sha mahsulotning narxi barqaror bo'lganda) uni sotishdan kelgan foyda ham shunchalik ko'p bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning mohiyati.
2. Ishlab chiqarish xarajatlarini tasniflash.
3. Boshqa xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
4. Foyda iqtisodiy kategoriya sifatida hamda uning korxonaning tijorat va ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishdagi ahamiyati.
5. Foydani shakllantirish manbalari.
6. Foydani taqsimlash va uni ko'paytirish yo'llari.
7. Rentabellikning iqtisodiy mohiyati.
8. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularni aniqlash uslubiyati.
9. Tannarxni kamaytirish yo'llari va omillari.

X BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHIDA BAHO VA BAHOLASH

Reja:

- 10.1. Baho – bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida
- 10.2. Baho tushunchasi, ahamiyati, zaruriyati va uning funktsiyalari
- 10.3. Bahoning turlari va tarkibi

Tayanch iboralar: baho, baho siyosati, ulgurji baholar, chakana baholar, xarid baholari, dunyo baholari, baho funktsiyalari, baho turlari.

10.1. Baho – bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida

Baho bozor kategoriyasi bo`lib, tovarlar ayirboshlanganda yuz beradigan munosabatlarni anglatadi. Oqilona, ilmiy jihatdan asoslangan baho va baholash iqtisodiyotning ilmiy va amaliy vositalaridan biri hisoblanadi.

Baho siyosati – bu davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy strategiyasining muhim ajralmas qismidir. Shu sababli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda, mehnatkashlarning tashabbusi va omilkorligini rivojlantirishda baho belgilash siyosati alohida o`rin egallaydi. Bahoni xo`jalik mexanizmi va o`zini o`zi pul bilan ta`minlashning ko`tarib turuvchi ustuni deyish mumkin. Jamoaning va ayrim xodimning daromadlari, ular iqtisodiy manfaatlari narxning, ya`ni bahoning to`g`ri belgilanishiga bog`liqidir.

Baho bamisol barometr kabi bozor holatini ko`rsatib turadi, u pasayib ketsa, tovar bozori kasodga uchraydi, tovar nafsiz bo`lib, uni boshqa tovar bilan almashtirish yoki uning sifatini yaxshilash zarurligi kun tartibiga qo`yiladi.

Baho pul muomalasi holatiga, kreditlash samaradorligi va iqtisodiyotning moliyaviy sog`lomligi bilan bog`liq. Davlatning, korxona (firma) lar va ularda ishlovchilarining, umuman aholining o`zaro rejali bog`lanishi baho yordamida amalga oshiriladi, ijtimoiy resurslardan foydalanish ta`minlanadi, yalpi ichki mahsulotni hisobga olish va taqsimlash amalga oshiriladi. Bahoni tovar qiymati belgilaydi, ammo bozor iqtisodi sharoitida u aniq qiymatdan yuqori

yoki kam bo'lishi mumkin, bu esa bozordagi o'sha mahsulotga bo'lgan talab va taklifga bog'liq bo'ladi. Tovar bahosining darajasi, shuningdek, tovarning ijtimoiy foydaliligi darajasi va boshqa tovarlar o'rnini bosa olishi, muomaladagi pulning harid quvvatiga ham bog'liq bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho yordamida korxonalar ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy muommolaridan biri, nima ishlab chiqarish foydali ekanligini hal etadi. Baho tovar taklifi, aholining to'lov qobiliyati, ishlab chiqarish resurslarining oshib yoki kamayib ketishi to'g'risida korxona egalariga axborot beruvchi vosita hamdir. Bahoning yana bir vazifasi qiymat o'lchovidir, bunda qilingan xarajatlar va olingan natija ma'lum bir narx yordamida hisob-kitob qilinadi.

Xo'jalik yuritish amaliyotida esa baho muhim iqtisodiy vosita, dastak deb qaraladi. Ma'lumki, qiymat ishlab chiqarish kategoriyasi bo'lib, ishlab chiqarishdagi mehnat sarflanishi bilan bog'liq munosabatlarni ifoda etadi. Tovarning yaratilishida moddiylashgan va jonli mehnat sarf etiladi. Ularning majmuasi qiymatdir. Ammo qiymat har qanday mehnat sarfi emas. Qiymat tovarni yaratishga ketgan ijtimoiy zarur mehnat sarfi, aniqrog'i ehtiyojni qondira olgani sababli bozorda tan olingan mehnat sarfidir, chunki mehnatning bir qismini, agar u kerakli bo'lmasa, bozor inkor etadi va shu qismi qiymatni yaratishda ishtirok etmaydi. Muayyan baho sharoitida ko'proq foyda olish uchun xarajatlarni kamaytirish zarur.

Baholar tovar-pul munosabatlari muomalasining shakli va realizatsiya qilinadigan mahsulot turiga ko'ra farqlanadi. Ammo bahoning turlari bir biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular yagona tizimni tashkil etadi. Mazkur tizimning muhim elementlari quyidagilardir:

a) ulgurji baholar. Ular firmalar o'z mahsulotlarini katta hajmda boshqa firmalarga yoki vositachilarga va ulgurji savdo tashkilotlariga sotayotganlirida qo'llaniladi. Ulgurji baho korxonalarga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashni, zarur foyda olishni ta'minlab berishi zarur;

b) chakana baholar. Ulardan tovarlarni bevosita iste'molchilarga sotishda foydalaniladi. Bu baholarga davlat savdosи, xususiy mulk egalari do'konlari va bozorda yuzaga kelayotgan baholar kiradi. Chakana baho darajasi aholining real daromadlari bilan belgilanadi.

v) xarid baholari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat tomonidan sotib olinishida ishlatiladi.

g) dunyo baholari xalqaro savdo munosabatlarida qo'llaniladi.

Baholar tovar ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z vazifalari orqali ta'sir etadi. Bozorda turli mehnat sarflari umumiy, ya'ni ijtimoiy zarur mehnat sarfiga keltiriladi va shu sarfning pulda ifodalanishi bahoni hosil qiladi.

Bozorda sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi iqtisodiy munosabat bo'lganidan narxning shakllanishida har ikki tomon ishtirok etadi. Xaridor deganda, biz tovar va xizmatlarni iste'mol etuvchilar - fuqarolar, ishlab chiqarishni yurgizish uchun resurslarni sotib oluvchi firmalarni tushunamiz. Baholarning shakllanishida tovarni ishlab chiqarishdan tortib, iste'molga yetgungacha bo'lgan mehnat sarflari ishtirok etadi. Jamiki xarajatlar baho tarkibiga kiradi.

Bahoni shakllantiradigan asosiy omillar esa quyidagicha:

1. Iqtisodiy xarajat darajasi;
2. Tovarlarning naflilik darajasi;
3. Tovarga bo'lgan talab va uning taklifi;
4. Raqobat shakllari va usullari;
5. Tovarni iste'mol qilish vaqtin.

Raqobat cheklangan bozorlarda (sof monopoliya, monopolistik raqobat, oligopoliya) ishlab chiqaruvchilarning o'rni bozor narxlarini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Monopoliya sharoitida bozorda bir turdag'i mahsulotlar taklif qilinishi sababli baho ustidan to'liq nazorat amalga oshiriladi.

Bu degani monopolist ishlab chiqaruvchilarning narx belgilashdagi hukmronligi, iste'molchi daromadlari cheklangani bo'lib, to'qnash keladi. O'rnini bosuvchi tovarlarning mavjudligi ham ularning baho belgilashdagi mutlaq imkoniyatini cheklaydi.

Oligopoliya sharoitida esa alohida ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) bir-biriga bog'liq bo'lganliklari sababli baholarni mustaqil belgilashga botina olmaydilar. Faqat baho belgilashda yashirinchalik kelishishlari mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida bahoning roli va ahamiyati beqiyosdir. Ma'lumki, hozirgi zamon iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotidir. Bu iqtisodiyot yer yuzidagi ko'pgina davlatlarda turli darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanib bormoqda. Uning mohiyat belgilarini eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida

ko`rish mumkin. Uning ana shunday belgilaridan biri, narxlarning liberallashuvi, narx-navoning erkin shakllanishidir. Tovarlar narxini davlat yuqoridan belgilamaydi. U bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan sotuvchining savdolashuvi asosida yuzaga keladi. Kelishilgan narxlar esa bozor munosabatlariga xizmat qiladi. Narx pul bilan o`lchanadi. Bozor iqtisodiyoti pulsiz bo`lishi mumkin emas. Pul esa iqtisodiy munosabatlarning asosiy vositasi bo`lib, iqtisodiyotda o`ta muhim rol o`ynaydi. Pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Pul oboroti, pul emissiyasi, qadri-qimmati, inflyatsiya, valyuta kursi kabi hodisalar iqtisodiy vaziyatning ko`zgusi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo`lmaydi, shu sababdan bozorda ishlab chiqaruchi emas, balki iste`molchi (xaridor) o`z izmini o`tkazadi, tovar va xizmatlarni sifati va narxiga qarab tanlab olish imkoniyatiga ega bo`ladi. Ko`rib chiqqanimizdek, bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayonida narxning roli va ahamiyati juda katta.

Baho shakllanishida raqobat muhim o`rin tutadi. Raqobatda yutib chiqish yoki yutqazish bahoni belgilashga ham bog`liq. Raqobatlashuv jarayonida xaridor ko`p bo`lsa, yuqori narx tashkil topadi. Agar sotuvchilar ko`p bo`lib, ular raqobatlashishsa, past baholar vujudga keladi.

Raqobat kurashida xarajatlarni qoplamaydigan, binobarin, zarar keltiradigan o`ta past baholar ham paydo bo`ladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo`jalikni oqilona yuritish esa moliyaviy aloqalar va qiymat qonunlaridan foydalanishni talab qiladi.

Ayrim buyumlarning bahosini o`zgartirish evaziga davlat ularga bo`lgan ehtiyojni hamda ularni xarid qilishni boshqaradi. Jumladan, inson sog`ligiga putur yetkazuvchi mahsulotlarning narxini oshirish evaziga ularni xarid qilinishini chegaralash va aksincha, ba`zi oziq-ovqat mahsulotlarining narxini me`yorda ushlab turish orqali ehtiyojlarni to`laroq qondirish mulohazamizga dalil bo`la oladi.

10.2. Bahotushunchasi, ahamiyati, zaruriyati va uning funktsiyalari

Nazariy jihatdan olib qaralganda, *baho* – tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Amaliy jihatdan qaralganda esa, *baho* – muhim iqtisodiy vosita, dastak hisoblanadi. Ma'lumki, qiymat ishlab chiqarish kategoriyasi bo'lib, ishlab chiqarishning o'zidagi mehnat sarfi bilan bog'liq munosabatlarni ifoda etadi. Tovarning yaratilishida moddiylashgan va jonli mehnat sarf qilinadi, ularning majmuasi qiymat demakdir. Ammo qiymat har qanday mehnat sarfi emas. Qiymat tovarni yaratishga ketgan ijtimoiy zarur mehnat sarfi, aniqrog'i ehtiyojni qondira olgani sababli bozorda tan olingan mehnat sarfidir, chunki mehnatning bir qismini, agar u kerakli bo'lmasa, bozor inkor etadi va shu qism qiymatni yaratishda ishtirok etmaydi. Bozorda turli mehnat sarflari umumiy, ya'ni ijtimoiy zarur mehnat sarfiga keltiriladi va shu sarfning pulda ifodalanishi bahoni hosil qiladi.

Bahoning iqtisodiy mazmunini uning funktsiyalari yaqqol ko'rsatib beradi. Baho nimaga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar (tovar, xizmat, ish kuchi, qarz puli narxini, buning farqi yo'q) besh asosiy funktsiyani bajaradi:

1. Bozor muvozanatini ta'minlash funktsiyasi. Bunda baho bozordagi talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

2. Hisob-kitob, o'Ichov funktsiyasi. Baho qiymatning puldagi ifodasi, chunki bajarilgan ish hajmi, foyda-zararning barchasi baho asosida hisob-kitob qilinadi.

3. Iqtisodiy regulyator funktsiyasi. Baho bozor iqtisodiyotining asosiy vositalaridan biridir. Undagi o'zgarish bozor holati (kon'yunkturasi)ni bildiradi.

4. Raqobat vositasi funktsiyasi. Raqobat bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Baho vositasida bellashuv raqobatning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Firmalar o'z raqiblarini yengish, ularni bozordan siqib chiqarish uchun bahoni o'zgartirib turadilar.

5. Ijtimoiy himoya funktsiyasi. Baho ayrim aholi toifalarini kambag'allikdan saqlash vazifasini o'taydi. Odatda, aholining nochor va muhtoj qatlamlariga tovarlar arzonlashtirilgan baholarda sotiladi. Bular ijtimoiy dotatsiyalangan baholar bo'lib, ularni

moliyaviy jihatdan davlat byudjeti yoki byudjetdan tashqari mablag'lar ta'minlaydi. Dotatsiyalangan baholarni davlat belgilaydi.

10.3. Bahoning turlari va tarkibi

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos tizimi borki, u o'zaro bog'langan, bir-birini taqozo etuvchi, ammo turli maqsadlarda qo'llanuvchi baholar majmuasidan tashkil topadi. Bahoning shakllanish jarayoni murakkab bo'lib, uning ishtirokchilari g'oyat ko'pchilikni tashkil etadi. Baholar turli vazifalarni bajarganligi sababli ham ularning turi ko`p.

Baholarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

1. Ulgurji baholar. Tovarlar ko'tarasiga katta miqdorda sotilganda bu baholardan foydalaniladi. Bunday bahoni asosan ulgurji savdo-sotiq olib boriladigan savdo markazlarida uchratish mumkin.

2. Chakana baholar. Tovarlar bevosita iste'molchilarga sotilganda foydalaniladi. Bu baho o'z ichiga tovar ulgurji narxini, chakana savdo tashkilotchilarining xarajati va foydasini oladi.

3. Nufuzli baholar. Bu baholardan obro' talab iste'molchilarga tovarlar sotilganda va xizmatlar ko'rsatilganda foydalaniladi.

4. Dotatsiyali baholar. Bunda tovarlar davlat byudjeti hisobidan arzonlashtirilgan baholarda olinadi.

5. Davlat baholari. Bu ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan buyurtma berilganda qo'llaniladi.

6. Mavsumiy baholar. Bu mavsumiy ishlab chiqariladigan tovarlarga belgilanadi.

7. Milliy va jahon baholari. Alovida tovarning baynalmilal xarajatlari. Bunda jahon bozoridagi talab va taklif nisbati hisobga olinadi.

8. Standart baholar. Xaridor cho'ntagidagi pulga qarab, ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan qat'iy standart narxlar qo'llaniladi.

9. Preyskurant baholar. Bu baholar sotuvchi uchun mo'ljal baho, xaridor uchun bildirishlik yoki ma'lumot baho hisoblanadi.

Ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun muzoqaralarga tayyorgarlik ko'rish mobaynida tadbirkor eng avvalo, o'zi uchun maqbul bo'lgan baho ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qiladi. Shu maqsadda u bahoni uchga ajratadi. Ya'ni maksimal (eng yuqori), minimal (eng past) va obyektiv baho.

Maksimal baho (sotuvchi nuqtai nazaridan) – bu muzokaralarni shu bahodan boshlash mumkin bo`lgan ko`rsatkichidir.

Minimal baho (qo`shilishi mumkin bo`lgan eng past baho) – bu tovar narxining shunday ko`rsatkichiki, tadbirkor muzokaralar davomida undan tushmaslikka harakat qiladi.

Obyektiv baho – bu tarkibida o`rtacha sifat ko`rsatkichlariga ega bo`lgan u yoki bu tovarning o`rtacha bahosidir.

Bahoning iqtisodiyotdagi o`rnii beqiyos katta bo`lganidan uning har bir turidan oqilona foydalanish tadbirkorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli korxonalar va firmalar narx belgilashga katta e`tibor beradilar. Ular o`zlarining narx strategiyasini ishlab chiqishda quyidagi maqsadlarni ko`zlaydilar:

- ✓ tovar sotishni ko`paytirish;
- ✓ ko`proq foyda olish;
- ✓ o`rnini muayyan mavqeini saqlab qolish.

Tovar sotishni ko`paytirishdan uch natija kutiladi: a) tovar sotishni ko`paytirish orqali bozorda o`z hissasini oshirish, imkon bo`lganda bozorni o`z nazoratiga olish; b) har bir tovari (tovar birligini) sotishdan tushadigan foydaning kamayishiga rozi bo`lgan holda tovarlarni ko`plab sotish orqali keladigan yalpi foydani oshirish; v) tovari ko`p sotish natijasida uning hajmiga nisbatan savdo-sotiqlik xarakatlarni qisqartirish.

Bozordan raqiblarni surib chiqarib, o`z mavqeini mustahkamlash uchun firmalar maxsus narx qo`llaydilar, uni **bozorga kirib olish narxi** yoki **demping narx** deb ataladi.

Bu narx raqibni sindirishga qaratilganligidan davlat uni ta`qilaydi, shu sababli firmalar uni yashirin qo`llaydilar va bu ish rasmiy narxning bir qismini kechib yuborish shaklida bo`ladi.

Nazorat savollari:

1. Baho siyosati davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir.
2. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va mazmuni.
3. Baho funktsiyalarini aytib bering?
4. Bahoning turlari qanday?
5. Sanoat ishlab chiqarishida baholash tizimini yaxshilash yo`llari.
6. Xorijiy mamlakatlarda baho va baholash xususiyatlarini aytib bering?

XI BOB. SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY MENEJMENTNING XUSUSIYATLARI

Reja:

11.1. Moliyaviy menejmentni tashkil etishning mohiyati va xususiyatlari.

11.2. Boshqarish tamoyillari va usullari.

11.3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni va bosqichlari.

11.4. Moliyaviy menejmentining mexanizmi strategiyasi va vazifalari, moliyaviy boshqaruvning o`ziga xos jihatlari

Tayanch iboralari: moliya iqtisodiyot, menejment, menejer, boshqaruv, sanoat menejmenti, moliyaviy menejment, boshqarish usullari, iqtisodiy usullar, ijtimoiy-ruhiy usullari, boshqaruv qarorlari, boshqaruv qarorlari samaradorligi, qaror qabul qilish jarayoni, qaror qabul qilish uslubi, qaror qabul qilish modeli

11.1. Moliyaviy menejmentni tashkil etishning mohiyati va xususiyatlari.

Moliya – bu xo`jalik yurituvchi subyektlarda va davlatda pul mablag`lari yaratish jarayonida vujudga keluvchi va takror ishlab chiqarish, rag`batlantirish va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida pul munosabatlari majmuidir.

Moliyaviy menejment – bu zamonaviy usullar asosida firmanın moliyaviy-xo`jalik faoliyatini boshqarishga yo`naltirilgan professional (kasbiy) faoliyat turidir.

Moliyaviy menejment – moliyaviy resurslar harakatining jarayoni bo`lib, xo`jalik subyektlari o`rtasidagi moliyaviy munosabatlarni va moliyaviy resurslarni boshqarishga yo`naltirilgan.

Moliyaviy menejment quyidagi zaruriy xususiyatlarga ega:

- Korporatsiya faoliyatining moliyaviy tomonini bashorat qilish va rejalashtirish. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy ko`rsatkichlari sifatida sotilgan mahsulot hajmi foyda-kapital qo`yilmalari qatnashadi;

- Katta miqdordagi mablag'larni investitsiyalash jarayonida maqsadga muvofiq (yechishlarni) qarorlarni qabul qilish;
- Moliyaviy faoliyatni hamma xizmatlar bilan moslashtirish (koordinatsiya). Masalan: marketing sohasidagi qaror sotish hajmiga ta'sir etadi va bu, o'z navbatida, foyda va investitsiya miqdoriga ta'sir ko'rsatadi

- Moliyaviy bozorda qo'shimcha mablag'larni safarbar qilish, shaxsiy aktsiyalar va obligatsiyalarni sotish va boshqa shu kabi katta (hajmdagi) operatsiyalar o'tkazish.

Moliyaviy menejment quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Turli moliyaviy qurollarni ishlatish orqali firmaning moliyaviy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Moliyaviy masalalar bo'yicha qaror qabul qilish, ularni aniqlashtirish va amalga oshirish usullarini tanlash;
- Firmaning moliyaviy hisobotini tuzish va tahlil qilish orqali axborot ta'minotini ta'minlash;
- Investitsion loyihalarni baholash va investitsiya portfelini shakllantirish, kapitalga bo'lgan xarajatni baholash, moliyaviy rejalashtirish va nazorat;
- Firma moliyaviy-ho'jalik faoliyati boshqaruv apparatini tashkil etish.

Moliyaviy menejment soxasida yutuqqa erishish ko'p jihatdan moliyaviy bo'lim xizmatchilariga bog'liq bo'lib, ulardan tashabbus, noananaviy yechimlar, o'tkaziladigan operatsiyalarni keng ko'lamlilagini, oqlangan tavakkalchilikni va ishchanlikni, qabul qilinadigan moliyaviy qarorlarni optimal bo'lishini talab qiladi.

Moliyaviy resurslar oqimini pul mablag'lari tashkil etadi:

- Moliyaviy xo'jalik faoliyati natijasida olingan pul mablag'lari
- Moliyaviy bozorda aksiya, obligatsiya sotish va kredit olish yordamida olingan pul mablag'lari
- Moliyaviy bozor subyektlarining capital uchun foiz va dividend ko'rinishidagi to'lovleri

➤ Firmaning moliyaviy - xo'jalik faoliyatini rivojlantirish uchun investitsiyalash va qayta investitsiyalash

➤ Soliq to'lovlariini to'lashga yo'naltirilgan pul mablag'lari

Moliyaviy menejer oldiga qo'yilgan asosiy majburiyatlar

✓ Korxonada moliyaviy ishlarni tashqil qilish;

✓ Kapital qo'yilmalar prognozlari, loyixalari va rejalarini ishlab chiqish;

✓ Turli kapital qo'yilmalar bo'yicha risk darajalari, kutilayotgan foyda hajmi va optimal variantiga baho berish;

✓ Istiqbolli, joriy, operativ moliyaviy rejalar, xorijiy valyutalar tushishi va foydalanishi rejalarini tuzish;

✓ Moliyaviy ko'rsatkichlar qismida korxonaning biznes rejasini tayyorlashda qatnashish;

✓ Valyuta va kredit siyosatini o'tkazish;

✓ Korxona moliyaviy holatini tahlil qilish;

✓ Moliyaviy ko'rsatkichlar bajarilishi ustidan nazorat.

Korxonaning moliyaviy resurslarini ishlatish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilmoqda:

- Moliyaviy majburiyatlarni bajarishda tegishli moliya byudjet tizimidagi organlarga to'lovlari (byudjetga soliq to'lovlari to'lash, ishlatilgan kredit uchun foiz to'lash va b.);

- Texnologiyani yangilash, nou-xau, ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan kapital xarajatlariga o'zlik mablag'lari jalb qilish


- Moliyaviy bozordan sotib olinadigan qiymatbaho qog'ozlar uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish; aktsiya, obligatsiya va boshqalar

- Moliyaviy resurslar ijtimoiy rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan pul fondlarini tashkil etish uchun yo'naltirilgan

- Moliyaviy resurslarni xayriya, homiylik va boshqa maqsadlar uchun ishlatish

Boshqaruva qarorlarini qabul qilish bir nechta bosqichdan iborat bo'ladi:

1. maqsadni shakllantirish
2. muammolarni aniqlash
3. axborot yig'ish, turkumlash va tahlil etish



4. qarorning turli variantlarini ishlab chiqish
5. muqobil variantlarni solishtirib ko'rish
6. yakuniy qarorni qabul qilish
7. qarorni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash
8. qarorni bajaruvchi xodimlar o'rtasida majburiyatlar va vazifalarni taqsimlash
9. qabul qilingan qarorni baholash

Boshqaruv qarorlariga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- ✓ qabul qilinadigan qarorning demokratik xususiyati;
- ✓ aniq vazifalarni yechishga yo'naltirilganligi;
- ✓ ilmiy asoslanganligi;
- ✓ qisqa va lo`ndaligi;
- ✓ qarorni bajarish tezkorligi.

Moliyaviy menejmentning aniq obyektlarini belgilovchi asosiy funktsiyalar quyidagilar hisoblanadi:

1. Aktivlarni boshqarish.
2. Kapitallarni boshqarish.
3. Investitsiyalarni boshqarish.
4. Pul oqimlarini boshqarish.
5. Moliviy risklarni boshqarish.
6. Inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv.

MOLIYAVIY MENEJMENT UMUMIY
FUNKTSIYALARI



11.2-rasm. Moliyaviy menejment umumiy funktsiyalari

Moliyaviy menejment asosiy funktsiyalari korxona maqsadiga erishishda katta hissa qo'shadigan maxsus sohasi kabi qaraladi. Bu funktsiyalardan har birini korxona moliyaviy boshqaruv obyektlari va uning moliyaviy faoliyat asosiy shakllari kabi spetsifikatsiyalarini hisobga olgan holda yanada maqsad yo'nalishi tomon konkretlashtirish mumkin. Har bir korxonada bunday

konkretlashtirishni amalga oshirlishi bilan moliyaviy faoliyat boshqaruvi ko`p darajali funktsional tizimi barpo etiladi.

11.2. Boshqarish tamoyillari va usullari.

Usul - bu tadqiqot qilish yoki ta`sir ko`rsatish usulidir. Tadqiqot qilish nuqtai nazaridan uslub deganda boshqaruv obyektini o`rganish jarayonida qo`llaniladigan usullar, ya`ni:

- sistema (tizim)li yondoshuv;
- kompleks yondoshuv;
- tarkibiy yondoshuv;
- integratsion yondoshuv;
- modellashtirish;
- iqtisodiy-matematik yonshdashuv;
- kuzatish;
- eksperiment;
- sotsiologik kuzatuv kabi tahlilning ilmiy usullari tushuniladi.

Ta`sir ko`rsatish nuqtai nazaridan esa usul deganda boshqarish funktsiyalarini amalga oshirish uchun boshqaruv obyektiga ta`sir o`tkazish usullari tushuniladi. Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

- funktsional tizimosti obyektlarini boshqarish usuli;
- boshqarish funktsiyalarini bajarish usullari;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari.

Har xil yondashuvlar, yo`sinlar, yo`llar yordamida amalga oshiriladigan turli-tuman boshqaruv ishlarining majmui - boshqaruvning aniq va o`ziga xos usullari deb yuritiladi.

Boshqaruv usullari - bu xodimlarga va umuman ishlab chiqarish jamoalariga ta`sir ko`rsatish usullari bo`lib, bu usullar qo`yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg`unlashtirishni nazarda tutadi.

Boshqarish usullari ishlab chiqarish yoki xizmat ko`rsatish jarayonidagi mavjud munosabatlardan obyektiv tarzda kelib chiqadi.

Tashkiliy-ma`muriy usullar boshqarish usullari tizimida alohida o`rin tutadi. Bu usullarga:

- boshqarish apparatining muayyan strukturasini tuzish;
- har bir boshqaruv bo`g`inining funktsiyalarini belgilash;
- kadrlarni to`g`ri tanlash;

- buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish, ularning bajarilishini nazorat qilish;

- topshiriqlar va direktiv ko'rsatmalarni bajarmayotgan bo'linma va shaxslarga nisbatan majburiy choralarini qo'llash kiradi.

Tashkiliy-ma'muriy usullar yuqori organlar hokimiyatiga va quyi organlarning bo'ysunishiga asoslanadi. Shuning uchun ularni ko'pincha ma'muriy usullar deb yuritiladi. Yuqori ma'muriy organlar boshqariluvchi obyektning bajarishi majburiy bo'lgan tartib-qoidalarni ishlab chiqadi, shuningdek bo'ysunuvchi organlarga farmoyishlar beradi.

Tashkiliy usullar shu yo'l bilan boshqarish tizimida ichki ongli aloqalarning tarkib topishiga yordam beradi. Bu uslublar boshqarish funktsiyalari bajarilishining: tashkiliy barqarorligini; intizomlligini; muvofiqlligini; uzluksizligini ta'minlaydi.

Tashkiliy-ma'muriy usullar boshqaruv organlarining o'zaro aloqada ishlashini, boshqaruv munosabatlarini aks o'ttirib, boshqariluvchi obyektlarga ma'muriy ta'sir ko'rsatishning butun mexanizmini ifodalaydi. Shu bilan birga, ma'muriy yoki to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv usuli xo'jalik yurituvchi subyektning tanlash erkinligini cheklab qo'yadi, muayyan huquqiy chegaralarini belgilaydi. O'z mohiyatiga ko'ra ma'muriy boshqarish bozorga xos bo'lgan tartibga solish harakatiga to'sqinlik qiladi.

Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usullari ikki shaklda:

- tashkiliy ta'sir ko'rsatish usullari;
- farmoyish berish usullari shakllarida namoyon bo'ladi.

Tashkiliy usullarning bu ikkala shakli birgalikda qo'llaniladi, bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi. Har ikkala shaklning uyg'unlashuvi ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olingan holda optimal bo'lishi kerak.

Boshqarishning iqtisodiy usullari – iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi. Zero, har qanday jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, eng avvalo manfaatlarda namoyon bo'ladi. Manfaatlar uch xil bo'ladi:

- umumjamiyag manfaatlari;
- jamoa manfaatlari;
- shaxsiy manfaatlari.

Bu manfaatlarni uyg`un sur`atda bog`lab olib borish muammosi bir qator muammolarni hal qilishga, har bir davr sharoitlariga muvofiq keladigan munosabatlarni o`rnatishni talab qiladi.

Iqtisodiy boshqaruv usullarining asosiy vazifasi ishlab chiqariladigan mahsulot (xizmat) birligiga sarflanadigan xaratjatni kamaytirishga imkon beruvchi xo`jalik mexanizmlarining yangi usullarini, shuningdek, manfaatdorlik muhitini vujudga keltirish va ulardan samarali foydalanishdir.

Bu usulda kishilarning shaxsiy va guruhiy manfaatlarini yuzaga chiqarish orqali ularning samarali ishlashi ta`minlanadi. Bu maqsadga qo`shimcha ish haqi to`lash, mukofotlar berish, bir yo`la katta pul bilan taqdirlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy metodlar boshqarishning barcha metodlari ichida yetakchi o`rinni egallaydi. Har qanday darajadagi rahbar bu usulning mazmunini yaxshi bilishi va ularni to`g`ri qo`llay olishi kerak. Boshqariluvchi obyektga iqtisodiy usullar orqali ko`rsatiladigan ta`sir korxonalarini:

- jiddiy rejalar qabul qilishga;
- mehnat va moliya resurslaridan yanada unumliroq foydalanishga;
- yangi texnologiyalarni joriy qilishga;
- mehnat unumdorligini oshirishga;
- raqobatbop mahsulotlarni ishlab chiqarishga rag`batlantiruvchi va shunga da`vat etuvchi bo`lishi kerak.

Shu bilan birga iqtisodiy metodlar shunday tanlanishi va qo`llanilishi kerakki, bunda jamoalar va har bir xodimning manfaatlarigagina emas, balki butun jamiyat manfaatlariga rioya qilinadigan bo`lsin. Bir korxona uchun foydali tadbir davlatga ham foydali bo`lsin.

Sotsial-ruhiy usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog`lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdir. Bu usul ijtimoiy-ma`naviy vaziyatga ta`sir o`tish yo`li bilan kishilarning fe`l-atvori, ruhiyatini hisobga olib ularning ijtimoiy (sotsial) talablarini qondirish orqali boshqarishni bildiradi.

Boshqacha qilib aytganda, sotsial-ruhiy usullar bu ishlab chiqarish jamoalarini, ulardagи «psixologik vaziyatni», har bir xodimning shaxsiy xususiyatlarini o`rganishga asoslangan usullardir

Boshqarishning sotsial-ruhiy usullari quyidagi muammolarni hal etishga qaratilgan:

1. Kishilarning sotsial-ruxiy xususiyatlari, chunonchi, qobiliyatları, mijozlari, harakatlari va hokazolarni hisobga olgan holda mehnat jamoalarini tashkil toptirish. Buning natijasida jamoani rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikda ishlash uchun qulav shart-sharoitlar yaratiladi.

2. Sotsial yurish-turish me`yorlarini o`rnatish va rivojlantirshga yaxshi va namunali an`analarni qo`llab-quvvatlash va milliy urf-odatlarni joriy etish hamda jamoa ongini o`stirishga yordam beradi.

3. Sotsial rivojlantirishni va kishilarning intilishini, tashabbusini rag`batlantirish, umumiy ta`lim darajasini oshirish, madaniy, ma`naviy va ma`rifiy o'sish, malaka oshirish, estetik ravnaq va mehnatga ijodiv munosabatni ta`minlavdi.

4. Kishilarning madaniy va sotsial-maishiy ehtiyojlarini qondirish, chunonchi, uy-joylar, bolalar bog`chalari, klublar, profilaktoriylar, sport inshootlari va hokazolarni ko`rishga sharoit tug`diradi.

5. Mehnat jamoalarida talabchanlik, o`zaro yordam, intizomni buzuvchilarga murosasizlikdan iborat sog`lom sotsial-psixologik muhitni vujudga keltirish va uni qo`llab-quvvatlashga sharoit tug`diradi.

6. Odamlarning o`z mehnatidan, tanlagan mutaxassisligi va kasidan qoniqishlari uchun, ishlab chiqarish samaradorligi va ish sifatini oshirish uchun shart-sharoitlarini vujudga keltiradi.

Bu muammolarning yechimi boshqarishning yanada uyushqoq samarali bo`lishini talab qiladi.

Amaliy boshqarishda sotsial-ruhiy metodlardan samarali foydalanish uchun boshqarish obyektining holati to`g`risida keng axborotga ega bo`lish kerak. Bunday axborot olish uchun jamoada bevosita sotsiologik tadqiqotlar o`tkazish lozim.

11.3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni va bosqichlari.

Boshqaruv qarorlari, boshqaruv qarorlari samaradorligi, qaror qabul qilish jarayoni, qaror qabul qilish uslubi, qaror qabul qilish modeli

Boshqarish qarorlari, ularning mazmuni va turlari.

Menejer faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri uni to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatidir, chunki u boshqarishning to'rtta funktsiyasini bajarish jarayonida: rejalash, tashkil qilish, motivlash va nazarat – doimo qarorlar oqimi bilan ish olib boradi.

Qaror ishlab chiqish – rahbar faoliyatida ijodiy jarayondir. U odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ maqsadni qo'yish va ishlab chiqish
- ✓ muammoni o`rganish
- ✓ qabul qiliniyotgan qarorning mumkin bo`lgan oqibatlari hamda samaralilik mezonlarini tanlash va asoslash
- ✓ qaror variantlarini ko`rib chiqish
- ✓ qarorni ijrochilarga etkazish
- ✓ qaror bajarilishini nazarat qilish.

Boshqarish qarori deganda muammoli vaziyatni hal qilishga yo'naltirilgan akt: alternativ (ikki va ko'p variantdan birini tanlash) tanlab olish tushuniladi.

Keng ma`noda boshqarish qarori o zaro boglik maqsadga yo'naltirilgan va boshqarish masalalari realizatsiyasini ta'minlaydigan mantikiy izchillikdagi boshqarish harakatlari to`plamini ifodalaydigan boshqarish mehnatining asosiy turidir.

Boshqarish qarorlari va turlari.

Qarorni turli belgilari bilan klassifikatsiyalash mumkin. Odatda qaror aniqlik va tavakkalchilik qabul qilinadi. Aniqlik sharoitida menejer natijalarga ishonadi, tavakkalchilik sharoitida u muvaffaqiyatni ehtimolligini sezishi mumkin xolos.

Boshqarish qarorlari quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- ✓ muddati va oqibatlari bo'yicha: uzoq, o'rta va qisqa muddatli qarorlar
- ✓ qabul qilish chastotasi bo'yicha: bir martalik, takrorlanuvchi

- ✓ qamrovi bo'yicha: umumiy, qisqa ixtisoslangan
- ✓ tayyorlash shakli bo'yicha: yagona, guruhli va jamoaviy
- ✓ muddatining qat'iyligi bo'yicha: konturli, strukturalangan va algoritmik.

Tashkiliy qarorlar – bu rahbarning lavozimi bilan belgilangan vazifalarni bajarish uchun variant tanlash Tashkiliy qarolarning maqsadi – tashkilot o'z oldiga qo'yilgan vazifalar harakatini ta'minlash.

Tashkiliy qarolarni ikki guruhga bo'lismumkin: dasturlangan va dasturlanmagan.Qaror qilishga yondashuv:

Qaror qabul qilish odatda oson, ammo yaxshi qaror qabul qilish qiyin.

Qaror qabul qilish – bu psixologik jarayondir, shuning uchun rahbar tomonidan qaror qabul qilish o'z-o'zidan yuqori mantiqiylik darajasigacha bo'lishi mumkin.

Induktiv qarorlar – bu rahbar tomonidan hissiyotga asoslanib to'g'ri qabul qilingan qarolardir.


Qaror qabul qilish jarayoni.

U bir qancha bosqichlar va operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Vazifani oydinlashtirish. Aytaylik sexga yangi buyumni ishlab chiqarish vazifasi qo'yildi.Bunda sex boshlig'ining qarori yangi buyumni ishlab chiqarish hajmi, uning mohiyati, son va sifat ko'rsatkichlari natijalarini oydinlashtirish bilan bog'liq bo'ladi.

Vazifalarning har xil variantlarini muhokama qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, bu masalani hal qilishda taklif qilingan variantlarni iqtisodiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Berilgan variantni yechishda matematik, grafik, mantiqiy va boshqa modellar qo'llaniladi.


Qarorlarni tanlash va ularni uzil-kesil qabul qilish. Bu rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi va qarorlar kompaniya prezidenti va menejer tomonidan yakkaboshchilik asosida oshkora usulda qabul qilinadi.



11.1-rasm. Boshqarish qarorlari qabul qilish tarkibiy elementlari.

Qaror qabul qilish uslublari

Barcha boshqarish qarorlari qabul qilishni uch guruhga birlashtirish mumkin.



Boshqarish qarorlari qabul qilish uslublari klassifikatsiya.

Noformal (evristik) uslub – bu rahbar tomonidan to`plangan tajribani hisobga olib, al`terativalarni nazariy kiyoslash orqali mantiqiy yo`nalishlar va optimal karorlarni tanlash uslubi.

Kollektiv uslubda – boshqarish jarayoni qatnashchilari bo`lgan ma`lum qobiliyatli, bilimdon shaxslar tomonidan qabul qilinib, u yig`imi majlis komissiya ishi doirasida qabul qilish uslubi.

Miqdoriy uslub. Uning asosida katta massivdagi axborotlarni (EXM va o`MM) qayta ishslash orqali tanlab olishni ko`zda tutadigan ilmiy - amaliy yondashuv yotadi.

Qarorlarni qabul qilishning yakka uslubi. Shaxs, dengizdagи tomchi kabi, o`z qarorida aks etadi. Bu ma`noda boshqarish qarorini shaxsiy profili ma`lum qiziqish uyg`otadi, ya`ni ijrochilarga yetkaziladigan qarorlar raxbarning individual xususiyatlari to`plamini aks ettiradi. Fanda qaror qabul qilishni shaxsiy profilini quyidagi turlari mavjud:

- ✓ Vazminlik tipidagi qarorlar
- ✓ Impul'siv qarorlar
- ✓ Inert qarorlar
- ✓ Tavakkalchilik qarorlari
- ✓ Extiyotlik tipidpgi qarorlar

Boshqarish qarorlarining samaradorlik shartlari.

Menejer tomonidan alternativ tanlash muammosi boshqarish fanining muxim elementlaridan biri bo`lishiga qaramay, samarali qaror qabul qilish uning uchun muhimdir.

Qaror samarali bo`lishi uchun tashkilot maqsadi va hal qilinadigan vaziyatlardan quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ✓ Samaralilik
- ✓ Tejamllilik o`z vaqtি dalilik
- ✓ Asoslanganlilik
- ✓ Reallilik
- ✓ Qaror samaraliligini quyidagi talablarni bajarilishi ta`mindaydi:
- ✓ To`lalik
- ✓ Motivlanganlik
- ✓ Stressga qat`iyligi va mustaxkamligi
- ✓ Boshlang`ich g`oyani aks etish chuqurligi
- ✓ Kelishganlik
- ✓ Aniqlik
- ✓ Qayishqoqlik(gibkost`)
- ✓ Boshqarish qarorlarini qabul qilish.

Qaror - rahbar mehnatining asosiy mahsulidir. Bu direktiv akt bo`lib, qo`yilgan maqsadlarga erishish uchun o`nlab, yuzlab, ba`zan esa ko`p minglab kishilarning birgalikdagi harakatlarini tashkil qiladi, yo`lga solib turadi va rag`batlantiradi. Ana shuning uchun ham ularning asoslangan, balanslangan va ta`sirchan bo`lishiga tobora katta talablar qo`yilmoqda.

Foydali qarorlar ichida ham eng keng tarqalgan ikki turini ajratish mumkin. Birinchisiga stereotip, ko`pincha operativ qarorlar kiradiki, ular ba`zan kundalik, ba`zan keskin masalalar bo`yicha qabul qilinadi, lekin o`zgarishlar asosan muddatlarga, ayrim sifat parametrlariga, ijrochilarga taaluqli bo`lib, umumiy tizim esa(demak ishlab turgan korxonalarining sifati ham) avvalgicha qolaveradigan vaziyatda qabul qilinadi. Bunda gap aslini olganda xo`jalik obyekti

ishlashining yuzaga kelgan mexanizmini saqlab qolish haqida boradi.

Stereotip qarorlarni rahbar odatda ancha tez, ko`p tayyorgarlik ko`rmasdan turib qabul qiladi. Kadrlarni qabul qilish va ishdan bo'shatish haqidagi, korxonani ishga tayyorlash va hokazolar haqidagi buyruqlarni shunday qarorlar jumlasiga kiritish mumkin.

Qarorlarning ikkinchi turiga o`z xarakteriga ko`ra novatorlarcha, mazmuniga ko`ra strategik bo`lgan qarorlar kiradi. Ular ishlab chiqarishdagi va tegishli ravishda uning natijalaridagi faqat mikdor o`zgarishlarigina emas, balki jiddiy sifat o`zgarishlarini ham ko`zda tutadi. Bunday qarorlar sinchkovchilik bilan asoslangan va balanslashtirilgan jamoaviy harakatlar dastaklaridan iborat bo`lib, belgilangan muddatlarda bajarilishi majburiydir va boshqariladigan obyektni tizim jihatdan, tubdan qayta qurish yo`li bilan konkret ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgandir.

Hozirgi paytda strategik qarorlar faqat texnologiyada emas, balki xo`jalik mexanizmida, ishlab chiqarishni tashkil etishda, korxonada ijtimoiy vaziyatda xam sifat o`zgarishlarining bosh qurolidir.

Rejalaشتirilgan qaror – texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ilmiy asoslangan taxminning, ishga tanqidiy yondashishning, konstruktiv izlanishning natijasidir. Bu odatda, qiyosiy va omil analizlarining, har taraflama asoslash va hisoblab chiqishlarining mahsulidir. U nazariy bilimlarga va ilg`or tajribaga asoslannadi. Uzoq istiqbolni hisobga olgan holda muammolarni hal etishga yondashish, voqealarning borishini faqat oldindan ko`rishgina emas, balki ularning kerakli yo`nalishdan borishiga faol ta`sir ko`rsatishga ham imkon beradi. Ayni chog`da harakat kilishning odatdagagi sxemasiga yangicha qaray bilish mahorati g`oyat muhimdir.

Qarorlarning turli variantlarini ishlab chiqish ularni qiyosiy analiz qilish bilan o`tkaziladi.

Har bir variantning samaradorligiga miqdor; sifat va muddatlarni iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni optimal qo'shish nuqtai nazaridan puxta baho berilgandan keyingina uzil-kesil qarorlar qabul qilinadi.

Qarorlar qabul qilish. Ba`zan qaror qabul jarayonini tarzda faqat eng yaxshi variantni tanlash sifatida, ya`ni aslini olganda

qandaydir texnikaviy yoki rasmiy harakat sifatida tushiniladi. Lekin bu noto'g'ridir, chunki qarorlarni qabul qilish mavhumlikdan konkretlik tomon, bevosita xo'jalik amaliyoti tomon katta odim tashlanadi.

Qarorni tayyorlashning oldingi bosqichlarida eng printsiplial masalalar ishlab chiqilgan edi, endi hamma materiallar taxt qilib qo'yilgan vaqtida ularni loyihachilarning so'zлari bilan aytganda, makonga «bog'lash» darkor. Ana shu yerda rahbarning mahorat ko'rsatishi talab etiladi. Qaror o'z mazmuniga ko'ra lo`nda, chuqur bo'lishi, keskin vaziyatlarni chetlab o'tmasligi hamda har bir ijrochi uchun tushunarli bo'lishi lozim.

Qarorni qabul qilish shakli – yakkaboshchilik bilanmi yoki jamoaviy tarzda qabul qilinganligi ham katta ahamiyatga molik. Bunda jamoaviy va yakkaboshchilik tarzida umumiy xulosalar ishlab chiqiladi.

Rahbariyat bunday xulosaga kelgach, tashkiliy shakllarni: uni tayyorlashda kim ishtirok etishi, qanday materiallar kerakligi, tayyorlash mudatlari qachonligini belgilaydi.

Rahbarning qaror qabul qilish modeli.

Muammolarni ijobiy hal qilish qobiliyatidan mahrum bo'lgan rahbar, eng yaxshisi rahbarlik qilayotgan tashkilotning evolyutsion rivojlanishini yaxshi nazoratini amalga oshirishi mumkin, ammo uni ilg'orlar darajasiga chiqarishga qobiliyatli emas. Ijodiy fikrlovchi rahbar, vaziyatning xo'jayini bo'ladi va optimal qarorlar qabul qiladi. Muammolar bo'yicha rahbarning qaror qabul qilishi modeli quyidagicha bo'ladi:

Qarorning ilmiy asoslanganligi. Qarorlarni muayyan ishlab chiqarish sharoitini tahlil qilishdan kelib chiqib, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa hozirgi zamon fan yutuqlari asosida qabul qilinishi kerak.

Qarorlarning birligi. Odatda asosiy masalalarni hal qilish bilan birga kichik masalalarni ham o'tishga to'g'ri keladi.

Qarorlarni adolatligi – haqqoniyligi. Qarorlar fakat rahbarlarga berilgan huquq darajasidagina qabul qilinishi mumkin.

Qarorning to'g'ri yo'naltirilganligi. Har qaysi qaror o'z ijrochilariga tushunarli va kimga mo'ljallanganligi aniq bo'lishi kerak.

Qarorlarning qisqaligi. Axborotlar bilan ishslash vaqtini tejash maqsadida qisqa aniq qarorlar qabul qilinadi.

Qarorlarning vaqt bo'yicha aniqligi. Rahbar o'z qo'li ostidagilarga topshirqlarning bajarish muddatini aniq ko'rsatmasdan berishi mumkin emas.

Qarorlarning operativliligi. Bunday qarorlar bir daqiqada, ya'ni ishlab chiqarish holati talab qilganda qabul qilinishi mumkin.

Strategik qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

Qarorlarni tayyorlash va qabul qilish borasidagi ishning mantiqi rahbarlik darajasiga, vazifalarning harakteriga va qaror qabul qilinayotgan sharoitga bog'liq holda bir-biridan ancha farq qiladi. Shu bilan birga konkret yondashuvlarning xilma-xilligidan rahbar harakatlarining umumiy belgilarini va izchilligini alohida qilib ko'rsatish mumkin:

konkret ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni tahlil qilish asosida muammoni aniqlash; ushbu muammoni hal etish uchun maqsadlarni, shuningdek uni hal etish muddatlari, vositalari va yo'llarini belgilash; ehtimoli tug'ilgan alternativlarni ishlab chiqish; mezonlar (kapital mablag'larni tejash, muddatlarni qisqartirish va boshqalar)ni aniqlash va eng qulay variantni tanlash; qarorni qabul qilish; uning bajarilishini tashkil qilish. Ravshanki, bunday sxemani taxminiy deb bilmoq lozim. U vaziyatning xususiyatlariga va hal qilinayotgan holatning ko'rinishiga qarab o'zgarishi mumkin. Shuningdek aniq, tahliliy va noaniq vaziyatlar bo'lgan sharoitlar matritsa tizimli reja asosida qarorlar qabul qilinadi, unda boshqarish qarorini turli tizimi mavjud bulib, qiyin muammolarga tegishli bo'lgan murakkablashayotgan tavakkalchilik sharoitlarida rahbarga chiziqli boshqarish bo'yicha ma'lum qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Qaror bajarilishini tashkil qilish va nazorat.

Qarorlar bajarilishini tashkil qilish - bajarish siklini yakunlovchi rahbarning o'ziga xos faoliyatdir. Bu o'rinda rahbar o'z ishini emas, boshqa odamlar mehnatini tashkil etayotganligini hisobga olishi kerak. Tashkiliy boshqarish qarorlari buyruq tarzida yoki farmoyish bilan rasmiylashtirilgandan so'ng qonun tusiga kiradi.

Menejerning bosh vazifasi bunday qarorni sozlash va nazorat qilishni ta'minlaydigan bajarilishini ta'minlashdan iboratdir.

Shunday qilib, qarorlar bajarilishini ta'minlashni nazorasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Qarorlar bajarilishini nazorat qilish boshqarish siklining eng so'nggi qismidir. U qayta aloqlalar shaklida bo'lib uning vositasida tashkilot maqsadiga erishish uchun qarirlarni bajarilishi haqida axborot olishi mumkin.

Nazoratning bosh vazifasi qarirlarni realizatsiyasining berilgan dasturlardan mumkin bo'lgan chetlashishni o'z vaqtida sezish va uni bartaraf etish uchun choralar belgilashdir.

Nazoratning quyidagi funktsiyalari mavjud:

- ✓ Diagnostik funktsiya
- ✓ Qayta aloqlalar funktsiyasi
- ✓ Nazoratni mo'ljalli funktsiyasi
- ✓ Rag'batlantiruvchi funktsiya
- ✓ Sozlovchi funktsiya
- ✓ Pedagogik funktsiya

Shunday qilib nazorat obyektiv zaruratdir, chunki eng optimal rejalar ham o'z ijrochilariga etib bormasa, ularni bajarishi haqida obyektiv va doimiy nazorat bo'lmasa ular amalga oshmay qolishi mumkin.

Iqtisodiy ziyon ko'rmaslik tahlillari.

Rahbarning tahlili ko'pincha global xarakterga ega bo'lib, texnologiya, xo'jalik hisobi, o'zini-o'zi mablag` bilan ta'minlash va ijtimoiy jarayonlarni to'liq kompleks holda o'zaro aloqadorligi va bir-birini takazo etishini qamrab olish va tushunish zaruriyatini ifodalaydi.

Rahbar tahliliy faoliyatining bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kuchayib ketgan yana bir alohida belgisi – ko'r ko'rona yoki boshka obyekt ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining samaradorligiga to`g'ri baho berish zarurligidir. Samaradorlik – olingan natijalar bilan ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatidir.

Iqtisodiy tahlilda, firmaning balans tizimi keltirilib undagi aktivlar va kapitallar konkret raqamlarda ifodalangandan so'ng, korxona oladigan foydasi aniqlanadi, chunki bozor islohotlari sharoitida zarar bilan ishlash firmani bankrot bo'lishiga olib keladi.

Zararsiz ishslash tahlili firma oladigan foyda va xaratjatlar tahlili orqali olinadi. Quyida «Ekorn grefiks» firmasi uchun foyda yoki zararsiz ishslash grafigi keltirilgan.

11.4. Moliyaviy menejmentining mexanizmi strategiyasi va vazifalari, moliyaviy boshqaruvning o`ziga xos jihatlari

Moliyaviy menejment takror ishlab chiqarish jarayonida resurslar va mablag`lar balanslashgan harakatini ta`minlashi lozim. Korxonaning ixtiyoridagi resurslarning turli qismlari aylanishi muddatlari bir-biriga muvofiq kelmaydi. Takror ishlab chiqarish jarayoniga avanslangan mablag` asosiy kapital va aylanma kapital ko`rinishiga ega bo`ladi. Avanslangan kapitalning tarkibiy qismlari har xil muddatlarda pul ko`rinishiga qaytadi. Ayni paytda takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta`minlash uchun asosiy kapital va aylanma kapitalning moddiy elementlarini muvofiq ravishda yangidan to`ldirib turish talab etiladi. Demak, moliyaviy menejment korxonada moliyaviy resurslar shakllanishini va takror ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos ravishda asosiy va aylanma kapitalni to`ldirib turishga yo`naltirilishini ta`minlaydi.

Moliyaviy resurslardan jamg`arma shakli orqali foydalanish kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlariga to`la mos keladi va nojamg`armaviy shaklga nisbatan qator afzalliklarga ega:

1. Istalgan ehtiyojni qondirishni jamiyatning iqtisodiy ehtiyojlar bilan mustahkamroq bog`lashga imkon beradi

2. Resurslarni ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy yo`nalishlari bo`ylab kontsentratsiya qilishni ta`minlaydi.

3. Ijtimoiy, jamoa va shaxsiy manfaatlarni yaqinroq bog`lashga va bu orqali ishlab chiqarishga faolroq ta`sir ko`rsatishga imkon beradi.

Moliyaviy nazorat o`z ichiga quyidagi tekshiruvlarni oladi:

- iqtisodiy qonunlarning talablariga rioya etish (MDni taqsimlash va qayta taqsimlash proporsiyalarining optimalligi);
- byudjet rejasini tuzish va ijro etish (byudjet nazorati);

- korxona va tashkilotlar, byudjet muassasalariga tegishli bo`lgan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish;
- o`zaro soliq munosabatlari.

Bozor munosabatlarining aksi quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- moliyaviy resurslarning manbalarida;
- moliyalashtirish printsiplarida;
- baholarni belgilashda;
- pul shaklida hisob-kitoblarda;
- moliya-kredit tizimining tarkibida va uning bo`g`inlari orasida o`zaro munosabatlarida.

Davlat, nodavlat mulk egalari shaklidagi xo`jalik subyektlarida ish yuritishlariga befarq qarolmaydi.

=>Birinchidan, bu sektor katta milliy boylikni egalaridir, chunki bu boylikni asosiy qismi bepul yoki imtiyozli baholanish ravishda davlat sektordan ularning qo`liga o`tgan.

=>Ikkinchidan, nodavlat xo`jalik subyektlarning asosiy qismi bozor iqtisodiyotiga o`tish davri ichida o`z kapitalini hali ishlab bir miqdorga yetkazib olmagan, lekin bor moliyaviy bazasi moliya-kredit sohasidagi operatsiyalar orqali yaralgan, hamda davlat moliyaviy resurslarni har xil yo`llar bilan, shu qatorda man etilgan yo`llar bilan jalb qilgan.

=>Uchinchidan, tuzilgan moliya bank tizimida, yirik korxonalar va tashkilotlarda, moliyaviy ishlab-chiqarish guruhlarda, aktsiyalarni asosiy qismi davlat va aholi qo`lida.

Korxona moliyaviy faoliyatini samarali boshqarish moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillarini amalga oshirishni ta`minlaydi. Bu tamoyillar umumiy menejmentning bir qismi bo`lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Umumiyl boshqaruv tizimida integratsiyalashuvi.
2. Korxona rivojining strategik maqsadiga qaratilganlik.
3. Moliyaviy boshqaruv qarorlari tanlovi jarayoni optimalligi.
4. Boshqaruv qarorlari shakllanishining kompleks xarakterligi.
5. Yuqori tebranuvchan boshqaruv tashkiliyligi.

Moliyaviy menejment mazmuni va tamoyillaridan uning bosh maqsad va vazifalari shakllanadi.

Moliyaviy menejmentning bosh maqsadi korxona boshqaruvining bosh maqsadi bilan ajralmas bo`lib, u bilan yagona kompleksda amalga oshiriladi.

Moliyaviy menejmentning bosh maqsadi korxona kapitalining bozor qiymatini maksimallashtirishni ta`minlash orqali joriy va kelgusi davrlarda korxona egalari faovonligini maksimallashtirish hisoblanadi.

Moliyaviy menejment o`zining bosh maqsadini amalga oshirish jarayonida, u quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga yo`naltiriladi:

1. Yetarlicha moliyaviy resurslar bilan ta`minlash.
2. Moliyaviy resurslarni eng samarali taqsimlanishini va foydalanimishini ta`minlash.
3. Pul oborotini takomillashtirish.
4. Korxona foydasi maksimallashishini ta`minlash.
5. Moliyaviy risk darajasi minimallash.
6. Korxona taraqqiyoti doimiy moliyaviy muvozanatni ta`minlash.
7. Xo`jalik faoliyatida amalda bo`ladigan ichki va tashqi sharoitlar o`zgarishida kapitalning tez qayta investitsiya qilish imkoniyatlarini ta`minlash.

Nazorat savollari.

1. Moliyaviy menejment nima?
2. Boshqarish usullariga tavsif bering?
3. Boshqarishning iqtisodiy usuli nima kiradi?
4. Ma`muriy-tashkiliy usul deganda nimani tushunasiz?
5. Ijtimoiy-ruhiy usul deganda nimani tushunasiz?
6. Qaror qabul qilish kanday bosqichlarga bo`linadi, ularning mohiyatini ta`riflang
7. Qarolarning bajarilishini nazorat qilishda qanday usullar qullaniladi?

XII BOB. SUBYEKTLAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNI AXBOROTLAR BILAN TA`MINLASH VA MOLIYAVIY HISOBOTLARDAN FOYDALANISH

Reja:

- 12.1. Moliyaviy menejmentni tashkiliy va axborotlar ta`minot tizimining tuzilishi.
- 12.2. Tadbirkorlik moliyaviy menejmentining tizimida moliyaviy hisobotlar tushunchasi va ularning qo'llanilish xususiyatlari.
- 12.3. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarni tashkil qilish va yuritishning huquqiy-me'yoriy asoslari
- 12.4. Moliyaviy hisobot va uni yuritish talablari.

Tayanch iboralar: moliyaviy hisobotlar, moliyaviy menejment, boshqarishda axborotlar, moliyaviy resurslar, tadbirkorlik, moliyaviy strategiya, faktoring.

12.1. Moliyaviy menejmentni tashkiliy va axborotlar ta`minot tizimining tuzilishi.

Har qanday taraqqiy etgan davlat iqtisodiyotini ikkita yirik sektorga bo'lish mumkin - xususiy va davlat sektorlari. O'zbekiston Respublikasining amaldaqi qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyotning xususiy sektorini xo`jalik jamiyatlari va shirkatlari (AJ, MCHJ, QMJ, to`liq shirkat, kommandit shirkat), kooperativlar, xususiy korxonalar, fermer xo`jaliklari kabi tashkiliy-huquqiy shakllarga ega bo`lgan korxonalar namoyon etadi.

Ushbu korxonalar xususiy sektorga tegishli bo`lishiga qaramay, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Ustav fondi jamiyatning aktsiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi aktsiyalarning ma'lum soniga bo`lingan xo`jalik yurituvchi subyekt **aktsiyadorlik jamiyati** (AJ) deb e'tirof etiladi. AJ davlat ulushiga ega bo`lishi, davlat ulushiga ega bo`lmasligi va qo'shma korxonalar bo`lishi mumkin. Fuqarolik Kodeksiga ko`ra ustav fondi ta`sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordagi ulushlarga bo`lingan bir yoki bir necha shaxslar tomonidan ta`sis etilgan jamiyat qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat (QMJ) deb e'tirof etiladi. Bunday jamiyat ishtirokchilari uning

majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulki bilan jamiyatning ta'sis hujjatlari bilan belgilanib, ular tomonidan kiritilgan ulushlarning qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan katta miqdorda subsidiar javobgarlikka ega.

Ustav fondi (ustav sarmoyasi) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlar ulushiga bo'lingan bir yoki bir necha shaxslar tomonidan ta'sis etilgan xo'jalik jamiyati **mas'uliyati cheklangan jamiyat** (MCHJ) deb e'tirof etiladi. Jamiyat ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javob berishmaydi va faqat ular tomonidan kiritilgan ulushlar chegarasida jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar xatariga ega (O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi qonuni, 1-modda).

Aktsiyadorlik va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarini boshqarish ma'lum bir tamoyillarga asoslanib amalga oshiriladi:

1. Mehnat taqsimoti
2. Vakolatlilik va majburiyat.
3. Intizom
4. Boshqaruvda yakkaboshchilik va kollegiallik.
5. Maqsadning yagonaligi tamoyili
6. Shaxsiy manfaatlar bilan subyektning manfaatlarini qo'shib olib borish.
7. Rag'batlantirish tamoyili
8. Rejalilik.
9. SHaxsiy tashabbuskorlik.
10. Javobgarlik va tavakkalchilik.
11. Boshqaruv etikasiga rioya etish.
12. Boshqaruvning shakli va usullarini takomillashtirib borish.

Korxonaning moliyaviy resurslari bu xo'jalik subyektlari ixtiyorida bo'lgan va moliyaviy majburiyatlarni, kengaytirilgan ishlab chiqarishni va ishchilarni moddiy rag'batlantirishni ta'minlaydigan pul daromadlari va tushumlaridir. Moliyaviy resurslarning dastlabki tashkil etilishi korxona tuzilayotgan paytda amalga oshadi.

Korxonalarning boshqa tizimlar bilan o'zaro moliyaviy aloqalarida ikkita muhim o'zgarishni ta'kidlash lozim: **sug'urta operatsiyalarining rivojlanishi va qaytarishsiz olinadigan subsidiyalar sohasini qisqarishi**.

Moliyaviy resurslar korxonalar tomonidan quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha yo'naltiriladi:

1. Moliya-bank tizimi organlariga to'lovlar (byudjet soliq to'lovi, banklarga foiz to'lovi oldindan olingen qarzlarni to'lash sug'urta to'loni h.k.).
2. O'z mablag'larini capital xarajatlarga investitsiyalash
3. Moliyaviy resurlarni qimmatbaho qog'ozlarga investitsiyalash
4. Rag'batlantirish va ijtimoiy xarakterdagи pul jamg'armalrini tashkil etish

Korxona moliyaviy strategiyais o'ziga quyidagilarni qamrab oladi:

- * Moliyaviy holat tahlil qilish;
- * Asosiy ya aylanma mablag'lardan foydalanish,
- * Foydani taqsimlash,
- * Naqtsiz hisob -kitoblar,
- * Soliqlar va baho siyosati,
- * Qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha siyosatni optimallshtirish

Bosh strategik maqsadlari va ayrim strategik vazifalarning bajarilishi strategiyasiga (ayrim strategik maqsadlarga erishishlar) qarab **bosh va tezkor moliyaviy strategiyaga** bo'linadi.

Bosh moliyaviy strategiya deb bir yilga korxonaning faoliyatini aniqlaydigan, uning hamma darajadagi byudjetlar bilan o'zaro munosabatlarini, korxonaning daromadini shakllantirish va undan foydalanishni, moliyalashtirish manbalari va talab miqdorlarini aniqlaydigan moliyaviy strategiyaga aytildi.

Joriy davrda mavjud moliyaviy resurslarga moslashish uchun, ichki zaxiralarni jalb qilish va mablag'larni foydalanish ustidan

nazorat qilish uchun, aniqrog'i iqtisodiy nochor sharoitda, moliyaviy strategiyalar bir chorak, oyga yoki zarur bo'lgan sharoitda undan ham qisqa muddatga ishlab chiqiladi.

Tezkor moliyaviy strategiyaning bosh moliyaviy strategiyadan farqi shundaki, u barcha yalpi daromadni va mablag'lar tushumlarini (ish haqi, sotilgan mahsulotlar uchun sotib oluvchilar bilan hisob kitoblar, kredit operatsiyalar bo'yicha tushumlar) va barcha yalpi chiqimlarni(yetkazib beruvchilarga to'lovlari, ish haqi, barcha darajadagi byudjetlar va banklardagi qarzлarni qoplash) qamrab oladi. Bunday tushumlarning va xarajatlarning tarkibini sinchiklab o'rganish rejalashtirilayotgan davrga pul tushumlari va xarajatlari bo'yicha oborotlarni oldindan aniqlashga imkon beradi. Daromadlar bilan xarajatlarning tengligi yoki daromadlarning xarajatlarga nisbatan oshishi normal holat xisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy strategiyasi bosh strategik maqsadga erishish uchun har xil quyidagi usullarni va harakatlarni o'ziga qamrab oladi:

- ❖ moliyaviy resruslarni shakllantirish va ularni markazlashgan holda strategik boshqarish;
- ❖ yechimi topiladigan asosiy yo'nalishlarni aniqlash va ularni bajarish uchun korxonaning moliyaviy boshqaruvi tomonidan zaxiralarni foydalanish va yo'naltirish;
- ❖ maqsadlarni bosqichlarga ajratish va har bir bosqich bo'yicha maqsadlarga erishi;
- ❖ moliyaviy harakatlarning korxonaning moddiy imkoniyatlari va iqtisodiy sharoitiga mos kelishi;
- ❖ har bir vaqt mobaynida korxonaning real moliyaviy ahvolini va moliyaviy-iqtisodiy sharoitini obyektiv hisobga olish;
- ❖ strategik zahiralarni tayyorlash va shakllantirish;
- ❖ o'zining va raqobatchilarning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olish;
- ❖ raqobatchilar tomonidan bo'ladigan bosh tahdidlarni aniqlash va ularni yo'q qilish uchun asosiy kuchlarni jalb qilish va moliyaviy operatsiyalarning yo'nalishlarini o'ylab tanlash;

❖ raqobatchilar ustidan g`alabaga erishish uchun harakat qilish.

Moliyaviy strategiyaning vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

➤ xo`jalik yuritishning bozor sharoitida moliyaning shakllanishining qonuniyatini va xarakterini tadqiq qilish;

➤ nochor va moliyaviy krizis xolati sharoitida moliyaviy boshqaruv faoliyati va korxonaning moliyaviy resurslarini shakllantirishning imkoniyatlari variantlarini tayyorlash shartlarini ishlab chiqish;

➤ yetkazib beruvchi va sotuv oluvchilar, barcha darajadagi byudjetlar, banklar va boshqa moliyaviy institutlar bilan moliyaviy munosabatlarni aniqlash, ishlab chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlar va aylanma mablag'lardan ratsional foydalanish uchun korxonaning rezervlarini aniqlash va resrsularini jalb qilish;

➤ korxonani ishlab chiqarish-xo`jalik faoliyati uchun zarur bo`lgan moliyaviy resurslar bilan ta`minlash, bo`shturgan pul mablag'larini maksimal foyda olish maqsadida samarali jalb qilishni ta`minlash;

➤ yutug`li moliyaviy strategiyani amalga oshirish va moliyaviy imkoniyatlarni strategik foydalanish usullarini aniqlash, xo`jalik yuritishning bozor sharoitida korxonaning kadrlarini har tomonlama tayyorlash va mahsulotlarning yangi turlarini, uning tashkiliy tuzilmasini aniqlash va texnik jihozlash;

➤ raqobatchilarning moliyaviy strategiyasi qarashlarini, ularning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarini o`rganish, moliyaviy mustahkamlikni ta`minlash bo`yicha tadbirlar yuritish;

➤ krizis moliyaviy holatda va nochor sharoitda krizisdan chiqishga tayyorgarlik usullarini, korxonaning kadrlarini boshqarish usullarini ishlab chiqish;

Strategik moliyaviy menejment - o`zida investitsiyalarni boshqarishni aks ettiradi. U tanlangan strategik maqsadga erishishi bilan bog`liq.

Strategik moliyaviy menejment birinchi navbatda quyidagilarni ko'zlaydi:

→ *Kapital qo'yilmalar proyektorlarini moliyaviy tomonidan baholash;*

→ *Investitsion yechimlarni qabul qilishda kriteriyalarni tanlash;*

→ *Kapital qo'yilmalarning optimal variantini tanlash;*

→ *Moliyalashtirish manbalarini aniqlash;*

12.2. Tadbirkorlik moliyaviy menejmentining tizimida moliyaviy hisobotlar tushunchasi va ularning qo'llanilish xususiyatlari.

Aksionerlarning boyligi shu bilan aniqlanadiki aksiyalarning bozor bahosi bu esa koorporatsiyaning moliyaviy qarorlarini spektrida namoyon bo'ladigan, investitsiyalar, moliyalashtirish va firma aktivlarini boshqarishdir.

Aksinerlar, rahbariyat aksiyalarini narxini maksimallashtirish siyosatini olib borishlariga umid bildiradilar. Ammo koorporatsiya rahbarlari ham siz bilan bizdek insonlar, ular ham oldin o'z moddiy mustaqilligiga erishishga harakat qiladilar. Lekin kompaniyaning direktorlar kengashishining eng muhim funksiyasi, shunday rag'batlantirish tizimini tashkil etishni unda korporatsiya rahbariyati aksionerlarning foydasiga qarab ish yuritishi, ya'ni menejer va aksionerlarning foydalari tekis taqsimlansin. Tuzilmaviy jixatdan bu tizim unchalik murakkab emas. Quyida keltirilgan rag'batlantirishning uch usuli, kompaniya rahbariyati aksiyalarini narxini maksimallashtirishga imkon yaratadi.

1. Direktorlar kengashi shunday talab qo'yishi mumkinki unda menejerlar kompaniyaning yetarlicha ko'p daromadli aksiyalarini sotib olsin.

2. Oylik ish haqi, bonuslar, admenistratsiya optionlari shunday amal qilsinki, yuqori natijalar uchun yuqori rag'batlantirish, yaxshi faoliyat ko'rsatmaganlar uchun qat'iy jazo qurilsin.

3. Ishdan haydashni real qilib qo'yish, agar ishchi o'z vazifasini to`la qonli bajarmasa va o'z vazifasiga sovuqqonlik bilan qarasa.

qisqa muddatli moliyalash odatda ishlab chiqarish va talabning mavsumiy o'zgarishi va moliya bozorining vaqtinchalik tebranishi sababli hamda uzoq muddatli maqsadlarni ko`zlab qo'llaniladi.

Qisqa muddatli moliyalashning asosiy manbaalari quyidagilardan iboratdir:

- Tijorat krediti
- Bank qarzi
- Bank aksepti
- Moliyaviy kompaniyalarning sudlari
- Tijorat qimmatbaho qog'ozlari
- Debitorlik qarzlari va tovar-moddiy zaxiralar garoviga olingan ssudalar

Qisqa va o'rta muddatli moliyalashning afzalliklari:

◆ Kompaniyaning moliyalashga bo`lgan ehtiyojining o'zgarishiga mutanosib ravishda muddatni o'zgartirish imkoniyati mavjudligi

◆ Konfidentsiallik – amalda hech qanday ommaviy axborotlar qo'llanilmaydi, kompaniyaning moliyaviy ehtiyojlari haqidagi hech qanday ma'lumot rasman e'lon qilinishi majburiy emas

◆ Ssuda ommaviy taklifni (obligatsiyalarni emissiya qilishda) tayyorlashga nisbatan tezroq kelishish jarayonidan o'tishi mumkin

◆ Qarzni jamoat orasida joylashtirishga (obligatsiyalarni emissiya qilishda) nisbatan xaratjatlar kamayadi

Qisqa va o'rta muddatli moliyalashning kamchiliklari:

1. Odatda mulkiy garov va shartnoma talab qilingani uchun bir tomonning amaliyotlari erkinligi bir qadar kamayadi.

2. kompaniyaning moliyaviy va byudjet hujjatlari kreditor tomonidan vaqt-vaqt bilan talab qilinishi mumkin.

3. emissiyaga chiqarilishi ko`zlangan obligatsiyalarning, ularni jozibadorligini oshiruvchi xarakteristikalar kreditor bank tomonidan so'ralishi mumkin.

Faktoring – vosita operatsiyalarining bir turi bo`lib u mijozning (bankning yoki faktoring kompaniyasining mijoji) aylanma kapitalini kreditlash bilan uzviy bog`liqdir. Faktoringning asosiy tamoyili shundaki, faktoring operatsiyasini amalga oshirayotgan bank (faktoring-firma) uz mijozlaridan ularning yetkazib berilgan tovarlar, ko`rsatilgan xizmatlar, amalga oshirilgan ishlar uchun boshqa korxonalarga bo`lgan talablarini sotib oladi va shu orqali bu talablar uchun to`lovlarini olishi huquqini oladi. Faktoring operatsiyasi mijozning debitorlik qarzdorligini inkasso qilish, kreditlash va kredit hamda valyuta xatarlarini kafolatlanishni o`z ichiga oladi.

Xo`jalik subyektlarida ayrim hollarda xom ashyo sotib olishga mablag`lar yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda banklar, moliya-kredit tashkilotlarining faktoring operatsiyalaridan foydalanishi mumkin. Ya`ni bunda banklar xo`jalik subyektlarining debitorlik qarzlarini sotib olishi yoki xom ashyo sotib olish xarajatlarini qoplab berishi mumkin. Faktoring korxonalar orasidagi oldi-sotdi munosabalarini moliyalashtirib, to`lolmaslik risklarini kamaytiradi.

Faktoring – hisoblarning samarali instrumenti bo`lib, oldi-sotdi shartnoma bo`yicha moliyalashtirish va to`lamaslik riskini pasaytirishdir.

Faktori operatsiyalarining afzalligi:

Mol yetkazib beruvchilar uchun:

- ❖ Faktoring xizmatlari ishlab chiqarish hajmini oshirmoqchi bo`lgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun ko`proq samaradorlikka ega;
- ❖ Mol yetkazib beruvchi tovar etkazib berish, xizmat ko`rsatish, ish bajarishdan so`ng 3 kun ichida talab qilingan mablag`ning asosiy qismini (80% i) qabul qiladi.
- ❖ Mol yetkazib beruvchi to`lov muddatini aniq biladi, shunga qarab u o`zining to`lovlarini rejalashtirishi mumkin.

Xaridorlar uchun:

- ❖ Xaridor 90 kungacha tavarni kreditga olish imkoniyatiga ega bo`ladi, bunda xaridor oldindan to`lab borishi ham mumkin.

Faktoring xizmatlari qiymati

Faktoring xizmatlari qiymati mol yetkazib beruvchiga taqdim etilishi lozim summa qiymati hamda bankning joriy stavkalar

bo'yicha faktoring komission qiyomatidan kelib chiqadi. Faktoring xizmatlar qiyamatini hisoblash uchun baza bo'lib talab qilingan summadan foiz va xaridorning kechiktirgan kunlar miqdori hisoblanadi.

Lizing jahozi to'liq qoplanadigan lizing, qoidaga ko'ra, moliyaviy ataladi. Moliyaviy lizing, ya'ni mulk qiymati to'liq to'lanadigan lizing mulki, shu bilan tavsiflanadiki, lizing oluvchiga foydalanish uchun mulk beriladigan muddat davomiyligiga ko'ra lizing beruvchi mulki qiyamatining butun yoki ko'p qismi ekspluatatsiyasi va ammortizatsiyasi muddatiga yaqinlashadi. Moliyaviy lizing shartnomasi muddati mobaynida lizing beruvchi lizing to'lovlarini orqali mulkning butun qiyamatini o'ziga qaytaradi va bitimdan tegishli foyda oladi. Moliyaviy lizing lizingning jahon miqyosida eng ko'p tarqalgan turidir va uning ko'plab xillari bor. Bular o'z mustaqil funktsiya va nomiga ega.

To'liq qoplanmaydigan lizing, odatda, *tezkor* hisoblanadi, chunki, lizing beruvchining lizing mulkini olishi va saqlashi bilan bog'liq sarflari, qoidaga ko'ra lizing muddat mobaynida to'la qoplanmaydi. Tezkor lizingning moliyaviy lizingdan shu bilan farqlanadiki, bunda sotib olish huquqi bo'lmaydi va lizing to'lovlarini lizing beruvchining barcha sarflarini qoplamaydi.

Lizing to'lovlarini lizing oluvchi balansida mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga o'tkazish qo'yidagi tatibda amalga oshiriladi. Lizing to'lovlarining umumiy summasi qo'yidagilardan iborat:

- qaytariladigan lizing obyektining to'liq summasidan;
- lizing shartnomasiga binoan sotib olingan mulk uchun olingan kredit resurslar bo'yicha to'lanma;
- lizing beruvchiga to'lanadigan komission to'lanma;
- agar lizing beruvchi lizing obyektini sug'urta qilgan bo'lsa, sug'urta to'lovlar;
- lizing shartnomasida nazarda tutilgan lizing beruvchining boshqa xaratatlari.

12.3. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarni tashkil qilish va yuritishning huquqiy-me'yoriy asoslari

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar to'g'risida» gi qonuniga asosan, **korxona - huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati**

yurituvchi subyekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirkoshlaydi.

Har bir mamlakatning sanoat quvvati hamda fan-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotni modernizatsiyalash ko'rsatkichlarini birinchi o'rinda yirik korxonalar belgilab beradi. Shu sababli «kichik» iqtisodiyotni rivojlantirish, ya'ni kichik va o'rta korxona hamda mikrofirmalarga keng yo'l ochib berishda yirik korxonalarning o'rni va rolini unutmaslik darkor. Chunki bu korxonalarda ishlovchi xodimlar soni katta bo'lishdan tashqari, fan-texnika yutuqlarini hayotga tatbiq etish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mehnatni rag'batlantirish hamda do'stona, sherikchilik aloqalarini (jumladan, xorijiy korxona va firmalar bilan) rivojlantirishga keng imkoniyatlar mavjud. Shu sababli yirik, o'rta va kichik korxonalarining optimalligi umumiy ishlab chiqarish talablari va milliy iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollaridan kelib chiqqan holda fan va xo'jalik amaliyotining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani iqtisodiyotning har bir tarmog'i va sohasida hal qilishning yo'llari o'xshash bo'lmasligi yoki bir xil tavsifga ega bo'lmasligi mumkin. Har bir alohida yuzaga kelgan iqtisodiy holatda mavjud sharoitlar va rivojlanish afzalliklariga mos holda harakat qilish zarur.

Korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlasa, butun iqtisodiyotning, jumladan, ularning o'zlarining ham ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va rentabellikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga keng imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblanadi. Balki haqiqatdan ham shundaydir. Biroq korxona, ayniqsa, davlatga tegishli bo'lgan korxona qanday ishlashi, uning jamiyatga keltiruvchi foydasi, rentabellik darajasi, xodimlarning bandligi qanday bo'lishi faqat korxonalarining emas, davlatning ham ko'z oldida bo'lishi zarur. Xuddi shuning uchun ham davlat korxonalarga katta imkoniyatlar yaratib berish bilan birga ularni belgilangan tartibda nazorat qilib ham boradi. Davlat korxonalar «taqdiriga», ularning ishlab chiqarish

faoliyati yakuniy natijalariga befarq qarab tura olmaydi. Bankrotga uchragan korxonalar, zarar keltiruvchi ishlab chiqarish, iqtisodiy nochorlik – bularning barchasi korxona jamoasi uchun ham, davlat uchun ham og`ir yuk hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida barcha korxonalar ham raqobatchiliikni yengib, samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda ololmaydi. Natijada minglab korxonalar tashkil qilinib, xo`jalik faoliyati doirasiga qo`shiladi va deyarli shunchasi turli sabablarga ko`ra tugatiladi. Shu sababli bankrotlik, korxonalarning tugatilishi bozor iqtisodiyot sharoitlarida odatiy hol bo`lib, bu ahvolga tushib qolishdan ehtiyyot bo`lish kerak bo`lsada, lekin bundan fojea ham yasash kerak emas.

Xalq orasida «Kambag`al va kasal bo`lgandan ko`ra boy va sog`lom bo`lgan afzal» degan gap bor. Shu gapga amal qiladigan bo`lsak, yaxshisi korxonani bankrot bo`lishga olib kelmaslik, uning iqtisodiy mustaqilligi, mehnat qobiliyati va daromadligini ta`minlash uchun barcha zarur choralarни qo`llash zarur. Korxonaning mehnat qobiliyati va daromadliligi milliy iqtisodiyotga qo`shiladigan hissa bo`lishdan tashqari respublikamizda tobora ko`payib borayotgan aholini ish bilan ta`minlashda ham ahamiyat kasb yetishini unutmaslik muhim. Ko`rinib turibdiki, istalgan korxonaning milliy iqtisodiyotdagи o`rni va ahamiyati ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, olinadigan foyda yoki daromad miqdoridan tashqari bu korxonaning aholini ish bilan ta`minlashdagi ishtirokiga ham bog`liq bo`ladi. Aholini ish bilan ta`minlar ekan, korxonalar o`zlarining bevosita ishlab chiqarish vazifalarini bajarishdan tashqari ishsizlikning kamayishiga, demak, to`g`ri, mehnat faolligining ortishi va ijtimoiy ahvolning yaxshilanishiga ham sababchi bo`ladi.

Bu yerda hamma narsa faqat korxonanning o`ziga bog`liq emasligi ko`rinib turibdi, albatta. Chunki korxona o`z faoliyatini amalga oshirish jarayonida xomashyo, material, asbob-uskuna va boshqa ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchi yoki mahsulot iste`molchilari sifatida harakat qiluvchi boshqa korxonalar bilan o`zaro aloqaga kirishadi. Bu munosabatlarda har bir kamchilik va nuqsonlar, jumladan, xomashyo, material va asbob-uskunalarini vaqtida yetkazib bermaslik, o`z vaqtida haq to`lamaslik, qarzlarni to`lash muddatlarining o`tkazib yuborilishi va boshqa xo`jalik

yuritish qoidalari va majburiyatlarining buzilishi korxona iqtisodiy ahvolining yomonlashishiga, uning nochorlikka uchrashiga olib keladi. Shu sababli korxonalar faoliyatini samarali va yuqori rentabelli darajada amalga oshirish zaruriyati, barcha korxonalar ishlab chiqarishni kerakli tarzda tashkil qilish hamda o'z hamkorlari va davlat oldidagi majburiyatlarni qat'iy tarzda bajarish intizomi bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekistonda ko`plab kichik, o`rta va yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, ular iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini – og`ir sanoatdan yengil sanoatgacha, qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan ilmiy ishlab chiqarishgacha qamrab olgan. Ular o`z faoliyatida ishlab chiqarishning barcha omillaridan – yer, tabiiy va mehnat resurslari, texnika va texnologiyalar, investitsiyalar, hozirgi zamon fani tomonidan ishlab chiqarishning asosi yoki mamlakatning milliy boyligi deb ataluvchi zamonaviy axborot tizimidan foydalanadi. Ma'lumki, boylik yoki salohiyat bir nechta avlod va butun jamiyatning xatti-harakatlari evaziga yaratiladi. Korxonalarining vazifasi ushbu boylikni asrab-avaylash va undan samarali foydalanishda ifodalanadi. Xo`jalik yuritishning mazkur tamoyillaridan bir oz bo`lsada chetga chiqish jamoatchilik ishlab chiqarishi samaradorligining pasayishiga, xo`jasizlik va isrofgarchilikka olib keladi. Korxonalar ham bundan mustasno emas.

Zamonaviy korxona-mustaqlil xo`jalik yurituvchi subyekt bo`lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek davlatning o`zigagina tegishli bo`lmaydi. Shu sababli korxonalar *mulkchilik shakliga* ko`ra, davlat va nodavlat, *tarmoq belgilariga* ko`ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft` va gaz sanoati, qurilish majmuaviyi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va hokazolar, *ishlab chiqarish miyosi* va *xodimlar soniga* ko`ra, yirik, o`rta va kichik, *faoliyat yuritish muddatiga* ko`ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalarga bo`linadi.

Biroq ushbu belgilardan qat'iy nazar, deyarli har bir korxona **Nizom** asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi idorasi va bu idoranining nomi, Nizom jamg`armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxona rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatları,

tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokazolar ko'rsatilgan bo'ladi.

Agar nizomda korxonaning tashkiliy-huquqiy vazifalari belgilangan bo'lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fondlar, pul mablag'lari va boshqa aktivlar kiruvchi **Nizom jamg`armasiga** tayanadi. Nizom jamg`armasi qonunga asosan korxonani tashkil qilish jarayonida ta'sischilar - davlat, huquqiy va jismoni shaxslar tomonidan shakllantiriladi. Korxona rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayib borishi, daromad hajmi va boshqa moliyaviy tushumlarning ortishi natijasida Nizom jamg`armasi ko'paytirilishi mumkin. Umuman olganda, Nizom jamg`armasi korxonaning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy jihatdan baquvvatligini aks ettiradi.

Korxonani turli jihatlariga ko'ra tavsiflash mumkin:

- ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarda korxona - ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;
- ijtimoiy munosabatlarda korxona - turli kategoriyadagi xodimlar o'rtaida ularning huquq va majburiyatları asosida yuzaga keluvchi munosabatlар;
- tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxona huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;
- moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxona - tarmoqning mustaqil bo`g'ini bo`lib, o`z-o`zini moliya bilan ta'minlash, o`z-o`zini boshqarish, ya`ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan korxona davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina huquqiy shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun birinchi o'rinda quyidagi hujjatlar ahamiyatga ega bo'ladi: ta'sischining arizasi; korxonaning Nizomi; korxonani tashkil qilish haqida qaror yoki ta'sischilar shartnomasi; davlat bojini to'laganlik haqida kvitantsiya va boshqalar.

Korxona o`ziga xos bo`lgan ma'lum belgilarga ega:

birinchidan, korxona o`ziga tegishli va xo`jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo`lib, ushbu mulk uning faoliyatini moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligini va ishonchliliginini

ta'minlaydi;

ikkinchidan, korxona kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;

uchinchidan, korxona xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilar, xomashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

to'rtinchidan, korxona qonunchilikka asosan sudda da`vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

beshinchidan, korxona mustaqil balans yoki smetaga ega bo`lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xaratjatlarini hisobga olib boradi hamda davlat idoralari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

oltinchidan, korxona o'z nomiga ega bo`lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

Har bir korxonaning faoliyati ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish va muomala jarayonlaridan iborat bo'ladi. Korxonaning ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati – yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkillashtirishda namoyon bo'ladi. qayta ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat – ishchi kuchini yo'llash, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va kengaytirish jarayonlarida aks etadi. Muomala sohasidagi faoliyat esa ishlab chiqarishning moddiy-texnika ta'minotini tashkillashtirish, mahsulot (ish, xizmat)larni sotish va foydalanilgan ishlab chiqarish vositalarining daromad shaklida qaytib kelishida ko'zga ko'rindi.

Korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tadqiq etishda uni tashkil qiluvchi ikkita tarkibiy qism – tizimning o'zi (korxona) va ushbu tizim faoliyat yurituvchi tashqi muhitni ko'rib chiqish lozim. Korxonaning ichki muhitni ishlab chiqarish vositalari, pul mablag'lari, axborotlar va inson resurslaridan tashkil topadi.

Ichki muhitning o'zaro aloqalari natijasida tayyor mahsulot paydo bo'ladi, ishlar bajariladi va xizmat ko'rsatiladi, ya'ni to'g'ri yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish va mehnatga haq to'lash faoliyati yuzaga keladi.

Korxonalarining tashqi muhit bilan aloqasi ularning tashqi

tizimga chiqishida ro'y berib (resurslarni jalg qilish, ularning qiyomatini aniqlash, xomashyo, material va yoqilg'ining o'z vaqtida yetkazib turilishi va hokazo), tashqi muhitga ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar oqimi yordamida ta'sir ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi.

Korxonalar faoliyati samaradorligini aniqlab beruvchi tashqi muhit – bu, birinchi o'rinda mahsulot iste'molchilar, xomashyo va boshqa material yetkazib beruvchilar, shuningdek davlat idoralari hamda korxonaga yaqin joyda yashovchi aholi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar **faoliyatining asosiy yo'nalishlari** quydagilar hisoblanadi:

- bozor va uning rivojlanish istiqbollarini majmuaviy ravishda o'rganish yordamida, xaridorlarning mahsulot va xizmat turlariga mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talablarini aniqlash;
- mahsulotning yangi modellari va namunalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish;
- xaridorlar talablariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarishni rejalshtirish, dasturlash, muvofiqlashtirish va moliyalashtirish;
- mahsulotni taqsimlash va sotish tizimini tashkil qilish va uni mukammallashtirish;
- korxonaning barcha faoliyatini, jumladan, ishlab chiqarish, sotish, reklama, texnik xizmat ko'rsatish va hokazolarni boshqarish.

Albatta, zamonaviy korxonalarning ko'p qirrali faoliyati yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar bilangina cheklanib qolmaydi. Amaliyotda ular fan-texnika taraqqiyoti va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning yangi talablari bilan to'ldirilishi mumkin. Biroq, yuqorida aytib o'tilganlardan qat'inazar, xo'jalik rivojlanishining har bir bosqichida korxonalar faoliyati quydagi vazifalarni bajarishga qaratilishi zarur:

- korxona egasining daromad olishi;
- iste'molchilarни ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta'minlash;
- xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash;
- korxonaga yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari

yaratish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- korxona faoliyatida to`xtab qolishga yo`l qo`ymaslik;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini mukammallashtirish;
- ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.

Xo`jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi vazifalarini bajarish korxonalardan quyidagi funksiyalarni amalga oshirishni talab qiladi:

- * ishlab chiqarish va shaxsiy iste`mol uchun mahsulotlarni tayyorlash;
- * mahsulotlarni iste`molchilarga sotish va yetkazib berish;
- * sotuvdan keyin xizmat ko`rsatish;
- * ishlab chiqarishning moddiy-texnika asosini ta`minlash;
- * xodimlar mehnatini tashkil qilish va boshqarish;
- * soliqlarni to`lash, byudjetga to`lanuvchi ixtiyoriy yoki majburiy badal va to`lovlarni amalga oshirish ;
- * amaldagi standartlar, me`yoriylar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.

Bu vazifalar korxonalarning hajmi, qaysi tarmoqqa mansubligi, ijtimoiy infratuzilmaning mavjudligi, mahalliy hokimiyat idoralari bilan munosabatlarga asoslanib aniqlashtiriladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti va fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning amalga oshiruvchi vazifalarini kengaytirishi hamda ularning faoliyatidagi ishlab chiqarish ko`rsatkichlarini yanada yaxshilash uchun yangi vazifalar belgilab berishi mumkin.

12.4. Moliyaviy hisobot va uni yuritish talablari.

Moliyaviy natijalar to`g`risidagi umumlashgan ma`lumotlar moliyaviy hisobotning muhim shakli 2 shaklda «Moliyaviy natijalar to`g`risidagi» hisobot shaklida ifodalanadi.

Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot choraklik hisobot shakliga kirib, barcha xo`jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladi.

Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot va uni to`ldirish tartibi O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140 sonli Yo`riqnomasi asosida belgilanadi.

Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot shaklining asosiy ko`rsatkichlariga quyidagilar kiritiladi;

1. Mahsulot sotishdan olingen yalpi (sof) tushum.
2. Mahsulot sotishdan yalpi foyda.
3. Asosiy faoliyatdan foyda (zarar).
4. Moliyaviy faoliyatdan foyda (zarar).
5. Umumxo`jalik faoliyatidan foyda (zarar).
6. Favqulodda foyda (zarar).
7. Soliq to`loviga qadar foyda (zarar).
8. Sof foyda (zarar).

Ushbu ko`rsatkichlarni hisob-kitob qilish yuzasidan albatta korxonaning quyidagi xarajat qatorlarini ham tarkiblash va farqlash lozim.

1. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.
2. Davr xarajatlar.
3. Moliyaviy faoliyatdan xarajatlar.
4. Favqulodda xarajatlar.

Daromad va xarajatlarni bu tarkibda turkumlanishi quyidagilarga imkon beradi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini boshqa xarajatlardan farqlash va korxona ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga baho berish; - moliyaviy boshqaruv yuzasidan operatsion xarajatlarni boshqa xarajatlardan farqlash;

- korxona tomonidan olinadigan daromadlarni ularning yuzaga kelishi yoki shakllanishi bo`yicha alohida tarkiblash (asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan hamda kutilmagan holatlardan).

Moliyaviy natijalar to`g`risidagi yangi hisobot shakli ularning har bir shakllanish qatori bo`yicha to`liq axborotlarni olish imkonini beradi. Bu axborotlar ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarining manfaatlar to`qnashuvini keltirib chiqarmaydi. Agar shunday bo`lganda edi, moliyaviy hisobotni tuzish qoidasi buzilgan bo`lar edi. Negaki, moliyaviy hisobotdagi ma`lumotlarda hech qachon bir turkum axborot foydalanuvchilar foydasiga, boshqa turkum zarari hisobiga aks ettirishlar bo`lmasligi talab etiladi. Ushbu qoida O`zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to`g`risidagi» Qonunining 6 moddasida ham berib o`tiladi. Ya`ni moliyaviy hisobotlarni tuzishdagi betaraflik qoidasi.

Molivaviv natijalarinina shakllanishi va ularning turlari

Bugungi erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida respublikamizda amaldagi huquqiy me'yorlarga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarining shakllanishi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 1999 yil 5 fevradda tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'grisida»gi Nizomga asosan belgilanadi. Mazkur Nizomga muvofiq moliyaviy natijalarning shakllanish qatorlariga quyidagilar kiritiladi:

1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingen yalpi moliyaviy natija.

2. Asosiy faoliyatning yalpi moliyaviy natijasi.

3. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilmagan natija.

4. Ummumxo'jalik faoliyatidan olingen yalpi moliyaviy natija.

5. Favqulodda kutilmagan holatlardan natija.

6. Soliq to'langungacha bo'lgan yalpi moliyaviy natija.

7. Yilning sof foydasi (zarari).

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingen moliyaviy natija va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingen moliyaviy natija mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingen sof tushumdan shu mahsulot ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi. Savdo tashkilotlarida moliyaviy natjalarni aniqlashda tovarlarni sotishdan olingen sof tushumdan shu mahsulotlarni sotib olish qiymatini chegirish asosida aniqlanadi.

Tahlilda sotishning uchta qatori xarakterlanadi:

1. Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan moliyaviy natija.

2. Asosiy vositalarni xisobdan chiqarish va sotishdan natija.

3. Boshqa aktivlarni sotishdan olingen natija.

Mahsulot sotishdan olingen foyda o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

- korxonaning o'ziga bog'liq omillar yoki ichki omillar;

- korxonaning o'ziga bog'liq bo'lмаган yoki tashqi omillar.

Korxonaning o'ziga bog'liq bo'lgan omillarga mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, hajmi, assortiment va struktura omillari kiritiladi. Uning o'ziga bog'liq bo'lмаган yoki tashqi omillarga davlatning soliq siyosatining o'zgarishi, baho omili va boshqa omillar kiradi.

Umumiy jixatdan olganda faqat korxonaning o'ziga tegishli va tegishli bo'limgan ta'sir omillarini tartiblash qiyin. Ularni faqat nisbiy jihatdan qarash mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining kritik darajasi ham odatda ushbu qator bo'yicha o'rganiladi. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi deganda korxonaning foyda yoki zarar olmasdan mahsulot ish va xizmatlar hajmini belgilash darajasi olinadi. Kritik hajm darajasida mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan tushum faqat shu mahsulot ish va xizmatlarga ketgan o'zgaruvchan va doimiy o'zgarmas xarajatlarni qoplashga yetishi kuzatiladi.

Kritik hajm darajasi amaliy qo'llovimizga endigina kirib kelayotgan ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash asosida korxonaning mahsulot ishlab chiqarish rejasini yoki foyda rejasini oldindan chamalash, belgilashda asosiy ko'rsatkich sifatida foydalanishimiz mumkin.

Tahlilda kritik hajm darajasi va uni aniqlashning uslubiy bog'lanishlari belgilanadi. Shuningdek uning o'zgarishini omilli tahlil etish orqali yechimlar beriladi.

Kritik hajm darajasini quyidagi formula shaklida ifoda etish mumkin. Bunda bevosita mahsulotning qiymat ifodasidan yoki sotish bahosidan kelib chiqiladi. Mahsulotning qiymat ifodasini esa quyidagicha belgilash mumkin.

$$\text{Mahsulot qiymati} = \text{O'zgaruvchan xarajat} + \text{O'zgarmas xarajatlar} + \text{foyda}.$$

Bundan kritik hajm darajasiga yuqorida berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda quyidagi bog'lanishni berish mumkin.

$$\begin{aligned} \text{Kritik hajm darajasida mahsulot hajmi} &= \\ &= \text{O'zgaruvchan xarajatlar} + \text{o'zgarmas xarajatlar} + 0. \end{aligned}$$

Bu bevosita qiymatni iqtisodiy kategoriya sifatida belgilashdagi ifodalashning o'zidan iboratdir. Ya'ni

$$\text{Mahsulot hajmi} = \text{Doimiy kapital} + \text{O'zgaruvchi kapital} + \text{Foyda}.$$

Kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarishning o`zgarishiga ta`sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulot birligiga to`gri keladigan o`zgaruvchan xarajatlarning o`zgarishi;
- mahsulot birligining bahosi;
- mahsulotlar miqdor o`zgarishlari;
- o`zgarmas xarajatalar o`zgarishi va \.k.

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini quyidagi misol asosida aniqlash mumkin.

Davr xarajatlarining tahlili

Davr xarajatlari deyilganda — bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog`liq bo`lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi. Davr xarajatlari tarkibiga mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xo`jalik sarflari kiritiladi. Ularni **yuzaga chiqish** shakli va o`rniga qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

- sotish xarajatlari;
- ma`muriy xarajatlar;
- boshqa umumxo`jalik xarajatlari.

Sotish xarajatlari — mahsulot (ish bajarish, xizmat ko`rsatish) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, mahsulot (bajarilgan ish, ko`rsatilgan xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to`g`risidagi Nizomga muvofiq yagona tartiblashni va to`g`ridan to`g`ri korxona faoliyat natijaviylici bog`lanishi tartiblangan.

Ma`muriy xarajatlar qatoriga korxona boshqaruvi bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar kiritiladi va ularning korxona sarflari tarkibidagi salmog`i sezilarli ulushni tashkil etadi. Bu bevosita rahbarlar va boshqaruv apparatining xizmati xarajatlaridir.

Boshqa umumxo`jalik xarajatlari qatoriga yuqoridagi tarkibga kiritilmagan xarajatlar ishlab chiqarishni takomillashtirish, o`zlashtirish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar kiritiladi.

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromad va xarajatlar tahlili.

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar tahlilida asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan tashqari faoliyatlardan olingan daromad va

yo`qotishlari tahlil etiladi. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlardan olingen daromad va xarajatlar ko`pincha operatsion daromadlar va xarajatlardeb ham aytildi. Operatsion xarajatlar va daromadlar qatoriga boshqa sotishlardan olingen daromadlar yoki ular bo`yicha yo`qotishlar kiradi.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingen boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e`tirof qilingan jarimalar va penyalar;
- hisobot yilida aniqlangan o`tgan yilga tegishli foyda;
- yordamchi xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlardan olingen tushumlar;
- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa molmulkarni sotishdan olingen daromadlar;
- da`vo bildirish muddati o`tgan kreditorlik va deponent qarzlarini hisobdan chiqarishdan olingen daromadlar;
- tovarmoddiy boyliklarning qayta baholanishidan ko`rilgan natijalar;
- davlat subsidiyalaridan daromadlar;
- xolisona moliyaviy yordam;
- boshqa operatsion daromadlar.

Operatsion jarayonlardan olingen daromadlar va yo`qotishlar tahlili

Operatsion jarayonlardan olingen daromadlar qatoriga korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan tashqari faoliyatidan olinadigan daromadlar kiritiladi. Ular bo`yicha xarajatlar va daromadlar qatori alohida tarkiblangan holda umumiyligi summada moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobotga tushiriladi. Operatsion daromadlar va xarajatlar o`zining sof qiymati bo`yicha ham moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobotga tushirilishi belgilangan. Bunda operatsion jarayonlardan olingen daromadlar ular bo`yicha xarajatlar qiymatiga farqlangan holda hisobotga foyda yoki zarar qatoriga tushiriladi.

Boshqa sotishlar bo`yicha Respublika Soliq kodeksiga muvofiq alohida soliqlar to`lovi qo`llaniladi. Shuningdek, mahsulot (ish va xizmat)larni sotishga soliqlar, daromad yoki tushumlarning bu

qatori bo'yicha ham amal etadi. Boshqa sotishlardan sof tushum summasi ham mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumni aniqlashdagi kabi uslubiy bog'lanishga ega.

Favqulodda foyda va zararlar tahlili

Favqulodda foyda va zararlar moliyaviy natijaviylikning uchinchisi tarkib qatori hisoblanadi. Uning qatoriga bevosita tasodifiy holatlardan ko'rildigan natijalar kiritiladi. Masalan, suv toshqini yoki er qimirlashi, yong'in bo'ronlar oqibatida yoki boshqa tabiat hodisalari asosida ro'y beradigan yo'qotishlar kiritiladi. Favqulodda foyda yoki daromadlar qatoriga kiritiladigan yoki zararlar qatoriga kiritiladigan alohida moddalar «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan mahsulot (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi tartibi to'g'risida»gi Nizomda aniq ko'rsatilmagan.

Ularning faqat bitta sharti umumiy Nizomda belgilangan. ya'ni, yaqin uch yillik oraliqda korxona uchun odatiy hol hisoblanmagan holatlardan olinadigan daromadlar yoki foyda summasi korxona uchun kutilmagan holatlardan olingan daromadlar sirasiga kiritiladi.

Kutilmagan yoki favqulodda holatlardan olingan daromadlar yoki ular bo'yicha yo'qotishlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning alohida tarkib qatori sifatida belgilangan.

Ularni korxonada rejalashtirish amalga oshirilmaydi. Ya'ni, favqulodda daromad va xarajatlar rejalashtirilmaydigan qatorga

kiritiladi. Ularning hozirgi paytda korxonalar faoliyat natijaviyligidagi salmog'i sezilarli ta'sirga ega emas.

Nazorat savollari

1. Moliyaviy menejment qanday axborotlar bilan ta'minlanadi?
2. Strategik moliyaviy menejment nimani ko'zlaydi?
3. Korxona moliyaviy resurslari qanday yo'naltiriladi?
4. Uzbekiston Respublikasida moliviy hisobot o'tkazishning huquqiy me'yoriy asoslari nimalarga asoslanadi?
5. Moliyaviy hisobotlarga bo'lgan talab nimalarni tashkil etadi?

XIII BOB. MOLIYAVIY TAHLILNING ASOSLARI

Reja:

- 13.1. Moliyaviy tahlilning turlari va o`tkazish uslublari.
- 13.2. Moliyaviy koeffitsientlar va ko`rsatkichlar bilan ishlash.
- 13.3. Subyektlarni moliyaviy baholashda moliyaviy hisobotlar va koeffisientlardan foydalanish usullari.

Tayanch iboralar: moliyaviy koeffisientlar, moliyaviy tahlil, moliyaviy ko`rsatkichlar, moliyaviy baholash.

13.1. Moliyaviy tahlilning turlari va o`tkazish uslublari.

Iqtisodiy tahlil qilishda, ma`lumotlarni qayta ishlashda turlituman uslublar qo`llaniladi. Bu uslublarni qo`llash jarayonida tahlil metodining asosiy xususiyatlari kompleks va sistemalashganligi yaqqol ko`rinadi. Xo`jalik jarayonlarining umumiy birligi, ketma-ketligi va ayrim elementlardan iboratligi tahlil qilishda asosiy e`tiborda turadi.

Tahlil usullarini qo`llash o`rganilayotgan jarayonlarning bir-biriga bog`liqligi, o`zgarish sababi, ta`sir ko`rsatgan omillar va qo`shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida aksariyat, yetuk iqtisodchi olimlarimiz taxlilning usullarini iqtisodiy adabiyotlarida shartli ravishda ikki guruhga ajratib ko`rsatishmoqda. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining usullarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Oddiy an`anaviy (odatdag) usullar guruhi.
2. Iqtisodiy matematik usullar guruhi.

Tahlilda qo`llaniladigan iqtisodiy matematik usullar

Taqqoslash usuli va uni qo`llashda amal qiladigan shartlar

Moliyaviy va boshqaruv tahlilining oddiy an`anaviy (odatdag) usullaridan eng ko`p va avvaldan qo`llanilib kelinayotgani taqqoslash usulidir. Har qanday iqtisodiy hodisa, jarayonni o`rganish, taqqoslash, ma`lum ko`rsatkichlar bilan nisbat, solishtirish yo`li bilan o`rganiladi. Bunday o`rganishda hodisa va jarayonlarni o`zgartirishning asosiy va qo`shimcha sabablari aniqlanadi, taraqqiyot darajasiga baxo beriladi. Odatda tahlil taqqoslash bilan boshlanadi deyiladi. Taqqoslashning bir necha

turlari mavjud: biznes reja ma'lumotlari, o'tgan yillar erishilgan ko'rsatkichlar, eng ilg'or va yuqori, o'rtacha erishilgan natijalar bilan.

Bizga ma'lumki iqtisodiy taxlilning muhim vazifalaridan biri tuzilgan biznes reja ko'rsatkichlarining bajarilishiga baho berishdan iboratdir. Shundan ham ma'lumotlardagi hisobotdan (o'rganilayotgan yil) erishilgan natijalarni taqqoslash tahlilining ahamiyati yuqoriligi ko'rindi.

Biznes reja ma'lumotlari bilan haqiqatda erishilgan natijalarni taqqoslab, aniqlangan farqlar tahlilni keyingi chuqur o'rganish uchun obe'kt bo'ladi, ya'ni hisoblangan o'zgarishlar tuzilgan biznes rejaning asoslanganligi, to'gri va bor haqiqiy imkoniyatga yaqin, bajarilish imkoniyati kengligini bildiradi. Shuningdek, bu aniqlangan farqlar biznes rejaning sifatli tuzilganligi yoki bor haqiqatdan uzoqlilagini ifodalaydi.

Guruhshtirish usuli va unina tahlilda qo'llanilishi

Har bir iqtisodiy hodisa va jarayonlar eng avvalo boshlang'ich hujjatlarda aks ettiriladi. Bu boshlang'ich hujjatlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun, ular ma'lum tartibga solinishi «analitik gruppalashtirish» zarur. Analitik gruppalashtirish — bu yig'ma umumiylar ma'lumotlardan alohida muhim belgilari va xususiyatlari bo'yicha guruhlarga ajratishdir.

Guruhshtirish usuli — iqtisodiy izlanishlarda bir tarkibli, ko'plab ko'rsatkichlarning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini tavsiflashdagi muhim usul sifatida qo'llaniladi. Ma'lumotlar o'zining guruhash belgisi bo'yicha turlicha tarkiblangan holda o'rganiladi. Bu esa ko'rsatkichlarning o'zaro bir-biriga nisbatan qiyosiy o'zgarishlarini, ularning sabablarini aniqlash, baholash imkonini beradi. Shuningdek, guruhash usuli moliyaviy va boshqaruv tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishslashda ham muhim hisoblanadi.

Guruhash yordamida o'rganilayotgan ko'rsatkichlar tarkibidagi ilg'or korxonalarga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni ommalashtirish ham mumkin.

Analitik guruhslar o'zining maqsadi va mazmuniga qarab: tipologik, tarkibiy va omilli guruhlarga ajratiladi.

Balansli bog'lanish usuli va unina tahlilda qo'llanilishi

Balansli bog'lanish usuli – ko'rsatkichlar orasidagi funksional bog'lanishlar mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Bu ko'proq buxgalteriya hisobi, statistika va rejalashtirishda qo'llaniladi. Ushbu usul asosida moddiy va mexnat resurslari, korxona pul mablag'lari kirimi va chiqimi, daromad va xarajatlarini (maxsus balanslar va ularning ma'lumotlarini o'rganish asosida) tahlil etish mumkin. Balansli bog'lanish usuli ko'proq korxonaning moliyaviy (holati, mulki, majburiyati va kapitalini o'rganishda qo'llaniladi. Iqtisodiy tahlil qilishda ko'pgina ko'rsatkichlar bir-biri bilan funksional bog'liqlikda o'rganiladi. Bir o'rganiladigan ma'lumotning o'zgarishi ikkinchi ko'rsatkich bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan, tovar mahsulotining yil oxiriga qoldig'ini tahlil qilishda uning yil boshidagi omborda bo'lgan qiymati, yil davomida ishlab chiqarilgan va sotilgan tovar mahsulotlar hajmini o'rganmasdan hisob-kitob qilish aniq natija keltirmaydi. Bu bog'liqlikn ni quyidagi formulada (tovar mahsuloti balansi) ko'rsatish mumkin.

$$TK_{yilboshiga} + MT + IN_o = ST + IN_k + TK_{yiloxiriga}$$

bunda: TK – tovarlar qoldig'i yil boshi va yil oxiriga;

MT – tovar mahsuloti kirimi (ishlab chiqarilgan mahsulot);

ST – jami sotilgan va jo'natilgan tovarlar;

IN_o – inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqchalilik;

IN_k – inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamomad

($STTK$) $ST = TK_{yil\ bosh.} + MT - TK_{yil\ oxiri}$ ga teng bo'ladi.

Mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli

Mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli – ko'proq statistika fanida keng qo'llanilib, tahlilda ko'pgina o'rganiladigan ko'rsatkichlarni o'sish va o'zgarishini hisoblashda ishlatiladi. Mutlaq o'zgarish tahlilda har bir o'rganiladigan ma'lumotlarni avval davrlarga nisbatan farqlarini ko'rsatsa, nisbiy ko'rsatkichlar esa foiz, koeffisient, indeksda hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarni hisoblash va o'rganish tartiblari statistika fanida yoritiladi. Moliyaviy va boshqaruv tahlilida mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarining qo'llanilishi, mehnat haqi fondining sarflanishida o'rganishda ayniqsa ko'proq ishlatiladi.

13.2. Moliyaviy koeffitsientlar va ko`rsatkichlar bilan ishlash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo`jalik yurituvchi subyektning oldiga qo`yan asosiy maqsadi bu foyda olishdir. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarishni hamma bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir. Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o`zining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti davrida ko`tariladi. Foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish bu kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishning, qiymat qonunining va xo`jalik yuritish usuli sifatida foydalanadigan xo`jalik hisobining obyektiv talabidir.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam ko`tarib turishni talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishilishi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish giyohlari uchun foydalanish lozim.

Foya (daromad) iqtisodiy harakatning zaruriy sharti maqsadi sifatida qaraladi. Juhon amaliyotida foyda deyilganda ko`pincha biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaraladi. Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o`zgaruvchanlikdir. Ular orasidagi quyi o`zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi.

Daromadlar – bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki ko`payishi shaklida o`sishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitaldagи omonatlaridan farq etuvchi o`sishiga olib keluvchi kamayishidir.

Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o`rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

Tahlil moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobotni o`qish, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, trendli tahlil va ko`rsatkichlarni aniqlash usullarida olib boriladi. Moliyaviy natijalar to`g`risidagi xisobotni o`qishda uning satrlar bo`yicha ko`rsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiy qatorlarning qiymat ifodasi, hisobot davri va o`tgan yilning shu davri bo`yicha ma`lumotlarga umumiy izoh beriladi.

Vertikal tahlilda moliyaviy natijalarning shakllanishini bir qatorli va ko'p qatorli usullarida o'zaro farqdanishlarga va nisbiy o'zgarishlar baho beriladi.

Gorizontal tahlilda esa moliyaviy natijalarning bo'yamasiga tarkiblanishi va ularning o'zgarishlari o'rganiladi.

Asosli yoka trend tahlilida moliyaviy natijalar va ularning yillar bo'yicha o'zgarishi, dinamikasi yoki asos yiliga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy ko'rsatkichlari, ular bilan shug'ullanuvchilarining iqtisodiy manfaatlari

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlar moliyaviy hisobotning muhim shakli 2 shaklda «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi» hisobot shaklida ifodalanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot choraklik hisobot shakliga kirib, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot va uni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140 sonli Yo'riqnomasi asosida belgilanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiritiladi;

1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi (sof) tushum.
2. Mahsulot sotishdan yalpi foyda.
3. Asosiy faoliyatdan foyda (zarar).
4. Moliyaviy faoliyatdan foyda (zarar).
5. Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar).
6. Favqulodda foyda (zarar).
7. Soliq to'loviga qadar foyda (zarar).
8. Sof foyda (zarar).

Ushbu ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish yuzasidan albatta korxonaning quyidagi xarajat qatorlarini ham tarkiblash va farqlash lozim.

1. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.
2. Davr xarajatlar.
3. Moliyaviy faoliyatdan xarajatlar.
4. Favqulodda xarajatlar.

Daromad va xarajatlarni bu tarkibda turkumlanishi quyidagilarga imkon beradi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini boshqa xarajatlardan farqlash va korxona ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga baho berish; - moliyaviy boshqaruv yuzasidan operatsion xarajatlarni boshqa xarajatlardan farqlash;

- korxona tomonidan olinadigan daromadlarni ularning yuzaga kelishi yoki shakllanishi bo'yicha alohida tarkiblash (asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan hamda kutilmagan holatlardan).

Moliyaviy natijalar to`g`risidagi yangi hisobot shakli ularning har bir shakllanish qatori bo'yicha to`liq axborotlarni olish imkonini beradi. Bu axborotlar ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarining manfaatlar to`qnashuvini keltirib chiqarmaydi. Agar shunday bo`lganda edi, moliyaviy xisobotni tuzish qoidasi buzilgan bo`lar edi. Negaki, moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarda hech qachon bir turkum axborot foydalanuvchilar foydasiga, boshqa turkum zarari hisobiga aks ettirishlar bo`lmasligi talab etiladi. Ushbu qoida O`zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to`g`risidagi» Qonunining 6 moddasida ham berib o`tiladi. Ya`ni moliyaviy hisobotlarni tuzishdagi betaraflik qoidasi.

13.3. Subyektlarni moliyaviy baholashda moliyaviy hisobotlar va koeffitsientlardan foydalanish usullari.

Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ularning turlari

Bugungi erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida respublikamizda amaldagi huquqiy me`yorlarga muvofiq xo`jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarining shakllanishi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 1999 yil 5 fevralda tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to`grisida»gi Nizomga asosan belgilanadi. Mazkur Nizomga muvofiq moliyaviy natijalarning shakllanish qatorlariga quyidagilar kiritiladi:

1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija.
2. Asosiy faoliyatning yalpi moliyaviy natijasi.
3. Moliyaviy faoliyatdan ko`rilgan natija.
4. Umumxo`jalik faoliyatidan olingan yalpi moliyaviy natija.
5. Favqulodda kutilmagan holatlardan natija.

6. Soliq to`langungacha bo`lgan yalpi moliyaviy natija.
 7. Yilning sof foydasi (zarari).
- Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan moliyaviy natija va uning o`zgarishiga ta`sir etuvchi omillar tahlili

Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan moliyaviy natija mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi. Savdo tashkilotlarida moliyaviy natijalarni aniqlashda tovarlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulotlarni sotib olish qiyamatini chegirish asosida aniqlanadi.

Tahlilda sotishning uchta qatori xarakterlanadi:

1. Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan moliyaviy natija.
2. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va sotishdan natija.
3. Boshqa aktivlarni sotishdan olingan natija.

Mahsulot sotishdan olingan foya o`zgarishiga quyidagi omillar ta`sir etishi mumkin:

- korxonaning o`ziga bog`liq omillar yoki ichki omillar;
- korxonaning o`ziga bog`liq bo`lmagan yoki tashqi omillar.

Korxonaning o`ziga bog`liq bo`lgan omillarga mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, hajmi, assortiment va struktura omillari kiritiladi. Uning o`ziga bog`liq bo`lmagan yoki tashqi omillarga davlatning soliq siyosatining o`zgarishi, baho omili va boshqa omillar kiradi.

Umumiyl jihatdan olganda faqat korxonaning o`ziga tegishli va tegishli bo`lmagan ta`sir omillarini tartiblash qiyin. Ularni faqat nisbiy jihatdan qarash mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining kritik darajasi ham odatda ushbu qator bo`yicha o`rganiladi. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi deganda korxonaning foya yoki zarar olmasdan mahsulot ish va xizmatlar hajmini belgilash darajasi olinadi. Kritik hajm darajasida mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan tushum faqat shu mahsulot ish va xizmatlarga ketgan o`zgaruvchan va doimiy o`zgarmas xarajatlarni qoplashga yetishi kuzatiladi.

Kritik hajm darajasi amaliy qo`llovimizga endigina kirib kelayotgan ko`rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko`rsatkichni aniqlash

asosida korxonaning mahsulot ishlab chiqarish rejasi yoki foyda rejasini oldindan chamalash, belgilashda asosiy ko'rsatkich sifatida foydalanishimiz mumkin.

Tahlilda kritik hajm darajasi va uni aniqlashning uslubiy bor ishlari belgilanadi. Shuningdek uning o'zgarishini omilli tahlil etish orqali yechimlar beriladi.

Kritik hajm darajasini quyidagi formula shaklida ifoda etish mumkin. Bunda bevosita mahsulotning qiymat ifodasidan yoki sotish bahosidan kelib chiqiladi. Mahsulotning qiymat ifodasini esa quyidagicha belgilash mumkin.

$$\text{Mahsulot qiymati} = O'zgaruvchan xarajat + O'zgarmas xarajatlar + \text{foyda}.$$

Bundan kritik hajm darajasiga yuqorida berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda quyidagi bog'lanishni berish mumkin.

$$\begin{aligned} \text{Kritik hajm darajasida mahsulot hajmi} &= \\ &= O'zgaruvchan xarajatlar + o'zgarmas xarajatlar + 0. \end{aligned}$$

Bu bevosita qiymatni iqtisodiy kategoriya sifatida belgilashdagi ifodalashning o'zidan iboratdir. Ya'ni

$$\text{Mahsulot hajmi} = \text{Doimiy kapital} + O'zgaruvchi kapital + \text{Foyda}.$$

Kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarishning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi;
- mahsulot birligining bahosi;
- mahsulotlar miqdor o'zgarishlari;
- o'zgarmas xarajatalar o'zgarishi va \.k.

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini quyidagi misol asosida aniqlash mumkin.

Davr xarajatlarining tahlili

Davr xarajatlari deyilganda — bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lмаган xarajatlar va sarflar tushuniladi. Davr xarajatlari tarkibiga mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xo'jalik sarflari kiritiladi. Ularni yuzaga **chiqish** shakli va o'rniqa qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

- sotish xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlari;
- boshqa umumxo'jalik xarajatlari.

Sotish xarajatlari — mahsulot (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq yagona tartiblashni va to'g'ridan to'g'ri korxona faoliyat natijaviyligi bog'lanishi tartiblangan.

Ma'muriy xarajatlar qatoriga korxona boshqaruvi bilan bog'liq bo'lган xarajatlar kiritiladi va ularning korxona sarflari tarkibidagi salmog'i sezilarli ulushni tashkil etadi. Bu bevosita rahbarlar va boshqaruv apparatining xizmati xarajatlaridir.

Boshqa umumxo'jalik xarajatlari qatoriga yuqoridagi tarkibga kiritilmagan xarajatlar ishlab chiqarishni takomillashtirish, o'zlashtirish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bilan bog'liq bo'lган xarajatlar kiritiladi.

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromad va xarajatlar tahlili

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar tahlilida asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan tashqari faoliyatlardan olingan daromad va yo'qotishlari tahlil etiladi. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlardan olingan daromad va xarajatlar ko'pincha operatsion daromadlar va xarajatlar deb ham aytildi. Operatsion xarajatlar va daromadlar qatoriga boshqa sotishlardan olingan daromadlar yoki ular bo'yicha yo'qotishlar kiradi.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof qilingan jarimalar va penyalar;
- hisobot yilda aniqlangan o'tgan yilga tegishli foyda;
- yordamchi xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlardan olingan tushumlar;
- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mol mulklarni sotishdan olingan daromadlar;
 - da've bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;
 - tovar moddiy boyliklarning qayta baholanishidan ko'rilgan natijalar;
 - davlat subsidiyalaridan daromadlar;
 - xolisona moliyaviy yordam;
 - boshqa operatsion daromadlar.

Operatsion jarayonlardan olingan daromadlar va yo'qotishlar tahlili

Operatsion jarayonlardan olingan daromadlar qatoriga korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan tashqari faoliyatidan olinadigan daromadlar kiritiladi. Ular bo'yicha xarajatlar va daromadlar qatori alohida tarkiblangan holda umumiy summada moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushiriladi. Operatsion daromadlar va xarajatlar o'zining sof qiymati bo'yicha ham moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushirilishi belgilangan. Bunda operatsion jarayonlardan olingan daromadlar ular bo'yicha xarajatlar qiymatiga farqlangan holda hisobotga foyda yoki zarar qatoriga tushiriladi.

Boshqa sotishlar bo'yicha Respublika Soliq kodeksiga muvofiq alohida soliqlar to'lovi qo'llaniladi. Shuningdek, mahsulot (ish va xizmat)larni sotishga soliqlar, daromad yoki tushumlarning bu qatori bo'yicha ham amal etadi. Boshqa sotishlardan sof tushum summasi ham mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumni aniqlashdagi kabi uslubiy bog'lanishga ega.

Favqulodda foyda va zararlar tahlili

Favqulodda foyda va zararlar moliyaviy natijaviylikning uchinchи tarkib qatori hisoblanadi. Uning qatoriga bevosita tasodifiy holatlardan ko`riladigan natijalar kiritiladi. Masalan, suv toshqini yoki yer qimirlashi, yong`in bo`ronlar oqibatida yoki boshqa tabiat hodisalari asosida ro`y beradigan yo`qotishlar kiritiladi. Favqulodda foyda yoki daromadlar qatoriga kiritiladigan yoki zararlar qatoriga kiritiladigan alohida moddalar «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan mahsulot (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi tartibi to`g`risida»gi Nizomda aniq ko`rsatilmagan.

Ularning faqat bitta sharti umumiy Nizomda belgilangan. Ya`ni, yaqin uch yillik oraliqda korxona uchun odatiy hol hisoblanmagan holatlardan olinadigan daromadlar yoki foyda summasi korxona uchun kutilmagan holatlardan olingen daromadlar sirasiga kiritiladi.

Kutilmagan yoki favqulodda holatlardan olingen daromadlar yoki ular bo`yicha yo`qotishlar moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobotning alohida tarkib qatori sifatida belgilangan.

Ularni korxonada rejalashtirish amalga oshirilmaydi. Ya`ni, favqulodda daromad va xarajatlar rejalashtirilmaydigan qatorga kiritiladi. Ularning hozirgi paytda korxonalar faoliyat natijaviyligidagi salmog`i sezilarli ta`sirga ega emas.

Nazorat savollari

1. Moliyaviy tahlilning qanday turlari mavjud?
2. Moliyaviy tahlil uslublari deganda nimani tushunasiz?
3. Moliyaviy koeffitsientlar deganda nimani tushunasiz?
4. Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot shaklining asosiy ko`rsatkichlariga nimalar kiradi?
5. Subyektlarni moliyaviy baholashda moliyaviy hisobotlar va koeffitsientlardan foydalanishning qanday usullari bor?

XIV BOB. AKTIVLARNI BOSHQARISH

Reja:

- 14.1. Subyektlarning asosiy va aylanma kapitallarini boshqarishda moliyaviy axborotlardan foydalanish usullari.
- 14.2. Subyekt aktivlarining iqtisodiy mohiyati va guruhanishi.
- 14.3. Subyekt aktivlarining shakllanishi, baholash va ularni boshqarish.

Tayanch iboralar: asosiy kapital, aylanma kapital, kapital, Nou-xau, tender, innovatsiya, venchur, moliyaviy axborot, nomoddiy aktivlar, litsenziya, patent, liverdj, gudvil

14.1. Subyektlarning asosiy va aylanma kapitallarini boshqarishda moliyaviy axborotlardan foydalanish usullari.

Korxona aktivlari tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Qisqa muddatli aktivlar

- a) erkin pul vositalari (kassa, hisob raqami);
- b) tovar-moddiy zaxiralar (xom-ashyo, tugatilmagan ishlab-chiqarish, tayyor-mahsulot);
- c) debitor qarzi (xaridorlarga etkazilgan mahsulot uchun hisob);
- d) qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar (obligatsiyalar, veksel`, depozitlar);
- e) kelgusi davr sarflari (sug` urta badali, ijara to`lovi, litsenziya to`lovlari).

2. Uzoq muddatli aktivlar.

- a) bino va inshoatlar;
- b) jixozlar;
- c) tugatilmagan qurilish (mablag` sarfi);
- d) qo`yilmagan jihozlar (mablag` sarflash);

3. Nomoddiy aktivlar.

- a) NIOKR (timsol ishlab chiqarish chiqimlari, texnologiya-ni mukamallashtirish, tannarxga yozilishi mumkin);
- b) mualliflik huquqiga patentlar;
- c) gudvil;

Moliyaviy boshqarishda aktivlarga nisbatan moliyaviy qaror qabul qilishni tizimlashtirish mantiqi korxonalarining balansi yordamida yoritiladi. Korxonaning aktivlari korxonalar uchun potentsial daromad keltiruvchi moliyaviy va moddiy shakllardagi quyilmalar hisoblanib, ular asosan 2 turga bo`linadi: uzoq muddatli (aylanmadan tashqari aktivlar-asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar) va joriy (aylanma) aktivlardan iboratdir.

Moliyaviy boshqarish nuqtai nazaridan uzoq muddatli xarakterdagi moliyaviy qaror qabul qilish asosan aylanmadan tashqari aktivlarga nisbatan taaluqli bo`lib 2 asosiy guruhga ajratiladi: investitsion loyixalarni boshqarish va moliyaviy aktivlarni boshqarish.

Nomoddiy aktivlar – korxona tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko`rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma`muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo`lmagan mol-mulk obyektlari.

Aktivlarni buxgalteriya hisobiga nomoddiy aktivlar sifatida qabul qilishda bir vaqtning o`zida quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

a) moddiy-ashyoviy tuzilish (shakl)ga ega bo`lmasligi;

b) aktivlardan mahsulot ishlab chiqarishda, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko`rsatishda yoxud korxonaning ma`muriy va boshqa funksiyalari uchun uzoq muddat, ya`ni davomiyligi 12 oydan yuqori foydali xizmat muddati yoki agar u 12 oydan oshadigan bo`lsa, oddiy operatsion sikl mobaynida foydalanish;

c) korxona ushbu aktivni keyinchalik qayta sotishni mo`ljallamaydi;

d) ishonchlilik, ya`ni korxonada aktiv va unga bo`lgan mutlaq huquqning mavjudligini tasdiqlovchi tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar (patentlar, guvohnomalar, boshqa muhofaza qiluvchi hujjatlar, patent, tovar belgisidan voz kechish (sotib olish) shartnomasi)ning mavjudligi;

e) korxona tomonidan boshqa aktivlardan identifikatsiyalash (bo`lish, ajratish) imkoniyati, ya`ni aktivni undan foydalaniladigan xo`jalik faoliyatidan alohida foydalanishning mumkin bo`lishi.

Nomoddiy aktiv identifikatsiyalanadigan bo`lib hisoblanadi, agarda u:

a) ajraladigan bo`lsa, ya`ni uni korxonadan ajratib bo`lsa hamda sotish, berib yuborish, ijaraga berish, alohida yoki ular bilan bog`liq aktiv, kontrakt yoki majburiyat bilan birga ayriboshlash (gudvilldan tashqari) mumkin bo`lsa;

b) ushbu huquqlar beriladigan yoki korxonadan yoxud boshqa huquq va majburiyatlardan ajraladigan bo`lishidan qat`i nazar, shartnomaviy va boshqa yuridik huquqlardan paydo bo`ladi.

Korxonalarning asosiy vositalari turlari bo`yicha quyidagicha guruuhlanadi:

- inshootlar; kuzatuvchi moslamalar; mashina va asbob uskunalar;
- transport vositalari; asbob uskunalar;
- ishlab chiqarish inventarlari va buyumlar;
- xo`jalik inventarlari;
- ish va mahsuldor hayvonlar;
- ko`p yillik daraxtlar;
- yerlarni yaxshilashga sarflangan kapital sarflar va boshqa asosiy vositalar.

Shuningdek ijaraga olingan asosiy vositalarga sarflangan kapital qo`yilmalar ham asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi.

14.2. Subyekt aktivlarining iqtisodiy mohiyati va guruuhlanishi.

Asosiy vositalarning hisob birligi bo`lib alohida inventar obyektlari hisoblanadi. Inventar obyektlari deganda bitta funktsiyani bajarishga mo`ljallangan, to`la ko`rib bo`lingan yoki ishlab chiqarilgan alohida predmet yoki predmetlar kompleksi tushiniladi.

Har bir inventar obyektiga alohida inventar nomerlari belgilanadi va foydalanish jarayonida, tugatish va kayta ta`mirlash jarayonida inventar nomerlari saqlanadi. Inventar nomerlari hisobga olinadigan predmetga biriktirib qo`yiladi va tegishli hujjatlarda aks ettiriladi.

Murakkab inventar obyektlari u yoki bu inshootlar, alohida elementlari birligida bitta inventar obyektni tashkil qiluvchi har biriga ushbu inventar obyektning nomeri yozib quyiladi.

Tashkilotdan chiqib ketayotgan asosiy vositalarning inventar nomerlari yangi kelib tushgan asosiy vositalarga berilishi mumkin.

Ijaraga olingan asosiy vositalar ijaraga beruvchi inventar nomerlar bo'yicha hisobga olinadi.

Amortizatsiya qilinadigan qiymat (amortizatsiya bazasi) – aktivning moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan dastlabki (tiklash) qiymatidan ko'zda tutilgan (baholangan) tugatish qiymatini chiqarib tashlangach kelgan summa.

Tugatilish qiymati – ishdan chiqish bo'yicha kutilayotgan xarajatlar ayirib tashlangan holda, foydali xizmat muddatining oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida kelib chiqadigan, aktivlarning taxminiy qiymatidir.

Foydali xizmat muddati subyekt tomonidan aktivdan foydalanadigan davridan yoki xo'jalik yurituvchi subyekt ana shu aktivdan foydalanishdan kutayotgan mahsulot (ish va xizmat) miqdoridan iborat.

Amortizatsiya turli usullarini qo'llash yo'li bilan hisoblanadi:

- Amortizatsiyani bir tekisda (to`g`ri chizili) hisoblash usuli;
- Ishlab chiqarish usuli;
- Kamayadigan qoldiq usuli.
- Kumulyativ (ishlar yig`indisi) usuli;

Yuqorida qayd etilgan usullarni birinchi va ikkinchisi amortizatsiyani bir tekisda hisoblash usulidir. Uchinchi va to`rtinchisi esa **tezlashtirilgan usullaridir**.

1. Bir tekisda (to`g`ri chizili) usul
2. Ishlab chiqarish usuli.
3. Kamayib boruvchi qoldiq usuli.
4. Yillar yig`indisi usuli.

Asosiy vositalarning inventarizatsiya kilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yuriknomasiga ko'ra har 3 yilda bir marotoba o'tkaziladi. Ayrim hollarda inventarizatsiya muddatidan ilgari o'tkaziladi:

- moddiy javobgar shaxslar almashganda;
- o`g`rilik yoki boshqa o`zlashtirishlar sodir etilganligi to`g`risida ma'lumotlar berilganda;
- tabiiy ofatlar sodir bo`lganda, avariya va boshqa favqulodda holatlar ro'y berganda;
- korxona tugaganda yoki qayta tashkil bo`layotganda;

– korxona asosiy vositalarining bir qismi sotilayotganda va ijaraga berilayotganda.

Asosiy vositalarning inventarizatsiyasining korxona rahbarining buyrug`iga ko`ra tashkil qilingan ishchi komissiyasi o`tkazadi va unda albatta buxgalteriyadan vakillar bo`lishi shart.

Nomoddiy aktivlar

Nomoddiy aktivlarning harakterli xususiyati shundaki, ular asosan mulk obyektiga nisbatan egalik huquqi sifatida namoyon bo`ladi. Dunyo mamlakatlarida eng keng tarqalgan va nomoddiy aktiv sifatida e`tirof etiladigan huquqlarga qo`yidagilar kiradi:

- **Patent, nou-xau** -bu ishlab chiqilgan buyum, texnologik jarayon, faoliyatga egalik qilish huquqi. Bunday huquqni egalik qiluvchi subyektga maxsus patent berish vakolatiga ega Vazirlik yoki idoralar beradi.

- **Mualliflik huquqi** – bu yozilgan kitob, yaratilgan musiqa, tasviriy san`at va boshqa asarlar uchun uning muallifiga berilgan huquq. Ushbu huquq asarlar egalariga ularni chop ettirish, qayta bosmaga berish, ko`paytirish, sotish, yozdirish, ijro etish, taqsimlash va shu kabi boshqa harakatlarni qilishni o`z ichiga oladi.

- **Litsenziya** -bu u yoki bu xo`jalik faoliyati, xo`jalik operatsiyasi bilan shug`ullanish uchun davlatning kompetent organi tomonidan berilgan ruxsatnoma. Litsenziya maxsus rasmiy hujjat bo`lib, u korxonaga unda ko`rsatilgan faoliyat turini belgilangan muddat ichida amalga oshirishga ruxsat beradi. Litsenziya olish lozim bo`lgan faoliyat yoki operatsiyalarning turlari, litsenziya berish vakolati yuklatilgan kompetent organlar davlat tomonidan belgilanadi. Litsenziya berilgan muddatida kuchga ega bo`ladi. Korxonaning tugatilishi bilan litsenziya o`z kuchini yo`qotadi.

Savdo markasi, savdo belgilari va sanoat namunalari – bu korxona tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmat uchun berilgan nomlar yoxud ramzlar, masalan «Koka-Kola», «Neksiya», «Soni», «Xon» va shu kabilar. egalik qilish maqsadida ushbu savdo markalari, savdo belgilari va sanoat namunalari davlat ro`yxatidan o`tqazilishi mumkin.

Dasturiy ta`minot – bu zamonaviy kompyuterlarda texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarni olib borish bo`yicha yaratilgan dasturlar, algoritmlar to`plami.

Franchayzlar – bu yangi formula va algoritmlarni, texnologiyalarni, tashqi ko'rinish va belgilarni qo'llash bo'yicha huquq. Ushbu huquq franchayzga (foydalinish huquqini oluvchi) franchayzor (foydalinish huquqini beruvchi) tomonidan maxsus franchayz shartnomasi asosida beriladi. Masalan, ketchup ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalinish huquqini «Baltimor-Chelek» qo'shma korxonasiga «Baltimor» xolding kompaniyasidan franchayz shartnomasi asosida olgan.

Gudvil – bu korxonaning sof aktivlarini sotib olish qiymati va bozor qiymati (yoki haqqoniy hisob qiymati) o'rtasidagi farq bo'lib, u faqat birinchi qiymat ikkinchisidan ortiq bo'lganda vujudga keladi. Masalan, sotib olingan korxonaning qiymati 40 mln. so'm, uning aktivlarining bozor qiymati yoki haqqoniy hisob qiymati – 45 mln. so'm, korxonaning majburiyatları – 8 mln. so'm. Bu holda, sotib olinayotgan korxonaning sof aktivlarining haqqoniy (bozor) qiymati – 37 mln so'm (45-8) bo'ladi. O'rtadagi 3 mln. so'mlik (40-37) farq sotib oluvchi korxona uchun gudvil hisoblanadi. Gudvil yuqori narxlarda sotib olingan aktivlarni kelgusida katta daromad keltirishi mumkinligi aniq bo'lgan hollarda samarali hisoblanadi.

Tashkiliy xarajatlar – bu korxona ta'sischilarining uni tashkil etish bo'yicha sarflagan harajatlari, masalan korxonani ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish, davlat ro'yxatidan o'tqazish, muhr va shtampni taylorlash, bankdagi hisob raqamini ochish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlarga sarflangan harajatlar. Bu harajatlar, odatda, ta'sischi (lar) ning shaxsiy mablag'lari evaziga korxona ish faoliyatini boshlangunga qadar qilinadi. Qonun hujjatlariga muvofiq tashkiliy harajatlar ta'sischilarning ustav kapitaliga hissasi sifatida tan olinishi va qabul qilinishi mumkin.

Nomoddiy aktivlar 7-BHMSda aks ettirilgan bo'lib unga ko'ra nomoddiy aktivlar qiymati quyidagicha ta'riflanadi:

- **boshlang'ich qiymat** – nomoddiy aktivlarni yaratish (ishlab chiqish) yoki sotib olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan harajatlar qiymati (pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlarining summasi yoxud boshqa to'lovlarning joriy qiymati), shu jumladan to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig'imlar), shuningdek aktivni undan maqsadga ko'ra foydalinish uchun ishga yaroqli holatga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar qiymati;

- **tugatish qiymati** - nomoddiy aktivning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda uning foydali xizmat muddati oxirida aktivni tugatish chog'ida olinishi kutilayotgan, aktivning taxmin qilinayotgan (baholangan) summasi.

- **joriy qiymat** - ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha nomoddiy aktivlarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, bir-biridan mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa;

- **oldiq (balans) qiymat** - nomoddiy aktiv moliyaviy hisobot (buxgalteriya balansi)da aks ettiriladigan, boshlang'ich (tiklash) qiymati va jamlangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan miqdor;

Kapital - moliyaviy menejmentda doimiy foydalanim kelinayotgan iqtisodiy kategoriyalardandir, mamlakatni bozor munosabatlariga o'tishi bilan o'zini yangi mazmuniga ega bo'ldi. Korxonaning tashkil etilishi va rivojlanishida bosh iqtisodiy negiz bo'lib, kapital o'zini mavjudligi va xarakati jarayonida davlat, mulkdorlar va ishchi xodimlar manfaatlarini ta'minlaydi.

Korxona kapitalini iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, birinchi navbatda uning quyidagi tavsiflarini ko'rib o'tish zarur:

1. Kapital korxona ishlab chiqarishini asosiy omili hisoblanadi. Iqtisodiy nazariyada ishlab chiqarishni 3 ta asosiy omilini ajratib ko'rsatish mumkin, korxonalar xo'jalik faoliyatini ta'minlashda ishlab chiqarish – kapitali; yer va boshqa tabiiy resurslar; mehnat resurslari. Yagona ishlab chiqarish kompleksida barcha omillarni birlashtiruvchi omil bo'lib, ishlab chiqarish kapitali muhim o'rinnegallaydi.

2. Kapital daromad keltiruvchi korxona moliyaviy resurslarini xarakterlaydi. Kapital bu o'z o'rnida – ssuda kapitali shaklida ishlab chiqarish omillaridan ajralmagan holda korxonaning daromadini shakllantirishni ta'minlovchi ishlab chiqarish (operatsion) faoliyat emas, balki moliyaviy (investitsiya) faoliyati sohasini belgilaydi.

3. Kapital korxonaning mulkdorlarini boyligini shakllantiruvchi bosh asosiy manba hisoblanadi. U bu zaruriy darajada boylikni shakllantirishni joriy va kelajakda ta'minlash uchun zarurdir. Joriy jarayonda ishlatilgan kapitalning bir qismi kapital tarkibidan ajralib,

uning mulkdorlarini (egalarini) kelajakda yo'naltirilgan ehtiyojlarini ta'minlaydi.

4. Korxona kapitali uning bozor qiymatini asosiy o'lchovi hisoblanadi. Unda korxona jami o'z kapitallarini aktivlarga nisbatan hajmini belgilaydi. Bu yerda ishlatalgan o'z kapitallarini tarkibini chetdan jalb qilingan kapitallari qo'shilgan tarkibi bilan foyda olishni belgilaydi.

5. Korxona kapitali dinamikasi uning xo'jalik faoliyati samaradorligi darajasining muhim barometri hisoblanadi.

Aylanma mablag'larni boshqarish

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borishda aylanma mablag'lar muhim o'rinni tutadi. Xozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, pul muomalasini barqarorlashtirish asosida milliy pul birligini mustahkamlashning asosiy yo'llaridan biri – ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni takomillashtirishdan iborat. Ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uning samaradorligini oshirish, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni ishlab chiqarishda qo'llash, iqtisodlilik tamoyiliga rioya qilish, material xarajatlarini kamaytirish, arzon, lekin sifatli materiallarni ishlab chiqarishda qo'llash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish avvalom bor aylanma mablag'lardan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Qisqa muddatli aktivlar esa aksariyat hollarda aylanma mablag'lar deb nomlanib bunday mablag'lar bir hisobot davri mobaynida foydalaniladigan, sotiladigan va iste'mol qilinadigan mablag'lardir.

Moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lar tarkibi quyidagi guruhlarga ajratatiladi:

- pul mablag'lari;
- qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar;
- debitorlik qarzlar;
- moddiy-ishlab chiqarish zahiralari.

Subyektlarda aylanma mablag'larni boshqarish aylanma mablag'larning aylanishi, samaradorlik ko'rsatkichlarini moliyaviy

baholash ko`rsatkchilari asosida aniqlanadi. Bunday ko`rsatkichlar tizimiga quyidagilar kiritiladi:

- xom ashyo va materiallarning aylanuvchanligi;
- kreditorlik qarzlarining aylanuvchanligi;
- tayyor mahsulotning aylanuvchanligi;
- debitorlik qarzlarining aylanuvchanligi;
- pul mablag`larining aylanish davri.

Tadbirkorlik faoliyati moliyaviy mablag`larini jarayonida muhim o`rinni korxonaning aylanma mablag`lari egallaydi.

Korxona aylanma mablag`lari quyidagi ko`rinishlarda bo`ladi:

- tovar moddiy zaxiralari qiymati;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarish va muomaladagi joriy xarajatlar;
- muomala jarayonidagi pul xarajatlari;
- mehnat haqi va boshqalar.

Komplekt buyumlar, zapas qismlar va idishlar baholanadi.

Haqiqiy tannarxga yana quyidagi xarajatlar qo`shiladi:

- moddiy resursslarni keltirish uchun qilingan xarajatlar;
- kredit foizini to`lash uchun qilingani xarajatlar;
- ustama va qo`shimchalar, kombinatsion xarajatlar, ta`minotchi tashkilotlarga to`lovlari, tashqi iqtisodiy faoliyatga to`lovlari, birjaga qilinadigan xarajatlar, transport xarajatlari, tovarlarni saqlash va boshqa xarajatlar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy resursslarning baholari o`zgarib turadi. Shuningdek, resursslarni yetkazib kelish bo`yicha xarajatlar xam o`zgaruvchan xarakterda bo`ladi. Muvofiq ravishda tovar moddiy zahiralar qiymatini baholashda baholash amalga oshirilayotgan payt ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tovar moddiy zaxiralarni baholashda quyidagi yondashuvlar mavjud bo`lishi mumkin:

- joriy bahoda baholash;
- material resursslarni haqiqiy sotib olingan bahoda baholash;
- sotib olingan materiallarni o`rtacha baholar orqali baholash.

Joriy bahoda baholash moddiy zaxiralarni ishlab chiqarishga sarflanishida ularning oxirgi partiyasi aniq olingan naxrlar bo`yicha baholanishini bildiradi. Bu usul xo`jalik amaliyotida LIFO usuli deb ataladi.

Aylanma aktivlar uzoq muddatli aktivlardan farq qilib, ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashadi va yaratilgan mahsulotga o'z qiymatini to'la o'tkazadi, shakli o'zgaradi.

Aylanma aktivlar aylanish jarayonida uch bosqichni bosib o'tadi: pul, ishlab chiqarish va tovarlarni sotish bilan bog'liq bosqichlar.

Aylanishning birinchi bosqichida ishlab chiqarish vositalari sotib olinadi (P-T(i/v)). Korxonalarining ajratilgan pul fondlari ishlab chiqarishning ashyoviy omiliga aylanadi. Birinchi bosqichning xususiyati shundaki, bu bosqichda ba'zi korxonalar o'z mablag'lari yetarli bo'lмаган hollarda qarzga bank kreditini oborotga jalb qilishlari mumkin.

14.3. Subyekt aktivlarining shakllanishi, baholash va ularni boshqarish. Xarajatlarni va daromadlarni boshqarishni optimallashtirish

Korxona o'z daromadini mahsulot sotishdan oladi. Bunda turli mahsulotlarni hissasi turlicha. Bu bozorga (qaysi narx bilan qancha sotish mumkin) va xarajatlarga (qancha xarajat qilib qancha ishlab chiqarish mumkin) bog'liq.

Foyda bu daromad va xarajat o'rtaсидаги farqdir. Korxonani foydasi mahsulotni butun assortimentidan keladigan daromadga bog'liq.

«Xarajatlarni boshqarish» nima degani? Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona oldidagi asosiy masala bu foyda olishdir.

FOYDA (ZARAR) = DAROMAD - XARAJAT

Demak, bundan ko'rinish turibdiki jami xo'jalik yurituvchi korxonalar foyda olishni ikki xil yo'l bilan oshirishlari mumkin, ular:

- daromadni ko'paytirish;
- xarajatni kamaytirish;

Xarajatlarni boshqarish yuqoridaғи foyda олиш mexanizminining xarajatlar qismiga katta e'tibor qaratadi va quyidagilarga javob beradi:

- qaysi mahsulotni ishlab chiqarish (to'xtatish) kerak?
- Mahsulotga qanday narx qo'yish kerak?
- Qanaqa hajmda ishlab chiqarish kerak?

- Ishlab chiqarish texnologiyasini o`zgartirish lozimmi yo`qmi?
- Kerakli asbob-uskunalarни sotib olish kerakmi yoki o`zida ishlab chiqarsa afzalmi?

Ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan uchta asosiy xarajat elementini ajratish mumkin:

1. *To`g`ri material xarajatlari*
2. *To`g`ri mehnat xarajatlari*
3. *Ustama ishlab chiqarish xarajatlari*

14.1-jadval

Ishlab chiqarish xarajatlarining turkumlanishi

<i>Turkumlanish belgilari</i>	<i>Xarajatlar turkumi (guruhi)</i>	
1. Mahsulotni tayyorlashdagi texnik iqtisodiy roli yoki tayinlanishiga qarab	1) asosiy	2) ustama
2. Ayrim mahsulot turlarining tanner-xiga qo'shilishi (taqsimlanishi) ga qarab	1) bevosa (to`g`ri)	2) bilvosita (egri)
3. Tayyorlanayotgan mahsulot miqdoriga bog'liqligiga qarab	1) o`zgaruvchan	2) o`zgarmas (shartli)
4. Xarajatning turiga qarab	1) iqtisodiy elementlar	2) kalkulyatsiya moddalari
5. Tarkibiga qarab	1) bir elementli	2) kompleks
6. Ishlab chiqarish bilan bog'liqligiga qarab	1) ishlab chiqarishdagi	2) noishlab chiqarishdagi
7. Mahsulot tannarxini hosil qilishdagi xarakteri (maqsadga muvofiqligi)ga qarab	1) unumli	2) unumsiz
8. Rejaga kiritilishiga qarab	1) Rejalashtirilmaydigan	2) rejalahtiriladigan
9. Paydo bo`lish joyiga qarab	1) sex 2) uchastka	3) bo`lim 4) brigada
10. Taqvim (kalender) davrga tegishligiga qarab (sodir bo`ladigan vaqtiga qarab)	1) joriy davr xarajatlari; 3) kelajakdagi zahirasi	2) kelgusi davr xarajatlar

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining maqsadi – zahiralarni baholash va foydani aniqlash maqsadida xarajatlarni alohida olingan muomila yoki mahsulotga olib borish uchun taqsimot qilishdir. Boshqaruv hisobi esa ma`muriyatga bu borada eng samarali qaror qabul qilish uchun moliyaviy axborot etkazib beradi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi :

- Material xarajatlar
- Mehnat xarajatlari
- Ishlab chiqarish ustama xarajatlari

Materiallarning turlari

- a) To`g`ri materiallar – xom ashyo va asosiy materiallar;
- b) egri (yordamchi) materiallar – moylash materiallari, gayka, v h k.

Ishlab chiqarish sexlariga berilgan materiallar tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Bu hujjatlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ombor xodimlariga materiallarni chiqarish uchun asos;
- ombor hisobi kartochkasi va bosh kitobga xarajat sifatida qayd qilish uchun asos.

Materiallarni sarf qilishda yuzaga keladigan qiyinchilik ularni qaysi bahoda sarf qilinishini belgilashda yuzaga keladi. Chunki bir turdag'i materialning o'zi bir necha bahoda sotib olingan bo'lishi mumkin. Bu holda haqiqiy qiymat bir necha ko'rinishga ega bo'lishi mumkinligidan sarf qilinayotgan materiallar qiymatini aniqlash metodini tanlash zaruriyati tug'iladi.

Xarajat qilinayotgan materiallar qiymatini aniqlash va zahiralar qoldig'ini baholash uchun bir necha usuldan foydalаниш mumkin:

- Birinchi keldi – birinchi sarf bo'ldi (FIFO)
- Oxirgi keldi – birinchi sarf bo'ldi (LIFO)
- O'rtacha tortilgan qiymat (AVECO)
- «NIFO» usuli
- Me`yoriy qiymat usuli.

Har bir korxona tashkil topganidan keyin, foyda olish maqsadida, albatta moliyalashtirish bilan shug`ullanadi. Foydani

ko`paytirishga yo`naltirilgan aktivlarni boshqarish jarayoni moliyaviy menejmentda leveridj kategoriyasi bilan harakatlanadi.

Leveridj bu – tom ma`noda og`ir narsalarni o`zgartira oladigan ma`lum bir kuch (yelka)ni bo`lib, uning yordamida nisbatan og`ir yuklarni joyida ko`chirish imkonini beradi. Iqtisodiyotga tadbiq qilganda u uncha katta bo`Imagan o`zgarishi natijaviy ko`rsatkichning sezilarli darajada o`zgarishga olib keluvchi omil sifatida qaraladi. Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot moddalarini qayta kopanovka qilish va detallashtirish yuli bilan aniqlanishi mumkin bo`lgan leverdjni uchta turi mavjud.

Sof daromadning qiymati ko`p omillarga bog`liqdir. Korxona faoliyatini moliyaviy boshqarish tomonidan olib qaralganda korxona unga quyidagilar ta`sir ko`rsatadi:

- ▶ moliyaviy resuslarning qanchalik darajada oqilona ishlatalganligi;
- ▶ mablag`lar manbasi tuzilmasi.

Nazorat savollari:

1. Subyektlarning asosiy va aylanma kapitallarini boshqarishda moliyaviy axborotlardan foydalanishning qanday usullari mavjud?
2. Subyekt aktivlarining iqtisodiy mohiyati nimada bo`lib hisoblanadi?
3. Subyekt aktivlarining shakllanishi, baholash va ularni boshqarish qanday amalga oshiriladi?
4. Liverdj deganda nimani tushunasiz?
5. Sof daromadning qiymati nimalarga bog`lik bo`ladi?

XV BOB. KAPITALLARNI BOSHQARISH.

Reja:

15.1. Korxona kapitalini iqtisodiy mohiyati va guruhanishi.

15.2. Korxona kapitalini shakllantirish tamoyillari.

15.3. Kapital kiymatini baholash va uni muqobillashtirish.

Tayanch iboralar: korxona kapitali, pul oqimlari, naqd pul aylanishi, moliyaviy menejer

15.1. Korxona kapitalini iqtisodiy mohiyati va guruhanishi

Biznes subyektlarining moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishda **pul oqimlarini** to`g`ri rejalashtirish va boshqarish muhim rol o`ynaydi. Pul oqimlari tadbirkorlik subyektining bir yil davomidagi barcha sarflangan va kirim qilingan pul mablag`larining harakatini ifodalaydi. Subyektning «pul oqimlari» tushunchasi o`zida faoliyatining uzluksizligi jarayoni davomida pul mablag`lari tushumi va chiqimining taqsimlanish yig`indisini aks etiradi.

Pul oqimlarini to`g`ri rejalashtirish va boshqarish nisbatan murakkab vazifa bo`lib, u endigina amaliyotga kirib kelmoqda. Shuningdek, moliyaviy hisobotining shakllaridan biri ham «pul oqimlari to`g`risida»dir.

Biznes subyektlarining pul oqimlaridan unumli foydalanish quyidagi vazifalarni yechishga yordam beradi:

- u tadbirkorlik subyektining «moliyaviy qon aylanish tizimi» bo`lib, samarali tashkil etilganda moliyaviy barqarorlikni ta`minlaydi;
- pul oqimlarini oqilona shakllantirish xo`jalik operatsion faoliyatining bir maromda va doimiy amal qilishini ta`minlaydi;
- pul oqimlarini samarali boshqarish qarz mablag`lariga, ya`ni chetdan jalb qilingan kapitallarga bo`lgan ehtiyojlarni qisqartiradi;
- pul oqimlarini boshqarishning faol tizimiga ega bo`lish o`z mablag`laridan samarali foydalanishni, ichki moliyaviy manbalarni shakllantirishni ta`minlaydi;
- pul oqimlarini to`g`ri boshqarish xo`jalik kapitalining aylanishini tezlashtiruvchi moliyaviy dastak hisoblanadi;

▪ pul oqimlaridan samarali foydalanish tadbirkorlik subyektining to'lov qobiliyatini oshiradi va maqsadli foyda miqdoriga erishishga yordam beradi;

▪ pul oqimlarini samarali boshqarish shakllariga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olishni, bevosita pul aktivlari bo'yicha ijobiy natijalarga erishishni, ya'ni vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Tadbirkorlik subyektlari «pul oqimlarini boshqarish» tushunchasi o'zida xo'jalik faoliyatiga xizmat qilish jarayonlarining hajmi bo'yicha quyidagi shakllarga ajratiladi:

- korxona bo'yicha to'liq pul oqimlari;
- korxona xo'jalik faoliyatining alohida shakllari bo'yicha pul oqimlari;
- alohida tarkibiy tuzilmalari (javobgarlik markazlari) bo'yicha pul oqimlari;
- alohida xo'jalik operatsiyalari bo'yicha pul oqimlari.

2. Xalqaro hisob standartlariga mos ravishda xo'jalik faoliyatining shakllari bo'yicha pul oqimlarining turlari quyidagilarga ajratiladi:

- operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari;
- investitsiya faoliyati bo'yicha pul oqimlari;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlari.

3. Pul mablag'larining harakat yo'nalishlari bo'yicha pul oqimlari ikki asosiy shaklga ajratiladi:

- ijobiy pul oqimlari («pul mablag'larining kirimi»);
- salbiy pul oqimlari («pul mablag'larining chiqimi»).

4. Hajmini hisoblash usullari bo'yicha pul oqimlari quyidagi shakllarga ajratiladi:

- yalpi pul oqimlari;
- sof pul oqimlari.

5. Hajmining yetarlilik darajasi bo'yicha pul oqimlari quyidagi shakllarga ajratiladi:

- pul oqimlarining yetarliligi;

- pul oqimlarining yetishmasligi (defitsitligi).

6. *Pul oqimlari davrda baholash usullari bo'yicha quyidagi shallarga ajratiladi:*

- joriy pul oqimlari;
- kelgusidagi pul oqimlari.

7. *Pul oqimlari quriladigan davrda shakllantirilishining uzluksizligi bo'yicha quyidagi shakllarga ajratiladi:*

- doimiy pul oqimlari;
- vaqtinchalik pul oqimlari.

8. *Doimiy pul oqimlari vaqt oralig'niing barqarorligi bo'yicha quyidagi shakllarga ajratiladi:*

- doimiy pul oqimlarining bir xil vaqtdagi oralig'i;
- doimiy pul oqimlarining har xil vaqtdagi oralig'i.

Kichik tadbirkorlik subyektining pul oqimlarini boshqarish jarayoni quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

1. *Axborotlarning ishonchliligi tamoyili.*
2. *Balanslashtirilishi tamoyili.*
3. *Samaradorlikni ta'minlash tamoyili.*
4. *Likvidlikni ta'minlash tamoyili.*

15.2. Korxona kapitalini shakllantirish tamoyillari.

Naqd pul aylanishi pulning muomala vositasi vazifasidan kelib chiqadi.

Naqd pul aylanishi deganda, ma'lum davrda naqd pullar vositasida amalga oshirilgan barcha to'lovlar yig`indisi tushuniladi. Bu to'lovlar banknot yoki tangalar orqali amalga oshiriladi.

Naqd pullar harakati bankdan boshlanadi, ular bankdan chiqib korxona va tashkilotlarning kassalariga kelib tushadi. Korxona va tashkilotlar esa bu pullarni ish haqi, stipendiya, nafaqa va boshqa to'lovlar sifatida kishilarga to'laydilar. Kishilar o'z navbatida bu pullarga tovarlar sotib oladilar, o'zlariga ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'laydilar. Bu pullar yana savdo va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar kassalariga kelib tushadi. Ular esa naqd pul tushumlarini o'zlariga xizmat ko'rsatuvchi bankka topshiradilar. Naqd pullar

harakati ana shu tarzda yakunlanadi va yangidan boshlanadi. Bu hol to`xtovsiz takrorlanaveradi.

Naqd pulsiz hisob - kitoblar deganda, pul mablag`larining bankdagi bir hisob raqamidan boshqa hisob raqamiga naqd pul ishtirokisiz, faqat hujjatlar asosida o`tkazish tushuniladi. Odatda, naqd pulsiz hisob - kitoblarni ko`pchilik «pul ko`chirish» yoki «pul o`tkazish» deb tushunadi.

Boshqacha qilib aytganda, pul mablag`lari mahsulot sotib oluvchining bankdagi hisob raqamidan mahsulot yetkazib beruvchining hisob raqamiga o`tkaziladi. Ya`ni, birinchi hisob raqamidagi mablag`lar kamaytiriladi, ikkinchisidagi esa ko`paytiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar naqd pul muomalasiga nisbatan quyidagi **afzalliklarga** ega:

- korxonalar, tashkilotlar va xo`jaliklarning naqd pulga bo`lgan ehtiyoji keskin qisqaradi;
- naqd pulsiz hisob-kitoblardan foydalanish naqd puldan foydalanishga nisbatan arzonga tushadi;
- pul mablag`larining xavfsizligi ta`minlanadi;
- pul harakati tezlashadi;
- hisob-kitoblar banklar orqali amalga oshirilishi tufayli, ularning qonuniyligini nazorat qilish imkoniyati tug'iladi va boshqalar.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar quyidagi asosiy tamoyillar (prinsiplar) asosida tashkil etiladi:

1. Barcha korxona, tashkilot va xo`jaliklar banklarda o`z hisob raqam (schyot) larini ochishlari va mablag`larini shu hisob raqamlarida saqlashlari shart.
2. Barcha hisob-kitoblar faqat banklar orqali amalga oshiriladi.
3. Tovarlar va xizmatlar uchun to`lovlar pul egasining roziligi bilan amalga oshiriladi.

4. To`lovlar pul to`lovchining o`z mablag`lari yoki bankdan oлган krediti hisobidan amalga oshiriladi va boshqalar.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar bir necha shakllarda amalga oshirilib, amalga oshirishda ko`llaniladigan hujjatlar naqd pulsiz hisob-kitob shakllari xisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- To`lov topshiriqnomasi bo`yicha hisob-kitoblar
- To`lov talabnomasi bo`yicha hisob-kitoblar
- Inkasso topshiriqnomasi bo`yicha hisob-kitoblar
- Akkreditiv bo`yicha hisob-kitoblar
- Hisob-kitob cheki bo`yicha hisob-kitoblar

15.3. Kapital qiymatini baholash va uni muqobillashtirish.

Moliyaviy menejer moliya, kredit, moliyaviy menejment, buxgalteriya hisobi nazariyasini, moliya sohasidagi O`zbekiston respublikasi qonunchiliginu, kredit, bank, birja va valyuta faoliyatlarini, moliya bozorlari (kapital bozori, kredit resurslari bozori, qimmatli qog`ozlar bozori, valyuta bozori) da bo`ladigan operatsiyalar tartibini, xo`jalik subyektlari iqtisodiy asoslarini, tashqi iqtisodiy faoliyatni, soliqqa tortishni, iqtisodiy tahlil metodi va metodologiyasini bilishi kerak. Ayniqsa moliyaviy menejerning bug`alteriya balansini va xo`jalik subyektining moliyaviy vositalaridan foydalanishini xarakterlaydigan shu kabi hisobotlar (qolgan 4 ta hisobot shakli)ni o`qiy olishi muhimdir.

Moliyaviy menejer moliyaviy axborotlar(ichki va tashqi)ni tekshirib chiqish, moliyaviy faoliyat natijalari va kapital qo`yilmalar bo`yicha tadbirdilar samarasini tahlil qilish, moliyaviy reja tuzish, tuzilgan moliyaviy dasturlarning samarasi va ratsionalligini baholash, moliyaviy resurslardan foydalanish bo`yicha hisobot tuzishni bilishi kerak.

Moliyaviy mexanizm – bu moliyaviy resurslardan foydalanishni tashkil qilish, rejalashtirish va rag`batlantirishni

bildiruvchi moliyaviy richaglar ta'siri yig`indisidir. Moliyaviy mexanizm - bu moliyaviy munosabatlarni boshqarish usullari yig`indisi.

Moliyaviy menejment korxona moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanishi bilan bog'liq tamoyil va metodlar tayyorlashda va boshqaruv qarorlarini amalga oshirishda hamda uning pul mablag'lari oborotini tashkillashtirishda o'zini namoyon etadi.

Korxona moliyaviy faoliyatini samarali boshqarish moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu tamoyillar umumiy menejmentning bir qismi bo`lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Umumiy boshqaruv tizimida integratsiyalashuvi.
2. Korxona rivojining strategik maqsadiga qaratilganlik.
3. Moliyaviy boshqaruv qarorlari tanlovi jarayoni optimalligi.
4. Boshqaruv qarorlari shakllanishining kompleks xarakterligi.
5. Yuqori tebranuvchan boshqaruv tashkiliyligi.

Debitorlar tarkibiga:

- > xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi;
- > ajratilgan bo`linmalarning qarzi;
- > sho`ba va qaram xo`jalik jamiyatlarining qarzi;
- > xodimlarga berilgan bo`naklar;
- > mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo`naklar;
- > byudjetga soliq va yig`imlar bo`yicha bo`nak to`lovleri;
- > maqsadli davlat jamg`armalari va sug`urtalar bo`yicha bo`nak to`lovleri

- > ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo`yicha qarzi;
- > xodimlarning boshqa operatsiyalari buyicha qarzi;
- > boshqa debtorlik qarzları

Korxonada kredit siyosati va mezonlari ishlab chiqilar ekan bunda quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

1. Sotish darajasi.

2. Inkassatsiyaga xarajatlar.
3. Inkassatsiyaning o`rtacha davri.
4. Chorasiz qarzlar darajasi.

Albatta, kredit barcha firmalarga emas, balki kreditga qurbi yetmaganlarga beriladi. To`lash va moliyaviy barqarorlikni diqqat bilan ko`rib chiqib, qarz oluvchining moliyaviy ahvoli tahlilini o`tkazish zarur. Ma`lumotni bevosita qarz oluvchidan ushbu qarz oluvchi ishlaydigan boshliqqa firmalardan, qarz oluvchining moliyaviy ahvoli tahlilini o`tkazish zarur. Ma`lumotni bevosita qarz oluvchidan ushbu qarz oluvchi ishlaydigan boshliqqa firmalardan, qarz oluvchining bankidan va boshqalardan olish mumkin. Chet ellarda turli birlashmalarning kreditga qurbi etishi haqidagi ma`lumotlarning kreditga qurbi etishi haqidagi ma`lumotlarni sotuvchi maxsus firmalar (Dun&Brandstreet) mavjud. So`ngi xulosani qabul qilishda kreditning besh tavsifi hisobga olinadi:

1. Qarz oluvchi haqida tavsifnoma.
2. Kreditga qurbining etish, etmasligi.
3. Mablag`.
4. Kreditni ta`minlash.
5. Qarz oluvchi firmasining kelgusi rejalar.

Debitor qarzligi – bozor iqtisodining obyektiv unsuri va uning darajasi firmanın kredit siyosati va iqtisodiy shart-sharoitiga ta'sir ko`rsatadi. Debitor qarzdorligining o'sishi talabni kuchaytiradi demak, daromad oshadi. Lekin boshqa tamonidan debitor qarzlarini tuzish va chorasiz qarzlar bo'yicha yo'qotish tahlikasi chiqimlari oshadi. Moliyaviy menejering vazifasi debitor qarzligi samaradorligi miqdorini topishidir.

Nazorat savollari:

1. Korxona kapitali qanday guruhanadi?
2. Korxona kapitalini shakllantirish tamoyillariga nimalar kiradi?
3. Moliyaviy menejer nimalarni bilishi kerak?

4. Naqd pulsiz hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?

XVI BOB. INVESTITSIYALARNI BOSHQARISH

Reja:

- 16.1. Investitsiyalar va ularni boshqarish. Subyektda investitsiyalarni boshqarishning umumiy asoslari.
- 16.2. Investitsiya loyihasi, uning tarkibi va davom etish bosqichlari
- 16.3. Investitsiya faoliyati va uni moliyalashtirish. Investitsiya bozorini baholash va moliyalashtirish.
- 16.4. Investitsiya xavf-xatarlarining turlari va ularni boshqarish **Tayanch iboralar:** investitsiya, kapital qo'yilmalar, kapital qo'yilmalar, moliyaviy investitsiya, real investitsiya, investitsiya loyihasi, qayta tiklash, texnik qayta qurollantirish, sof diskontlangan daromad, moliyaviy investitsiya, real investitsiya, investitsiya loyihasi, qayta tiklash, texnik qayta qurollantirish,

16.1. Investitsiyalar va ularni boshqarish.

Subyektda investitsiyalarni boshqarishning umumiy asoslari.

Korxonalar xo'jalik yuritish va ishlab chiqarish faoliyatining muhim jihatlaridan biri ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish va saqlab qolishdir. Korxonalarning bu yo'nalishdagi faoliyati investitsion faoliyat deb ataladi hamda «Investitsion faoliyat to'g'risida» gi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Investitsiyalar – korxonalar va xalq xo'jaligi miqyosida yangi ishlab chiqarish korxonalari yaratish yoki mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, ilg'or texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va foyda (daromad) olishni ko'paytirish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishidir. Investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklarini bartaraf qilish va iste'mol bozorini ta'minlashda alohida e'tiborga ega.

Investitsiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanish,

mamlakat va xo`jalik yurituvchi subyektlarning investitsion siyosati asosida amalga oshiriladi. Bu siyosat birinchidan, kapital qo`yilmalarning ustuvor yo`nalishlarini, ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarini to`g`ri joylashtirish va rivojlantirish, uchinchidan, fan-texnik taraqqiyoti va butun iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beradi. Investitsiyalarning «xo`jayini» sifatida korxonalarining o`zidan tashqari, davlatni, mahalliy hokimiyat idoralari va xususiy tadbirkorlarni ko`rsatish mumkin.

Ko`pincha investitsiya deganda kapital qo`yilmalar ko`zda tutiladi, bu narsa investitsiyalar tabiatini inkor qilmaydi va ularning mohiyatini noto`g`ri aks ettirmaydi. Investitsiyalar, bozor iqtisodiyotidagi boshqa, jumladan, biznes, raqobatchilik, ishbilarmonlik tushunchalari kabi, ma`muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o`tilayotgan bugungi kunlarda xo`jalik yuritish nazariyasи va amaliyotida o`z o`rnini topmoqda. Shu bilan birga, «kapital qo`yilmalar» atamasining o`z izohlari ham mavjud.

Kapital qo`yilmalar asosiy fondlarni qayta tiklash va o`stirish uchun sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslaridir. Ular asosan bir vaqtning o`zida amalga oshiriladigan xarakterga ega bo`lib, ishlab chiqarish xarajatlari yoki mahsulot tannarxi shaklidagi, joriy xarajatlardan farq qiladi. Kapital qo`yilmalar maqsadli xarakterga ega bo`ladi hamda xodimlarga mukofot to`lash, xizmat safari (komandirovka) xarajatlari va hokazolarga sarflanishi mumkin emas.

Moliyaviy investitsiyalar qimmatbaho qog`ozlar, aktsiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag`larini banklarga foiz olish maqsadida depozit hisob raqamlariga qo`yish bilan ifodalanadi.

Real investitsiyalar pul mablag`larini kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni ifodalaydi. Real investitsiyalar korxona, tarmoq va butun xalq xo`jaligining kuch-quvvatini belgilab beradi.

Investitsiyalar avvaldan o`ylab ko`rilgan maqsad va birinchi o`rinda investitsion loyiha asosida korxona ishlab chiqarish potentsialini mustahkamlash va rivojlantirish vazifasini bajaradi.

16.2. Investitsiya loyihasi, uning tarkibi va davom etish bosqichlari investitsiya loyihasi

Kapitalni korxonani uning ishlab chiqarish quvvati va boshqa sifat ko`rsatkichlarini kuchaytirish maqsadida rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasidir. Investitsiya loyihasini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- * investitsiyaviy g`oya(fikr)ni shakllantirish;
- * g`oyaning dastlabki asoslanishi;
- * loyihada ko`zda utilgan texnik qarorning tahlili;
- * sertifikat talablarining bajarilishini tekshirish;
- * investitsiya loyihasi bo'yicha davlat boshqaruvi idoralari bilan kelishuv yuzaga keltirish;
- * axborot memorandumini tayyorlash.

Yuqorida ko`rsatilganlarni amalga oshirgandan so'ng loyihami ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy asoslab berish (tushuntirish xatidan to investitsion mo'ljallarning maqsad va vazifalari hamda kutilayotgan natijalar aks ettiriluvchi loyiha-smeta hujjatlarigacha) zarurati tug'iladi.

Investitsiyalar, ayniqsa gap yangi qurilish, faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarini kengaytirish yoki qayta tiklash haqida ketganda, investitsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonlar investitsion maqsadlarni zamon va makonda bog'laydi. Investitsion jarayonlarning quyidagicha tarkibiy qismlari mavjud: loyihalashtirishdan avvalgi asoslash, loyihalashtirish, bevosita obyekt qurilishi (korxonani kengaytirish yoki qayta tiklash) va ishga tushirilishi. Korxonalar uchun investitsiya jarayonining so'nggi bosqichi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan yangiliklar eksplutatsion sinovlardan o'tkazilib, amaldagi va loyiha ko`rsatkichlari baholanadi hamda investitsiya jarayonining xuddi shu jarayonida hal qilinishi lozim bo`lgan chetga og`ish va kamchiliklar aniqlanadi.

Korxonalarda investitsiyalashning asosiy manbalari va yo'naliishlari.

Deyarli barcha faoliyat ko`rsatuvchi korxonalar davlatga tegishli bo`lgan sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitlarida investitsiyalarning asosiy manbai davlat (byudjet) mablag`laridan tashkil topar edi. Garchi o'sha sharoitlarda ham jamg`arma fondlar -

asosiy investitsion manbalar korxonalar foydasi (daromadi) hisobiga amalga oshirilgan bo`lsada, korxonalarning mablag`larni qayerdan olish va qayerga joylashtirish to`g`risida «boshi» og`rimas edi. Qo'shimcha manba sifatida korxonalarning amortizatsiya fondi xizmat qilardi.

Mazkur tushunchalar (jamg`arma fondi, amortizatsiya fondi, foyda) hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo`qotmagan bo`lib, investitsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, davlat korxonalarini uchun asosiy investitsiya manbai quyidagilar: foyda, amortizatsiya fondi va byudjet mablag`lari, qo'shma korxonalar uchun – foyda, amortizatsiya fondi va kredit resurslari.

Rejalashtirish va boshqaruvi tizimida shuningdek, investitsiya manbalarini aniqlashning ichki va tashqi turlaridan ham foydalilanadi.

Investitsiyalarning **ichki manabalari** quyidagilar:

- ishlab turgan asosiy kapitalga hisoblanuvchi amortizatsiya ajratmalari natijasida shakllanuvchi, korxonaning o'z moliyaviy vositalari;
- foydaning investitsiya ehtiyojlariga ajratiluvchi qismi;
- sug`urta kompaniyalari va muassasalari tomonidan tabiiy ofat va boshqa hodisalarda to`lanuvchi mablag`lar;
- korxonaning aktsiyalar chiqarishi va sotishi natijasida olinuvchi mablag`lar;
- yuqori turuvchi va boshqa idoralar tomonidan qaytarib bermaslik asosida ajratiluvchi mablag`lar;
- xayriya va shu kabi boshqa mablag`lar.

Investitsiyalarning **tashqi manbalari** quyidagilar:

- markaziy va mahalliy byudjetdan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi turli xil fondlar tomonidan ajratiluvchi qaytarib bermaslik asosidagi mablag`lar;
- korxonalar Nizom jamg`armasida moliyaviy yoki boshqa moddiy va nomoddiy ishtiroy shaklida, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va alohida shaxslarning to`g`ridan-to`g`ri qo'yilmalari shaklida kiritiluvchi xorijiy investitsiyalar;
- davlat va turli xil fondlar tomonidan qaytarib berish sharti bilan beriluvchi kreditlar, jumladan imtiyozli kreditlar.

Korxonalarining mustaqil xo`jalik faoliyati sharoitlarida ichki mablag`lar tarkibida amortizatsiya ajratmalari asosiy o'rinni

egallaydi. Uning korxona investitsion resurslaridagi ulushi 50% va undan ko'proqni tashkil etadi.

Investitsion maqsadlarga yo'naltiriluvchi mablag'lar tanqisligi sharoitida lizing investitsion faoliyatni faollashtiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Lizing – moliyaviy kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalarining qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki maxsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijaraga olishini anglatadi. Lizing bitimida ko'rsatilgan tomonlardan tashqari investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda ularni buning uchun zarur bo'lgan mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan tijorat yoki investitsion banklar ham ishtirok etishi mumkin.

Investitsiyalardan (kapital qo'yilmalardan) foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- yangi qurilish;
- korxonani kengaytirish va qayta tiklash;
- ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish;
- harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish.

Yangi qurilishga yangi maydonlarda maxsus ishlab chiqilgan loyihalar asosida quriluvchi korxona, bino, inshoot va qurilmalar mansubdir.

Faoliyat yuritayotgan **korxonani kengaytirish** qo'shimcha ishlab chiqarish majmualarining navbatdagi qismlarini yangi loyiha asosida qurish yoki asosiy, qo'shimcha, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishning amaldagi sexlarini kengaytirish yoki qurishni anglatadi. U asosan, faoliyat yuritayotgan korxona hududida yoki unga tutash maydonlarda amalga oshiriladi.

Qayta tiklash – faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirishni anglatadi, qayta tiklashda eski sexlar o'rniغا yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Texnik qayta qurollantirish alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni

kitish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasidir. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan.

Moliyaviy resurslar va yer tanqisligi sharoitlarida, ikkinchi tomondan esa, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan unumliroq foydalanish uchun yangi qurilishni nisbatan cheklangan holatda, asosan juda zarur hollardagina amalga oshiriladi. Shu sababli bugungi kunda investitsiyalarning eng ko'p tarqalgan yo`nalishlari sifatida, umuman olganda yangi turdag'i mahsulot ishlab chiqarishni ham ko'zda tutuvchi mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishni ko`rsatish mumkin.

Yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta tiklashga yo'naltiriluvchi kapital qo'yilmalar asosan quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

- * qurilish-montaj ishlari xarajatlari;
- * mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar;
- * loyiha - qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar.

Kapital qo'yilmalarning yuqorida turlari *investitsiyalarning texnologik tuzilmasini* tavsiflaydi. Hozirgi paytda iqtisodiyot rivojlanishiga kiritiluvchi kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida quyidagi tuzilma vujudga keldi: qurilish-montaj ishlari xarajatlari - 55-60%, mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar - 35-30%, loyiha-qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar - 10%.

Kapital qo'yilmalarning mulk shakliga ko'ra tuzilmasi – investitsiyalarning davlat, aktsiyadorlik, qo'shma, ijara va boshqa turdag'i jamoa korxonalari o'rtaida taqsimlanishidir. U kapital qo'yilmalardan foydalanish, shuningdek, ularning shakllanish tartibi va manbalari nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kapital qo'yilmalarning samarali tuzilmasi ularni tejash, eng kam xarajatlar bilan eng ko'p foya-

olishga tengdir.

Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilmasi yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishga sarflanuvchi xarajatlar o`rtasidagi o`zaro nisbatni ifodalaydi.

16.3. Investitsiya faoliyati va uni moliyalashtirish.

Investitsiya bozorini baholash va moliyalashtirish.

Umuman olganda samaradorlik muayyan natijalarga erishishni anglatadi. U sarflangan xarajatlar va olingan natijalar nisbati asosida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam va natijalar qanchalik ko`p bo`lsa, samaradorlik ham shunchalik yuqori bo`ladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo`jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko`proq foyda, qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi. Bu qoidadan chetga chiqish resurslarni yo`qotish, jamiyatning ilgarigi va hozirgi mehnatini yo`qqa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo`shimcha kapital qo`yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba`zan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag`lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab qiladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar ikkita vazifani hal qilishlari lozim:

birinchisi – kapital qo`yilmalarning qoplanish muddati va daromadliligi nuqtai nazaridan, eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;

ikkinchisi – mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko`rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo`shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

Birinchi vazifaning yechimi mos keluvchi marketing

tadqiqotlarini amalga oshirishni ko'zda tutib, bu tadqiqot davomida talab va undan kelib chiquvchi taklif, bozor segmentatsiyasi, bahoni shakllantirish strategiyasi, moliyalashtirish manbalari va boshqalar aniqlanishi lozim. Investitsion loyihani muqobililik asosida tanlagandan so'ng birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlarni, texnik va boshqa qarorlarni, jumladan, muhandislik ta'minoti, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar tayyorlashilari amalga oshiriladi.

Investitsion loyihani tayyorlash va shunga mos ravishda investitsiyalar samaradorligini baholash zarurati ko'p hollarda yangi korxona, tsexlar qurish yoki mavjud ishlab chiqarishni qayta tiklash va kengaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi nafaqat makonda, ya'ni ma'lum bir hududda, er maydonida, balki vaqtda amalga oshirilishi sababli, vaqt muddati loyihani amalga oshirish, jumladan, korxonani tashkil qilish (qayta tiklash, kengaytirish) hamda ekspluatatsiya qilish va tugatish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi:

1) Sof diskontlangan daromad (SDD) – butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig`indisining boshlang`ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$SDD = \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

bu yerda: H_t – hisob-kitoblarning t-qadamida erishiluvchi natijalar;

X_t – xuddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

T – hisob-kitoblarning vaqt muddati;

E – diskont me'yor.

Agar investitsion loyihaning SDD miqdori ijobiy bo'lsa, u holda loyiha samarali, ya'ni investitsiya mablag'lari darajasining qabul qilingan diskont me'yorini ta'minlovchi hisoblanadi.

Xarajatlar va ularning natijalari miqdorini keltirish ularni *diskontlash koeffitsienti* (d_t) ga ko'paytirish asosida amalga oshirilib, bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$d_t = \frac{1}{(1+E)^t}$$

bu yerda: t – natijalarni olish (xarajatlarni amalga oshirish)

davridan taqqoslash davrigacha bo`lgan muddat bo`lib, yillarda o`lchanadi.

Diskont me`yori (E) – boshqa investorlar o`z mablag`larini xuddi shu turdagiloyihalarni amalga oshirish uchun kiritishga rozi bo`luvchi, kapitalning daromadlilik koeffitsienti (daromad miqdorining kapital qo`yilmalarga nisbati).

Agar diskont me`yori vaqt davomida o`zgaradigan bo`lsa, diskont koeffitsienti (d_t) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$d_t = \frac{1}{\prod_{k=1}^t (1 + E_k)}$$

bu yerda: E_k – k-yildagi diskont me`yori;

t – hisobga olinuvchi vaqt muddati, yil.

Investitsion loyihalarning samaradorlik ko`rsatkichlarini aniqlashda mahsulot va iste`mol qilinuvchi resurslarning bazis, bashorat qilinuvchi, jahon va hisobiy baholaridan foydalaniadi.

2) Investitsiyalarning daromadlilik indeksi (ID) – keltirilgan samaraning investitsiyalar miqdoriga (K) nisbati bo`lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ID = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Agar daromadlilik indeksi birga teng yoki undan katta bo`lsa, investitsion loyiha samarali, aks holda esa samarasiz hisoblanadi.

3) Ichki daromadlilik me`yorsi (IDM) – keltirilgan samara miqdori keltirilgan investitsiya miqdoriga teng bo`lgan xoldagi diskont me`yorsi (E_{ich}), ya`ni E_{ich} (IDN) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$\sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E_{ich})^t} = \sum_{t=0}^T \frac{K}{(1 + E_{ich})^t}$$

Ushbu formula asosida aniqlangan daromadlilik me`yorsi miqdori investoring kapitalga talab qilinuvchi daromad miqdori bilan taqqoslanadi. Agar IDN talab qilinuvchi daromad me`yorsiga teng yoki undan katta bo`lsa, u holda loyiha samarali hisoblanadi.

4) Investitsiyalarning qoplanish muddati (T_i) – investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo`lgan minimal vaqt muddati. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_i = \frac{I_s}{P_m}$$

bu yerda: I_s – sof investitsiyalar;

P_m – loyiha keltiruvchi o`rtacha yillik pul mablag`lari oqimi, so`m.

Shu bilan birga qoplanish muddati loyihaning daromadliligi ko`rsatkichi hisoblanmaydi. Shu sababli amaliyotda investitsiyalar birlamchi kapital (qo`yilma)ga nisbatan daromadlilik ko`rsatkichi orqali ko`rib chiqiladi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D_i = \frac{F_{s.k}}{K} \times 100$$

bu yerda: D_i – investitsiyalar daromadi, % da;

$F_{s.k}$ – soliqlar to`langandan so`ng qolgan foyda, so`m;

K – Investitsiyalar (boshlang`ich).

U yoki bu investitsion loyihani tanlash to`g`risida qaror qabul qilishda korxonalar quyidagi savollarga javob berishi lozim:

- * ishlab chiqarishdagi bugungi holat qancha davom etishi mumkin va bozorda mahsulotga (ish, xizmatga) bo`lgan talab qanday;
- * kapital kiritish uchun imkoniyatlar qanday;
- * raqobatchilik faoliyati qanday;
- * qanday muvaffaqiyat omillari mavjud;
- * yangi bozorga kirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashning *ikkinchi holatida*, ya`ni mablag`larni mavjud ishlab chiqarishga kiritishda quyidagi ko`rsatkichlar qo`llaniladi:

a) investitsiyalarning har bir so`miga to`g`ri keluvchi qo`shimcha mahsulot quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$S = \frac{(YAM_1 - YAM_0)}{I_m}$$

bu yerda: S – investitsiyalar samaradorligi;

YAM_0, YAM_1 – yalpi mahsulot, mos ravishda birlamchi va qo`shimcha investitsiyalarda;

I_m – qo`shimcha investitsiyalar miqdori.

b) investitsiyalarning har bir so`miga tannarxning pasayishi:

$$S = \frac{Q(TN_1 - TN_0)}{I_k}$$

bu yerda: TN_0, TN_1 – mahsulot birligi tannarxi, mos ravishda,

birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

Q – qo'shimcha investitsiyalar kiritilgandan keyingi yillik mahsulot hajmi, natural o'lchov birligi.

c) investitsiyalarning har bir so'miga mahsulot ishlab chiqarishdagi mehnat xarajatlarini qisqartirish:

$$S = \frac{Q(M_0 - M_1)}{I_d}$$

bu yerda: M_0, M_1 – mahsulot birligiga ishlab chiqarishda sarflanuvchi mehnat xarajatlari, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng

d) investitsiyalarning har bir so'miga foydani oshirish:

$$S = \frac{Q(F_1 - F_0)}{I_d}$$

bu yerda: F_0, F_1 – mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi foyda, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng.

e) investitsiyalarning qoplanish muddati.

Investitsiyalar samaradorligini keltirilgan formulalar asosida (boshqaruvin darajasini inobatga olgan holda) aniqlash ishlab chiqarishni rivojlantirishga qancha miqdorda investitsiya kiritilgan va uning natijasi qanday degan savolga javob beradi, ya'ni u investitsiyalarning mutlaq (absolyut) samaradorligini tavsiflaydi.

Amaliyotda ko'pincha investitsion qarorlarning turli xil variantlari ko'rib chiqilib, ulardan eng maqbulini tanlab olishga harakat qilinadi. Bu maqsadda kapital qo'yilmalarning solishtirma iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari qo'llanib, ular quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$S_i + TN + E_m \times K \rightarrow \min$$

bu yerda: TN – mahsulot tannarxi;

K – kapital qo'yilmalar;

E_m – kapital qo'yilmalarning samaradorlik me'yori.

Agar investitsion qarorlarning bir nechta variantlari ko'rib chiqiladigan bo'lsa, keltirilgan xarajatlar eng minimal bo'lgan variant tanlab olinadi.

Iqtisodiy samardorlikni baholash jarayonida kiritiluvchi investitsiyalarning qoplanish muddatini aniqlashning o'ziga xos o'rni bo'lib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_{ok} = K_a \times (F_{r1} - F_{r0})$$

bu yerda: K – asosiy ishlab chiqarish fondlariga kiritiluvchi kapital qo'yilmalar hajmi;

F_{r1} – rejalashtirilayotgan davrning so'nggi yildagi foyda;

F_{r0} – bazis yildagi foyda (rejadan oldingi davrning so'nggi yili).

Kapital qo'yilmalarning samaradorlik koeffitsienti qoplanish muddatiga teskari bo'lgan kattalikdir. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$E_k = (F_{r1} - F_{r0}) \times K_a$$

Vaqt omili, ayniqsa, investor (buyurtmachi) nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslarning haqiqiy samaradorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qurilish, qayta tiklash va kengaytirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish ishlari qanchalik tez bajarilsa, investor va pudratchi uchun shunchalik foydali bo'ladi. Qurilgan obyektni muddatidan avval foydalanishga topshirishdan olinuvchi qo'shimcha foyda (S_{qf}) orqali iqtisodiy samara quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E_{kf} = E_m \times F (T_{sh} - T_a)$$

bu yerda: E_m – samaradorlikning me'yoriy koeffitsienti;

F – muddatidan avval foydalanishga topshiriluvchi asosiy fondlar qiymati;

T_{sh} – obyektni foydalanishga topshirishning shartnomadagi muddati;

T_a – obyektni foydalanishga topshirishning amaldagi muddati.

Obyektlarni foydalanishga topshirishning shartnomadagi va amaldagi muddatlari o'rtaсидаги farq mazkur formulada ($T_{sh} - T_a$) yil ulushida aks ettirilishi lozim (vaqt ko'rsatkichi). Agar $T_{sh} < T_a$ bo'lsa, ya'ni obyektni foydalanishga topshirish muddati o'tib ketadigan bo'lsa, investor kutilayotgan foydani olishdan mahrum bo'ladi va boshqa chiqimlarga duch kelib, bu narsa hisobiy samaraning salbiy bo'lishiga olib keladi. Shu sababli qurilish yoki korxonani qayta tiklash va kengaytirish ishlari, obyektlarning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik tez amalga oshirilsa, investitsiyalar samaradorligi mos ravishda shunchalik yuqori bo'ladi.

Misol. Mini zavod qurilishining smetaga ko'ra qiymati 14,5 mln. so`mni tashkil etadi. Qurilishning me'yoriy muddati – 2,5 yil. Amalda zavodni 2 yilda qurib bitkazish mo'ljallanmoqda. Zavodning asosiy fondlari qiymati oshishiga olib kelmaydigan xarajatlar qiymati 450 ming so`mga teng. Samaradorlikning me'yoriy koeffitsienti – 0,2.

Zavodni muddatidan oldin qurib bitkazishning iqtisodiy samarasini quyidagicha:

$$S_{m.o} = 0,2 (14,5 - 0,45) \times (2,5 - 2) = 1,4 \text{ mln.so'm.}$$

16.4. Investitsiya xavf-xatarlarining turlari va ularni boshqarish

Xavfsizlik bu murakkab va serqirra kategoriyadir. U asosan va ko'pincha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtai nazaridan baholanadi va ko'rib chiqiladi. Shu sababli hozirgacha biz texnika xavfsizligi, piyoda xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi yoki zararsizligi kabi tushunchalarni uchratsakda, korxona xavfsizligiga hali duch kelganimiz yo'q.

Mahsulotlarning zamonaviy namunalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya rejalarini va boshqalar sanoat ayg'oqchiligining diqqat markazida turib, korxona va mamlakat uchun ma'lum bir xavf tug'diradi. Shu sababli xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot fanining, jumladan, zamonaviy korxonalar iqtisodiyotining muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi.

Korxona xavfsizligini ta`minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korxona va uning barcha bo'linmalari, mehnat jamoasining davlat tuzilmasi, xorijiy hamkorlar va raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarini himoya qilish;
- korxona mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish;
- tashkiliy va ishlab chiqarish barqarorligiga erishish, butlovchi qismlar etkazib beruvchilarga yordamchi va hamkorlarga bir tomonlama qaram bo'lishga yo'l qo'ymaslik;
- barcha tuzilmaviy bo'g'inlardagi xodimlar orasida mehnat

intizomini mustahkamlash;

- mehnat unumdarligini oshirish uchun moddiy va ma`naviy manfaatdarligini ta`minlash;
- ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish, samarali axborot bazasini rivojlantirish;
- korxona obro`sini oshirish.

Ko`rsatilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda korxona xavfsizligini ta`minlash vazifalari belgilanib, ular korxonaning ichki tartib qoidalari va ish tartibida hamda maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlarda o`z aksini topishi mumkin. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Korxona ichida hamda tashqi tashkilotlar hukumat idoralari, boshqaruv tuzilmasidagi qoidabuzarlik omillari, vakolatni oshirish hollari va hokazolarni aniqlash;

2. Korxonaning barqaror ishlashiga ta`sir qilishi mumkin bo`lgan xavf-xatar hamda bozor kon`yunkturasidagi noqulay o`zgarishlarni aniqlash va zarur choralarini qo`llash;

3. Bo`lajak hamkorlarni o`rganish, ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish va baholash;

4. Iqtisodiy ayg`oqchilikka qarshi chora-tadbirlarni tayyorlash;

5. Korxona sirlaridan xabardor bo`lgan malakali xodimlarni boshqa korxonalarga jalb qilishning oldini olish;

6. Nosog`lom raqobatchilikni engish;

7. Korxona hududi va moddiy resurslarini himoya qilish;

8. Tijorat sirlarini muhofaza qilishni tashkil qilish;

9. Mehnat jamoasi a`zolari orasidagi salbiy fikrlarni aniqlash;

10. Favqulodda hodisalarning oldini olish va xavfsizlikning boshqa choralarini.

Ma`lumki, ko`rsatilgan maqsad va vazifalar o`z-o`zidan avtomatik ravishda hal qilinmaydi. Buning uchun, avvalo, o`z ishini yaxshi bilishdan tashqari mohir va yuqori malakaga ega bo`lgan hamda o`zлari ishlayotgan korxona uchun «jon kuydiruvchi» kadrlar zarur. Ularsiz muvaffaqiyatga deyarli erishib bo`lmaydi.

Xavfsizlik tamoyillari – xavfsizlikni ta`minlash taktika va strategiyasiga bo`lgan asosiy talablar xavfsizlikning maqsad va vazifalarini hal qilishning to`g`ri yo`llarini tanlashdir. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qonuniylik tamoyillari;
- mustaqillik va mas`uliyat;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va foydalilik;

- maqsadli-dasturiy rejalarashtirish;
- o`zaro aloqalar va muvofiqlashtirish;
- mehnatni ilmiy tashkil qilish.
- oshkoraliq va zaruriy maxfiylikning uyg`unligi
- ixtisoslashuv va yuqori kasbiy malaka.

Korxona xavfsizligini ta`minlashni tashkil qilish va boshqarish.

Xavfsizlik hodisalarning oldini olish va ogohlantirish chorasi sifatida, har bir alohida holatdagi aniq harakat bo`lib, korxona xarakteri, uning joylashuvi, ahamiyati va hokazolarga bog`liq bo`ladi. Mazkur jarayonda xavfsizlik tizimining o`zini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Uning rahbari xavfsizlik kontseptsiyasini ishlab chiqarishning muayyan sharoitlariga nisbatan ishlab chiqishda shaxsan ishtirot etishi zarur.

Xavfsizlik kontseptsiyasi birinchidan, korxonaning maqsad va vazifalariga zid kelmasligi, ikkinchidan, korxona xavfsizligiga bevosita va bilvosita ta`sir ko`rsatishi mumkin bo`lgan tashqi muhit ta`sirini inobatga olishi zarur. Bu ta`sirni quyidagi chizma ko`rinishida aks ettirish mumkin (16.1-chizma):

Shu bilan bir vaqtida korxona o`z faoliyatining muhim yo`nalishlari xavfsizligini ta`minlash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak va buning uchun avvalo, mos keluvchi qo`riqlash tartibini yaratish lozim. Mamlakatimiz va xorij amaliyoti tajribasi bunda quyidagi faoliyat turlarini ajratib ko`rsatadi:

1. Bino va inshootlar, aloqa tarmog`i qurilma va uskunalarini qo`riqlash tartibini ta`minlash.

2. Tezkor xavfsizlik – maxfiy axborotlarga bo`lgan vakolatni boshqarish, kelib-ketuvchilar, transport va yuk tashishni nazorat qilish, qoidabuzarlik holatlarini tekshirish, axborot xavfsizligini ta`minlash.

3. Xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha ma`muriy faoliyat – personalni tayyorlash va o`qitish, inspeksiya, taftish va nazorat, muammoli vaziyatlarning oldini olish, istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

4. Moddiy boyliklarni himoya qilish va tabiiy ofatlar bilan kurash – yong`inlarning oldini olish, yong`in xavfsizligi va ogohlantirish qurilmalari holatini kuzatib borish va hokazolar.

Korxonalar rahbarlari mehnat jamoalarini doimiy ravishda xavfsizlikni ta`minlash natijalari to`g`risida xabardor etishlari lozim.

Faqat zarur hollardagina xavfsizlik chora-tadbirlari maxfiy bo`lishi mumkin. Xavfsizlik chora-tadbirlarining maxfiyligi korxona bo`limlarini zaruriy qoidalarni qo'llash va ularga amal qilishini nazorat qilishni maxsus tashkil etishni ko`zda tutadi.

Hozirgi jamiyatning axborotlashtirish va elektronlashtirish sharoitlarida korxonalarining xavfsizligini ta`minlash uchun doimiy ravishda faoliyat ko`satuvchi, tijorat faoliyatining xavfsizligini ta`minlashning barcha shakl va usullarini qamrab oluvchi tizim amal qilishi lozim. Shu sababli xavfsizlik xizmati marketing va menejment xizmati, valyuta, kredit va huquqiy bo`limlar kabi iqtisodiy bo`linmalar bilan chambarchas bog`liqlikda ishlab, iqtisodiy xavfsizlikka ko`proq yondashgan holda ularning foliyatini to`ldirishi zarur.

Korxonaning xavfsizlik xizmati, uning tuzilishi va vazifalari

Xavfsizlik xizmati korxonaning tuzilmaviy birligi bo`lib, xavfsizlik tartibini ishlab chiqish, o`rnatish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, unga rioya qilinishini nazorat qilishni amalga oshiradi. U o`z faoliyatida quyidagilarga asoslanishi lozim:

- qo`riqlash tartibini tashkil etish bo`yicha qoidalari;
- rahbar, mutaxassis va texnik xodimlar uchun maxfiy ma'lumotlar bilan ishlash bo`yicha lavozim yo`riqnomasi;
- ma'lumotlarni texnik-muhandislik jihatidan himoya qilishni tashkil etish bo`yicha lavozim yo`riqnomasi;
- xorijiy vakolatxonalar va vakillar bilan ishlash bo`yicha lavozim yo`riqnomasi.

Korxona xavfsizlik xizmati tarkibida axborot-tahlil bo`linmalari, xavfsizlikni ta`minlash yo`nalishlari bo`yicha tashkiliy bo`g`inlar hamda muayyan vazifalarni bajarish uchun vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin.

Korxona rahbariyati yoki aktsiyadorlik jamiyati boshqaruvi qaroriga ko`ra, muayyan maqsadlar va yuzaga keluvchi sharoitlarda xavfsizlikni ta`minlashning murakkab vazifalarini hal qilish uchun korxonaning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin.

Belgilangan vazifalarni bajarish uchun korxonaning xavfsizlik xizmati quyidagilarni amalga oshiradi:

- ma`muriy-taqsimlash vazifasi, xavfsizlik tartibini o`rnatish va ta`minlash, mas`ul shaxslarning korxona xavfsizligini ta`minlash masalalari bo`yicha huquq va majburiyatlarini belgilash,

shuningdek, korxonaning mazkur faoliyat turi sohasidagi vakolat vazifalarini amalga oshirishga oid qarorlar tayyorlash yo`li bilan amalga oshiriladi;

- xo`jalik-taqsimlash vazifasi, xavfsizlik xizmatining korxona xavfsizligini ta`minlashda zarur bo`lgan resurslarni belgilash, korxona mulki va intellektual boyliklarini saqlash va ulardan oqilona foydalanishni ta`minlash chora-tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirishda ishtirok etishi yo`li bilan amalga oshiriladi;

- hisob-nazorat vazifasi, tijorat-moliyaviy faoliyatning eng muhim yo`nalishlarini ajratib ko`rsatish va korxonaning moliyaviy barqarorligiga tahdid soluvchi xavf-xatarning oldini o`z vaqtida olish, ularning manbalarini baholash, xavfli holatlarni nazorat qilishni yo`lga qo`yish, korxona xavfsizligiga ta`sir ko`rsatuvchi salbiy omillarni hisobga olish, shuningdek, korxonaning hayotiy ehtiyojlariga tahdid soluvchi g`irrom raqiblar, ishonchsiz hamkorlar, shaxslar va tashkilotlar haqida ma'lumotlar yig`ish yordamida amalga oshiriladi;

- ijtimoiy-kadrlar vazifasi, xavfsizlik xizmatining kadrlarni joylashtirish, mehnat jamoalaridagi salbiy fikrlar, ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini aniqlash, janjallarning oldini olish, xodimlarga yo`riqnomalar berish, ularda belgilangan xavfsizlik me`yorlariga rioya qilish uchun javobgarlik tuyg`usini shakkantirishdagagi ishtiroki orqali amalga oshiriladi;

- tashkiliy-boshqaruv vazifasi, korxona xavfsizligini ta`minlash jarayonini boshqarishning doimiy tashkiliy tuzilmasini yaratish, qo`llab-quvvatlash va o`z vaqtida qayta tashkil etishga boshqaruv ta`sirini ko`rsatish, faoliyatning alohida yo`nalishlari bo`yicha moslashuvchan vaqtinchalik tuzilmalar, alohida bo`g`inlar o`rtasida belgilangan dasturiy maqsadlarga erishish uchun o`zaro aloqalar va muvofiqlashtirishni tashkil etish yordamida amalga oshiriladi;

- rejali ishlab chiqarish vazifasi, korxona xavfsizligini ta`minlash bo`yicha alohida maqsadli rejalar va dasturlar majmuuni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, xavfsizlik tartibini o`rnatish va qo`llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlarni tayyorlash va bajarish yordamida amalga oshiriladi;

- tashkiliy-texnik vazifa, korxonada xavfsizlik tartibini moddiy-texnik jihatdan ta`minlash, maxsus texnikalar hamda yangi, progressiv texnologiyalar, maxfiy tartib va boshqa maxsus faoliyatlarini o`zlashtirish yordamida amalga oshiriladi;

- ilmiy-uslubiy vazifa, korxona xavfsizligini ta`minlashning

ilg`or tajribalarini toplash va tarqatish, xodimlarni o`qitishni tashkil etish, korxona oldida yuzaga keluvchi korxona xavfsizligini ta`minlashga oid muammolarni hal qilishning ilmiy jihatdan ishlab chiqish va uning bu sohadagi faoliyatini uslubiy ko`rsatmalar bilan ta`minlash yordamida amalga oshiriladi;

- axborot-tahlil vazifasi, xavfsizlikka oid ma`lumotlarni maqsadli ravishda yig`ish, toplash va ular bilan ishslash, buning uchun zarur bo`lgan ma`lumotlarni analistik tahlil qilishning texnik va uslubiy vositalarini yaratish va ulardan foydalanish, korxonaning manfaatdor bo`linmalarini va alohida shaxslarni xavfsizlik xizmatida mavjud bo`lgan ma`lumotlar bilan ta`minlash yordamida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan vazifalar korxona xavfsizlik xizmatining zarur tashkiliy tuzilmasini shakllantirishga imkon beradi. Uning namunaviy tuzilmasi quyida keltirilgan (16.2-chizma):

Korxona xavfsizlik xizmati Nizomida uning maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlar, nazorat-taftish faoliyati belgilab beriladi. Xavfsizlik xizmati o`z faoliyatini korxona xavfsizligini yuqori darajada ta`minlash va qo`llab-quvvatlash asosida olib borib, quyidagilarni qamrab oladi:

- maxfiy tartibdagagi faoliyatni tashkil etish;
- axborot xavfsizlini ta`minlash;
- muhandislik-texnik muhofaza;
- mehnat jamoalaridagi salbiy yo`nalishlarning oldini olishga oid faoliyat.

Nazorat savollari

1. Investitsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Real investitsiya va moliyaviy investitsiya nima bilan farqlanadi?
3. Investitsiya loyihasini tayyorlash va amalga oshirish nimalarni o`z ichiga oladi?
4. Investitsiyaning tashqi manbalari nimani o`z ichiga oladi?
5. Investitsiya xavf-xatarlarining turlarini aytib bering.

XVII BOB. SANOAT KORXONALARINI FAOLIYATINI REJALASHTIRISH. KORXONA BIZNES-REJASI VA UNINNG ASOSIY BO`LIMLARI

Reja:

17.1. Rejalashtirishning mohiyati va vazifalari. Korxona faoliyatini rejalashtirishning asosiy vazifalari.

17.2. Rejalashtirish texnologiyasi.

17.3. Korxona biznes rejasingning tizimi.Biznes-rejani tayyorlash bosqichlari va uni tuzishning texnologiyasi.

Tayanch iboralar: rejalashtirish, strategik rejalashtirish, joriy rejalashtirish, rejalashtirish uslubiyoti, me`yor, bashorat, texnik-iqtisodiy rejalashtirish, rejalashtirish texnologiyasi, biznes reja

17.1. Rejalashtirishning mohiyati va vazifalari.

Korxona faoliyatini rejalashtirishning asosiy vazifalari.

Iqtisodiyot bo`yicha zamonaviy adabiyotlarda va qo`llanmalarda rejalashtirishga mo`ljallangan ish yoki ma`lum bir harakatlarni bajarish muddati, tartibi va ketma-ketligini ko`zda tutuvchi chora-tadbirlar tizimi sifatida izoh berilgan. Har bir inson o`z ish kuni, dam olish kuni, bayramlar, yozgi ta`til, to`y va boshqa tadbirlarni qanday o`tkazishni rejalashtiradi. Aynan rejalashtirish va bashorat qilish yo`li bilan korxonalar nimani, kim uchun, qachon va qancha mahsulot ishlab chiqarish, qaysi hamkorlar yoki sheriklar bilan shartnoma tuzish yoki kooperatsiyani rivojlantirish, zarur bo`lgan moddiy-tovar boyliklari zahirasini yaratish kabi bir qator masalalarni hal qiladi.

O`zbekiston Respublikasining «Korxonalar to`g`risida»gi qonunida, korxonalarning iste`molchilar talabi, foyda yoki daromad olish nuqtai nazaridan o`z faoliyatini mustaqil ravishda tanlashi va ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollarini belgilab olishi ko`rsatilgan.

Rejalashtirish tartibga soluvchi jarayon sifatida korxona faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab berishni ifodalaydi. Oxirgi holatda gap korxona faoliyatini bashorat qilish haqida borishi mumkin. Bashorat qilishni rejalashtirishning boshlanishi va uzoq muddatli istiqbolga

mo'ljallangan davomi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Rejalashtirish va prognozlashtirish o'zaro aloqada bo'lgan ikkita jarayon bo'lib, xo'jalik faoliyatini avvaldan bajarilgan hisob-kitoblar, o'ng kam tavakkalchilik va o'ng yuqori natijalarga o'rishish asosida yuritishni ko`zda tutadi.

Reja va rejalashtirish orasidagi farqni anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Rejalashtirish indikativ reja yoki prognoz kabi rejalar ni ishlab chiqish jarayoni bo'lsa, reja korxonaning ma'lum bir vaqt mobaynida amalga oshiruvchi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zida aks ettiruvchi hujjatni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, reja - bu, korxonaning maqsadli funksiyalari va ularni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi rejalashtirishning moddiylashgan shaklidir.

Rejalashtirish odamlar, birinchi o'rinda mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi sababli istalgan reja yoki prognozning hayotga tatbiq o'tilishi ko'p jihatdan iqtisodchilar ning malakasiga, ular rejalashtirishning uslubiy asoslarini yaxshi bilishiga, shuningdek, ishlab chiqarish rejalarining bozor talablarini hamda korxonaning mo'ljallangan daromadga urishishini hisobga olishiga ham bog'liq. Rejani ishlab chiqish qanchalik asoslab berilgan bo'lsa, uning haqiqiyligi va iqtisodiyotdagi ahvol bilan bog'liqligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Korxonalar faoliyati va iqtisodiyotda rejalashtirishdan tashqari bashorat qilish ham katta rol o'ynaydi. Bashorat qilish xo'jalik faoliyati yurituvchi subyektning istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni ilmiy asoslagan holda avvaldan ko'ra bilishini ifodalaydi. U yuzaga kelayotgan yoki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy holatlarni baholash va tahvil qilish asosida yaratiladi hamda muqobil qarorlarni tanlashga imkon yaratadi.

Bashorat qilish rejalashtirish tavsifida o'z aksini topadi: ishlab chiqarish va korxona iqtisodiy hayotining boshqa jihatlarini strategik rejalashtirish - o'rta va uzoq muddatli bashoratlar asosida hamda joriy rejalashtirish - qisqa muddatli bashoratlar asosida ishlab chiqiladi. Bu yo'nalishlarning ikkalasi ham o'zaro uzviy aloqada bo'lib, ishlab chiqarish strategiyasini fan-texnika taraqqiyoti va hayotning real voqeligi bilan bog'laydi.

Bashoratning maqsadi – bozorga ta'sir qiluvchi omillarni, shu bilan birga, xo'jalikning umumiy ahvoli, tuzilmaviy siljishlar, investitsion faollik, fan-texnika taraqqiyotining iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarga ta'sir ko'rsatishi, an'anaviy mahsulotlardan tashqari korxonaning barqarorligi va raqobatbardoshligiga olib keluvchi «pioner» (yangi) mahsulot ishlab chiqarish istiqbolida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarini belgilashdadir. Korxonalar uchun talabni prognozlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va miqdorining o'zgarishini avvaldan aniqlab beradi. Umuman olganda, prognoz rejalashtirishning ilmiy asosidir.

Korxonada rejalashtirishning uslubiy asoslari, tamoyillari va vazifalari. Rejalashtirish uslubiyoti, bu – iqtisodiyotni boshqarishning turli bo'g'inalrada, jumladan, korxonalarni boshqarishda rejalarни ishlab chiqish usullari majmuasidir. Avvalgi rejali iqtisodiyot sharoitlarida u avvalo reja organlarining, ham sobiq ittifoq miqyosida, ham alohida respublikalar miqyosida amal qilgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarga tayanar edi. Iqtisodiyotning muhim soha va tarmoqlarini joriy va istiqbolli rejalashtirish ushbu ko'rsatmalar asosida amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar o'z faoliyatini rejalashtirishni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Biroq bu rejalashtirishning tekshirib ko'rilgan va foydali usullaridan voz kechishni anglatmaydi. Bugungi sharoitlarda ham korxonalar faoliyatini rejalashtirish-texnik iqtisodiy hisob-kitoblar, progressiv norma va normativlar, iqtisodiy tahlil, muqobil variantlarni tanlashga asoslanadi.

Rejalashtirishning eng ko'p tarqalgan usullari qatoriga quyidagilarni: balans, normativ, iqtisodiy-matematik, statistik, omillar bo'yicha, ko'p variantli hisob-kitob usuli kabilarni kiritish mumkin. Rejalarning asoslanganlik darajasini oshiruvchi va ularni tezda amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi, shuningdek, tavakkalchilik va vujudga kelishi mumkin bo'lgan talofatlarni kamaytiruvchi usul eng samarali usul hisoblanadi.

Hozirgi paytda balans usulining ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu usulning mohiyati, o'zaro aloqada bo'lgan ko'rsatkichlarni solishtirish bilan ifodalanadi. Balans usuli asosida korxonaning

ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, ishlab chiqarish quvvatiga bo'lgan talablari va ularning manbalari aniqlanadi. Bundan kelib chiqqan holda moddiy balans, ishlab chiqarish quvvatlari balansi, ishchi kuchi balansi, ish vaqtি balansi, qiymat balansini ajratib ko'rsatish mumkin. Balanslar, qoidaga ko'ra, ehtiyojlar va ularga mos keluvchi resurslarning mavjudligi yoki manbalarini o'z ichiga oluvchi, o'zaro moslashuvchi jadval shaklida tuziladi.

Balans usuli normativ usuli bilan birgalikda qo'llanadi. Normativ usulida resurslarni sarflashning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng yuqori va eng quyisi chegaralari aniqlanadi. Bunda ishlab chiqarishni rejorashtirish va tashkil etishda norma va normativ kabi tushunchalardan foydalaniladi.

Norma (me'yor) – bu, belgilangan sifatdagi mahsulot birligi (ish, xizmat) tayyorlash uchun sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslardan foydalanishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal yoki minimal chegarasidir. Agar resurslardan foydalanish normalarini kamaytirish mahsulot sifatining pasayishiga yoki belgilangan standartlar talablarining buzilishiga olib keladigan bo'lsa, u holda bu normalarni kamaytirish mumkin emas.

Normativ – bu, nisbiy kattalik bo'lib, asosan foizlar yoki koeffitsientlar yordamida aks ettiriladi. U mehnat vositalari va predmetlaridan foydalanish darajasini, ularning har bir maydon birligi, og'irlik birligi, hajm birligiga sarflanishini tavsiflab beradi. Norma va normativlar progressiv tavsifga ega bo'lishi, ya'ni ularni ishlab chiqishda zamonaviy fan, texnika va texnologiya rivojlanishining darjasini, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish hamda ilg'or korxonalarning tajribalarini hisobga olish zarur. Shuningdek, ular doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi, eskiran norma va normativlar yangi, xo'jalik hayoti va davr talablariga javob beruvchi norma va normativlar bilan almashtirilishi lozim.

Rejorashtirishning asosiy vazifalari quyidagilar:

- ✓ maqsadni belgilash;
- ✓ korxona faoliyatining turli xil yo'nalishlari, ayniqsa, xalq xo'jaligi va aholi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslab berish;
- ✓ zaruriy moddiy-texnika asossini shakllantirish;

- ✓ moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- ✓ yakuniy natijalarning ijobiy bo`lishiga erishish.

Amaliyotda bu vazifalarni korxona direktori yoki iqtisodiy-rejalash xizmatining o`zi bajarmaydi yoki bajarishi lozim emas. Bunda butun jamoa, ayniqsa, agar bu korxona aktsiyadorlik jamiyat shaklida faoliyat ko`rsatayotgan bo`lsa, ishtirok etishi zarur. Afsuski, korxona xodimlari ko`pincha «rahbarga ko`proq narsa ko`rinadi» tamoyili asosida ishlaydilar va yaxshiroq natijalarga erishish uchun tashabbuskorlik ko`rsatmaydilar. Tajribalar esa korxona muammolarini hal qilish barcha xodimlar, jumladan, ishchilarga ham bo`lgan holdagini bu korxonalar gullab yashnashi mumkinligini ko`rsatadi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va ratsional boshqarish tizimi hamda maksimal ravishda qulay sharoitlarni yaratmoqda. Bunday sharoitlarda rejalashtirish bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishga xizmat qilishi lozim. Korxona faoliyatini umuman emas, balki har bir muayyan holdagi vazifalarni hal qilishga yo`naltirgan holda rejalashtirish zarur. Buning uchun rejalashtirishning ilmiylik, komplekslik, uzluksizlik, optimallik, moslashuvchanlik kabi tamoyillariga tayanish zarur.

Yetakchi bo`g`inni ajratib ko`rsatish korxonaning barcha bo`linmalarini birgalikda kompleks ravishda rivojlantirishni ko`zda tutadi. Chunki busiz rejalashtirish bir tomonlama bo`lib qolishi hamda ishlab chiqarishni tashkil etishda «tor joylar» va disproportsianing vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli korxona faoliyatining iqtisodiy-ishlab chiqarish rejasi ko`rsatkichlari va bo`limlarining o`zaro aloqada bo`lishini hamda kompleks rejalashtirishni ta`minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o`rinda ham rejalashtirishning balans usuli katta ahamiyatga ega.

Rejalashtirishning yana bir muhim tamoyili ilmiylik bo`lib, u avvalo tayyorlanayotgan rejalar va ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlariga, shuningdek, fan-tehnika taraqqiyoti talablari, raqobatchilik va bozor talablarini hisobga olishga asoslanadi. Rejalashtirishning ilmiyligi, jonli mehnat va mahsulotga aylangan mehnat xarajatlarining eng kam miqdorida iloji boricha yuqori

natijalarga erishishga, shuningdek, korxona xodimlari manfaatdorligini oshirishga ko`maklashadi.

Komplekslilik tamoyili ishlab chiqarishni, birinchidan, zamon va makonda, ikkinchidan, ishlab chiqarishni boshqarishning gorizontal va vertikalida, uchinchidan, ishlab chiqarishning resurs asoslarini ta`minlashda, to`rtinchidan, ishlab chiqarishdagi «tor joylarni» hisobga olish va ularni yo`qotish chora-tadbiralrida, beshinchidan, xodimlarning o`z mehnatlari natijasidan moddiy va ma`naviy qoniqishida, oltinchidan, korxonaning mo`ljallanayotgan daromad yoki foyda olishini amalga oshirishni ko`zda tutadi.

Proportsionallik nafaqat ishlab chiqarishni rejalashtirishda, balki ishlab chiqarishni boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb o`tadi. Zarur proportsiyalarga amal qilish ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining sexlar va ish joylari bo`yicha hamda ishlab chiqarish bosqichlarida to`g`ri taqsimlanishiga va ulardan to`g`ri foydalanishga ko`maklashadi. Proportsiyalarga amal qilmaslik esa, aksincha, ishlab chiqarishning ba`zi uchastkalarda kuchayib, boshqalarida pasayishiga, ya`ni disproportsiyalarning vujudga kelishiga hamda korxonalarining noritmik tarzda faoliyat yuritishiga sabab bo`ladi. Zaruriy proportsionallikni ta`minlashda ishlab chiqarishni tashkil etishni texnik-iqtisodiy normalashtirish katta rol o`ynaydi.

Rejalashtirishning uzlusizligi ishlab chiqarishni va umuman, korxona faoliyatini tashkil etishning muhim tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil amalda joriy rejalarning istiqboldagi rejalar bilan, istiqboldagi rejalarning esa bashoratlar (prognoz) bilan bog`liq bo`lishida o`z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirish qisqa muddatli tavsifga ega bo`lgan indikativ reja tabiatiga mos kelmovchi, yanvardan martgacha yoki martdan dekabrgacha, ya`ni «...dan» «...gacha» tamoyili asosida amalga oshirilmasligi lozim. Rejalashtirishning «...dan» «...gacha» tamoyilini inkor qilganda biz avvalo vaqt bo`yicha rejalashtirish uzilishining oldini olishni ko`zda tutamiz. Masalan, o`sha indikativ reja o`z davomiga ega bo`lishi, ya`ni korxona o`z faolitini yanvar-mart oylariga rejalashtirganda keyingi davrlarda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan vazifalarni ham, albatta, bozor konyunkturasi, iste`molchilar manfaati va ishlab chiqarish holatlarining o`zgarishini ko`zda tutishi lozim. Bu vazifa

faoliyati yurituvchi subyektning istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan holatlarni ilmiy asoslagan holda avvaldan ko`ra bilishini ifodalaydi. U yuzaga kelayotgan yoki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy holatlarni baholash va tahlil qilish asosida yaratiladi hamda muqobil qarorlarni tanlashga imkon yaratadi.

Bashorat qilish rejorashtirish tavsifida o`z aksini topadi: ishlab chiqarish va korxona iqtisodiy hayotining boshqa jihatlarini strategik rejorashtirish - o`rta va uzoq muddatli bashoratlar asosida hamda joriy rejorashtirish - qisqa muddatli bashoratlar asosida ishlab chiqiladi. Bu yo`nalishlarning ikkalasi ham o`zaro uzviy aloqada bo`lib, ishlab chiqarish strategiyasini fan-texnika taraqqiyoti va hayotning real voqeligi bilan bog`laydi.

Bashoratning maqsadi – bozorga ta`sir qiluvchi omillarni, shu bilan birga, xo`jalikning umumiy ahvoli, tuzilmaviy siljishlar, investitsion faoliylik, fan-texnika taraqqiyotining iste`molchi va ishlab chiqaruvchilarga ta`sir ko`rsatishi, an`anaviy mahsulotlardan tashqari korxonaning barqarorligi va raqobatbardoshligiga olib keluvchi «pioner» (yangi) mahsulot ishlab chiqarish istiqbolida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan holatlarini belgilashdadir. Korxonalar uchun talabni prognozlashtirish muhim ahamiyatga ega bo`lib, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va miqdorining o`zgarishini avvaldan aniqlab beradi. Umuman olganda, prognoz rejorashtirishning ilmiy asosidir.

17.2. Rejorashtirish texnologiyasi.

Rejorashtirish korxonani boshqarish jarayoni sifatida o`z texnologiyasiga ega bo`lib, bu texnologiya korxonaning rejorashtirilayotgan davrdagi maqsad va vazifalarini aniqlash, bajaruvchilarga muayyan vazifalarni belgilash, vazifalarni turi, kattaligi va muddatiga ko`ra, aniqlashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati natijasi – daromad yoki foyda olishni o`z ichiga oladi. Kichik korxonalarda bu vazifalarni bajarish katta korxonalarga nisbatan yengilroq bo`lsada, barcha hollarda quyidagi omillarni hisobga olish talab qilinadi:

- ✓ ishlab chiqarish quvvatining mavjudligi va tuzilmasi;
- ✓ xodimlar soni, ixtisos tarkibi va malakasi;
- ✓ moliyaviy resurslar;

- ✓ aylanma mablag`lar mavjudligi va unga bo`lgan ehtiyojlar, jumladan, moddiy-tovar boyliklari zahiralari;
- ✓ ilmiy-texnik tadqiqotlar tuzilmasi va tayyorlik darajasi;
- ✓ mahsulotni sotish kanallari.

Rejalashtirish, reja loyihasini uning mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasi, moddiy-texnika ta`minoti rejasi, kadrlar va oylik maosh bo`yicha reja, yangi texnika va kapital qo`yilmalar rejasi, moliyaviy reja kabi asosiy qismlari doirasida tayyorlash bilan bog`liq bo`lgan rejadan avvalgi davrni o`z ichiga oladi. Ularning moddiy va moliyaviy resurslar hamda bajarish muddati bo`yicha to`liq o`zaro bog`liqligi va balanslashganligi rejalshtirish jarayoni va korxona rejasining ishonchligini ta`minlovchi muhim jihatdir. O`z navbatida, mahsulot ishlab chiqarish ishchi kuchining mavjudligi, shartnomalar bo`yicha mahsulot o`tkazish rejalarini va ishlab chiqarish quvvatlari bilan, tannarx rejalarini esa ishlab chiqarish dasturlari va moliyaviy reja bilan bog`liq bo`ladi.

Rejalarni ishlab chiqishda korxonaning barcha sexlari va funksional bo`linmalari, jumladan, moliya va reja bo`limi, mehnat va ish haqi bo`limi, marketing xizmati, buxgalteriya, texnik bo`lim, tsex rahbarlari ishtirok o`tishlari zarur. Korxona rejasi va uning bo`limlari qanchalik sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan bo`lsa, uni bajarish shunchalik yengillashadi, resurslar kamroq talab qilinadi hamda ish sifati yuqori darajada bo`ladi.

Rejalashtirish tizimi quyidagi talablarga javob bergen taqdirdagina samarali va ishonchli hisoblanadi:

1. Rejalashtirishning har bir elementi va bosqichi qat`iy ravishda asoslab berilishi.
2. Rejadagi vazifalarning aniq va o`z vaqtida bajarilishi, ya`ni rejaning adresliligi.
3. Reja bajarilishini doimiy va uzliksiz ravishda hisobga olish, nazorat qilish va unga zarur hollarda o`zgartirishlar kiritish.
4. Ichki va tashqi muhitdagi o`zgarishlarni ijobiy qabul qilish, shuningdek, korxona faoliyatini ro`y bergen o`zgarishlarga mos ravishda, o`z vaqtida qayta tashkil qilish (rejalashtirishning moslashuvchanligi).
5. Fan-texnika taraqqiyoti va xo`jalik yuritishning ilg`or tajribalariga tayanish.

Rejelashtirish davomida bugungi kundan tashqari, kelajakni, ertangi kunni ham inobatga olish zarur. Korxona istiqboli va bozordagi holatining barqarorligi, ko`p jihatdan uning ilg`or texnika va fan yordamida yaratilgan eng yaxshi mahsulotlar namunasini tezlik bilan o`zlashtirib olish qobiliyatiga bog`liq bo`ladi. Shu sababli korxonalarda axborot tizimini yaxshi yo`lga qo'yish hamda reklama faoliyatini rivojlantirish lozim. Reklama iste`molchilarni (xaridchlarni) mavjud mahsulot bilan tanishtirishdan tashqari, xuddi xorijdagi kabi, ularni aynan shu mahsulotni sotib olishga undashi kerak.

Rejelashtirishning har bir turi o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, bu xususiyatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ✓ belgilangan rejelashtirish oralig`ining aniqligi;
- ✓ integratsiya va differentsiatsiya darajasi, shuningdek, rejelashtirilayotgan ko`rsatkichlar miqdori;
- ✓ ishlab chiqarish xarajatlari va natijalarini hisob-kitob qilish darajasining aniqligi;
- ✓ rejani tayyorlovchilar va amalga oshiruvchilar o`rtasida majburiyatlarni taqsimlash tartibi.

Hozirgi paytda korxonalarning aksari qismi asosan joriy rejalar (biznes-rejalar) tayyorlash bilan shug`ullanmoqda. Biznes-rejalarda eng muhim rejelashtirish ko`rsatkichlari quyida keltirilgan:

- ✓ ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) nomenklaturasi va hajmi (natural ko`rinishda);
- ✓ mahsulot sotish hajmi (pul ko`rinishda);
- ✓ mahsulot birligining tannarxi;
- ✓ foyda (daromad);
- ✓ kategoriylar bo`yicha xodimlar soni;
- ✓ mehnatga haq to`lash fondi va o`rtacha ish haqi darajasi;
- ✓ omborlardagi xom ashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zahiralari;
- ✓ aylanma vositalar hajmi - umumiy va guruuhlar bo`yicha;
- ✓ kapital qo`yilmalar hajmi, jumladan, qo`yilma obyektlari va yo`nalishlari bo`yicha;
- ✓ yangi texnika va texnologiyaga oid chora-tadbirlar;
- ✓ boshqa ko`rsatkichlar (zarurligi va aniqlanishiga ko`ra).

17.3. Korxona biznes rejasining tizimi. Biznes-rejani tayyorlash bosqichlari va uni tuzishning texnologiyasi.

Yangi mahsulotlar va texnologiyalarni qo'llash loyihalari, shuningdek, investitsiyalar va qurilish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarning bir qismi alohida rejalgarda kiritiladi. Ular chora-tadbirlarni amalga oshirishning butun davriga tuziladi.

Tadbirkorlik – korxonalar xo'jalik yuritish faoliyatining uzlusiz qismi bo'lib, foyda (daromad) olish va uni ko`paytirishga qaratilgan bo'ladi. Korxonalar hayotida u, boqi beg`amlikka berilish, turg'unlik va isrofgarchilikni inkor qilishni anglatadi. Korxona rahbari yoki mutaxassis tadbirkorlik va tashabbuskorlik «ruhiga» ega bo`lmasa, demak, u bo'sh yoki yomon xodim, xizmatda belgilangan soatlarni o'tkazib o'tiruvchi shaxs hisoblanadi. Aksincha, tadbirkorlik va tashabbuskorlik «ruhiga» ega bo`lgan mutaxassis yoki mansabdar shaxslar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va rivojlantirish, mehnat sifatini ko'tarish va korxonaning oladigan daromadlarini ko`paytirish yo'llarini izlab topadilar.

Tadbirkorlikni ko`pincha muayyan shaxsga «bog`lab qo'yadilar» hamda bu shaxsni tadbirkor yoki biznesmen deb ataydilar. Bundan tashqari bir guruh shaxslardan tashkil topuvchi jamoa tadbirkorligi ham mavjud. Bu holatni jamoa biznesi yoki jamoa tadbirkorligi deb atash mumkin.

Agar yakka shaxs individual tarzda yoki kichik bir jamoa vositachilik, oldi-sotdi, maslahat va boshqa xizmatlar bilan shug'ullansa, u holda biznes-reja talab qilinmaydi. Boshqa hollarda biznes-reja yangi korxona tashkil qilish yoki biron-bir tijorat loyihasini amalga oshirish uchun mo'ljallanayotgan asoslangan xatti-harakatlarni o'z ichiga oluvchi hujjat hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi, korxonaga o'z imkoniyatlarini baholash, bozordagi istiqbolni, zaruriy xarajatlarni aniqlash, korxona faoliyatining birinchi yillarda «suv ostidagi toshlar»ni aniqlash hamda mazkur faoliyat turining foydali yoki zararli ekanligini baholash ko'rsatkichlari yordamida hisoblashga yordam berishda deb belgilanadi.

Biznes-rejani tayyorlash natijasida «Ishni nimadan boshlash kerak?», «Samarali ishlab chiqarishni qanday tashkil qilish lozim?», «Birinchi foyda yoki daromad qachon olinadi?», «Investorlar va

kreditorlar bilan qachon hisob-kitob qilish mumkin?», «Yuzaga kelishi mumkin bo`lgan xavf-xatarni qanday kamaytirish mumkin?», «Raqobatchilar bilan kurashda qanday choralardan foydalanish mumkin?» kabi savollarga javob olinadi.

Biznes-rejani tuzishda quyidagi shartlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

✓ biznes-reja professional va shu bilan bir paytda sodda, bajarish uchun tushunarli va oson bo`lishi lozim;

✓ biznes-reja investor yoki boshqa manfaatdor shaxs o`ziga kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi uchun bo`limlarga (boblarga) bo`linishi lozim;

✓ biznes-rejani tayyorlashda korxonaning bosh rahbari albatta qatnashishi shart, chunki investor, bank yoki boshqa moliya idorasi korxona rahbari qatnashmaganligi yoki boshqa shaxsga topshirilganligi haqida xabar topsa, biznes-rejaning ishonchlilikiga shubha uyg`onishi mumkin;

✓ biznes-rejaning obyektiv baholanishiga erishish kerak, ya`ni unda xatolar va noto`g`ri hisob-kitoblar bo`lmasligi lozim;

✓ biznes-rejaning tarqatib yuborilmasligini nazorat qilish zarur, chunki unda biznes to`g`risidagi maxfiy ma'lumotlar joy olgan bo`ladi.

Rejalarning har bir turi kabi, biznes-reja ham, bo`lim va ko`rsatkichlardan iborat bo`ladi. O`ntagacha bo`limni o`z ichiga oluvchi biznes-reja mazmuni va tuzilishiga ko`ra, o`ng maqbul hisoblanadi. Mavjud adabiyotlarda quyidagi bo`limlarni o`z ichiga oluvchi biznes-rejalar taklif qilinadi:

1. Tanlangan biznes kontseptsiyasi.
2. Hozirgi paytdagi holat (maqsad, vazifa va niyatlar).
3. Tashkil qilinayotgan korxona va uning mahsulot hamda xizmatlari tavsifnomasi.
4. Boshqaruv (menedjment).
5. Bozor tadqiqoti va tahlili.
6. Marketing harakatlari rejasi.
7. Ishlab chiqarish rejasi.
8. Tavakkalchilikni baholash.
9. Moliyaviy reja.
10. Biznes-loyihaning samaradorligi.

Tanlangan biznes yo`nalishining konsepsiyasini tuzishda uning raqobatbardoshligi (sifat, narx, iste`molchiga yetkazib berish shakli, tayyorlash texnologiyasi va hokazo); mablag'larga bo`lgan ehtiyojlar; o`ziga jalb qilishning asoslanganligi (taklif qilinayotgan mahsulotning boshqa mahsulotlardan afzalliklari, mahsulot ishlab chiqarishning qaysi bosqichda ekanligi va hokazo)ga katta e'tibor qaratish lozim.

Kontseptsiyada tanlangan tovar bozoridagi ahvol; korxonaning tanlangan biznes sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlari; boshqa bozorga chiqish imkoniyatlari; bozorga ta`sir o`tkazuvchi qonunchilik, siyosat, demografik holat kabi omillar aks ettiriladi. Bundan tashqari kontseptsiya bahoning o`zgarishi, inflyatsiyaning o'sishi, kapital olib chiqish yoki mahsulot olib kirishni cheklovchi qonun hujjatlarini qabul qilinishi kabi sharoitlarda, mahsulotni sotishni ko`paytirish uchun zarur bo`lgan chora-tadbirlarni ham o`z ichiga oladi. Ushbu bo`lim tanlangan biznes yo`nalishi maqsadlari va niyatlarining shakllanishi bilan yakunlanadi.

Korxona, uning mahsulot va xizmatlari tavsiynomasi bo`limida korxonaning joylashgan manzili, bozorga chiqish shakli, bozordagi ulushi, asosiy raqobatchilari va ularning kuchli tomonlari, texnologiya darajasi va xarajatlar tahlili aks ettiriladi.

Mulkchilik shakli, xodimlarning malakasi, tashqi muhit bilan munosabatlar «Boshqaruv» bo`limida ko`rsatiladi.

«Bozor tadqiqoti va tahlili» bo`limida tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxona mahsulotlariga jalb etuvchi raqobatchilik usullari hamda bozorda bahoni shakllantirish va hokazolar ko`rib chiqiladi.

Marketing rejasining asosiy vazifasi korxonaning bozordagi imkoniyatlariga baho berishdadir. Marketing rejasining asosiy elementlari sifatida tovarlarni tarqatish tizimi, bahoni shakllantirish, reklama, savdoni rag'batlantirish usullari, sotilgandan keyingi xizmat ko`rsatishni tashkil qilish, korxona (firma) va uning mahsulotlari haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish kabilarni ko`rsatib o`tish mumkin.

«Ishlab chiqarish rejası» potentsial xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o`z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko`rsatadi. Mazkur bo`limda quyidagilar o`z aksini topadi: yangi tashkil qilingan yoki faoliyat yuritayotgan korxonada

tovar ishlab chiqarish joyi; buning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari va ularning o'sish istiqbollari; xom ashyo va material etkazib beruvchilar; ishlab chiqarish kooperatsiyasi; ishlab chiqarish oqimlari tizimini tuzish; sifatni nazorat qilish jarayoni; foydalilaniladigan standartlar; vujudga kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari.

«Tavakalchilik va sug`urtalashni baholash» bo`limi ikki qismga bo`linadi. Birinchi qismda tavakkalchilikning barcha turlari (yong'in, zilzila, soliqni boshqarishdagi o`zgarishlar va valyuta kursining tebranishi) oldindan hisoblab chiqiladi. Ikkinci qismda esa tavakkalchilik xavfining oldini olish, ya`ni tavakkalchilik va zararlarni qisqartirish chora-tadbirlari ko`rsatiladi, shuningdek, tavakkalchilik xavfidan sug`urtalash dasturi amalga oshiriladi.

Moliyaviy reja biznes-rejaning yakunlovchi bo`limi bo`lib, korxona faoliyatining natijalarini tavsiflaydi. U quyidagi bo`limlarni o`z ichiga oladi:

- savdo hajmining bashorati;
- pul daromadlari va xarajatlari balansi;
- foyda va zarar bo`yicha reja.

Mazkur rejaning ko`rsatkichlari sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

- tovarlarni sotishdan tushgan daromad;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- savdodan tushgan umumiy foyda;
- sof foyda;
- korxona aktiv va passivining solishtirma balansi;
- zararsizlikka erishish grafigi.

Shuningdek, mazkur bo`limda ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirish uchun mablag` jalb qilish rejali ham ifodalanadi. Bo`limda korxonaning molivi barqarorligi yoki nochorligini aniqlash imkonini beruvchi maxsus ko`rsatkichlar hisob-kitobi ham keltiriladi.

Nazorat savollari

1. Rejalashtirish
2. Rejalashtirish texnologiyasi nimalardan tashkil topadi?
3. Biznes-reja kim tomonidan tuzilishi mumkin?
4. Biznes-reja bo`limlari nimalardan tashkil topadi?
5. Rejalashtirishning mohiyati va vazifalari nimalardan iborat.

XVIII BOB. TAYYORLOV FAOLIYATINI REJALASHTIRISH.

Reja:

- 18.1. Paxta xom-ashyosini tayyorlash, saqlash va uni tashish rejasি.
- 18.2. Paxta xom-ashyosini tayyorlash xarajatlari smetasi.
- 18.3. Paxta xom-ashyosini tayyorlov maskanidan zavodga tashib keltirish xarajati smetasi.
- 18.4. Quritish-tozalash tsexi faoliyatini rejalshtirish.

Tayanch iboralar: tayyorlov faoliyati, tranzit usul, tayyorlov faoliyati xarajatlari smetasi, quritish va tozalash xarajatlari, paxta xom-ashyosini zavodga tashib keltirish xarajati smetasi.

18.1. Paxta xom-ashyosini tayyorlash, saqlash va uni tashish rejasি.

Paxta tozalash korxonalari biznes-rejasи tayyorlov faoliyatini rejalshtirishdan boshlanadi. Uni biznes-reja tarkibiga qо'shilishi paxta tozalash korxonalarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishslashdagi ajralib turadigan xususiyati hisoblanadi. Biznes-rejaning bu bo'limga paxta xom-ashyosini tayyorlash, saqlash va uni paxta tozalash zavodiga tashib keltirish hajmi, har bir tayyorlash maskani bo'yicha *paxtaning tannarxi* ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Shunday qilib, xom-ashyo resursiga ehtiyoj va uning qiymati hisoblanadigan tayyorlov faoliyati rejasи paxta tozalash korxonalari ishlab chiqarish dasturi va biznes-rejasining boshqa bo'limgarini hisoblashda tayanch boshlang'ich bazalardan hisoblanadi.

Paxta tozalash korxonalarda amaldaғi hisoblash uslubiyatiga binoan tayyorlov faoliyati rejasи quyidagi xo'jalik jarayonlari va ishlarning asosiy ko'rsatkichlarni hisoblashni qamrab oladi:

- Paxta xom-ashyosini tayyorlash, saqlash va tashish, paxta etishtiruvchi xo'jaliklarni ekishga mo'ljallangan chigit bilan ta'minlash;
- Mexanizatsiyalashtirilgan ishlar hajmi mexanizatsiyalarga va elektroenergiyaga ehtiyoj;
- Mehnat va uni haqi;
- Paxta xom-ashyosini tayyorlash smetasi va uni zavodgacha tashib keltirish smetasi;
- Tayyorlov maskanida paxta xom-ashyosi tannarxi.

Qurilish-tozalash tsexi faoliyati tayyorlov faoliyati tarkibiga kirsada, uning ish faoliyati rejasи alohida tuziladi.

Rejani tuzish uchun hisob-kitob ishlarini amalga oshirish, me'yoriy materiallarini aniqlashtirish zavod xizmat ko'rsatadigan hududda paxtani tayyorlash haqida bir qancha ma'lumotlarni olish talab etiladi. Sanab o'tilgan

ko'rsatkichlar bo'yicha hisob-kitoblar har bir tayyorlov maskani uchun alohida hisoblanib, paxta tozalash zavodi bo'yicha umumlashtiriladi.

Paxta xom-ashyosini tayyorlash, saqlash va tashish, shuningdek ekishga mo'ljallangan chigit bilan ta'minlash bo'yicha hisob-kitoblar mehnat va ish haqi, materiallar, elektroenergiya va boshqa tayyorlov faoliyati xarajatlarini keyingi bosqichlarda hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tayyorlov faoliyatini tavsiylovchi *ko'rsatkichlarni* rejalashtirishda va hisobga olish paxta xom-ashyosining fizik va konditsion og'irliliklari bo'yicha olib beriladi. Paxta xom-ashyosini kalkulyatsiyalashda konditsion og'irlikdan foydalilanildi.

Tayyorlov faoliyati rejasi har bir paxta tozalash maskanlarining paxta xom-ashyosini tayyorlash, saqlash va uni zavodga etkazib berishdagi qobiliyatlarini aniqlashga asoslangan. Ushbu rejaning oxirgi natijasi bu paxta tozalash zavodiga qayta ishlash uchun etkazib beriladigan paxta *miqdori* va *tannarxi* hisoblanadi.

Paxta xom-ashyosi sifati va uning tannarxi paxta tozalash maskanlari faoliyatining samarasini baholaydigan eng *asosiy ko'rsatkich* bo'lib, ularni sifatli saqlash va qayta ishlovga yetkazib berish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hamda paxta mahsulotlari tannarxini pasaytirishning asosiy omili hisoblanadi.

Tranzit usuli. Paxta xom-ashyosini tayyorlash hajmi paxta ekishga ajratilgan maydon hajmiga va uning hosildorlik darajasiga bog'liqdir. U har bir paxta etishtiruvchi xo'jalik uchun rejalashtirilayotgan davrga aniqlanadi. SHundan so'ng bu ko'rsatkich har bir tayyorlov maskani va zavod uchun umumlashgan holda hisoblanadi. Tayyorlov rejasida zavod qoshidagi qabulga va paxta tozalash zavodiga tranzit holda paxtani eltib berishga alohida e'tibor karatiladi.

Transport xarajatlarini va mehnat resurslari sarfini kamaytirishda zavod qoshidagi qabulni, shuningdek paxta tranzit usulida etkazib berish miqdorini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. *Tranzit* usulida paxta tashish shunday usulki, unda paxta yetishtiruvchi xo'jaliklar unga biriktirilgan paxta tayyorlash maskanini chetlab o'tib, paxtani to'g'ridan-to'g'ri zavodga etkazib beradi.

Ekishga mo'ljallangan chigit bilan ta'minlash rejasi

Ekishga mo'ljalangan chigit bilan ta'minlash rejasi ekish me'yori va ayrim hollarda kayta ekish uchun zahira mikdori bilan aniqlanadi.

Paxta chigitini ekishga tayyorlash ishlari paxta tozalash zavodlari va tayyorlov maskanlarida amalga oshiriladi. Paxta tozalash zavodlari o'z hududlari paxta yetishtiruvchi xo'jaliklarining ekish uchun paxta chigitiga bo'lgan ehtiyojlarini o'zları qondirishi, shuningdek boshqa paxta tozalash korxonalari ham chigitni etkazib

berishlari mumkin. ekishga mo'ljallangan chigit bilan ta'minlash manbasi rejada aks ettirilishi lozim bo'ladi. ekishga mo'ljallangan chigit birinchi navdag'i texnik chigit narxi bo'yicha to'lanadi.

Ekishga mo'ljallangan chigitning rejali hisob-kitobi quyida keltirilgan (18.1-jadval) shaklda amalga oshiriladi:

Ekishga mo'ljallangan chigitni qabul qilish, jo'natish va tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar qaerda paydo bo'lganligiga qarab, paxta tayyorlash maskani smetasi yoki umumzavod xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Saqlashga mo'ljallangan *paxta miqdori* bilan bирgalikda, saqlash maydonlari (yopiq va ochiq g'aram maydonlari), saqlash vositalariga ehtiyoj miqdori va ular qiymati ham hisoblanadi. Ushbu maydonlarga ehtiyoj hajmi tayyorloving «eng yuqori nuqtasi» (paxta xom-ashyosining maksimal qoldig'i sanasiga) bo'yicha va paxtaning hajm og'irligiga ko'ra aniqlanadi.

18.1-jadval

T/ r	Ko'rsatkichlar	Paxta yetishtiruvchi xo'jaliklar bo'yicha			Jami
		1	2	...	
1	Ekishga ehtiyoj: - ekish maydoni, ga - 1 ga/kg da chigit ekish me'yori - umumiy chigit miqdori, t				
2	Keltirish uchun chigit miqdori, t	X	X	X	
3	Zahira, t	X	X	X	
4	Ehtiyojni kondirish manbasi: - o'z zavodida ishlab chiqarish,t - boshqa zavodlardan keltirish,t	X	X	X	
5	Ekishga mo'ljallangan chigit narxi, m.so'm	X	X	X	
6	Ekishga mo'ljallangan chigitni qabul qilish, jo'natish va tayyorlash xarajatlari, m.so'm	X	X	X	

Saqlashda foydalaniladigan materiallarning yillik eskirish bo'yicha sarf xarajatlar miqdori hamda ularga ehtiyoj miqdori tarmoq bo'yicha amal qiladigan me'yoriy hujjatlar va me'yorlarga ko'ra aniqlanadi. Xususan, rejalashtirish amaliyotida g'aramlarni

yopishga mo'ljallangan brezentlar eskirishi yiliga 28% miqdorida, brezentalarni bog'lash uchun mo'ljallangan arqonlar – 50% miqdorida qabul qilinadi. Saqlash vositalari qiymatida materiallar bilan birgalikda g'aram maydonlarini qurish va ularni ta'mirlash xarajatlari ham hisobga olinadi.

18.2. Paxta xom-ashyosini tayyorlash xarajatlari smetasi

Paxtani tayyorlov xarajatlari bo'limi

Tayyorlov faoliyati sarf xarajatlari ikkita xarajatlar guruhiga bo'linadi. Birinchi guruh – paxta xom-ashyosini tayyorlash xarajatlari smetasi, ikkinchi guruh esa – uni zavodga etkazib berish xarajatlari smetasini o'z ichiga oladi.

Ushbu smeta buxgalteriyada №15-10 schetda aks etadi.

Paxta xom-ashyosini tayyorlash bo'yicha xarajatlar smetasi o'zida quyidagilarni aks ettiradi: zavoddan tashqari tayyorlov maskanlari bo'yicha – paxtani qabul qilishdan tortib to uni transport vositalariga ortishgacha (avtoulov, vagonlarga) bo'lgan barcha xarajatlarni; zavod qoshidagi tayyorlov maskani bo'yicha – paxta etishtiruvchi xo'jaliklardan uni qabul qilib olishdan tortib, to unga qayta ishlov berish uchun pnevmotransport quvuriga o'zatishgacha bo'lgan barcha hujjatlarni.

Paxta xom-ashyosini tayyorlash bo'yicha xarajatlar smetasi **uchta** bo'limni: tayyorlov xarajatlari; paxta xom-ashyosini zavodga jo'natishga tayyorlash bo'yicha xarajatlar; umumtayyorlov xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Tayyorlov xarajatlari tarkibiga – xom-ashyosini qabul qilish va uni g'aramlashga bog'liq bo'lgan paxta tayyorlash maskani mehnat va material xarajatlari, paxta xom-ashyosi xarid narxiga qo'shishga tayyorlangan pul to'lovleri, paxta xom-ashyosini daladan tayyorlov maskaniga etkazib berish transport xarajatlari va uni tushirish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

Paxta xom ashyosini zavodga jo'natishga tayvorlash bo'yicha xarajatlar bo'limi.

Paxta xom-ashyosini zavodaa jo'natisha tayvorlash bo'yicha xarajatlar (*B bo'lim*) tarkibiga – tarali tashishda – paxta xom-ashyosini ko'plarga solish va uni transportga ortish bilan bog'lik

hamda tarasiz tashishda – paxta xom-ashyosini transport vositasi kuzoviga ortish bilan bog`liq mehnat va material xarajatlar kiradi.

Paxtani umumtavorlov xarajatlari bo`limi.

Umumtavorlov xarajatlari (C bo`lim) tarkibiaa – ma`muriy – boshqaruv; qiyin bajariladigan ishlarni mexanizatsiyalash, mashina va vositalarni saqlash; omborlar, g`aram maydonlari, laboratoriyalarni saqlash va boshqa paxta xom-ashyosini tayyorlash va saqlashning xarajatlari; yong`inga qarshi va mehnat muhofazasi xarajatlari; ekishga mo`ljallangan chigitni tayyorlash; jo`natish va saqlash xarajatlari kiradi.

Zavod qoshidagi tayyorlov maskanida xarajatlarining B bo`limi «Paxta xom-ashyosini zavodga jo`natishga tayyorlash bo`yicha xarajatlari» bo`lmaydi. Tayyorlov smetasi bo`yicha barcha xarajatlар summasi paxta xom-ashyosi naviga bog`liq bo`lmagan holda sotib olinadigan xom-ashyosi barcha miqdoriga bir xil taqsimlanadi.

Zavodlar o`rtasida paxta xom-ashyosini berish hollarida xom-ashyoni oluvchi zavod uni etkazib beruvchi zavodga haqiqatdagи barcha tayyorlov xarajatlarni to`laydi. Bu paxta xom-ashyoni tashib keltirish transport xarajatlarini va taralar eskirishi qiymatlarini oluvchi zavod o`z zimmasiga oladi.

18.3. Paxta xom-ashyosini tayyorlov maskanidan zavodga tashib keltirish xarajati smetasi

Zavodga paxta xom-ashyosini yetkazib berish g`aramlash va uni zavoda saqlash xarajatlari faqat zavoddan tashqaridagi paxta xom-ashyosi hajmi bo`yicha zavod qoshidagi maskandagi paxta xom-ashyosi miqdorini hisobga olmagan holda rejlashtirilsa ham, u butun zavod bo`yicha zavod qoshidagi maskanda tayyorlangan paxta xom-ashyosini ham hisobga olgandagi barcha paxta xom-ashyosi miqdoriga taqsimlanadi.

Ushbu smeta tarkibiga – zavoddan tashqaridagi tayyorlov maskanlaridan paxta xom-ashyosini transport vositalariga ortish, uni tashib keltirish, tushurish, qaytadan g`aramlash, saqlash bilan bog`liq mehnat va material sarf xarajatlari; tranzit yo`li bilan tashilgan paxtalar uchun paxta etishtiruvchi xo`jaliklarga xarajatlarni qoplash va taralar eskirishi kiradi.

Paxtani tashish xarajatlari

Smetani tuzish uchun paxtani tashish qiymatini hisoblash ishlari amalga oshirilishi talab etiladi. Masalan, avtomobillar yordamida tashiladigan transport xarajatlarini hisoblash quyidagi shaklda amalga oshirilishi mumkin:

18.2-jadval

Jo`natish mas kani	Qabul qilish mas kani	Ora liq ma sofa, km	Tashi ladi, t	1 t tashish tarifi (so`m)	Tashis h qiymati	Ekspeditsiya xarajatlari	Qayta dan ortish xarajat lari, ming so`m	Jami, ming so`m
			Konditsion og`irlikda			1 t. uchun so`m,		

Hisob-kitoblar har bir transport turi bo`yicha alohida holda har bir tayyorlov maskanlariga tuziladi. Tashish tariflari amalda o`rnatilgan stavkalar bo`yicha o`rnatiladi. Jo`natish maskanidan qabul qilish maskanigacha masofa mavjud ma`lumot nomlar bilan asoslanish yoki hujjat bilan tasdiqlanishi, avtotransport bilan paxta tashilganda esa - ushbu avtoulov spidometri ko`rsatkichi bilan tekshirilishi talab etiladi.

Ushbu smetani tuzishdagi pirovard ko`rsatkich 1 t. paxtaga to`g`ri keluvchi (so`mda) ko`rsatkich hisoblanadi:

$$S_T = \frac{\sum T}{Vn};$$

bu yerda, S_T – 1t paxtani tashib keltirish xarajatlari;

$\sum T$ – tayyorlov maskanlaridan zavodga paxtani keltirish bo`yicha barcha xarajatlar summasi;

Vn – tashib keltirilgan paxta miqdori, T.

18.4. Quritish-tozalash sexi faoliyatini rejalashtirish

Paxta tozalash korxonalarida quritish-tozalash sexlari o`z-o`zini qoplash tamoyili asosida faoliyat yuritadi. Paxtachilik xo`jaliklari topshirgan paxta xom-ashyosini quritish va tozalash bo`yicha quritish-tozalash sexlari ko`rsatadigan xizmat xarajatlari

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va «o'zpaxtasanoat» respublika hissadorlik uyushmasi tomonidan tasdiqlangan to'lov setkasi (tarifi) bo'yicha paxta xom-ashyosini topshiruvchilar tomonidan qoplanadi. Ushbu to'lov setkasi stavkasi tarkibiga ekspluatatsiya xarajatlari bilan birgalikda, paxtani quritish va tozalash jarayonida paydo bo'ladigan chiqindilar hisobidagi yo'qotishlar ham kiritiladi.

Tozalash uchun (quritishsiz) to'lov stavkalari paxtaning ifloslik darajasiga qarab o'rnatiladi.

Quritish-tozalash sexlari xarajatlarining yig'ma rejasi quritish va tozalash mo'ljallangan paxta xom-ashyosining miqdoriga bog'liq bo'ladigan rejalashtiriladigan ish vaqt davomiyligiga qarab hisoblanandi.

Tayyorlash maskanlaridagi quritish-tozalash sexlari o'zining ishlab chiqarish-tozalash sexlari o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining xarakteri va maqsadiga ko'ra-paxta zavodining mavsumiy ishlab chiqarish bo'g'ini hisoblanadi. Ular, qoidaga binoan, yilning I va IV choraklarida to'liq ish bilan yukланади, xolos. Sex yuklanish darjasasi uning o'tkazish qobiliyati bilan aniqlanadi. Bunda mashina terimi hamda qo'l terimining past navlaridagi paxta xom-ashyosi tayyorlov hajmi hisobga olinadi.

Quritish-tozalash sexi ish unumi.

Sex ish hajmi paxtaning fizik og'irligi bo'yicha rejalashtiriladi.

Namlik olish miqdori har bir nav uchun hisobiy me'yorga nisbatan kutiladigan o'rtacha foiz miqdori tafovutining oshgan qismi bo'yicha o'rnatiladi.

Rejalashtiriladigan yilning birinchi yanvariga qoldiq bo'lib o'tadigan paxta xom-ashyosi uchun namlik olish ko'rsatkichi tayyorlov maskani laboratoriyasida aprobatsiya qilingan mavjud partiylar barchasining o'rtachasi bo'yicha hisoblanadi.

Sexning ish unumli o'rnatilgan quritish barabanlari tipi va soni hamda nam olishning erishiladigan foiziga bog'liqdir. Quritish barabanining hisobiy ish unumi 1 soatda suvning kg dagi bug'lanish me'yori va nam olishning belgilangan foiziga ko'ra aniqlanadi.

Quritish-tozalash sexi ish faoliyati davomiyligi shaklda hisoblanadi:

18.3-jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Chorak		Yil
			I	IV	
1	Ish hajmi (fizik og'irlikda)	T			
2	Nam olish	%			
3	Ish hajmi (konditsion og'irlikda)	T			
4	Smenada sex ish unumi (konditsion og'irlikda)	T			
5	Smenalar soni				
6	Smena				
7	Ish kunlari soni	kun			
8	Ish soatlari soni	soat			

Umuman olganda, o'rnatilgan asbob-uskunalar sonini aniqlashda qayta ishlanadigan mahsulot miqdori, asbob-uskuna ish unumi hamda foydali ish vaqtini hisobga olinib, quyidagi formula yordamida har bir ishlab chiqarish bo'g'ini uchun hisoblanadi:

$$K_{us} = \frac{\sum P}{N}; \quad N = M \times FIK \times T_N;$$

bu yerda, M – uskuna ish unumi;

P – mahsulot miqdori;

FIK – foydali ish koeffitsienti;

T_N – foydali ish vaqtini (nazariy).

Quritish barabarlari soni quyidagicha aniqlanadi:

$$K_k = \frac{P_{paxta}}{FIK \times T_N \times M_{u,k}}$$

bu yerda, P_{paxta} – quritish-tozalash sexiga uzatiladigan paxta miqdori, t;

$M_{u,k}$ – quritish barabani ish unumi, t/soat.

Masalan, quritish-tozalash sexidan 32000 t. paxta xom-ashyosi o'tkazilishi rejalashtirilsa, $FIK=0,85$ bo'lgan holda foydali ish vaqtini 4372 soatni, quritish barabani ish unumi 10 t/soatni tashkil etsa:

$$K_k = \frac{32000}{3716 \times 10} = 0,86$$

Yaxlitlasak, $K_k=1$ ta 2SB – 10 rusumli quritish barabani zarur bo'ladi.

Quritish va tozalashda ish unumdorligi me`yori quritish barabani bo`yicha aniqlanadi va ko`rsatkich butun quritish-tozalash seksi uchun ham me`yor hisoblanadi.

Bir smenadagi ish unumdorligi va ish hajmiga binoan sexning ishlamaydigan smenalar soni chorak va yil bo`yicha o`rnatiladi.

Ishlaydigan smenalar sonini loyihalashtiriladigan smena davriyiliga bo`lish orqali sexning ish kunlari soni aniqlanadi.

Yuqori namlikka ega bo`lgan paxtani o`z-o`zidan yonishi va sifatining buzilishining oldini olish maqsadida intensiv ravishda, ya`ni uch smenali ish vaqtida tezlikda quritish talab etiladi.

Mahalliy sharoit va paxta holatiga muvofiq boshqa ish rejimini ham rejalashtirish mumkin.

Quritish-tozalash seksi yig`ma rejasining chiqimlar qismi seksi ish unumi.

Quritish-tozalash sexlari xarajatlari va daromadlari yig`ma rejasining chiqimlar qismida paxta xom-ashyosini quritish va tozalash jarayonida paydo bo`ladigan barcha sarf xarajatlar kiritiladi.

Sarf xarajatlar tarkibiga quyidagi xarajat moddalari: asosiy va qo`shimcha ish xaki, sotsial sug`urtaga to`lov, material, yoqilg`i va elektroenergiya xarajatlari, asbob-uskunalar eskirishi, ularni kundalik va kapital ta`mirlash xarajatlari, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi, yong`inga qarshi tadbirlar, kadrlarni tayyorlash va boshqa xarajatlar kiradi.

Quritish-tozalash seksi xarajatlari va daromadlari yig`ma rejasining chiqimlar qismidagi qaytmas chiqindilar bo`yicha yo`qotishga (quritish va tozalashgacha va bu jarayonlar amalga oshirilgan keyingi paxta xom-ashyosi konditsion og`irligining farqi) juda jiddiy e`tibor berish kerak. Ushbu yo`qotish kattaligi o`rnatilgan me`yordan yuqori bo`lmasligi kerak.

Quritish-tozalash seksi yig`ma rejasining kirimlar qismi seksi ish unumi.

Ushbu yig`ma reja chiqimlar qismida ish smenasi soni ko`rsatiladi. xarajatlar summasini smenalar yillik soniga bo`lish orqali bir smenaga to`g`ri keluvchi xarajat miqdori topiladi.

Choraklar bo'yicha xarajatlar sexning ishlash vaqtini bo'yicha proporsional ravishda taqsimlanadi.

Yig'ma rejaning kirimlar qismida xarajatlarni qoplash manbalari ko'rsatiladi. Paxta yetishtiruvchi xo'jaliklardan ular paxta xom-ashyosini quritish va tozalash bo'yicha tasdiqlangan stavkaga ko'ra tushadigan summa quritish-tozalash sexidan yetkazishga mo'ljallangan paxta miqdorini uning bazis namligi va iflosligiga, naviqa, sinfiga, selektsion naviqa to'g'ri keluvchi stavkaga ko'paytirish orqali topiladi.

Quritish-tozalash tsexlari xizmatiga to'g'ri keluvchi summani paxta tozalash zavodi boshqa faoliyatları (tayyorlov, ishlab chiqarish) smetalariga o'tkazishda bu summa 1 tonna paxtani quritish va tozalash xarajatlari reja tannarxi bo'yicha hisoblanadi.

1 tonna paxta xom-ashyosini quritish va tozalash xarajatlari o'rtacha tannarxi bir smenaga to'g'ri keluvchi xarajat summasini smena ish unumi ko'rsatkichiga bo'lish orqali topish mumkin. Ayrim zarur hollarda namlikni olish kattaligi bo'yicha tabaqlashtirilgan tannarx hisoblanadi.

Paxtachilik xo'jaliklari ko'rsatilgan xizmat xarajatlari bilan ulardan ushbu xizmat uchun tushgan summalar o'rtasidagi farq paxta tozalash zavodi moliya rejasida xo'jalik faoliyati natijasi sifatida (quritish-tozalash sexi bo'yicha foyda yoki zarar) ko'rsatiladi.

Nazorat savollari:

1. Paxta xom-ashyosini tayyorlov faoliyati rejasining asosiy ko'rsatkichlarini sanab o'ting?
2. Paxta tozalash maskanlari faoliyatining samarasini baholaydigan asosiy ko'rsatkich qaysi ko'rsatkich sanaladi?
3. Tranzit usulda paxta tashish usuli mohiyatini aytib bering?
4. Ekishga mo'ljallanagn chigit bilan ta'minlash rejasini qaysi ko'rsatkich bilan aniqlanadi?
5. Paxta xom-ashyosini tayyorlash xarajatlari smetasi tarkibini tushuntiring?

XIX BOB. PAXTA TOZALASH KORXONALARI MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH REJASI.

Reja:

- 19.1. Paxta tozalash korxonalari ishlab chiqarish dasturini tuzish
- 19.2. Asosiy texnologik asbob-uskunalar ish faoliyatini rejalashtirish
- 19.3. Paxta tolasi assortimenti va sifatini rejalashtirish.
- 19.4. Paxta tozalash korxonasi qo'shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish

Tayanch iboralar: ishlab chiqarish dasturi, paxta tolasi, tola chiqishi, ekspluatatsiya davri, ish unumi me'yori, nominal va unumli ish vaqt, mahsulot navi, tovar mahsuloti qiymati, toylash va markalash, marka, kod, yorlik.

19.1. Paxta tozalash korxonalari ishlab chiqarish dasturini tuzish

Paxta tozalash sanoati korxonalari uchun ishlab chiqarish dasturini tuzishda xom-ashyo resurslarining miqdor va sifatiga, tayyorlanadigan paxtaning selektsiya va sanoat navlariga, sinflariga to'g'ri baho bera bilish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Paxtani qayta ishlashdan olinadagan mahsulotlarning hajmi, sifati va assortimentiga oid ko'rsatkichlar, undan chiqadigan mahsulot va chiqindilar darajasi bevosita ana shunga bog'liq.

Shuning uchun ham ishlab chiqarish dasturini tuzish **paxta balansini** tuzishdan boshlanadi.

Paxta balansida mo'ljallangan hajmda tola va boshqa yordamchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan paxta resurslari aniqlanadi. Paxtani qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlar hajmi faqat xom-ashyo resurslarigagina bog'liq bo'lmay, balki korxonaning ishlab chiqarish quvvatiga ham bog'liq bo'lganligi uchun asosiy uskunalardan foydalanish rejasini ham tuzib chiqish, bu uskunalarning ish unumi me'yorini asoslash, zavodning ish rejasini belgilab chiqish zarur.

Paxta tolasi ishlab chiqarish hajmi mavjud xom-ashyo resurslariga, tola chiqishining me'yorlariga va texnologik uskunalardan foydalanish rejasiga amal qilgan holda selektsiya navlariga qarab, davrlar va choraklar bo'yicha belgilanadi.

Paxta tolasi miqdori quyidagi tarzda ikki xil usul bilan aniqlanadi:

1. Tola chiqishi me`yoriy ko`rsatkichiga asoslanib:

$$Q_r = \frac{Q_n \times T_r}{100},$$

bu yerda, Q_n – tayyorlangan qayta ishlanadigan paxta miqdori, tonna;

T_r – me`yoriy o`rtacha tola chiqishi ko`rsatkichi, %.

2. O`rnatilgan asbob-uskuna ish unumi va foydali ish vaqtiga asoslanib:

$$Q_T = K_m \times K_a \times P_r \times T \times UFK,$$

bu yerda, K_m – o`rnatilgan jinlar soni, dona;

K_a – jindagi arralar soni, dona;

P_r – o`rnatilgan jin uskunasi o`rtacha ish unumi, kg. arra/soat;

T – ish vaqt yillik fondi, soat;

UFK – foydali ish koeffitsienti.

Paxtadan olinadigan boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish ko`rsatkichlari paxta tolasi olish uchun mo`ljallangan paxtaning hajmiga qarab hosila tarzida belgilanadi.

Olinadagan chigit miqdori qayta ishlanadigan paxtaning hajmiga, olinadigan momiq miqdori rejasi esa tozalanadigan chigitning hajmiga va undan chiqadigan momiqning foiziga qarab belgilanadi.

Qayta ishlanadigan paxta xom-ashyosining assortimenti belgilanayotgan paytda, birinchi navbatda, past navli paxta xom-ashyosini qayta ishlashni ko`zda tutish zarur, chunki bunday paxtani uzoq vaqt saqlash ortiqcha mehnat va mablag` sarflashga sabab bo`ladi. Birinchi navbatda quritish-tozalash tsexlaridan kelib tushgan paxtani qayta ishlash kerak, chunki bunday paxta ko`p turib qolsa, uni ikkinchi marta quritishga to`g`ri keladi.

19.2. Asosiy texnologik asbob-uskunalar ish faoliyatini rejalashtirish

Taqvimiy yil mobaynida ikki hosil yilda yetishtirilgan paxta qayta ishlanishi munosabati bilan paxta tozalash korxonasining bir yillik ish davri ikkita ekspluatatsiya davriga bo`linadi. Ana shu ikki davr orasidagi vaqt ekspluatatsiya qilinmaydigan davr bo`ladi.

Ekspluatatsiya davrining uzunligi asosan, paxta tozalash korxonasi hududida yetishtiriladigan paxtaning hajmiga va uskunaning ish rejimiga bog'liq.

Birinchi ekspluatatsiya davri uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan yildan qolgan paxtaning miqdoriga belgilanadi, paxta zavodidagi mavjud uskunalardan foydalanish darajasi ham aynan shunga qarab belgilanadi.

Yangi paxta hosili tayyorlanadigan *ikkinchi ekspluatatsiya* davrida esa, aksincha, uskunalardan foydalanish darajasiga qarab ishlanadigan paxta hajmi belgilanadi.

Uskunalardan foydalanish rejasini tuzishda jinlarning texnik jihatdan asoslangan *ish unumi me'yori* asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy ishlab chiqarish bo'limi sanalgan jin bo'limida o'rnatilgan asbob-uskunalar ishi rejasini tuzishda quyidagi boshlang'ich ma'lumotlardan foydalaniladi:

- K_m – o'rnatilgan jinlar soni;

• T_{ch} – tola me'yoriy chiqishi (ushbu ko'rsatkich paxtaning selektsion navi, paxta yetishtiriladigan hududni hisobga olgan holda tarmoq bo'yicha o'rnatilgan me'yoriy ko'rsatkichdan kam bo'limgan holda qabul qilinadi);

• P_r – o'rnatilgan jin uskunasi o'rtacha ish unumi (ko'p xollarda bu ko'rsatkich ilg'or korxonalar erishgan ko'rsatkich doirasida olinadi);

• K_a – o'rnatilgan jin uskunasidagi arralar soni (masalan 3XDDM rusumli jin uchun – 80 ta arra, DP-130 rusumidagi jinlar uchun 130 ta arra va hokazo);

- T – ish vaqtini yillik fondi;

- U_f – ushbu korxona uchun foydali ish koeffitsienti.

Ushbu ma'lumotlar asosida ishlab chiqariladigan tola miqdori yuqorida keltirilgan formula orqali aniqlanadi. Bunda shunga e'tibor qaratiladi, ya'ni jin uskunasi ish unumiga tayanib foydali ish vaqtini paxta navlari bo'yicha aniqlanadi va navlar bo'yicha aniqlangan miqdorlar yig'indisi korxona yillik umumiy ish vaqtini fondiga teng bo'lishi zarur bo'ladi.

Ishlangan ming arra/soat miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T_i = \frac{Q_n \times 1000}{P_n}$$

bu yerda, Q_{ni} – i-navdag'i paxta qayta ishlanganda olinadigan tola miqdori, tonna

P_{ri} – i-navdag'i paxta qayta ishlanishidagi jin uskunasi ish unumi, kg. arra/soat.

Linter va press bo'limlaridagi o'rnatilgan asbob-uskunalaridan foydalanish rejasini tuzish uchun jinlar ishlab chiqaradigan mahsulot hajmi, ularning ish rejimi, shuningdek, smena va yillik unumli ish vaqt balanslari boshlang'ich manba bo'lib xizmat qiladi.

Jin va linter uskunalarining ishini shunday tashkil etish kerakki, bunda jinlarning ish unumi yuqori bo'lishi bilan bir qatorda, chigitdan ajratib olinadigan momiqni ham maksimal ko'paytirish ta'minlanadigan bo'lsin.

Linterlardan foydalanish rejasini chigitdan har gal olinadigan momiq bo'yicha alohida-alohida qilib tuziladi. Olinadigan momiqning texnik tavsiflari va unga qo'yiladigan talablar O'zRST 645-95 «Paxta momig'i. Texnik shartlar» Respublika standartida belgilab berilgan (XV bobga qarang).

Linter uskunalaridan foydalanish rejasini tuzish uchun quyidagi boshlang'ich ma'lumotlardan foydalaniladi:

- K_{ml} – o'rnatilgan linter uskunasi soni, dona,;
- $T \times UFK$ – linter uskunasining chorak vaqt fondiga taqsimlangandagi foydali ish vaqt (paxta navlari bo'yicha jin bo'limidan olinadi), soat;
- T_{mash} – ishlangan mashina – soatlar;
- Q_{zg} – jin bo'limidan keyingi chigit miqdori, tonna;
- P_{rch} – linter uskunasining chigitni o'tkazish qobiliyati, kg mash/soat;
- S – chigitning momiqdan tozalanguncha bo'lgan og'irligiga nisbatan olinadigan momiq foizi, %.

Mashina – soat hisobida linterdan o'tkaziladigan chigit (P_{rch}) umumiy chigit miqdorini (Q_{zg}) mashinalar unumli ishlab turgan vaqt (T_{mash}) bo'lish yo'li bilan topiladi:

$$\Pi_{pz} = \frac{Q_{zg}}{T_{mash}}$$

Olinadigan momiq miqdori quyidagicha topiladi:

$$J_i = \frac{Q_{zg} \times S_i}{100}$$

bu yerda, Q_{zg} – jin bo'limidan keyingi chigit miqdori, tonna;

S_i – i-navli paxta chigitidan momiq olish miqdori, foizda.

Press uskunalaridan foydalanish rejasi ularning quvvatiga, ya'ni necha tonna mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatiga ega ekanligiga qarab tola ishlab chiqarish va qo'shimcha mahsulot ish uchun ajratiladigan press uskunalari bo'yicha alohida-alohida tuziladi.

Asbob-uskunalar ish rejimini aniqlash

Korxonalar ishlab chiqarish dasturi hajmiga binoan bir, ikki yoki uch smenada ishlaydi. Smenalar rejimini belgilash uchun vaqt balansi tuziladi, bu balansda uskunalarning *nominal* va *unumli ish vaqt* hisoblab chiqiladi (XIV bobga qarang). Korxonaga keltiriladigan xom-ashyo hajmi, mashinalarini ish unumi va ularning foydali ish vaqtiga qarab korxonalarning *smena koeffitsienti* aniqlanadi.

Paxta tozalash korxonasi ishining bir maromda ishlashini ta'minlash uchun barcha umumiy ish vaqtini fondini yil davomida bir tekis taqsimlash, ya'ni barcha choraklarda smenalar sonining bir xil bo'lismiga erishish talab etiladi. Smenalar soni o'zgargan sharoitda ishchi kuchining qo'nimsizligi paydo bo'ladi, uskunalardan oqilonha foydalanish imkoniyati kamayadi, ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yiladi.

Ishlab chiqarish dasturini bajarish uchun zarur bo'lgan vaqtini hisoblashda (ayrim hollarda hisobga olmaganda) paxtaning birinchi va ikkinchi qayta ishlash davrlari uchun smenalar soni bir xil bo'lishi kerak.

Paxta xom-ashyosi *yetishmasligi* sharoitida esa yil davomida zavod ish faoliyatini ikki smenali qilib tashkil etish lozim bo'ladi.

Ekspluatatsiya qilinmaydigan davrga quyidagilar kiradi:

- zavod uskunalari, bino va inshoatlarini kapital ta'mir qilish uchun to'xtatib qo'yilgan kunlar;
- o'tgan yilgi paxta hosili tamom bo'lishi munosabati bilan yangi yil paxtasini kutish vaqtida uskunalarning majburiy turib qolgan vaqt kiradi.

Shunday qilib, paxta tozalash korxonasining ish rejimini belgilashda uning ishlab chiqarish-xo`jalik faoliyatining o`zgarishiga bog`liq bir qator sharoitlar hisobga olinadi.

19.3. Paxta tolasi assortimenti va sifatini rejalashtirish.

Paxta tozalash zavodlari rejasida jinlash, linterlash va chiqindilarni regeneratsiyalashda olingan mahsulotlar natural ko`rsatkichlarda miqdor jihatdan ifodalanadi.

Choraklar va yili bo'yicha butunligicha reja alohida holda o`rta va uzun tolali paxtalar, shuningdek har bir sanoat navi uchun tuziladi.

Mahsulot navi biznes-rejaning asosiy ko`rsatkichlaridan biri sanalib, unga korxonaning iqtisodiy natijalari to`g`ridan-to`g`ri bog`liq bo`ladi. Paxta tolasini sotish assortment rejasiga uni etkazib berish yuzasidan, ya`ni to`qimachilik sanoatini xom-ashyo bilan ta`minlash yuzasidan tuziladigan shartnomalar paxta tolasi ishlab chiqarish assortment rejasiga asoslanadi. Shuning uchun ham ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifati va assortmentini rejalashtirish alohida e`tibor berishni talab qiladi.

Agar *birinchi davr uchun* biznes-rejani tuzishda mavjud xom-ashyo zahiralarining sifatiga texnik nazorat bo`limining bergen bahosi mavjud bo`lsa, u holda paxta tolasining navlari ana shu baho natijalariga qarab rejalashtiriladi, lekin qayta ishlangan paxta partiyasini tahlil qilib olingan natijalarga qarab keyinchalik bu rejaga tegishli o`zgartirishlar kiritiladi.

paxta zavodi

PAXTA TOLASI VA BOSHQA PAXTA MAHSULOTLARI SIFATINI

BAHOLASH NATIJALARINING QO'SHMA VARAQASI

Partya № _____ ishlab chiqarish topshiriqoma № _____

Qayta ishlashning boshlanish va tugash sanasi _____

I. PAXTA XOM-ASHYOSINING TAVSIFI

Selektson nav. _____ tipi _____ 20-y hosilidan.

	Paxta jo`natgan tayyorlov maskani	Avlodni	Dalalar guruhi	Tayyorlov maskanida jamlashda to`da nomeri	Sanoat navi	Sinfi	Massasi, kg	Tola chiqishi, %	konditsion	reja	haqiqatda
Paxta xom-ashyosi											

Urug`lik, texnik
(nozariuri o`chiriladi) _____

II. PAXTANING SIFATI VA OLINISHI KUTILAYOTGAN TOLA SIFATI

Ko`rsatkichlar		Namlik, %	Paxtaning iflosligi, %		Pishganlik koeffitsienti	Chiziqli zichlik, mteks	Nisbiy uzilish kuchi, sN/teks	Tolaning shtapel massa- uzunligi, mm		Tipi
Tahlil qachon olib borilgan	jami		shu jumladan o`lik aralashgan							
Qabul qilishda Jamlashda Qayta ishlashdan oldin										

III. OLINGAN TOLA MIQDORI VA SIFATI

Marka nome ri	Toyla r soni	Kon- ditsion massasi , kg	Chi- ziqli zich- lik	Nisbiy uzilish kuchi, sN/teks	Uzunligi, mm			Nam- ligi, %	Pishga nlik koeffi- tsienti	Nuqsonlar va iflos ara- lashmalar- ning massaviy ulushi, %	Yopish qoqligi	Tip i	Nav i	Tol a sinf i
					moda l	shtapel massa uzunlig i	vari- atsiya koef- fitsienti							

IV. CHIGIT SIFATI

Tahlil o`tkazilgan sana	Chigit navi	Massasi, kg		Namlikning massaviy ulushi	Mineral va organik aralash- malarning massaviy ulushi, %	Tukdor- likning massaviy ulushi, %	Nuqsonli chigitning massaviy ulushi, %	Shikast- langan- lik, %	Chigit- ning yog`dor- ligi, %	Chigit yog`idagi kislotalar miqdori
		tabiiy	kondi- tsion							

V. BOSHQA MAHSULOTLAR SIFATI

Tahlil o`tkazilgan sana	Paxta momig`i									O`lik aralashgan chiqindilar		
	to`da nome ri	toylar soni	navi	sinf	namlik- ning massavi y ulushi, %	iflos aralash- malarning va butun chigitlar- ning massaviy ulushi, %	pishib yetil- ganligi	shtape l uzun- ligi, mm	quldor ligi	to`da nomeri	toylar soni	

Laboratory 22-shaklinning davomi

Paxtaning kalta momig'í

aralashgan chiqinidilar

VI. TEHNİK NAZORAT BO'YICHA TAHLILLAR

Ikkinchи eksplutatsiya davri uchun paxta tolasi navi yangi hosil yilda tayyorlanadigan paxta xom-ashyosi navlariga qat'iy rioxva etgan holda rejalahtiriladi.

Paxta tolasi assortimentini belgilashga alohida e'tibor berish zarur.

Paxta tolasining navlar va sinflar bo'yicha rejalahtirilishi har bir selektsion va sanoat navi bo'yicha alohida olib boriladi. Bunda paxta tolasi navlaridan sinflarga o'tish tarmoq bo'yicha o'rnatilgan me'yorlarga asoslanib amalga oshiriladi va rejalarida aks etadi.

Paxta chigitning nav bo'yicha rejasi, qoidaga ko'ra, qayta ishlanishi lozim bo'lgan paxta xom-ashyosiga muvofiq faqat 4 navga, momiq navi esa - chigitning naviga muvofiq amaldagi standart me'yorlari bo'yicha rejalahtiriladi.

19.4. Paxta tozalash korxonasi qo'shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini rejalahtirish

Ishlab chiqarish hajmini qiymat ko'rsatkichlari bo'yicha rejalahtirish

Sanoat korxonasi ishlab chiqargan yalpi va tovar mahsulotlarining qiymati ishlab chiqariladigan mahsulotning natural ko'rsatkichlarini belgilangan ulgurji narxga, ko'p hollarda bozor narxiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblab chiqiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, paxta tozalash sanoatida yalpi mahsulot ko'rsatkichi o'rniga tovar mahsuloti qiymati, ya'ni paxta mahsulotining amaldagi ulgurji sotish narxi bo'yicha qiymati, chetga sotiladigan boshqa mahsulotlar qiymati, ko'rsatiladigan xizmatlar va kapital ta'mirlash qiymati hisoblanadi.

Toylash va markalash. Paxta tolasi, momiq va tolali chiqindilarni toylash press sexida amalga oshiriladi. Ushbu mahsulotlarni toylash uchun paxta tozalash korxonalarida B374 (1950 yilda chiqarilgan), B374A (1953 yilda chiqarilgan), D8237 (1968 yilda chiqarilgan), DA8237 (1973 yilda chiqarilgan) va DB8237 (1987 yilda chiqarilgan) modelidagi revoler konstruktsiyali gidropress qurilmalaridan keng foydalilanadi. Ular bir-biridan konstruktiv tuzilishi, quvvati va unumdarligi bilan farqlanadi¹.

¹ Зикриев Э. Пактани дастлабки қайта ишлаш. -Т.: Мечнат, 2002.

Presslash tugaganidan so'ng toyni o'rash ishlari qo'lda bajariladi. Toylnarni o'rash uchun to'qima ishlatiladi, bu esa tolani tashish vaqtida buzilishdan, ifloslanishidan va isrofgarchiligidan saqlaydi.

Agar paxta tozalash korxonasiga temir yo'l kirmagan bo'lsa, toylanadigan paxtaning hamma tomoni to'qima bilan o'raladi.

Toylar po'lat tasmalar bilan bog'lanadi. Toylnarni bog'laydigan po'lat tasma soni pressning quvvati va to'rige, tolaning naviqa qarab belgilanadi.

Har bir toyning po'lat tasmalari o'rtasida do'ppayib chiqib turgan joyiga: toyni chiqargan zavodning kodi, mazkur toy kiradigan markanining tartib raqami, toylnarning tartib raqamlari, temir yo'l stantsiyasining va jo'natiladigan temir yo'lning nomi ko'rsatib markalanadi.

Marka deganda biz bitta to'rt oqli vagonga sig`adigan toylnarning shartli sonini tushunamiz. **Kod** deganda esa o'z mahsulotlarini markalaydigan har bir zavodga beriladigan shartli sonni tushunamiz.

Har bir toyning mustahkam kartondan 230x400 mm o'lchamda ishlangan yorlig'i bo'lishi kerak. Yorliq yozuvlari bosmaxonada yozilgan bo'lishi shart. Bir xilda ishlangan ikkita ana shunday yorliq toyning har ikki tomonida osib qo'yildi.

Nazorat savollari:

1. Ishlab chiqarish dasturining mohiyatini ochib bering?
2. Ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi nimalarga bog'liq bo'ladi?
3. Paxta tolasi miqdori qaysi ko'rsatkichlarga muvofiq hisoblanadi?
4. Paxta chigit va momiq ishlab chiqarish hajmi nimalarga ko'ra hisoblanadi?
5. Paxta tozalash korxonasi yillik ish vaqtini necha davrga bo'linadi?
6. Asbob-uskunalar ish faoliyatini rejasini tuzish uchun qaysi ko'rsatkich tayanch ko'rsatkich hisoblanadi?

XX BOB. TASHKILIY REJA VA MENEJMENT.

Reja:

- 20.1. Tashkiliy rejaning mazmuni, maqsadi va vazifalari.
Korxonaning kadrlar siyosati va personalni boshqarish.
- 20.2. Ish haqi to'lash shakllari: vaqtbay va ishbay. Tarif tizimi elementlari. Paxta tozalash korxonalarida ish haqi fondini hisoblash.
- 20.3. Mehnat unumдорлиги ко'rsatkichi va uni hisoblash.
Tayanch iboralari: tashkiliy reja, kadrlar siyosati, personalni boshqarish, ish haqi fondi, soatlik ish haqi fondi, kunlik ish haqi fondi, oylik ish haqi fondi, yillik ish haqi fondi, mehnat unumдорлиги.

20.1. Tashkiliy rejaning mazmuni, maqsadi va vazifalari.Korxonaning kadrlar siyosati va personalni boshqarish.

Mehnat va ish haqi rejasi korxona yillik rejasining asosiy bo'limlidandan biri bo'lib, bunda asosiy maqsad – korxonani to'g'ri va to'liq ishchi kuchi bilan ta'minlash, hamda bu ishchilarga yil mobaynida ish haqi to'lash fondlarini belgilashga qaratilgan.

Mehnat va ish haqi rejasi yengil sanoat sexi dasturi bilan uzlusiz bog'langan. Bu reja bir necha qismdan iborat:

Engil sanoat korxonasida ishlayotgan ishchilar sonini rejalashtirish va aniqlash (asosiy, yordamchi ishchilar, xizmatchilar va rahbariyat);

Kategoriylar bo'yicha ish haqi fondlarini hisoblash;

Ish kuchi balansini tuzish, mehnat samaradorligini aniqlash va asosiy mehnatga tegishli texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash.

Hozirgi kunda shu mehnat rejasini tuzishda korxonalar juda katta huquq va mustaqillikka ega. Korxonaning o'zi ishchi xizmatchilar va muxandislarga bo'lgan talabni o'zining ichki tuzilishi va ehtiyojiga qarab aniqlashi mumkin.

Korxonada ishlayotgan ishchilarni 2 ta asosiy guruxga ajratish mumkin:

Ishlab chiqarishda band bo'lganlar (ishchilar, xizmatchilar, shogirdlar, muxandislari, rahbariyat);

Ishlab chiqarishda band bo'limganlar (oshpazlar, bog'cha tarbiyachilari, o't o'chiruvchilar).

Bu rejani tuzishda eng muhim vazifa - ishlayotgan ishchilar sonini belgilash.

Bu vazifa 2 yo'l bilan aniqlanadi:

1-usul. Ishchilar soni xizmat ko'rsatish me'yori yoki mahsulot ishlab chiqarish me'yoriga asosan aniqlanadi.

2-usul. Ishchilar soni ma'lum bir belgilangan ko'rsatkichga asoslanib topiladi (bitta slesar' 120 ta kengligi 100 sm bo'lgan dastgohlarga xizmat qilishi mumkin, bitta farrosh 150 m² ga xizmat qilishi kerak).

Ishchilar sonini aniqlaganda yengil sanoat korxonalarida ishchilarni soni ro'yxat bo'yicha va ish joyiga kelishi bilan belgilanadi.

Xizmat ko'rsatish me'yoriga asosan ishchilar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Ch = M/No$$

bu yerda: M - o'rnatilgan dastgohlar soni;

No - ishchining xizmat ko'rsatish normasi.

Mahsulot ishlab chiqarish me'yoriga asosan ishchilar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Ch = V/T \times N \times K$$

bu yerda: V - rejalashtirilgan mahsulot hajmi;

T - belgilangan ish vaqt;

N - belgilangan mahsulot ishlab chiqarish me'yori (1 ishchiga);

K - me'yorni oshirib bajarish koeffitsienti.

Korxonalarda ro'yxat bo'yicha ishchilar sonini aniqlash uchun ishchilarning turli sabablar bo'yicha ishga kelmasligini aniqlash kerak. Ishga kelmaslikning asosiy sabablari quyidagilar:

- Mehnat ta'tili;
- Sirtqi o'qiydigan ishchi talabalarning o'quv ta'tili;
- Kasallik tufayli;
- Sababsiz ishga chiqmaslik.

Korxonalarda ro'yxatdagi ishchilar soni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Chr = Ch/(1-(\%N/100))$$

Ch - ishga kelgan ishchilar soni;

$\%N$ - ishga kelmagan ishchilar foizi.

20.2. Ish haqi to`lash shakllari: vaqtbay va ishbay. Tarif tizimi elementlari. Paxta tozalash korxonalarida ish haqi fondini hisoblash.

Mehnat va ish haqi rejasida yakunlov bo`limining asosiy mehnat ko`rsatkichlarining hisoboti chiqariladi. Shu ko`rsatkichlarning asosiyлари quyidagilar:

- Mehnat unumdorligi;
- Ishchi kuchining nisbiy sarfi;
- O`rtacha soatlik ish haqi;
- O`rtacha kunlik ish haqi;
- O`rtacha oylik ish haqi.

Mehnat va ish haqi rejasida korxona xodimlarining sonini, ularning ish haqlari fondini va bo`lim bo`yicha asosiy texnik iqtisodiy ko`rsatkichlarni hisoblashni o`z ichiga oladi.

Korxona ishchilarini bajaradigan vazifalarining xarakteriga bog`liq holda ularni 3 ta guruhga: asosiy, yordamchi va yondash guruh ishchilariga bo`lish mumkin.

Asosiy guruh ishchilar deb, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadigan ishchilarga aytildi. Bu guruh ishchilariga qayta o`rovchilar, tikuvchilar, bichuvchilar, bo`yoqchi-pardozlovchilar kabi ishchilar kiradi.

Yordamchi guruh ishchilar deb, asosiy guruh ishchilarini ishining uzuksizligini ta`minlovchi ishchilarga aytildi. Bu guruh ishchilariga usta yordamchilar, brigadirlar, yuk tashuvchilar, mashinalarni moylovchilar, tozalovchilar, slesarlar, elektriklar kabi ishchilar guruhi kiradi.

Yondosh guruh ishchilariga esa laborantlar, kontrolyorlar, farroshlar, omborxona xodimlari kabi ishchilar kiradi.

Asosiy guruh ishchilarining soni yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi, o`rnatilgan dastgohlar soni hamda dastgohlarga xizmat ko`rsatish me`yoriga bog`liq holda aniqlanadi. Yordamchi va yondosh guruh ishchilarining soni xizmat ko`rsatish me`yoriga bog`liq holda rejalahtiriladi. Korxona xodimlariga ishbay, ishbay-mukofatbay, vaqtbay-mukofatbay maosh sistemalarida haq to`lanishi mumkin.

Ishbay ish haqi deb, ishlab chiqariladigan mahsulotning hajmiga qarab to`lanadigan haqga aytildi. Ishbay ish haqi quyidagicha aniqlanadi:

Ishbay ish haqi = V natur. × Rastsenka

bu yerda: *Rastsenka* – mahsulot birligini ishlab chiqarilganligi uchun to`lanadigan haq bo`lib, quyidagicha aniqlanadi:

bu o`rinda: *TS* – tarif stavkasi

Nv – mahsulot ishlab chiqarish normasi.

Ishbay-mukofotbay ish xaqi esa ishbay ish haqiga mukofotni qo'shish orqali aniqlanadi. Ishbay-mukofotbay sistemada asosan asosiy guruh ishchilariga xaq to'lanadi.

Vaqtbay ish xaqi deb, korxona ishchilariga ularning ishlagan ishchi-soatlariga tarif razryadlarini hisobga olgan holda to'lanadigan haqga aytildi. Vaqtbay ish haqi quyidagicha aniqlanadi:

Vaqtbay ish haqi = ishlagan ishchi soatlar × TS,

bu yerda: *TS* – tarif stavkasi, ya`ni ishlagan ish vaqtin birligiga va tarif razryadlariga qarab to'lanadigan haq.

Vaqtbay sistemada asosan yordamchi guruh ishchilariga haq to'lanadi. Injener – texnik xodimlar hamda yondosh guruh ishchilariga asosan maosh sistemasida haq to'lanadi.

Ish haqi yillik fondi hisobi. Ish haqi fondi deb, korxonaning ishchi-xizmatchi xodimlariga ma'lum vaqt mobaynida haq to'lash uchun ajratilgan mablag' yoki fondga aytildi.

Ish haqi fondi 3 guruhga bo'linadi:

- ✓ Ish haqining soatlik fondi
- ✓ Ish haqining kunlik fondi
- ✓ Ish haqining yillik fondi

Ish haqining soatlik fondi deb, vaqtbay sistemada ishlayotgan ishchilarga ularning sof ishlagan ishchi soatlari uchun, ishbay sistemada ishlayotgan ishchilarga esa ularning sof ishlab chiqargan mahsulotlarining hajmi uchun to'lanadigan haqga aytildi. Ish haqining soatlik fondi mehnat shtatlari jadvali hisobiga asoslanib aniqlanadi.

Ish haqining kunlik fondi deb, ish haqining soatlik fondidan tashqari ishlanmagan, lekin mehnat qonuniga ko`ra ish haqi fondidan haq to'lanishi lozim bo`lgan vaqt uchun ham to'lanadigan qo'shimcha haqni hisobga olgan holdagi ish haqi fondiga aytildi. Bu ko`rsatkich ish haqining soatlik fondiga o'smir bolalarning imtiyozli soatlari uchun va tungi smenadagi ish uchun, hamda yosh bolalik onalarning imtiyozli soatlari uchun to'lanadigan qo'shimcha haqni qo'shish orqali aniqlanadi.

Ish haqining yillik fondi ish haqining kunlik fondiga mehnat otpuskasi kunlari uchun ham to'lanadigan qo'shimcha haqni qo'shish orqali aniqlanadi.

20.3. Mehnat unumdorligi ko`rsatkichi va uni hisoblash.

Mehnat va ish haqi rejasini bo'yicha texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar hisobi.

- 1) Natura birliklaridagi mehnat unumdorligi
- a) kg hisobida

$$MU = \frac{B_{j\#}^{kg}}{I_{\#}},$$

bu yerda: $B_{j\#}^{kg}$ – kg hisobida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi,

$I_{\#}$ – yillik ishlangan ishchi soatlar

b) dona hisobida

$$MU = \frac{B_{j\#}^{dona}}{I_{\#}},$$

Qiymat birliklaridagi mehnat unumidorligi

$$MU = \frac{TM}{I_{rs}}$$

bu yerda: TM – tovar mahsuloti qiymati

I_{rs} – ishchilarining ro'yxatdag'i soni

100 ta mashinaga to'g'ri kelayotgan ishchi kuchi sarfi ulushi.

$$U_f = \frac{I_{ms}}{I_{rs}} \times 100$$

bu yerda: I_{ms} – ishlangan mashina soatlar

Mehnat unumidorligi

$$MU = \frac{N_m}{U_f}$$

bu yerda: N_m – mashinaning unumidorligi;

U_f – har bir mashinaga to'g'ri keladigan ishchi kuchi sarfi ulushi

Mehnat sarfi

$$MS = \frac{1}{MU}$$

$$\text{O'rtacha soatlilik ish haqi} = \frac{\text{Ish haqini ng soatlilik fondi}}{\text{Ishlangan ishchi soatlar}}$$

$$\text{O'rtacha kunlik ish haqi} = \frac{\text{Ish haqini ng kunlik fondi}}{\text{Ishlangan ishchi kunlar}}$$

$$\text{O'rtacha oylik ish haqi} = \frac{\text{Ish haqini ng yillik fondi}}{I_{rs} \times 12}$$

Nazorat savollari

1. Kadrlar siyosati nimalarga asoslanadi?
2. Korxonada personalni boshqarish nimalarga asoslanadi?
3. Korxonada ish haqi fondini hisoblash qanday amalga oshiriladi?
4. Soatlilik ish haqi fondi qanday hisoblanadi?
5. Kunlik ish haqi qanday hisoblanadi?
6. O'rtacha oylik ish haqlari qanday aniqlanadi?

XXI BOB. AYLANMA FONDLAR VA MODDIY XARAJATLARNI REJALASHTIRISH

Reja:

- 21.1. Paxta tozalash korxonaları aylanma fondlari tarkibi.
- 21.2. Xom-ashyo va materiallarni me`yorlashtirish asoslari.
- 21.3. Paxta xom-ashyosi sarfini rejalashtirish. Paxta tolasi chiqishini rejalashtirish.

Tayanch iboralarি: Aylanma fondlar, moddiy resurslar, muomala fondlari, ishlab chiqarish jarayoni, normallashtiriladigan aylanma mablag`lar.

21.1. Paxta tozalash korxonaları aylanma fondlari tarkibi.

Sanoat sohasida turli mahsulotlarni tayyorlash jarayonida moddiy va moliyaviy mablag`larga bo`lgan ehtiyojlar doimo oshib boradi. Sanoat korxonalarida asosiy fondlar bilan bir vaqtda mehnat buyumlari ham harakatda bo`ladi. Shu sababli ularni aylanma fondlar deb aytildi.

Aylanma fondlar – bu ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o`z kiymatini tayyor mahsulotga yetkazib, o`z shaklini ham o`zgartiradigan, butunlay yo`qotib yuboradigan mehnat buyumlaridir.

Aylanma fondlarga ishlab chiqarish jamg`armalari va ishlab chiqarishdagi mablag`lar, shug`ullanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlari kiradi.

Ishlab chiqarish jamg`armalari aylanma fondlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bu korxonalarga keltirilgan lekin ishlab chiqarish jarayonida hali foydalanilmagan mehnat buyumlari, xususan, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg`i, asosiy va yordamchi materiallar, energiya, ta`mirlash uchun ehtiyoj qismlari, xo`jalik jihozlari va tez yemiriluvchi buyumlardan iborat.

Aylanma fondlarning yana bir qismini tugallanmagan ishlab chiqarish tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayoniga allaqachon tushgan lekin ishlov berish tugamagan mehnat buyumlaridir. Bularga korxona o`zi yaratgan lekin chala tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishlar kiradi.

Aylanma fondlarning yana bir qismi kelgusi davr xarajatlari hisoblanadi. Ularga yangi turdag'i mahsulotlarni loyihalash, tayyorlash va o'zlashtirish, mutaxassislarini o'qitish va qayta tayyorlash, xonalarni ijaraga olish, tog' sanoat korxonalariga taalluqli xarajatlardan iboratdir. Bu xarajatlarning hammasi tayyor mahsulotning tannarxiga kiritish evaziga qoplanadi.

Aylanma fondlarning tarkibi turli tarmoqlarda turlicha bo'ladi. Masalan, umuman sanoat bo'yicha ishlab chiqarish jamg'armasi 64% ga yaqin bo'lsa, elektroenergetika va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish sohasida 56% ni, mashinasozlikda 54%, ko'mir sanoatida 33% ni tashkil etadi. Aylanma fondlarning tarkibi faqat tarmoqlarda emas, korxonalarda ham bir biridan farq qilishi mumkin. Bu ishlab chiqarishning texnikaviy darajasiga, joriy etilayotgan texnologiyaning usuliga, yuliga, korxonani ixtisoslashtirish darajasiga, ishlab chiqarish jarayonining davomiyligiga, ishlatiladigan materiallarning tarkibiga bog'lidir. Aylanma fondlarning tarkibini iqtisodiy tahlil etish va ularning tarkibiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir kuchi natijalarini topish, tarmoqlar va korxona taraqqiyotini belgilashga katta yordam beradi. Aylanma fondlarning tarkibini aniqlash, foydalanishni yaxshilash yullarini belgilash uchun moddiy balanslar tuziladi. Bu balanslar har bir tarmoq ikkinchi tarmoqqa qanday buyumlar yetkazib berishini tavsiflaydi.

21.2. Xom-ashyo va materiallarni me'yorlashtirish asoslari.

Ijtimoiy ishlab chiqarish va uning asosiy bo'g'ini bo'lgan korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moddiy resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Moddiy resurslardan foydalanishning juda ko'p yullari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Moddiy resurslardan kompleks (har taraflama) foydalanish;
2. Chiqindilardan yoki ikkilamchi xomashyo va materiallardan foydalanish.

Xomashyo va boshqa aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash uchun dastavval fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirish kerak. eski texnikani yangi texnika bilan almashtirish,

ayniqsa, hozirgi zamonda rivojlangan xorijiy mamlakatlar texnologiyasini joriy etish zarur.

Aylanma fondlardan samarali foydalanishda xo`jalik mexanizmning ahamiyati katta. Xususan, rejalahtirish, baholash, moliyalash, kreditlash, xo`jalik hisobini yuritish, boshqarish, moddiy va ma`naviy rag`batlantirish kabi xo`jalik mexanizmning elementlari ham ta`sir ko`rsatadi. Aylanma fondlardan oqilona foydalanish uchun raqobatni joriy etish kerak. Raqobat esa mahsulotni eng sifatli, eng arzon va ko`plab ishlab chiqarish vositasidir. Raqobat bo`lishi uchun bir xil mahsulotni ishlab chiqaradigan korxonalar soni ko`p bo`lishi kerak.

Aylanma fondlardan rejaviy foydalanishni tashkil qilishda ularning ayrim turlarini mahsulot birligiga sarf etishni ilmiy asosda normallashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu ishni bajarish ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, ishlab chiqarishning rentabelligini oshirish, moddiy texnika ta`minotini tashkil etish, texnika va texnologiyani takomillashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Barcha normalar ilmiy jihatdan asoslangan va o`zlarining xususiyatlari bo`yicha ilg`or davr talabiga javob beradigan bo`lishlar zarur.

Moddiy resurslarni sarflash normalari turlicha bo`lishi mumkin:

1. Foydalanish muddatiga normalar:

- a) istiqbolli;
- b) yillik
- c) operativ normalar.

2. Qo'llanish miqyosi bo`yicha normalar ikki xil: shaxsiy normalar va rasmiylashgan normalar bo`ladi.

3. Normallashtirilayotgan mablag`ning detallashtirish darajasi: tayyor mahsulot yoki uning ayrim qismlari bo`yicha ajratilishi mumkin.

4. Materiallarni detallashtirish bo`yicha yig`ma normalar, yiriklashgan normalar bo`lishi mumkin.

5. Moddiy resurslarni to`g`ri, oqilona sarflashni normallashtirish uchun ularning tarkibini belgilash katta axamiyatga ega.

Normalar tarkibida quyidagilar e`tiborga olinadi:

- mahsulot birligiga sarflanadigan foydali xomashyo va materiallarning miqdori.

- zaruriy texnik chiqindi va boshqalar. Masalan, kiyim tikish jarayonida qiyqimlar chiqadi. Normalar tajriba, laboratoriya, texnikaviy, analitik, hisob, statistik usullar bilan tuziladi. Bu usullarning eng muhimini birinchisi hisoblanadi.

Aylanma mablag'larni normalashtirish

Sanoat korxonalarining faoliyati asosiy va aylanma fondlar hamda aylanma mablag'lar bilan uzviy bog'lilikligi alohida ahamiyat kasb etadi. Muomaladagi ishlab chiqarish fondlarining yigindisi aylanma mablag'larni ifodalaydi. Aylanma mablag'lar 2 ta fondni o'z ichiga oladi:

1. Aylanma fondlar;
2. Muomala fondlari.

Aylanma fondlar o'z navbatida ishlab chiqarish jamg'armasi, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va skladlar (ombor)lardagi tayyor mahsulotlardan iborat bo'ladi.

Muomala fondlariga jo'natishga yuklangan mahsulotlar va davlat bankidagi pul mablag'lari kiritiladi.

Aylanma mablag'larning tarkibini 21.1-chizmada ko'rish mumkin:

Aylanma mablag'lar doimo harakatda bo'lib, pul va ishlab chiqarilgan tovar shaklida ruy berishi mumkin. U quyidagi sxema bilan ifodalanadi:



Bunda: P – korxonaning pul shaklidagi mablag'lari; ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun (I_v) va ish haqi (I_h), so'm hisobida.

I_{ch} – ishlab chiqarish vositalarining unumli iste'moli, so'm hisobida;

T – ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinishi natijasida ishlab chiqarilgan tovarlar qiymati, so'm hisobida;

P^1 – ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish natijasida hosil bo'lgan pul, so'm hisobida.



21.1-chizma. Aylanma mablag'lar (sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha).

Korxonaning aylanma mablag'lari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligiga sharoit yaratib beradilar. Aylanma mablag'lari kamayib ketgan korxona (firma)lar bankrotlikka yuz tutadilar.

Tashkil etilish usuliga qarab aylanma mablag'lar normallashtiriladigan va normallashtirilmaydigan mablag'larga bo'linadi.

Normallashtiriladigan aylanma mablag'lar korxonaning uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun kerak bo'lgan mablag'larning minimal miqdoridir.

Aylanma mablag'larning aylanish davri 3 qismdan iborat bo'ladi:

1. Mablag'larning ishlab chiqarishdagi jamg`arma shakli;
2. Ishlab chiqarish jarayonidagi shakli;
3. Tayyor mahsulot yoki hisob-kitob schyotidagi shakli.

Normallashtirishning asosiy vazifasi ishlab chiqarish jamg`armalarini, tugullanmagan ishlab chiqarish hajmini, tayyor mahsulot oldigini aniqlashdan iborat.

Normalarga binoan, ishlab chiqarish jamg`armalari rejalashtiriladi. Ularning miqdori korxonalarda kamroq, Lekin ishlab chiqarish jarayoniga yetarli bo`lishi kerak.

Aylanma mablag`larni normalashtirish

Shakllanish manbaiga ko`ra, aylanma mablag`lar xususiy va qarzga olingen turlarga bo`linadi.

Xususiy aylanma mablag`lar doimo korxona ixtiyorida bo`lib, xususiy resurslar, asosan foyda hisobiga shakllanadi. Korxonaning xususiy aylanma mablag`lari qatoriga ish haqi bo`yicha qarzlar, ta`minotchilar yoki hamkorlar qarzları, buyurtmachilarining tayyorlangan mahsulot uchun to`lagan pullari kabilarni kiritish mumkin. Bu mablag`lar xususiy mablag`larga tenglashtirilgan mablag`lar yoki korxonaning barqaror passivlari deb ataladi.

Qarzga olingen aylanma mablag`lar doimo harakatda bo`lmaydi hamda korxonaning mahsulotlarni sotishdagi qiyinchiliklar, moddiy-tovar boyliklar bilan ta`minlash, mahsulot ishlab chiqarish dasturini oshirib bajarish va boshqa vaqtinchalik ehtiyojlarni qoplash uchun foydalaniladi. Ular qatoriga bank kreditlari, kreditorlik qarzları (tijorat kreditlari) va boshqa passivlarni kiritish mumkin.

Aylanma mablag`larni boshqarish mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzlusizligini ta`minlashda aylanma mablag`lardan iloji boricha kamroq foydalanishda ifodalanadi. Bu esa korxona aylanma mablag`lari aylanishining barcha bosqichlarida mos ravishda minimal, lekin yetarli tarzda ratsional taqsimlanishi zarurligini anglatadi. Bu vazifa o`z navbatida moddiy resurslar zahiralari va xarajatlarini normalashtirish tufayli muvaffaqiyatlil amalga oshirilmoqda.

Aylanma mablag`larni normalashtirish korxonaning uzlusiz ishlashi ta`minlaydigan moddiy boylik va boshqa resurslarning minimal, lekin yetarli zahiralarini shakllantirish uchun zarur bo`lgan pul mablag`larini aniqlashda ifodalanadi. U ichki zahiralarni aniqlash, ishlab chiqarish tsikli davomiyligini qisqartirish va tayyor mahsulotni tezroq sotish imkon yaratadi.

Biroq amaliyotda korxonalarning barcha aylanma mablag`lari ham normalashtirilmaydi. Shu sababli aylanma mablag`lar normalashtiriluvchi va normalashtirilmaydigan turlarga taqsimlanadi va ular hozirgi bozor munosabatlari sharoitlarida ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan.

Normalashtiriluvchi aylanma mablag`lar qatoriga korxona omborlaridagi ishlab chiqarish zahiralari (xom ashyo, materiallar, yoqilg`i, unchalik qimmat bo`lmagan predmetlar va jihozlar), tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xaratatlari va ombordagi tayyor mahsulotlar kiritiladi.

Normalashtirilmaydigan aylanma mablag`lar, bu – xaridorlarga berib yuborilgan tayyor mahsulot yoki tovarlar, hisob raqamidagi pul mablag`laridir.

Korxonalar faoliyatida barcha aylanma mablag`lar salmog`ida 70-80%ni tashkil qiluvchi normalashtiriluvchi aylanma mablag`lar asosiy o`rin tutadi. Aylanma mablag`larni normalashtirish tejamkorlik rejimiga rioya qilish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

Resurslarni normalashtirish jarayonida aylanma mablag`larning norma va normativlari belgilanadi.

Aylanma mablag`larning normasi, korxona moddiy-tovar boyliklarining minimal zahiralarini tavsiflaydi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga to`g`ri keluvchi pul o`lchovida, zahira kunlari va zahira normalarida hisoblanadi.

Aylanma mablag`larning normativi aylanma mablag`lar normasini, normasi aniqlangan ko`rsatkichga ko`paytirishni ifodalaydi hamda qoidaga ko`ra, pul ko`rinishida o`lchanadi. U quyidagi formula asosida hisoblanishi mumkin:

$$N_{ay.m} = N_{ich.z} + N_{t.ich} + N_{t.m}$$

bu yerda: $N_{ich.z}$ – ishlab chiqarilgan zahiralar normasi;

$N_{t.ich}$ – tugallanmagan ishlab chiqarish normasi;

$N_{t.m}$ – tayyor mahsulot normasi.

Aylanma mablag`larni normalashtirish va ayniqsa, moddiy resurslarni sarflash normalalarini belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- * normalarning progressivligi va dinamikligi;
- * normalarning iqtisodiy va ishlab chiqarish–texnikaviy jihatdan asoslanganligi;

- * xom ashyo, material, yoqilg'i, elektr energiyasi va boshqa resurslar o'lchamini to'g'ri tanlash;
- * chiqit va yo'qotishlarning oldini olish;
- * eskirgan normalarni qayta ko'rib chiqish hamda ularni fan- texnika taraqqiyoti yutuqlariga mos holga keltirish.

Moddiy va boshqa resurslarni normalashtirishda bir nechta usullar qo'llaniladi. Amaliyotda quyidagi usullar ko'proq uchraydi:

1. O'tgan yillar davomida amalda sarflangan resurslar to`g'risidagi hisobot ma'lumotlarini o'rganish hamda bir necha yillar davomida ro'y bergan pasayishlarni hisoblashga asoslanuvchi statistika-tajriba usuli.

2. Laboratoriya tajribalariga asosan yaratilgan hamda instrumentlar va yordamchi materiallar sarflanishi normasini aniqlashda qo'llaniluvchi -laboratoriya-texnikaviy usuli.

3. Yuzaga kelgan ishlab chiqarish sharoitlaridan tashqari boshqa korxonalarning ilg'or tajribalari va yutuqlarini ham hisobga olish imkonini beruvchi, moddiy resurslardan foydalanishni normalashtirishning mukammalroq usuli hisoblanuvchi - hisob-tahliligi usuli.

Alovida elementlar bo'yicha aylanma mablag'lar xarajatlari normalari aniqlangandan so'ng, aylanma mablag'larga bo'lgan umumiyligi ehtiyojlar (normativ) miqdori hisoblanadi. Korxona aylanma mablag'lari bo'lgan umumiyligi ehtiyoj, ishlab chiqarish zahiralari (xom ashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, xarid qilinuvchi mahsulotlar, qadoqlash va o'rov materiallari, yoqilg'i va hokazolar), tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va kelgusi davr xarajatlaridan iborat bo'ladi.

Aylanma mablag'lar va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari

Har bir korxona aylanma mablag'larni saqlash va ulardan oqilona foydalanishni va ularning aylanishini tezlashtirishni ta'minlashi kerak. Faqat shundagina u samarali ishlagan bo'ladi. Aylanma mablag'larning iqtisodiy samaradorligi ularning doiraviy shaklda aylanishining tezlashishidir. Bunga erishilganda ortiqcha mablag'larning bo'shashiga va ulardan boshqa maqsadlarda qo'llanishiga sharoit yaratib beriladi.

Aylanma mablag'larning aylanishi turli ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_a = M_{sm} / A_{y.k.}$$

bunda: M_{sm} – sotilgan mahsulot miqdori, so'm hisobida;

$A_{y.k.}$ – aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldigi, so'm hisobida.

Aylanma mablag'larning 1 ta aylanish davrini quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$A_d = (A_{y.k.} \times 360) / M_{sm}$$

Aylanma mablag'larning aylanish davrini hisoblashni osonlashtirish uchun yildagi kunlar sonini 360 kun, kvartalni 90 kun, oylikni 30 kun deb qabul kilingan.

21.3. Paxta xom-ashyosi sarfini rejalashtirish. Paxta tolasi chiqishini rejalashtirish.

Paxta tolasi ishlab chiqarish hajmi mavjud xom-ashyo resurslariga, tola chiqishining me'yorlariga va texnologik uskunlardan foydalanish rejasiga amal qilgan holda seleksiya navlariga qarab, davrlar va choraklar bo'yicha belgilanadi.

Paxta tolasi *miqdori* quyidagi tarzda ikki xil usul bilan aniqlanadi:

1. Tola chiqishi me'yoriy ko'rsatkichiga asoslanib:

$$Q_r = \frac{Q_n \times T_r}{100},$$

bu yerda: Q_n – tayyorlangan qayta ishlanadigan paxta miqdori, tonna;

T_r – me'yoriy o'rtacha tola chiqishi ko'rsatkichi, % .

2. O'rnatilgan asbob-uskuna ish unumi va foydali ish vaqtiga asoslanib:

$$Q_T = K_m \times K_a \times P_r \times T \times UFK,$$

bu yerda: K_m – o'rnatilgan jinlar soni, dona;

K_a – jindagi arralar soni, dona;

P_r – o'rnatilgan jin uskunasi o'rtacha ish unumi, kg. arra/soat;

T – ish vaqtি yillik fondi, soat;

UFK – foydali ish koeffitsienti.

Paxtadan olinadigan boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish ko'rsatkichlari paxta tolasi olish uchun mo'ljallangan paxtaning

hajmiga qarab hosila tarzida belgilanadi. Olinadagan chigit miqdori qayta ishlanadigan paxtaning hajmiga, olinadigan momiq miqdori rejası esa tozalanadigan chigitning hajmiga va undan chiqadigan momiqning foiziga qarab belgilanadi. Qayta ishlanadigan paxta xom-ashyosining assortimenti belgilanayotgan paytda, birinchi navbatda, past navli paxta xom-ashyosini qayta ishlashni ko'zda tutish zarur, chunki bunday paxtani uzoq vaqt saqlash ortiqcha mepnat va mablag' sarflashga sabab bo'ladi. Birinchi navbatda quritish-tozalash sexlaridan kelib tushgan paxtani qayta ishlash kerak, chunki bunday paxta ko'p turib qolsa, uni ikkinchi marta quritishga to'g'ri keladi. Taqvimiyl yil mobaynida ikki posil yilda etishtirilgan paxta qayta ishlanishi munosabati bilan paxta tozalash korxonasing bir yillik ish davri ikkita ekspluatatsiya davriga bo'linadi. Ana shu ikki davr orasidagi vaqt ekspluatatsiya qilinmaydigan davr bo'ladi.

Ekspluatatsiya davrining uzunligi asosan, paxta tozalash korxonasi pududida etishtiriladigan paxtaning pajmiga va uskunaning ish rejimiga bog'liq. Birinchi ekspluatatsiya davri uchun mapsulot ishlab chiqarish pajmi o'tgan yildan qolgan paxtaning miqdoriga belgilanadi, paxta zavodidagi mavjud uskunalardan foydalanish darajasi pam anna shunga qarab belgilanadi. Yangi paxta xosili tayyorlanadigan *ikkinci ekspluatatsiya* davrida esa, aksincha, uskunalardan foydalanishdarajasiga qarab ishlanadigan paxta pajmi belgilanadi. Uskunalardan foydalanish rejasini tuzishda jinlarning texnik jipatdan asoslangan ish unumi me'yori asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Paxta xom-ashyosiga qayta ishlov berilishi natijasida asosiy mapsulot paxta tolasi bilan birgalikda, qo'shimcha mapsulotlar olinadi. Ular tarkibiga paxta chigit, momiq, tarkibida o'lik bo'lgan chiqindilar, tarkibida kalta momiq bo'lgan chiqindilar kiradi. Ushbu tur mapsulotlari uchun pam davlat standartlari va preyskurantlari mavjud. O'zRST 645-95 «Paxta momig'i. Texnik shartlar» respublika standarti paxta tozalash korxonasida chigitdan momiq ajratishda olinadigan paxta momig'iga qo'yilgan talablarni muvofiqlashtiradi. Ushbu standartga binoan, paxta momig'i uzunligi bo'yicha ikki tipga ajratiladi:

A tipi 7-8 mm va undan ko'proq; B tipi 6-7 mm va undan kamroq.

Par tip tashqi ko'rinishi va pishiqligi bo'yicha I va II navga bo'linadi.

Momiqdag'i iflos aralashmalarning vazniy ulushi bo'yicha par bir tip va nav 7-jadvalda keltirilgan me'yorlarga muvofiq 3 sinfga bo'linadi: Oliy (1), o'rta (2), Iflos (3). Standart paxta momig'ida boshqa buyumlar, kuygan va badbo'y pidlar, zinch qatlamlar va chirigan yuzalar bo'lishiga ruxsat etilmaydi. Paxta momig'inining to'dalari standart bo'yicha me'yorlangan namlikka keltirilgan konditsion vazn bo'yicha qabul qilinadi.

O'zDSt 662-95 «Paxta tolasi. Iflos aralashmalar va butun chigitlarning vazniy ulushini aniqlash usullari» davlat standarti iflos aralashmalarning (ifloslanishning) va butun chigitning vazniy ulushini aniqlash usullarini belgilaydi. Momiq ifloslanganligini aniqlashning ikki usuli muvofiqlashtiriladi:

- tarozida tortish (tortish usuli);
- momiqning oltingugurtli eritmasini tsentrofugalash (tsentrofugalash usuli).

Butun chigitning vazniy ulushini (miqdorini) qo'l usuli bilan paxta tolasi namunasidan butun chigitlarni qo'lda ajratish yo'li bilan aniqlanadi. O'zDSt 596-93 «Texnik chigit. Texnik shartlar» respublika davlat standarti yog'-moy sanoat korxonalarida qayta ishlash uchun tayyorlanadigan texnik chigitlarga texnik shartlarni muvofiqlashtiradi. qusurli chigitlarning vazniy ulushiga qarab paxta chigitlarini to'rt I, II, III va IV sanoat navlariga ajratiladi. CHigitni to'da polida O'zDSt 597-93 «Texnik chigit. Nuqsonli chigitlarni aniqlash usullari» respublika davlat standarti qusurli chigitni aniqlash usulini 0-33% qiymat doirasida aniqlaydi. Nuqsonli chigit deganda mag'zi qora rangli (kuygan), chigitlar mag'zining yarmidan kami qolgan zararlangan chigitlar tushuniladi.

Nazorat savollari:

1. Aylanma fondlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni nimalardan iborat?
2. Moddiy resurslardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
3. Aylanma fondlardan samarali foydalanish mexanizmi nimalarni o'z ichiga oladi?
4. Aylanma mablag'lar deganda nimalarni tushunasiz? Ularning turlarini izohlab bering?
5. Aylanma mablag'larning aylanish tezligini oshirishning ahamiyati nimalardan iborat?

XXII BOB. MARKETING REJASI.

Reja:

- 22.1. Marketing rejasi- biznes rejaning muhim bo`limi va uning ahamiyati
- 22.2. Bozoni baholash va iste`molchilar talabining tub maqsadlarini aniqlash
- 22.3. Korxonaning ojiz va ustunliklarini, imkoniyat va xavf-xatarlarini aniqlash
- 22.4. Marketing strategiyasini ishlab chiqish.Korxonada marketing xizmati

Tayanch iboralar: marketing, marketing strategiyasi, marketing turlari, bozorning potentsial hajmi, marketing bosqichlari, marketing xizmati, korxona, marketing tadqiqotlari, marketing xizmati.

22.1. Marketing rejasi- biznes rejaning muhim bo`limi va uning ahamiyati

Marketing – bozor holatini asosli o`rganish va oldindan baholash bilan tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil o`tish hamda shu yo`sinda bozor iqtisodiyotining muhim unsuri, marketing ishi maxsus marketing dasturlari orqali amalga oshiriladi, ularda xaridorlarni va raqobatchilarni o`rganish asosida tovarlar sifatini yaxshilash, tovar narxini o`zgartirish, reklama o`tkazish, tovarga talabni yaxshilash, tovarga talab chiqarish, tovarlarni o`z vaqtida yetkazib turish, xaridorlarga ma`qul tushadigan xizmat ko`rsatish kabi chora-tadbirlari nazarda tutiladi. Ishlab chiqarish marketing vositasida g`oyat tez o`zgarib turadigan bozor talabiga moslashadi va samaraga erishadi. Tovar ishlab chiqaruvchilar marketing tufayli bozor bilan uzviy bog`lanadilar. Ishlab chiqarish manbalarini bozor talab tovarlar yaratishga qaratadilar, sohibkorlik va tijorat ishlarini rejalashtiradi. Marketing bir qancha muhim qoidalarga asoslanadi, tovar ishlab chiqarish talabi va korxona imkoniyatlarini hisobga olish, xaridorning talab-ehtiyoji to`la qondirilishi, bo`lg`usi talabni nazarda tutilishi; mo`ljallangan bozorda tovarlar aytilgan vaqtida va belgilangan miqdorda otilish, yangi tovarlarni o`zlashtira borib korxonaning uzoq davr

mobaynida samarali ishlashga erishish, korxonaning ishlab chiqarish yo`nalishlari, tutgan yo`li bozor sharoitiga, xaridor talabiga moslashish bilan cheklanmay, balki ishlab chiqarish samarasi ham yuqori bo`lishiga qaratilgan. Shu sababli bozor iqtisodiyotini boshqarib turishda katta ahamiyatga ega. Marketingning yuqoridagi qoidalariga asosan iqtisodiy reja, texnik, texnologik hamda ta`minot, sotish bo`limlari funktsiyalari o`zgaradi. Garchand, korxonaning texnologik-muhandislari resurslardan qanday foydalanish, bozorda erkin harakatlanish qonun-qoidalarini bilsalarda, korxonada maxsus marketing xizmatini tuzish hojati tug'iladi. Bu xizmat bozor iqtisodiyotiga oid nafaqat axborot markazi, balki korxonaning ishlab chiqarish ilmiy-texnik axborot markazi, balki korxonaning ishlab chiqarish, ilmiy-texnik moliya siyosati uchun maslahat beruvchi bo`limdir.

Marketing bo`limi – yuqoridagi barcha qoidalarini amalga oshirish yo`lida hormay-tolmay xizmat qiladigan korxona yuragidir.

Marketing bo`yicha korxonani boshqarish birmuncha murakkab, chunki bu ish katta hamda rejali hisoblarni, oldindan tayyorlangan kadrlarni, boshqaruv funktsiya va uslublarni tubdan o`zgarishini talab etadi. Marketing kontseptsiyasi faqat korxona xo`jalik mexanizmni tubdan qayta ko`rilgandagina amalga oshadi. Aks holda korxona tez o`zgaruvchan bozor iqlimiga mos kela olmay, ko`p masalada yutqazib qo`yishi mumkin va raqobatchilarga o`rnini berib qo`yishga to`g`ri keladi. Bu foydaning katta qismini bekorga yo`qotishga olib keladi. Faqat kimda-kim ilmiy-texnika taraqqiyotiga basma-bas, xaridor talabiga mos tovarlar ishlab chiqarsa foyda ko`radi.

Shu o`rinda mashhur amerikalik millioner Fordning quyidagi javoblari o`rinli. Undan «Siz qanday qilib millioner bo`ldingiz?», deb so`raganlarida, u shunday dedi: «Juda oddiy. Men avtomobilari mi bozorda boshqalarga nisbatan arzon sotdim, ishchilarimga esa boshqalarga qaraganda ko`proq haq to`ladim». Aftidan, u xonavayron bo`lishi kerak edi. Biroq, shu tariqa bozorni egalladi, raqobatchilarni tislantirdi.

Tovar-pul munosabatlari shunday bebaho xususiyatga egaki, u jamiyatni o`z ishi – boshqarish mexanizmi bilan qurollantiradi. Boshqariladigan bozor xo`jalik faoliyatini xaridor tomon burish,

tashkiliy tuzilmalarni qayta qurish, korxona maqsad va vazifalari, boshqaruv uslublarini o'zgartirishni taqozo etadi.

Amerikalik iqtisodchi Filipp Kotler o'zining ommaviy «Firmaning marketing bo'yicha ichki boshqaruvi» darsligida marketingning quyidagi bosqichlari orqali amalga oshirilishini yozadi:

1-bosqich. Talab kon'yukturasini o'rganish. Korxona bozoridagi iqtisodiy holatni kompleks o'rganadi, talab konyukturasini ajratadi, shuningdek iste'molchi potentsial imkoniyatini o'rganadi.

2-bosqich. Bozor hajmini o'rganish. Korxona bozor hajmiga qarab sotuv hajmini o'rganadi. Bu sohaga potentsial taklif qilish imkoniyatini o'ziga xos signali.

3-bosqich. Korxonaning maqsad va imkoniyatlarini mavjud bozor sharoitida o'rganish. Bozor talabini o'rganish bilimlari korxonaning bozor imkoniyatlari shartlarini solishtirish imkonini beradi.

4-bosqich. Marketing strategiyasi va rejasini ishlab chiqish. Bunda qo'yilgan vazifa va maqsadiga erishish uchun umumstrategiya ham, har xil funksional bo'lim yo'nalishlari va funktsional vazifalari ham batafsil rejlashtiradi.

5-bosqich. Yangi texnika va texnologiyani qo'llash. To'rt bosqichli rivojlanish xaritasi tuzilgach, bevosita bozor uchun mahsulot ishlab chiqiladi: ilmiy-tekshirish, tajriba-konstrukturlik ishlari, texnologiya, ishlab chiqarish rejasи, tajriba namunalari va boshqalar. Nihoyat mahsulot yaratildi.

6-bosqich. Mahsulotni bozorga qo'llash. Bozorga chiqish uchun nafaqat ratsional uslublarni qo'llash, balki baho siyosatini ham yuritish va boshqalar.

7-bosqich. Teran fikrlamasdan bozorni samarali yurgizish mumkin emas. Potentsial iste'molchiga tovar haqida batafsil ma'lumot berish va ularni sotib olishga ko'ndirish murakkab va ma'suliyatli vazifa va shu bilan birga sotishni rag'batlantirishi haqida ham bosh qotirish kerak.

8-bosqich. Mahsulot assortimentini boshqarish. Iste'molchining assortiment o'zgartirilishiga talabini o'rganish. Bozorga taklif qilingan birinchi ko'rinishga to'g'rilash va kiritishdan iborat.

9-bosqich. Sotish faoliyati boshqarmasi. Tovarlarni sotish, tashish va yuklarni joylashtirishga alohida ahamiyat beriladi.

10-bosqich. Sotuvdan so`nggi xizmat. Tovarni ishlatalish bo`yicha yordam va servis xizmati.

11-bosqich. Marketing faoliyati nazorati. Harakat dasturini boshqarish. Oxirgi bosqichni tugallanishi – boshlang`ich bosqichni boshidir. Marketing strategiyasini bilish «marketingni boshqarish» tushunchasiga ta`rif berish imkoniyatini beradi. Marketingni boshqarish – bu foyda, sotuv hajmini oshirish maqsadida ishlab chiqarish va bozorni tahlil qilish, bozorda ko`proq joyni egallah, xaridor bilan qulay almashinuvni mustahkamlash va himoya qilish. Marketingni boshqarish masalasi talab vaqt, darajasi, tavsifiga shunday ta`sir ko`rsatadiki, bunda eng yuqori natijalarga erishilsin. Boshqacha aytganda, marketingni boshqarish – talabni boshqarish demakdir. Tashkilot o`zi ishlab chiqargan tovarga talabni oldindan ko`ra bilishi kerak. Real talab darajasi, keragidan kam bo`lishi mumkin, balki uni ko`paytirish kerakdir? Mana shunday masalalarni marketing bo`yicha boshqaruvchi hal o`tadi.

Marketing bo`yicha boshqaruvchi – bu tashkilotning mansabdor shaxsi. U marketing holatlari, rejalashtirilgan ishlar va funksiya nazoratlari bilan shug`ullanadi. Bu funksiyalarga sotish va sotish bo`limi xodimlari, reklama xizmati xodimlari, sotishni rag`batlantirish mutaxassislari, marketing tekshiruvchilar, tovarlar bo`yicha boshqaruvchi mutaxassislar va narx bo`yicha mutaxassislar kiradi.

22.2. Bozorni baholash va iste`molchilar talabining tub maqsadlarini aniqlash

Bozorda sotish uchun uni doimo tekshirish va tahlil qilib turish kerak. Korxonaning iqtisodiy xizmatlari bozorni tekshirishlari kerak. Shunday ishni marketing va sotish bo`limi, iqtisodiy tahlil xizmatlari ham amalga oshiradi. Bozorni tekshirish maqsadni aniqlash va tekshirishni tezkor rejasini ishlab chiqish bilan boshlanadi. Keyin mahsulotni sotish natijalari bir necha yil hisobidan tahlil etiladi, xato va yanglishish aniqlanadi, marketing mutaxassislarining fikri o`rganiladi. Axborotlarini quyidagi manbalardan olshi mumkin: matbuot, reklama, telefon orqali anketa jo`natish va boshqalar. Anketalashtirishga interv`yular olish va telefon orqali so`rovni ham qo`shish mumkin. Hamma ma'lumotlar

olingach, ular jamlanadi va bozor holati bo'yicha yakun chiqariladi. Bozorda tarkib topgan holatni o'rganib, ishlab chiqarishni rivojlantirish, ta'minot-sotish bo'yicha takliflar berish mumkin.

Korxona davriy (bir yilda bir necha marta) ravishda bozordagi o'z o'rnnini aniqlashi kerak. Bozorning potentsial hajmi deganda ma'lumot vaqt oralig'ida qilingan xarid tushuniladi. Istiqbolni uzoq (muddatli belgilash - 15-20 yilga, o'rta muddatli - 5 yilga, qisqa muddatli - 1-2) yilga mo'ljallanishi kerak. Bozorga yangi tovarni kiritishda bozor hajmini aniqlash muhimdir. Bozor hajmi va kon'yukturasini tadqiqot qiluvchi boshqa xo'jalik hisobidagi tashkilotlar ham bor (masalan: kon'yuktura va talab bo'yicha ilmiytadqiqot instituti, marketing tadqiqotlari instituti va boshq). Xo'jalik hisobida ishlovchi pullik axborot maslahat tarmoqlarining faoliyat ko'rsatishi ham maqsadga muvofiqdir. Ular o'rtasidagi raqobatning yuzaga kelishi o'ta muhimdir.

Bozor tadqiqotlarini o'tkazish - beba ho tadbir, shuning uchun imkonli boricha axborot manbalaridan ko'proq foydalanish lozim. Tekshiruv chog'ida tarkib topgan g'oya va qonuniyatlarini alohida e'tiborga olish kerak. Bozor hajmi marketing tadqiqotlarni o'tkazish chog'ida raqobatchilar faoliyati, reklama, sotuv siyosati, tovarlar assortimenti, texnik xizmat, bo'limlarni tashkiliy tuzilmalari va boshqalarni ham tahlil qilishni unutmaslik kerak. Bozor - bu shunchaki orzu-havas emas, u qattiq, beshafqat hayot qonuni, jiddiy o'ylashni talab o'tadi.

Bozor korxonaning monopoliyadan chiqishini o'rtaga qo'yadi. Bunga sabab: kuchli raqobat, xo'jalik mexanizmini qayta qurish, ilg'or texnologiyani qo'llash, loyiha-konstrukturlik, xodimlarning yuqori malakasi, marketing bo'yicha tajribalar va boshqalar. Garchand kuchli g'oya va iqtidorli xodim, loyihamalar bo'lsada zamonaviy texnologiya bo'lmasa, jahon standartidagi mahsulotni yaratib bo'lmaydi. Ilg'or texnologiya uchun valyuta ishlab topish kerak. Bozorga kirib borishning umumiy strategiyasi quyidagicha bo'ladi:

1. Bir necha tadbirlar majmuini qo'llash hisobiga boshlang'ich kapitalni jamg'arish (maqsadni aniqlash, tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, ishlab chiqarish intizomini mustahkamlash, mehnat va moddiy xarajatlarni iqtisod qilish va boshqalar).

2. Qo'shma korxonalar tuzish hisobiga yangi zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lish imkoniyati.

3. Yangi yuqori sifatli mahsulotni yaratishga eng kuchli menejer va konstruktorlarni jalb etish.

4. Xalqaro andozalarni yaratish va bu bilan ichki va chet el bozorini egallash

5. Korxonani yuqori rentabellik korxonaga aylantirish, ko'tara savdo qilishga moslashtirish.

Bozorga kirib borish strategiyasining asosiy maqsadi – yuqori sifatli mahsulot chiqarishga, korxona xodimlari turmush darajasini keskin ko'tarishga, belgilangan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga xizmat qilishi kerak.

Korxonaning har bir xodimining manfaatdorligi bilangina pirovard belgilangan maqsadlarga erishish mumkin. Jamoaning ijtimoiy faolligi va ma'suliyatini oshirish uchun moddiy manfaatdorligini ta'minlash kerak. Bu maqsadda egalariga 10-15 foiz yillik foyda beruvchi korxona aksiyalarini chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Bozorni o'rganish va baholash yangi va yangi g'oyalarni tug'ilishiga imkon beradi. Bu g'oyalarni korxona maqsad va resuslariga mos keluvchi eng manzurlari tanlab olinadi.

Masalan: korxona tadqiqotlaridan so'ng bolalar velosipedining bozori chaqqonligi aniqlanadi. Rahbar agar bolalar velosipedini ishlab chiqarish korxona maqsadlari va resuslariga mos kelsa, uni ishlab chiqarishga qaror qilishi kerak. SHunday ko'rinishdagagi tovarlar mavjud marketingga mos kelishi mumkin. Biroq, korxona boshqa xuddi shunday bolalar velosipedi ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlashish uchun mol etkazib beruvchilar bilan yaxshi aloqada bo'lishi, vositachilar bilan ishlashni uyushtirish, o'zi chiqargan velosipedlarni jozibador va raqobatbardosh ekanligini amalda isbotlashi kerak. Har bir imkoniyatni bozor hajmidan kelib chiqib o'rganish kerak. Bu jarayon quyidagi to'rt bosqichdan iborat: istiqbol talabini o'rganish, bozorni bo'g`inlarga bo'lish, bozor bo'g`inlarni tanlash, tovarlarning bozordagi o'rnini aniqlash. Bozor hajmini o'rganish uchun bozordagi boshqa bolalar velosipedi sotuvchilarning imkoniyatlarini chamlash va har bir model hajmini baholash zarur. Agar korxona bu ishga jiddiy kirishish istagida bo'lsa, istiqbol bozor hajmlarini ham o'rganishi kerak.

Bozorni bo`g`inlarga bo`lish (segmentlash) bu iste`molchi talab va ehtiyojlariga ko`ra turli guruhlarga bo`lishdir. Narxiga ham qaramasdan eng zo`r velosipedning xaridorlari bir guruh bo`lsa, boshqa guruh xaridorlarni, avvalo, uning narxi qiziqtiradi. Korxonaning marketing imkoniyatlaridan kelib chiqib, har bir guruh, har bir bo`g`in talab va ehtiyojlariga mos tovarlarni ishlab chiqarish yo`lga qo`yiladi. Korxona o`z xohishiga ko`ra bozor bo`g`inlarini tanlaydi. Xaridor boshqasini emas, nima uchun aynan shu tovarni xarid qilmokda, ular o`rtasidagi farq nimada?, kabi savollarga javob topiladi. Solishtirish natijasida tovarning bozordagi o`rnini aniqlovchi chizma paydo bo`ladi.

Shunday qilib, bozor strategiyasini ishlab chiqish tovar ishlab chiqarishning muhim qirrasidir. Tovarni ishlab chiqarish va texnologiyasidan ko`ra, uni iste`molchiga etkazib berish muvaffaqiyatlar garovi ekanligini Amerikaning ko`plab kompaniya rahbarlari isbotlashdi. Ularning fikricha, tovarlarni ommaviy ishlab chiqarishdan uni bozorda sotish, xaridorga manzur qilish murakkab ish hisoblanadi.

Marketing nazariyalarni iqtisodiy amaliyotda ijodiy qo`llash – korxona xo`jalik mexanizmini keskin o`zgarishiga, binobarin ishlab chiqarishni boshqarishni iste`molchi va jamiyat talablariga moslash imkonini beradi.

22.3. Korxonaning ojiz va ustunliklarini, imkoniyat va xavf-xatarlarini aniqlash

Korxona – bu butlovchi qurilma, uskuna, yordamchi qurilmalar, ta`minot predmetlari va ishbilarmonlar doirasining katta bozoridir. Tovarlarni sotib olish va xizmat ko`rsatish bilan bir necha o`n minglab korxona va tashkilotlar, qishloq xo`jaligi, chakana savdo, qurilish, davlat tashkilotlari band bo`ladi.

Korxona ehtiyoji uchun xarid qilish bu bozorda mavjud tovarlarni aniq talab va narxlar asosida sotib olishga qaror qilishdir.

Korxona bozorining uch turi mavjud: sanoatga mo`ljallangan tovarlar bozori va davlat muassasalari bozori. Sanoatga mo`ljallangan tovarlar bozori – boshqa tovarlarni ishlab chiqarish yoki boshqa iste`molchilarga sotish uchun tovar xizmatlarni xarid qiluvchi shaxs va tashkilotlar yig`indisidir. Masalan; avtomobilni tayyorlash va sotish uchun metall, oyna, rezina tayyorlovchilar o`z

mahsulotini mashinasozlarga sotadi, ular o'z navbatida keng iste'mol moli sifatida aholiga sotadi.

Sanoatga mo'ljallangan tovarlar bozori keng iste'mol bozoridan keskin farq qiladi, masalan:

1. Sanoatga mo'ljallangan tovarlar sotuvchisi, keng iste'mol tovarlari sotuvchisiga qaraganda kamroq iste'molchilar bilan muomalada bo'ladi.

2. Hatto keng tarmoqli ishlab chiqarishda ham asosiy xarid bir necha yirik iste'molchi zimmasiga tushadi.

3. Xaridorlar neft', rezina, po'lat quyishga qarab jo'g'rofiy bir joyda jamlangan.

4. Keng iste'mol tovarlariga bo'lgan talabga qarab, sanoat asosidagi tovarlar talabi aniqlanadi. Axir tuqli, etik, kamzulga bo'lgan talab ham teriga bo'lgan talabni oshiradi.

5. Keng iste'mol tovarlari va xizmatlarga ko'ra sanoat asosidagi tovarlarga bo'lgan talab tez o'zgaradi. Ayniqsa, bu yangi ishlab chiqarish qurilishlariga bo'lgan talabda namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda 10 foiz iste'mol talabini oshishi, tez orada 20 foiz sanoat asosidagi tovarlarga talabni oshiradi.

6. Sanoat ehtiyojlari uchun tovarni asosan doimiy izlanishdagi, ehtiyotkor agentlar xarid qiladilar. Keng iste'molchi bu borada tajribasizlik qilishi mumkin. Sanoat uchun kerakli mol nechog'li noziktabiat bo'lsa, qaror qabul qilish jarayonida shunchalik ko'p shaxs ishtirok etish ehtimoli bor. O'ta muhim tovarlarni sotib olishda hatto maxsus xarid komissiyalarini ishlashi mumkin. Bu komissiyalar tarkibida turli texnik ekspertlar, korxona rahbarlari bo'lishi mumkin.

Sanoatga mo'ljallangan tovarlarni xarid qilish chog'ida xaridor bir necha qarorlarni qabul qilishiga to'g'ri keladi. Qarorlar soni xarid chog'idagi turli holatiga bog'liq. Xarid chog'ida quyidagi uch asosiy holat bo'lishi mumkin:

1. O'zgarishlarsiz qayta xarid qilish. Bu holatda xaridor o'zgarishsiz buyurtma beradi.

2. O'zgarishlar bilan qayta xarid qilish. Bu holatda xaridor tovarlarni texnik tavsifnomasi va ko'rinishga o'zgartirishlar kiritadi. Narxga, tovar o'tkazib berish shartlariga o'zgarishlar kiritadi. Avvalgi mijozlarni saqlashga, yangi mijozlarni orttirishga harakat qilinadi.

3. Yangi vazifalarni hal etish uchun xarid qilish, Masalan: firma birinchi yangi komp'yuter sistemasini o'rnatishga qaror qabul qiladi. Bunda eng ko'p qarorlar qabul qilish xaridor zimmasiga tushadi. Birinchi marta tovarlarni xarid qilish chog'ida uning texnik tavsiflari, narx chegarasi, yetkazib berish sharti va vaqt, texnik xizmat shartlari, buyurtma hajmi hisobga olinadi. Oraliq tovarlar bozorida o'z korxonasining uzluksiz ishini ta'minlash yoki qayta sotish, ijaraga berish maqsadida foydani ko'zlab harakat qiluvchi tashkilot va shaxslar harakat qiladi. Oraliq tovarlar sotuvchilari katta miqdordagi tovarlar bilan ish qiladilar. Bundan tashqari, oraliq sotuvchi kimdan qanday narxda tovar xarid qilish mumkin va kimga qanday sotish mumkinligini bilishi kerak.

Oraliq tovarlar bozoriga tovar birjalarini, ko'tara savdo firmalari va chakana savdo firmalari kiradi.

Davlat muassasalari bozori - respublika hukumati tashkilotlari, avtonom respublika hukumati va mahalliy organlar, o'z asosiy funksiyalarni bajarish uchun tovarlarni xarid qilish va ijaraga berishdan iborat. Hukumat respublika miqyosida eng yirik iste'molchi hisoblanadi. Davlat muassasalari nomidan turli xil tovarlar va xizmatlar respublika ravnaqi uchun amalga oshiriladi.

22.4. Marketing strategiyasini ishlab chiqish.

Korxonada Marketing xizmati.


Korxona barcha marketing, rejalashtirish ishlarini o'z ichiga oluvchi marketing xizmati tizimini tuzishi kerak. Kichik korxonalarda marketing xizmati bir kishi zimmasida bo'lishi mumkin. U marketing tadqiqotlari, reklama va sotishni tashkil qiladi, servis va mijozlar bilan ishlaydi. Agar korxona yirik bo'lsa, marketing funksiyasiga marketing bo'limi rahbarlik qiladi. Bu bo'limda agentlar, marketing tadqiqotchilari, reklama bo'yicha mutaxassislar, tovar ishlab chiqarishni boshqaruvchilar yoki bozor bo'g'inlari (segmenti) boshqaruvchilar, mijozlarga servis xizmati xodimlari faoliyat ko'rsatadilar.

Har bir korxona marketing bo'limini shunday tashkil etishi kerakki, bu bo'lim butun ishlab chiqarish va tovar sotilishiga ko'maklashsin.

Marketing xizmatinig eng ko'p tarqalgan turi funksional marketing xizmatidir, Bunda marketing bo'yicha mutaxassislar

marketing faoliyatiga uning har bir funksiyasi bo'yicha rahbarlik qiladi.

Chizmada besh mutaxassislik ko'rsatilgan. Bundan tashqari, servis va mijozlar bilan ishlash boshqaruvchisi, marketing xizmatini rejalashtirish boshqaruvchisi tovarlar harakati xizmati boshqaruvchisi lavozimlari bo'lishi mumkin.



22.1-chizma. *Marketing funktional xizmati*

Funktional xizmatining eng katta ustunligi – bu boshqa oddiyligidir. Bir vaqtning o'zida tovar assortimentini va korxonalar bozorini kengaygan sari yuqoridagi sxema o'z samaradorligini yo'qotib boradi, har bir tovar va bozor uchun alohida rejalarini ishlab chiqish va marketing xizmatini muvofiqlashtirib borish qiyinlashib boradi.

Marketing kompleksiga quyidagi to'rt unsur kiradi: Tovar, narx, tarqatish uslublar va rag'batlantirish uslublari. Marketing ishlarni ishlab chiqarish (firma) da bajarish uchun to'rtta tizimini tashkil etish kerak. Bular: Marketing axboroti, Marketingni rejalashtirish, Marketing xizmatini tashkil etish va Marketing nazorati. Bularning hammasi marketingni boshqarish jarayoniga kiradi.

Yakun chiqaramiz:

1. Marketing inson ehtiyoji va talablarini ta'minlash va foyda olish maqsadida bozor bilan amalga oshadigan, tovarlar sotishni ta'minlash, ayrboshlashni tezlashtirishga qaratilgan faoliyatdir.

2. Marketing ishi maxsus marketing dasturlari orqali amalga oshiriladi, ularda xaridorlarni va raqobatchilarni o`rganish assosida tovarlar sifatini yaxshilash, tovar narxini o`zlashtirish reklama, o`tkazish, tovarlarni o`z vaqtida etkazib berish, xaridorlarga ma`qul tushadigan xizmat ko`rsatish kabi chora-tadbirlar kiradi.

3. Marketing faqat bozordagi talab-ehtiyojni qondirish vositasagina bo`lmay, balki ishlab chiqarish samarasining ham yuqori bo`lishiga qaratilgan. Shu sababli bozor iqtisodiyotini boshqarib turishda katta ahamiyatga ega.

4. Tovar-pul munosabatlari shunday beba ho xususiyatga egaki, u jamiyatni o`zini boshqarish mexanizmi bilan qurollantiradi

5. Korxona - bu butlovchi qurilma, uskuna, yordamchi qurilmalar, ta`minot predmetlari va ishbilarmonlar doirasining katta bozoridir.

6. Marketing tadqiqotlarining maqsad va mazmuni doimo va sistemali ravishda axborotlar to`plash, ularni tahlil qilish va natijalardan korxonani boshqarish jarayonida foydalanish tashkil etiladi.

Nazorat savollari:

1. Marketing strategiyasi nimaga xizmat qiladi?
2. Marketing strategiyasini bosqichma-bosqich sanang.
3. Bozorning potentsial hajmi deganda nimani tushunasiz?
4. Bozorga urib kirish strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Bozorni bo`g`inlarga (segmentlar) ga ajratish deganda nimani tushunasiz?
6. Xaridor bozori sotuvchilar bozoridan nima bilan farqlanadi?
7. Korxonada marketing xizmati tuzilmasini aytib bering?

XXIII BOB. MAHSULOT TANNARXINI REJALASHTIRISH.

Reja:

- 23.1. Mahsulot tannarxining mohiyati va ahamiyati.
- 23.2. Xarajatlarni moddalar bo'yicha turkumlash.
- 23.3. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kal'kulyatsiyalash.

Tayanch iboralar: mahsulot tannarxi, kal'kulyatsiya, xarajatlar, foyda, rentabellik, xarajatlar smetasi.

23.1. Mahsulot tannarxining mohiyati va ahamiyati

Tannarx, foya va rentabellikni planlashtirish mehnat, moddiy va moliyaviy mablag'lardan ratsional foydalanish asosida ishlab chiqarishning samaradorligiga erishishga qaratilgandir.

Rejada korxonannnt barcha bo'linma va zvenolarida tejash rejimiga rioya qilinishni, moddiy, mehnat, energetik va pul mablag'laridan yanada samaraliroq foydalanishni ta'minlash, korxona ichida xo'jalik hisobini kuchaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, rejalashtiriladigan yilda barcha tovar va realizatsiya qilinadigan mahsulot turlari bo'yicha mahsulot tannarxini, pasaytirish, ulgurji baholarning to'g'ri o'rnatilishi uchun baza yaratish ko'zda tutiladi.

Tannarx, fonda va rentabellik rejani quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

- A) mahsulot tannarxini pasaytirishni rejalashtirish;
- B) mahsulot tannarxini kal'kulyatsiya qilish;
- V) ishlab chiqarish harajatlari smetasi;
- G) tovar realizatsiya qilinadigan mahsulot tannarxining hisobi;
- D) korxona foydasi rejas;
- E) ishlab chiqarishning rentabelligi rejas.

Tannarx, foya va rentabellik rejas 2 bosqichda ishlab chiqiladi.

1-bosqichda hisobot yili rejaning bajarilishi analiz qilinadi, plan loyihasi ishlab chiqiladi,

2-bosqichda rejaning uzil-kesil loyihasi ishlab chiqiladi (direktiv ko'rsatkichlar olinadigan so'ng) va bu reja topshiriqlari korxona bo'linmalarga yetkaziladi.

Mahsulot tannarxi, Biron bir mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun ma'lum miqdorda xom ashyo va materiallar, mehnat va pul mablag'lari sarflanadi, Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan bu xarajatlarning, so'm bilan ifodalangan yig'indisi mahsulot tannarxi deb ataladi. Mahsulot tannarxi - har, bir ishlab chiqarish birlashmasining, korxonasining ishlab chiqarish faoliyatida eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Asosiy va yordamchi materiallarni, yoqilg'i va energiyani sarflash bog'liqlik kam bo'lsa, mehnat bog'liqlik ko'p tejalsa va asosiy fond bog'liqlik yaxshi ishlatsa mahsulot birligining tannarxi shunchalik past, muayyan korxona uchun ham, butun jamiyat uchun ham uni ishlab chiqarish shunchalik arzon bo'ladi.

Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari.

Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xom ashyo va materiallar sarfini kamaytirish.

Elektr energiya, yonilg'i, suv va hokazolar sarfini kamaytirish.

Tannarxdagi ish haqi ulushini kamaytirish.

Ishlab chiqarishni tashkil qilishni mukamallashtirish va boshqarish uchun ketadigan sarflarni kamaytirish.

Ishlab chiqarish hajmini o'stirish natijasida tannarxni pasaytirish.

Ishlab chiqariladigan mahsulot sotishni yaxshilash natijasida xarajatlarni kamaytirish.

23.2. Xarajatlarni moddalar bo'yicha turkumlash.

Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarni sarflaydilar. Korxonaning umumiyligi xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Korxonalar, shuningdek, mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlarni, ya'ni ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat (tashish, qadoqlash, saqlash, reklama qilish va hokazo) xarajatlarini ham amalgalashiradilar

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruhlarga taqsimlanadi:

- ✓ moddiy xarajatlar;
- ✓ asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- ✓ mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- ✓ ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;
- ✓ boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining eng katta qismi bo'lib, umumiylar xarajatlarning 60-80 foizini tashkil qilishi mumkin. Moddiy xarajatlar o'z ichiga quyidagi larni qamrab oladi:

- ✓ xom ashyo va materiallar xarajatlari;
- ✓ texnologik maqsadlar va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya;
- ✓ xarid qilinuvchi butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- ✓ sotib olingan qadoqlash va o'rov materiallari xarajatlari;
- ✓ mashina va asbob-uskunalarini ta'mirlash uchun ehtiyyot qismlar;
- ✓ boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;
- ✓ xizmat davri bir yilgacha bo'lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetlarning eskirishi yoki har bir instrument, inventar, laboratoriya uskunalarini va maxsus kiyim-bosh uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravar miqdorigacha qiymati;
- ✓ tabiiy xom ashydadan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlari;
- ✓ ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar;
- ✓ tabiiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo'lмаган holda yuzaga keladigan yo'qotishlar.

Amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi xarajatlarning yirik elementlaridan biri hisoblanadi. Bular qatoriga asosiy fondlarning tezlashgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasini kiritish mumkin.

Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar – korxonaning asosiy ishlab chiqarish personali mehnatiga haq to'lashga sarflanadigan xarajatlar bo'lib, ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun mukofotlar, rag'batlantiruvchi va kompensatsiya to'lovlari, jumladan, qonunchilikda belgilangan normativlar chegarasida narxlarning o'sishi va indeksatsiya uchun

to`lovlar, shuningdek, korxona xodimlari shtatida bo`lmagan, lekin asosiy ishlab chiqarishda band bo`lgan ishchilar uchun to`lanuvchi haqni o`z ichiga oladi.

Mazkur xarajatlar elementlari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

✓ amalda bajarilgan ish uchun tarif stavkalari, lavozim maoshlari va shu kabilar asosida to`lanuvchi ish haqi;

✓ xodimlarga natural to`lov shaklida beriluvchi mahsulotlar qiymati;

✓ ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun beriluvchi mukofot va boshqa to`lovlar;

✓ qonunchilikka asosan ba`zi tarmoqlardagi xodimlarga bepul beriluvchi kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kommunal xizmat va hokazolar qiymati;

✓ har yillik mehnat va o`quv ta`tili uchun amalga oshiriluvchi to`lovlar;

✓ korxonani qayta tashkil qilish, shtatlar qisqarishi tufayli ishdan bo`shatilgan xodimlarga to`lanuvchi mablag`lar.

Ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar nobyudjet ijtimoiy fondlariga (nafaqa fondi, ijtimoiy sug`urta fondi, bandlik fondi va hokazo) ajratiluvchi mablag`larni anglatadi.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxidagi boshqa xarajatlar – bu, qonunchilikda belgilangan tartibda maxsus nobyudjet fondlariga o`tkaziluvchi to`lovlar va soliqlar; yo`l qo`yish mumkin bo`lgan miqdordagi chiqindilar uchun to`lovlar; korxona mulkini majburiy sug`ortalash; ratsionalizatorlik takliflari uchun mukofotlar; qonunchilikda belgilangan stavkalarda kreditlar bo`yicha to`lovlar; mahsulotni sertifikatlash uchun bajarilgan ishlarga haq to`lash; qonunchilikda belgilangan normalar bo`yicha xizmat safarlariga haq to`lash; yong`inga qarshi kurash va qo`riqlash muassasalariga haq to`lash; kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlar tanlashni tashkil qilish, aloqa xizmati, hisoblash markazlari, banklar xizmatiga haq to`lash; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ijaraiga olganlik uchun haq to`lash; nomoddiy aktivlarning eskirishi va hokazolar.

Ishlab chiqarish xarajatlariga, asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishga tayyor holatda saqlab turish – kapital, o`rta va joriy ta`mirlash, mashina va asbob-uskulnalariga qarash va ekspluatatsiya qilish uchun sarflanuvchi barcha xarajatlar kiradi. Asosiy ishlab chiqarish

fondlarini ta'mirlash bo'yicha murakkab ishlar amalga oshirilib, xarajatlar bir xilda taqsimlanmaganda korxonalar (Moliya Vazirligi ruxsati bilan) mahsulot tannarxi hisobiga asosiy fondlarni ta'mirlash uchun zahira (rezerv) fondlari tashkil qilishi mumkin.

Xorijiy valyutadagi xarajatlar Markaziy bankning operatsiyalar amalga oshirilgan kundagi kursiga asosan so'mlarda belgilanadi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishga qilinadigan xarajatlarni o'sishiga,xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asbob-uskunalar narxining o'sishi, transport xizmati tariflarining yuqoriligi, reklama va vakillik xarajatlarining o'sishi kabilar ta'sir qiladi. Amortizatsiya ajratmalari miqdori ham o'sib bormoqda. Narxlar erkinligi va ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan sharoitlarda xarajatlar tuzilmasida ish haqining salmog'ini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir vaqtning o'zida ijtimoiy va tibbiy sug'ortalash, nafaqa ta'minoti, aholi bandlik fondlari, turli xil kompensatsion to'lov larga ajratiluvchi mablag'lar miqdori ham ortib bormoqda.

23.3. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kal'kulyatsiyalash.

Tannarx rejani ko'rsatkichlari sistemasida kal'kulyatsiya muhim rol o'ynaydi. korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligi tannarxi xarajatlarining alohida moddalar bo'yicha pulda ifodalanish mahsulot tannarxini kal'kulyatsiyalash deb ataladi.

Kal'kulyatsiya orqali ishlab chiqarish uchun belgilangan mablag'lar qanday maqsad va yo'nalishlarda sarflanganligi aniqlanadi, ya'ni harajatlar sarflangan quyidagi hamda mahsulot maqsadga bo'ladi yo'nalishdagi bo'yicha gruppalarga ajratiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish boshqarish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar bilvosita harajatlar hisoblanadi. Bu turdag'i xarajatlar mahsulot tannariga bevosita kiritmaydi, balki sexlar va korxona bo'yicha planlashtiriladi va hisoblanadi.

1-modda. Asosiy materiallar xarajati materialning hamma turi kiradi. Materiallar bo'yicha harajatlar uchun sarf normalari ulgurji baholari ko'paytmasiga teng.

2-modda. «Asosiy va ko'shimcha ish haqi». Mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashayotgan ishchilarining asosiy va ko'shimcha ish haqlari. Asosiy ish haqiga korxonaning hamma asosiy sexlarida mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashayotgan ishchilarining ish haqi kiradi.

3-modda. «Sotsial straxovaniyaga ajratar». Belgilangan davlat miqadorida sotsial straxovanie fondiga ishlab chiqishda band bo`lgan ishchilarning asosiy va qo'shimcha ish haqidan ajratma aniqlanadi.

4-modda. Ishlab chiqarishni tayyorlash va o'zlashtirish harajatlari.

5-modda. Mehnat birjasiga ajratma.

6-modda. Med strax uchun ajratma,

7-modda. TSex harajatlari.

8-modda. Umumkorxona harajatlari.

Mahsulotning korxona tannarxi yuqorida keltirilgan 8 ta moddalar yig`indisidan iborat.

9-modda. «Ishlab chiqarishdan tashqaridagi xarajatlar» mahsulotning korxona tannarxiga nisbatan protsent hisobida taqsimlanadi.

Mahsulotning to`la tannarxi mahsulotning korxona tannarxi va ishlab chiqarishdan tashqaridagi harajatlar yig`indisiga tengdir.

Foya. Ulgurji narx. MDS. Sotish narxi.

Ishlab chiqarish xarajatlari smetasi korxonaning planlashtirilgan yilda mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha davlat planini bajarishni ta'minlash uchun hamma moddiy energetik va mehnat xarajatlarni pulda ifodalangan yig`ma hujjatdir.

Ishlab chiqarish xarajatlari smetasi mahsulot tannarxining umumiyl kal'kulyatsnyysi, moddiy-texnika ta'minoti plani, mehnat va kadrlar rejasi, kompleks harajatlari smetasi va boshqa rejali hisoblari asosida ishlab chiqiladi,

Ishlab chiqarish harajatlar smetasida ishlab chiqarish harajatlari quyidagi elementlar bo'yicha gruppalarga ajratiladi.

1. Asosiy materiallar.
2. Yordamchi materiallar.
3. Yoqilg'i energiya.
4. Ish haqi (asosiy va ko'shimcha)
5. Sotsial straxga ajratma.
6. Asosiy fondlar amortizatsiyasi.
7. Bankga pul harajatlari.

Foya va rentabellikni rejalashtirish. Korxona ishini xarakterlovchi muhim sifat ko'rsatkichlardan biri foya va rentabellikdir.

Foya – korxonaning hamma ishlab chiqarish xo`jalik faoliyati natijalarini umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir.

Tovar mahsulotni sotishdan olingan foya (F) realizatsiya qilinadigan tovar mahsulot korxona ulgurji baholarida boshlangan qiymatidan (TM_{ulg}) ish mahsulot to`la tannarxini (T_{nt}) ayirish yo`li bilan aniqlanadi

$$F = TM_{ulg} - T_{nt}$$

Sanoat korxonalarining muhim moliyaviy ko'rsatkichlaridan biri rentabellikdir.

Ishlab chiqarishning rentabelligi korxona ishi samaradorligini tushuntiruvchi ko'rsatkichlardan biridir.

Korxona rentabellikni aniqlashda mahsulot rentabelligi va ishlab chiqarish rentabelligi qo'llaniladi.

Mahsulot rentabelligi (R) mahsulot realizatsiya qilishda olingan foyda summasining (F) uning tannarxiga (T_{nt}) nisbatan sifatida aniqlanadi.

$$R = \frac{F}{T_{nt}} \cdot 100$$

Korxonalarda umumiy rentabellik va hisoblangan rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Korxona umumiy rentabelligi (R_{um}) balansdagi foyda (F_b) summasini asosiy ishlab chiqarish fondlari (F_{as}) normadagi oborot fondlarning ($F_{ob,nor}$) qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$R_{um} = \frac{F_b}{F_{as} + F_{ob,nor}} \cdot 100$$

Hisoblangan rentabellik qo'rsatkichi (R_{his}) kuyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$R_{his} = \frac{F_{his}}{F_{as} + F_{ob}} \cdot 100$$

F_{his} – hisobdagi foyda.

Rentabellik darajasi ko'rsatkichi yuqori bo'lish korxona ixtiyoridagi asosiy va oborot fondlardan oqilona foydalanimayotganligini va korxona ma'lum miqdorda daromad olayotganligini ko'rsatadi. Olingan foyda summasining hajmi bog'liq ko'p bo'lsa, rentabellik darajasi ham shunga yuqori bo'ladi. Rentabellik darajasini ko'tarish uchun har bir korxona sotilgan mahsulot hajmini oshirishga mahsulot tannarxini kamaytirishga, ishlab chiqarishda yuqori sifat ko'rsatkichlarga erishishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Nazorat savollari.

1. Tannarx, foyda va rentabellik rejasining tarkibi qaysi bo'limlardan iborat?
2. Mahsulot tannarxi kal'kulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Kal'kulyatsiya moddalariga nimalar kiradi?
4. Foya deganda nimani tushunasiz?
5. Mahsulot rentabelligi qanday aniqlanadi?

XXIV BOB. PAXTA TOZALASH KORXONASI MOLIYA REJASI.

Reja:

- 24.1. Paxta tolasini sotish rejasi. Qo'shimcha mahsulotlarni sotish rejasi.
- 24.2. Sotilgan mahsulotdan olinadigan yalpi foyda. Foydaning mohiyati, ahamiyati, turlari va uni rejalashtirish.

Tayanch iboralar: foyda, rentabellik, moliyaviy reja, daromad va kelib tushadigan mablag'lar, harajatlar va ajratiladigan mablag'lar, byudjet, kredit.

24.1. Paxta tolasini sotish rejasi. Qo'shimcha mahsulotlarni sotish rejasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat, jamoa, qo'shma, kichik, hissadorlik, xususiy va boshqa shakldagi mulkka ega bo'lган korxonalar moliyaviy ahvolini o'rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o'z vaqtida pul tushumlarining kelishi, hisoblashish intizomiga rioya qilish, xususiy va qarz mablag'larining turli nisbatda bo'lishini ta'minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarida iqtisod va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy rejalashtirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- ✓ korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga aniq va xolisona baho berish;
- ✓ mablag' va manbalarning joylanishini tekshirish, ularni to'g'ri yo'nalishda ishlatilganligini aniqlash;
- ✓ hisoblash ishlarining o'z muddatida bajarilganligi, debtor va kreditorlik qarzlari tarkibini o'rganish;
- ✓ korxonaning o'ziga qarashli mablag'lari bilan qarz mablag'lari o'rtaсидаги nisbat va aylanma mablag'larni manba bilan ta'minlanganligini tekshirish;
- ✓ moliyaviy intizomga qanchalik amal qilishni aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berish;
- ✓ korxona multking qadrlligi va tez pulga aylana olish darajasini o'rganish;
- ✓ aylanma mablag'lardan foydalanishga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha takliflar bayon etish.

Moliyaviy reja korxonalarining ishlab chiqarish va xo`jalik faoliyatining hamma tomonlarini qiymat formasida ifodalaydi. U quyidagi masalalarini hal qilish maqsadida tuziladi: korxonaning ishlab chiqarish va xo`jalik faoliyatini amalgalash uchun uni moliyaviy mablag`lar bilan ta`minlash, foydani ko`paytirish va ishlab chiqarish rentabelligini oshirish rezervlarini aniqlash, mehnat unumdarligini o`stirish va ishlab chiqarishning iqtisodiy samardorligini oshirishni ta`minlaydigan ishlab chiqarish quvvatlariidan, asosiy fondlardan va oborot mablag`lardan hamda mehnat resurslaridan ratsional va samarali foydalanish korxonaning byudjet, kredit va boshqa yuqori tashkilotlar bilan o`zaro moliyaviy munosabatlarini aniqlash hamda moliyaviy intizomga qat`iy rioya qilish.

Moliyaviy reja 2 bosqichda ishlab chiqiladi. Birinchi bosqichda o`tgan yilgi moliyaviy rejaning bajarilishda tahlil qilindi va moliyaviy reja loyihasi ishlab chiqariladi. Ikkinci bosqichda derektiv ko`rsatkichlar asosida moliyaviy rejani tuzish uzil kesil tugallanadi.

Korxonaning moyaiyaviy rejani daromad va xizmatlar balansi formasida ifodalananadi. Uni tuzishda avval kunidagi hisob-kitoblar amalgalash uchun planlashtirilgan foydani taqsimlash, ishlab chiqarish foydalari uchun davlat byudjetiga to`lovlar kapital mablag`lar va amortizatsiya ajratmalari.

Daromad va xarajatlar balansi moliya rejan ish- asosiy formasi hisoblanadi. U korxona faoliyatining barcha jihatlarini o`zida ifodalaydi.

Daromad va xarajatlar balansi quyidagi 4 bo`limdan-iborat: daromad va kelib tushadigan mablag`lar; harajatlar va ajratiladigan mablag`; kredit bilan o`zaro munosabat. Daromadlar va kelib tushadigan mablag`lar bo`limida birlashma, korxona daromadining muhim manbai bo`lib rejali foyda, amortizatsiya ajratmalari korxona daromadining turg`un passiv qismining o`sishi ko`rsatiladi.

Xarajatlar va ajratiladigan mablag`lar bo`limida kapital mablaglar, kapital remont xarajatlari, o`z oborot mablag`lari

normativining o'sishi, bolalar bog'cha va yaslilarini saqlash harajatlari va hokazolari ko'rsatiladi.

Kredit bilan o'zaro munosabatlar bo'limida markazlashtirilgan kapital mablag'larga belgilangan tartibda uzoq muddatli kreditlarni olish va kreditlarni uzish hamda davlat bankidan olingan qarz uchun to'lovlар ifodalanadi.

Byudjet bilan o'zaro munosabat bo'limida korxonaning davlat byudjeti bilan o'zaro munosabati planlashtiriladi. Bunda byudjet to'lovlар va byudjetni olish ifodalanadi. Bundan tashqari asosiy ishlab chiqarish fondlaridan va normativ oborot mablag'lardan foydlanganlik uchun to'lovlар va qoldiq foyda badallari va hokazolar ko'rsatiladi.

Shunday qilib, daromad va xarajatlар balansida korxonaning ishlab chiqarish xo'jalik rejani bajarishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mablag` bilan ta'minlashning barcha manbalari va barcha turdagи xarajatlari aks etadi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichi korxonaning foyda va rentabelligini aniqlash imkonini beradi.

24.1-jadval

Mahsulot turi	Mahsulot hajmi	Sotilgan mahsulot, ming so'm		Korxona tannarxi, ming so'm		Foyda ming so'm	Rentabellik, %
		Jami	Mahsulot birligi bahosi	Jami	Mahsulot birligi uchun		

Korxona foydasi ulgurji baholarda va korxona tannarxi bo'yicha ifodalangan mahsulot sotish qiymati ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi.

$$Foyda = Ulgurji baho - tannarx$$

Mahsulot rentabelligi foydaning tannarxga nisbati ko'rinishida aniqlanadi.

$$R = \frac{Foyda}{Tannarx} \times 100$$

Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar hisobi.

Korxona ish faoliyatining samaradorlik darajasi quyidagi ko`rsatkichlar orqali ifodalanadi:

- dastgohlarning unumdorligi;
- ishchi kuchi sarfining ulushi;
- natura ko`rsatkichlardagi mehnat unumdorligi;
- ishlab chiqarish bo`yicha hisob rentabelligi.

$$R = \frac{Foyda - P_F}{AIChF + NAM},$$

bu yerda: P_F – korxonaning ishlab chiqarish fondlari uchun to`lanadigan haq;

$AIChF$ – asosiy ishlab chiqarish fondlari;

NAM – asosiy mablag`lar

Me`yorlanadigan aylanma mablag`lar asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatiga nisbatan foizlar miqdorida rejalashtirilishi mumkin.

- Fond samaradorligi

$$F = \frac{SM}{AI \times F}$$

bu yerda: SM – sotilgan mahsulot, ming so`m

- har bir so`mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ketgan sarf-xarajatlar

$$Z = \frac{Tannarx}{TM}$$

bu yerda: TM – tovar mahsulot, ming so`m

Kapital harajatlarining qoplanish muddati.

$$O_k = \frac{\text{Kapital xarajatlar}}{Foyda}$$

24.2. Sotilgan mahsulotdan olinadigan yalpi foyda.

**Foydaninng mohiyati, ahamiyati, turlari va uni
rejalashtirish.**

Korxonaning moliyaviy faoliyati yakunlari foydaning quyidagi ko`rsatkichlari bilan xarakterlanadi:

1. Yalpi foyda. Bu ko`rsatkich mahsulot sotishdan kelib tushgan tushum bilan tannarx o`rtasidagi farq ko`rinishida aniqlanadi.

$$F_{yalpi} = Daromad - Tannarx$$

Korxona asosiy ish faoliyati foydasi

$$F_{as.ish.faol.} = F_{yalpi} - Davr xarajatlari + Boshqa ko`zda tutilmagan foydalar - Boshqa ko`zda tutilmagan zararlar$$

Korxona umumxo`jalik faoliyati foydasi

$$F_{um.xo'j.faol.} = F_{as.ish.faol.} - F_{dividendlar} - F_{potentsiallar} + F_{inventarlar}$$

Soliq to`lagunga qadar foyda

$$F_{soliq.tq.} = F_{um.xo'j.faol.} + ko`zda tutilmagan foyda va zararlar$$

Sof foyda

$$F_{sof} = F_{soliq.tq.} - Foydaga soliq - Boshqa soliqlar$$

Foydaga soliq miqdori soliq to`lagunga qadar foydaga nisbatan foizda aniqlanadi.

Sof foydani shakllanishida quyidagi soliqlarni hisobga olish kerak.

1) Qo`shimcha qiymat solig`i

$$QQS = \frac{Daromad \times \%QQS}{100}$$

Transport solig`i

$$N_s = \frac{IXYF \times N_{oy} \times \%QQS}{100}$$

$IXYF$ – ish haqining yillik fondi

N_{oy} – oyalar soni

Yo'l solig'i

$$N_{yo'l} = (Daromad - QQS) \times \frac{\%N_{yo'l}}{100}$$

Sotsial sug'urta fondi va meditsina xizmati fondiga ajratma

$$Sots.sug^* = IXYF \times \frac{\%Sots.sug^*}{100}$$

Nafaqa fondi

$$F_N = IXYF \times \frac{\%F_N}{100}$$

Daromadga soliq

$$D_s = IXYF - F_N - (IX_{min} \times I_s + K_K) \times \frac{\%D_s}{100}$$

bu yerda: IX_{min} – minimal ish haqi;

I_s – ishchilar soni.

Turar joy fondini saqlashga oid soliq

$$N_T = (Daromad - QQS) \times \frac{\%QQS}{100}$$

Foydaga soliq

$$N_F = (Daromad - QQS - \sum N_I) \times \frac{\%N_F}{100}$$

bu yerda: $\sum N_I$ – foydadan to'lanadigan barcha soliqlar

Nazorat savollari

1. Moliyaviy rejani tuzishdan asosiy maqsad nima?
2. Korxonaning foydasi qanday rejalashtiriladi?
3. Foydaning qanday ko'rinishlari hisoblanadi?
4. Rentabellik deb nimaga aytildi?
5. Rentabellikning qanday ko'rinishlari hisoblanadi

GLOSSARIY

<i>Aktsiyadorlik jamiyati</i>	<i>Joint-stock company</i>	<i>Акционерное общество</i>	ko'proq foyda olish maqsadida aktsiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital)larini birlashtirgan uyushma.
<i>Aylanma ishlab chiqarish fondlari</i>	<i>Revolting production assets</i>	<i>Оборотные производственные фонды</i>	ishlab chiqarishda foydalilanuvchi mehnat predmetlari (xom ashyo, materiallar, o'rov materiallari, ta'mirlash uchun ehtiyoj qismlar va hokazo). Har bir ishlab chiqarish tsiklida to'liq sarflanadi hamda korxonaning aylanma mablag'lari hisobiga sotib olinadi.
<i>Ayirkosh-lash</i>	<i>Exchange</i>	<i>Обмен</i>	jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo'yicha o'zaro almashish jarayoni.
<i>Aylanma mablag'lar</i>	<i>Current assets</i>	<i>Оборотные средства</i>	ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, yangi mahsulotni o'zlashtirish xarajatlari, kelgusi davr xarajatlariga sarflanuvchi korxona mablag'laringin pul shaklida ifodalanishi.
<i>Aktsiya</i>	<i>Stock</i>	<i>Акция</i>	aktsiyadorlik jamiyati tomonidan chiqariluvchi hamda uning egasi, aktsiyadorlik jamiyatining a'zosiga jamiyatni boshqarish va foyدادан dividend olish huquqini beruvchi qimmatbaho qog'oz.
<i>Aktsiyadorlik kapitali</i>	<i>Share capital</i>	<i>Акционерный капитал</i>	aktsiyadorlik jamiyatining asosiy kapitali, uning hajmi Nizomda belgilab beriladi. Qarzga olingan mablag'lar va aktsiya chiqarish hisobiga shakllantiriladi.
<i>Amortitsiya</i>	<i>Depreciation</i>	<i>Амортизация</i>	asosiy fondlar qiymatini astasekinlik bilan ular yordamida ishlab chiqariluvchi mahsulot yoki xizmatlarga o'tkazilishi; mablag'larning maqsadli ravishda

			jamg'arilishi va keyinchalik eskirgan asosiy fondlarning o'rnnini qoplashga ishlatalishi.
<i>Amortizatsiya normasi</i>	<i>Depreciation rate</i>	<i>Норма амортизации</i>	amortizatsiya ajratmalar yillik summasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi.
<i>Amortizatsiya vositalari</i>	<i>Depreciation and amortisation funds</i>	<i>Амортизационные средства</i>	korxona asosiy fondlarini saqlash va yangilash uchun maxsus ajratiluvchi moliyaviy vositalar.
<i>Amortizatsiya fondi</i>	<i>Depreciation funds</i>	<i>Амортизационные фонды</i>	asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarishga mo'ljallangan pul mablag'lari.
<i>Asosiy ishlab chiqarish fondlari</i>	<i>Core production assets</i>	<i>Основные производственные фонды</i>	mahsulot ishlab chiqarishda foydalanimuvchi mehnat vositalari (binolar, inshootlar, qurilma va asbob-uskunalar, transport vositalari va hokazo). Ular uzoq muddat xizmat ko'rsatib, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natural shaklini saqlab qoladi hamda o'z qiymatini eskirish mobaynida asta-sekinlik bilan tayyor mahsulotga o'tkazadi. Kapital qo'yilmalar hisobiga to'ldiriladi.
<i>Asosiy fondlarning eskirishi</i>	<i>Depreciation of fixed assets</i>	<i>Амортизация основных средств</i>	asosiy fondlarning (binolar, qurilmalar va boshqa mehnat vositalarining) asta-sekinlik bilan foydali xususiyatlarini yo'qotishi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari eskirishining jismoniy va ma'naviy turlari mavjud.
<i>Aholi daromadlari</i>	<i>Incomes</i>	<i>Доходы населения</i>	aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.
<i>Bank</i>	<i>Bank</i>	<i>Банк</i>	iqtisodiyotning me'yorda amal qilishi uchun zarur bo'lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.
<i>Balans</i>	<i>Balance</i>	<i>Баланс</i>	biron-bir holatning alohida tomonlarini taqqoslash va solishtirish yo'li bilan tavsiflanuvchi

			ko'rsatkichlar tizimi.
<i>Bank krediti</i>	<i>Bank loan</i>	Банковский кредит	pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) beriluvchi pul ssudalar.
<i>Bank operatsiyalari</i>	<i>Bank operations</i>	Банковские операции	mablag'larni jaib qilish va ularni joylashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar.
<i>Balans foydasi</i>	<i>Retained earnings</i>	Балансовая прибыль	korxonaning balansida aks ettiriluvchi faoliyatning barcha turlaridan olinuvchi umumiy foyda miqdori.
<i>Bankrotlik</i>	<i>Bankruptcy</i>	Банкротство	kasodga uchrash, korxonaning (tashkilot, bank) o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni mablag'lar yo'qligi tufayli amalga oshirmsaligini anglatuvchi tushuncha. +oidaga ko'ra, korxonani yopish yoki majburan tugatish hamda mol-mulkini qarzlarni to'lash uchun sotib yuborishga olib keladi.
<i>Bashorat qilish</i>	<i>Forecasting</i>	Прогнозирование	kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan turli hodisa va jarayonlarni statistik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa turdagи tadqiqotlar yordamida ilmiy asoslangan holda avvaldan aytib berish.
<i>Biznes</i>	<i>Business</i>	Бизнес	bozor iqtisodiyoti sharoitlarida subyektning ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turini yaratish va sotish yo'li bilan foyda olishga mo'ljalangan iqtisodiy faoliyati.
<i>Biznes-reja</i>	<i>Business plan</i>	Бизнес-план	korxona faoliyati dasturi, kutilayotgan xarajat va daromadlar hisobini o'z ichiga oluvchi kompaniya faoliyatining muayyan maqsadlariga erishish uchun muayyan chora-tadbirlar rejasi. Marketing tadqiqotlari asosida ishlab chiqiladi.
<i>Birja</i>	<i>Exchange</i>	Биржас	namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam

			savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasasi.
<i>Bozor</i>	<i>Market</i>	Рынок	ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisi.
<i>Bozor iqtisodiyoti</i>	<i>Market economy</i>	Рыночная экономика	tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizim.
<i>Bozor infratuzil-masi</i>	<i>Market infrastructure</i>	Инфраструктура рынка	bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir.
<i>Bozor mexanizmi</i>	<i>Market mechanism</i>	Рыночный механизм	bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalar.
<i>Bozor obyekti</i>	<i>Market objects</i>	Объект рынка	ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.
<i>Bozor subyekti</i>	<i>market participant</i>	Субъект рынка	ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi.
<i>Bozor narxi</i>	<i>Market price</i>	Рыночная цена	bir tomonidan, tovarlarning sotilishi ta'minlovchi, boshqa tomonidan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydigan muvozanatlashgan narx.
<i>Bozor islohotlari</i>	<i>Market reforms</i>	Рыночные реформы	bozor iqtisodiyotini va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.
<i>Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri</i>	<i>The transition to a market economy</i>	Переходный период к рыночной экономике	ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor iqtisodiyoti tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davr.
<i>Veksel'</i>	<i>Bill of</i>	Вексель	qimmatbahlo qog'oz turi, belgilangan

	<i>exchange</i>		tartibda yozma shakldagi qarz majburiyat, o'z egasiga (veksel` oluvchiga) veksel` beruvchidan ko`rsatilgan pul miqdorini belgilangan muddatda gap-so`zsiz to`lanishini talab qilish huquqini beradi.
<i>Venchur firma</i>	<i>Venture firm</i>	<i>Венчурна я фирма</i>	tijorat bilan shug`ullanuvchi ilmiy- texnik firma, yangi texnologiyalar va mahsulotlarni daromadlarni avvaldar belgilamagan holda ishlab chiqish va qo'llash bilan shug`ullanadi (tavakkal chilikka asoslangan kapital qo'yilmasi)
<i>Davlat byudjeti</i>	<i>The state budget</i>	<i>Государствственный бюджет</i>	davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejsasi.
<i>Davlat krediti</i>	<i>Government credit</i>	<i>Государственный кредит</i>	kredit munosabatlarining o`ziga xos shakli bo`lib, bunda davlat pul mablag`lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo`lib chiqadi.
<i>Davlat tasarrufida n chiqarish</i>	<i>Privatization</i>	<i>Разгосударствление</i>	mulkni davlat hisobidan chiqarilib, boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.
<i>Davlat sektori</i>	<i>Government sector</i>	<i>Государственный сектор</i>	o`z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'yмаган, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan turli byudjet tashkilotlari va muassasalarining majmui.
<i>Diversifikatsiya</i>	<i>Diversification</i>	<i>Диверсификация</i>	ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko`paytirish, ularning sifatini takomillashtirish.
<i>Dividend</i>	<i>Dividend</i>	<i>Дивиденд</i>	aktsiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi, har yili soliqlarni to'lash, ishlab chiqarishni kengaytirish, zahiralarni to'ldirish, obligatsiyalar

			bo'yicha foizlar to'lash va direktorlarni mukofotlashdan so'ng aktsiyadorlar o'rtaida taqsimlanadi.
<i>Jismoniy eskirish</i>	<i>Physical deterioration</i>	Физический износ	mehnat vositalarining foydalanish va tabiat kuchlari ta'siri ostida moddiy jihatdan emirilishi. Mehnat vositalarining ma`naviy eskirishi ularning to'liq jismoniy eskirishdan oldindanroq, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqoriqoq va tejamkor bo'lgan mashina va qurilmalar paydo bo'lishi tufayli yuz berishi mumkin.
<i>Joriy narx</i>	<i>Current prices</i>	Текущие цены	yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblashda qo'llaniluvchi amaldagi narx.
<i>Jonlanish</i>	<i>recovery</i>	Оживление	iqtisodiy tsiklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga o'tishini tavsiflovchi fazasi.
<i>Ijara</i>	<i>Rent</i>	Аренда	mulkni ma'lum bir haq to'lash evaziga, vaqtinchalik foydalanishga berish to`g'risidagi shartnomaga asoslangan holda yollash.
<i>Ijtimoiy takror ishlab chiqarish</i>	<i>Public reproduction</i>	Общественное воспроизведение	jamiyat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib turishi.
<i>Ijtimoiy infratuzilma</i>	<i>Social infrastructure</i>	Социальная инфраструктура	odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiyligi sharoitlarini ta'minlaydigan sohalar.
<i>Ilmiy-tehnik salohiyat</i>	<i>Scientific and technical potential</i>	Научно-технический потенциал	mamlakatdagi fan, texnika va muhandislik ishlarining rivojlanish darajasi, jamiyatning fan-tehnika muammolarini hal qilish uchun mavjud resurs va imkoniyatlarining umumiyligi tafsifnomasi
<i>Investitsionnaya siyosat</i>	<i>Investment policy</i>	Инвестиционная политика	kapital qo'yilmalarning eng ustivor yo'nalişlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so'mga mahsulot o'sishi va

			milliy daromadning eng yuqori ko`rsatkichlariga erishish.
<i>Investitsiya</i>	<i>Investments</i>	<i>Инвестиции</i>	ishlab chiqarishni va xizmat ko`rsatish sohalarini kengaytirishga, ya`ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo`yilma.
<i>Investitsiya lar samara-dorligi</i>	<i>Soundness of investments</i>	<i>Эффективность инвестиций</i>	milliy daromad (foyda) o`sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.
<i>Investor</i>		<i>Инвестор</i>	biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalaga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat
<i>Injiniring</i>	<i>Engineering</i>	<i>Инженеринг</i>	tijorat asosida (shartnoma shaklida) turli xil muhandislik-maslahat xizmatlari ko`rsatilishi.
<i>Innovatsiya</i>	<i>Innovation</i>	<i>Инновация</i>	jamiyat rivojlanishi bilan o`zgarib boruvchi inson ehtiyojlarini qondirishga oid yangiliklar, ularni yaratish, tarqatish va foydalanish jarayonini majmuasi.
<i>Intensiv iqtisodiy o'sish</i>	<i>Intensive economic growth</i>	<i>Интенсивный экономический рост</i>	ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko`payib borishi.
<i>Infra-tuzilma</i>	<i>Infrastructure</i>	<i>Инфраструктура</i>	sanoat (yoki biron-bir boshqa) ishlab chiqarishi hamda aholiga xizmat ko`rsatuvchi xo`jalik tarmoqlari majmuasi. Transport, aloqa, savdo, moddiy-tehnik ta`minot, fan, ta`lim, sog`liqni saqlashni o`z ichiga oladi.
<i>Inflyatsiya</i>	<i>Inflation</i>	<i>Инфляция</i>	qog`oz pul birligining qadrsizlanishi.
<i>Import</i>	<i>Import</i>	<i>Импорт</i>	chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.
<i>Iste`mol</i>	<i>Consumption</i>	<i>Потребление</i>	jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish

			natijalari va omillaridan foydalanish jarayoni.
<i>Islohotlar kontseptsi yasi</i>	<i>reform concept</i>	Концепция реформ	ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo`nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarining umumiy g`oyasi.
<i>Ishlab chiqarish quvvati</i>	<i>Productivity potential</i>	Производственная потенциал	asosiy ishlab chiqarish va aylanma fondlar, shuningdek, moliyaviy resurslardan iloji boricha to`liq va oqilona foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin bo`lgan mahsulotning maksimal hajmi.
<i>Ishlab chiqarishning to`planishi</i>	<i>Concentration of production</i>	Концентрация производства	ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to`planishi.
<i>Ishlab chiqarish</i>	<i>Production</i>	Производство	kishilik jamiyatining mavjud bo`lishi va rivojlanishi uchun zarur bo`lgan hayotiy ne`matlarni yaratish jarayoni.
<i>Ishlab chiqarish jarayoni</i>	<i>The production process</i>	Процесс производства	kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo`lgan moddiy va ma`naviy ne`matlarni yaratishga qaratilgan maqsadiga muvofiq faoliyat.
<i>Ishlab chiqarish funktsiyasi</i>	<i>Production function</i>	Производственная функция	ishlab chiqarish omillari bilan uning samarasini o`rtasidagi bog`liqlik.
<i>Ishlab chiqarishni modernizatsiyash</i>	<i>Modernization of production</i>	Модернизация производства	ishlab chiqarishni zamonaliviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma`naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o`z ichiga oluvchi jarayon.
<i>Ishlab chiqarish rentabelligi</i>	<i>Productivity potential</i>	Рентабельность производства	umumiy (balans) foydaniing asosiy ishlab chiqarish fondlari va normalashtiriluvchi aylanma mablag`larning o`rtacha yillik qiymatiga nisbatli sifatida aniqlanuvchi ishlab chiqarish samaradorligi ko`rsatkichi.

<i>Ishlab chiqarish tuzilmasi</i>	<i>Productio n structure</i>	<i>Структу- ра прои- зводства</i>	korxonaning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirot etadigan ishlab chiqarish bo`linmalari – tsexlar, uchastkalar, xizmat ko`rsatish xo`jaligi aloqalarining yig`indisi.
<i>Ishlab chiqarishni ixtisoslasht irish</i>	<i>Manufac- turing specia- lization</i>	<i>Специали- зация производс- тва</i>	yirik korxonalarda texnologiya va tuzilmasi bir xil bo`lgan mahsulotlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish
<i>Ishlab chiqarishni yiriklashtir ish</i>	<i>Concentrat ion of production</i>	<i>Концентр ация производс- тва</i>	mahsulotni yirik korxonalarda chiqarishni tashkil qilish.
<i>Ishlab chiqarishni kimyolasht irish</i>	<i>Chemicalis ation of production</i>	<i>Химизаци я производс- тва</i>	mahsulot ishlab chiqarishda kimyoviy mahsulot va sun`iy materiallar, shuningdek, kimyoviy usullardan keng foydalanish.
<i>Ishlab chiqarish- ning diver- sifikasiyas i</i>	<i>Diversifica tion of production</i>	<i>Диверсиф икация производс- тва</i>	bir tomonlama, ko`pincha bitta mahsulotga asoslanuvchi ishlab chiqarishni keng nomenklaturada tayyorlanuvchi mahsulotlarga asoslangan ishlab chiqarishga o`tkazish.
<i>Ishsizlik</i>	<i>Unemploy ed</i>	<i>Безработ ица</i>	mehnatga layoqatli bo`lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta`minlanmagan ishchi kuchi.
<i>Ishsizlik darajasi</i>	<i>Unemploy ment rate</i>	<i>Уровень безработ ицы</i>	ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.
<i>Ishchi kuchi talabi</i>	<i>Demand for labor</i>	<i>Спрос на рабочую силу</i>	muayyan vaqtida ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.
<i>Ishchi kuchi taklifi</i>	<i>Labor supply</i>	<i>Предло же- ние рабочей силы</i>	muayyan vaqtida ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo`lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori.
<i>Iqtisodiy tsikl</i>	<i>Business cycle</i>	<i>Экономии ческий цикл</i>	ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to`lqinsimon harakati.
<i>Iqtisodiy</i>	<i>Economic</i>	<i>Экономии</i>	ishlab chiqarish hajmining keskin

<i>inqiroz</i>	<i>crisis</i>	ческий кризис	tushib ketishi.
<i>Iqtisodiyot ni davlat tomonidan tartibga solish usullari</i>	<i>Methods of state regulation of the economy</i>	Методы государственного регулирования экономики	tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy vositalari birligi.
<i>Iqtisodiyot ni davlat tomonidan tartibga solish</i>	<i>State Regulation of Economy</i>	Государственное регулирование экономики	qonunchilik, ijro va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.
<i>Iqtisodiy rivojlanish</i>	<i>Economic development</i>	Экономическое развитие	ko`p qirrali jarayon bo`lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o`z ifodasini topadi.
<i>Iqtisodiy muvozanat</i>	<i>Economic equilibrium</i>	Экономическое равновесие	iqtisodiy jarayonlar, hodisalarining ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelish holati.
<i>Iqtisodiy o'sishning ko`rsatkichlari</i>	<i>Economic growth</i>	Показатели экономического роста	iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalilanadigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoni) ko`rsatkichlar tizimidan iborat.
<i>Iqtisodiy qonun</i>	<i>Economic laws</i>	Экономические законы	iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o`rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalari, ularning o`zaro bog`liqligi.
<i>Iqtisodiy yoki sof foyda</i>	<i>Economic or pure profit</i>	Экономическая или чистая прибыль	yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.
<i>Iqtisodiy mutanosiblik</i>	<i>Economic proportionality</i>	Экономическая пропорциональность	iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o`rtasida miqdor va sifat o`lchamlarning mos kelishlik darajasi.
<i>Iqtisodiy islohotlar</i>	<i>Economic reforms</i>	Экономические реформы	iqtisodiyotda tub o`zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui.
<i>Iqtisodiy</i>	<i>Economic</i>	Экономич	milliy daromadning bir qismining

<i>jamg`arish</i>	<i>savings</i>	<i>еское сбере- жение</i>	asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyyot va zahiralarni ko`paytirish uchun sarflanib borishi.
<i>Iqtisodiy tizim</i>	<i>Economic system</i>	<i>Экономич- еская система</i>	mavjud iqtisodiy munosabatlar maj-muasining iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo`jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikdagi tizimi.
<i>Iqtisodiy bitimlar</i>	<i>Economic transactions</i>	<i>Экономи- ческие сделки</i>	qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya`ni tovarlar ko`rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o`tishi bo`yicha kelishuvlar.
<i>Iqtisodiyot ni barqaror-lashtirish</i>	<i>Economy Stabilizing</i>	<i>Стабилиз- ация эконо- мики</i>	tanglik holatlariiga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlarni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish.
<i>Iqtisodiyot ni erkin-lashtirish</i>	<i>Liberalization of the economy</i>	<i>Либерали- зация экономик- и</i>	bu xo`jalik hayotining barcha sohalaridagi to`siq hamda cheklovlanri, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo`naltirilgan chora-tadbirlar tizimi.
<i>Iqtisodiy o'sish</i>	<i>The economic growth</i>	<i>Экономич- еский рост</i>	YAIM, SMM, MD miqdorining mutloq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko`payishida va sifatining yaxshilanishiha ifodalananadi.
<i>Iqtisodiy o'sish omillari</i>	<i>Factors of Economic Growth</i>	<i>Факторы экономич- еского роста</i>	iqtisodiy o'sishga ta`sir ko`rsatishda o`z o`rniga ega bo`lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.
<i>Iqtisodiy o'sish mezoni</i>	<i>The criterion of economic growth</i>	<i>Критерий экономич- еского роста</i>	iqtisodiy o'sishni nisbatan to`liq darajada baholash imkonini beradigan ko`rsatkichni xarakterlaydi.
<i>Kapital sig`imi</i>	<i>Capital capacity</i>	<i>Емкость капитала</i>	asosiy kapitalning mos keluvchi davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki uning biron-bir qismini – milliy daromad, sof

			daromad, foydaga nisbatini tavsiflovchi ko`rsatkich.
<i>Kapitalning markazlashuvi</i>	<i>The centralization of capital</i>	<i>Центральнаяизация капитала</i>	bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aktsiyadorlik jamiyatni va boshqa shakllarda ixtiyoriy birlashishi orgali kapital hajmining o'sishi.
<i>Kengaytirilgan takrorishlab chiqarish</i>	<i>Extended reproduction</i>	<i>Расширенное воспроизведение</i>	ishlab chiqarish miqyoslarini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishi.
<i>Kombinatsiyalash</i>	<i>Combination</i>	<i>Комбинирование</i>	bitta korxona - kombinat doirasida sanoatning bitta yoki bir nechta tarmoqlaridagi turli xil ishlab chiqarishlarni texnologik jihatdan birlashtirishda ifodalanuvchi, ishlab chiqarishni umumlashtirish shakllaridan biri.
<i>Kompaniya</i>	<i>Company</i>	<i>Компания</i>	tadbirkorlarning huquqiy shaxs maqomiga ega bo`lgan, pay kapitali asosida tashkil qilinuvchi birlashmasi.
<i>Konversiya</i>	<i>Conversion</i>	<i>Конверсия</i>	korxonaning umuman boshqa turdagи mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi.
<i>Kontsern</i>	<i>Concern</i>	<i>Концерн</i>	turli tarmoqlardagi mustaqil korxonalarining ishtirot etish tizimi, qo'shma tadqiqotlar, patent-litsenziya kelishuvlari, moliyalashtirish, ishlab chiqarish hamkorligi vositasida birlashuvi.
<i>Kooperatsiya qilish</i>	<i>Cooperation</i>	<i>Кооперирование</i>	yakuniy mahsulotni birqalikda tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalarini o'rnatish
<i>Korxonaning optimal hajmi</i>	<i>Optimal production volume</i>	<i>Оптимальный объем производства</i>	mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko`rsatish) bo'yicha imzolangan shartnomasi va majburiyatlarni o'z muddatida, eng kam xarakatlar bilan eng yuqori samaradorlikka erishgan holda

			bajarish imkonini beruvchi korxona hajmi.
Kredit	Credit	Кредит	bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida toplash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.
Lizing	Leasing	Лизинг	odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat kreditning pulsiz shakli.
Litsenziya	License	Лицензия	qonunda belgilangan muayyan xo'jalik operatsiyalari, jumladan, tashqi savdo (eksport va import) operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha, vakolatli davlat idoralarining huquqiy shaxslarga beruvchi maxsus ruxsatnomasi
Makro-iqtisodiyot	Macro-economics	Макро-экономика	moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.
Marketing	Marketing	Маркетинг	korxonalarning mahsulot ishlab chiqish, ishlab chiqarish va sotish yoki xizmat ko'rsatishga oid faoliyatini, bozorni va iste'molchilar talabiga faol ta'sir ko'rsatishni o'rGANISH asosida boshqarish tizimi.
Materiallar dan foydalanish h koeffitsienti	Material utilization rate	Коэффициент использования материала	xom ashyo va materiallarning oqilona tarzda sarflanishini tavsiflovchi ko'rsatkich. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi materiallarning ishlov berilgan materiallarning umumiylajmiga nisbatli sifastida hisoblanadi.
Mahsulot attes-tatsiyasi	Product attestation	Аттестация продукта	mahsulot sifatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini obyektiv baholashni tizimli ravishda amalga oshirishni ko'zda tutuvchi, tashkiliy texnik va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasi.

<i>Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari</i>	<i>Costs of producing and selling goods</i>	<i>Затраты производства и продажи товаров</i>	mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniuvchi tabiiy resurslar, xom ashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya, asosiy fondlar va mehnat resurslari, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning boshqa xarajatlarining qiymat baholari.
<i>Mahsulot rentabelligi</i>	<i>Product profitability</i>	<i>Рентабельность товара</i>	mahsulot sotishdan olingan foydaniing mahsulot tannarxiga nisbati (foizlarda) sifatida aniqlanuvchi ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi.
<i>Mahsulot sertifikati</i>	<i>Product certificate</i>	<i>Сертификат товара</i>	mahsulot sifatini baholash va nazorat qilishning xalqaro normalarini qabul qilish va amalga oshirish jarayoni; mahsulot ishlab chiqaruvchilarga qaram bo'lмаган, mahsulotning xalqaro standart normalariga mos kelishini nazorat qilish uchun kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlangan maxsus markazlarni yaratish bilan amalga oshiriladi.
<i>Mahsulot sifati</i>	<i>Product quality</i>	<i>Качество товара</i>	mahsulotning inson va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish qobiliyatlarini belgilovchi foydali xislatlari majmui
<i>Mahsulot sifatini boshqarish</i>	<i>Product Quality Management</i>	<i>Управление качеством товара</i>	mahsulotni yaratish va undan foydalinish yoki uni iste'mol qilishda zarur sifat darajasini belgilash, ta'minlash va qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar.
<i>Mahsulot sifatini boshqarish tizimi</i>	<i>Product Quality Management Systems</i>	<i>Системы управления качеством товара</i>	sifatni boshqarish uchun zarur bo'lgan resurslar, jarayonlar va javobgarlikni aniq taqsimlovchi tashkiliy tuzilma.
<i>Mahsulotning material sig'imi</i>	<i>Material capacity of products</i>	<i>Материалоемкость продукции</i>	xom ashyo, materiallar va boshqa moddiy resurslarning mahsulot birligiga sarflanuvchi xarajatlari. Material sig'imi kamaytirish tayyor mahsulot va materiallarni

			ko`paytirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va xom ashyo tarmoqlarini rivojlantirishga sarflanuvchi xarajatlarni kamaytirishga imkon yaratadi
<i>Mahsulot-ning mehnat sig`imi</i>	<i>Product Labor Capacity</i>	<i>Трудоемкость продукции</i>	mehnat unumdorligi ko`rsatkichlariga teskari bo`lgan kattalik. Moddiy ishlab chiqarish sohasida sarflangan mehnatning ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.
<i>Mahsulot-ning texnik darajasi</i>	<i>Technical degree of production</i>	<i>Техническая степень продукции</i>	baholanayotgan mahsulotning texnik takomillashganligini belgilovchi, uning bazis ko`rsatkichlariga mos keluvchi ko`rsatkichlarni taqqoslashga asoslangan mahsulot sifatining nisbiy tavsifnomasi
<i>Mahsulot-ning yashash davri</i>	<i>Product Lifetime</i>	<i>Жизненный период продукции</i>	mahsulot hayotining beshta bosqichinining almashinish davri: ishlab chiqish, ishlab chiqarish, bozorga chiqish, o`sish, bozorning to`yinishi va ma`naviy eskirish.
<i>Mehnat qurollari</i>	<i>Productivity</i>	<i>Производительность труда</i>	ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyati.
<i>Mehnat shartnoma si</i>	<i>Tools</i>	<i>Орудие труда</i>	inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta`sir qiladigan vositalar.
<i>Mehnat predmetlari</i>	<i>Employment contract</i>	<i>Трудовой контракт</i>	tadbirkor va ishga kiruvchi shaxs o`rtasidagi kelishuv, unda ko`ra xodimning mehnat vazifikasi, ish joyi, lavozimi, oylik ish haqi, ish boshlash vaqt va hokazolar belgilab beriladi.
<i>Modernizatsiya</i>	<i>Labor Objects</i>	<i>Предметы труда</i>	bevosita mehnat ta`sir qiladigan, ya`ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar.
	<i>Modernization</i>	<i>Модернизация</i>	jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o`zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg`or andozalar tomon yo`naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui.

<i>Moliyaviy munosabatlar</i>	<i>Financial relations</i>	<i>Финансовые отношения</i>	davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxona va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o`rtasida pul mablag`lari fondlarining harakati bilan bog`liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui.
<i>Moliya tizimi</i>	<i>Financial system</i>	<i>Финансовая система</i>	moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.
<i>Mulkni tasarruf etish</i>	<i>Disposal of property</i>	<i>Распоряжение собственностью</i>	mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.
<i>Mulkka egalik qilish</i>	<i>Ownership of property</i>	<i>Владение собственностью</i>	mulkdorlik huquqining uning egasi qo`lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o`zlashtirishning iqtisodiy shakli.
<i>Mulkdan foydalanish</i>	<i>The use of property</i>	<i>Пользование собственностью</i>	mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatalishi yoki ijtimoiy hayotda qo`llanilishi, ya`ni uning naqli jihatlarining bevosita iste`mol qilinishi.
<i>Mulkchilik munosabatları</i>	<i>Property relations</i>	<i>Отношения собственности</i>	mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o`zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.
<i>Narx</i>	<i>Price</i>	<i>Цена</i>	real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasi.
<i>Nizom (ustav)</i>	<i>Charter</i>	<i>Устав</i>	korxonani tashkil qilishning qonuniyligini tasdiqlovchi, korxona xarakteri va faoliyat turi, qoidalari, a`zolar o`rtasidagi munosabatlar va hokazolarni o`z ichiga oluvchi rasmiy hujjat.
<i>Oddiy takror ishlab chiqarish</i>	<i>Simple reproduction</i>	<i>Простое воспроизведение</i>	ishlab chiqarish miyoslarining o`zgarmagan holda takrorlanishi.
<i>Oraliq mahsulot</i>	<i>Intermediate</i>	<i>Промежуточный продукт</i>	ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar.

<i>Pirovard mahsulot</i>	<i>Final product</i>	<i>Конечный продукт</i>	ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shaxsiy va unumli iste'mol qilishga tayyor bo'lgan mahsulotlar.
<i>Raqobat</i>	<i>Competition</i>	<i>Конкуренция</i>	bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to`qashuvidan iborat bo`lib, ular o`rtasidagi yuqori foyda va ko`proq naflilikka ega bo`lish uchun kurash
<i>Raqobatbardoshlik</i>	<i>Competitiveness</i>	<i>Конкурентоспособность</i>	o`z faoliyatini bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirish va bunda ishlab chiqarishni ilmiy-texnik jihatdan takomillashtirish, xodimlarni rag`batlantirish va mahsulot sifatining yuqori bo`lishini ta`minlashga yetarli bo`lgan foyda olish.
<i>Reklamatsiya</i>	<i>Complaint</i>	<i>Рекламация</i>	xaridor tomonidan sotuvchiga shartnomaga asosida etkazib berilgan tovar sifati va miqdorining shartnomaga to`g`ri kelmasligi tufayli bildiruvchi da`vosi.
<i>Real ish haqi</i>	<i>Real wages</i>	<i>Реальная заработная плата</i>	nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo`lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati.
<i>Reeksport</i>	<i>Reexport</i>	<i>Реэкспорт</i>	biror bir mamlakat boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o`z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi.
<i>Reimport</i>	<i>Reimport</i>	<i>Реимпорт</i>	iste`molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.
<i>Sertifikat</i>	<i>Certificate</i>	<i>Сертификат</i>	mas`ul idoralar tomonidan mahsulotni ekspertiza qilish asosida beriluvchi, mahsulot sifatini belgilovchi hujjat.
<i>Smenalilik koeffitsienti</i>	<i>Coffee patient shift</i>	<i>Коэффициент сменности</i>	uskunalarning vaqt bo'yicha ish bilan ta`minlash darajasi ko`rsatkichi; sutka davomida ishlab berilgan mashina-smenalarning o`rnataligan barcha smenalar soniga nisbati orqali aniqlanadi.

<i>Soliq</i>	<i>Tax</i>	<i>Налог</i>	jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli.
<i>Soliq stavkasi</i>	<i>Tax rate</i>	<i>Ставка налога</i>	soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi.
<i>Standart-lashtirish</i>	<i>Standardization</i>	<i>Стандартизация</i>	ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasida faoliyatni tartibga solish maqsadida barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida qoidalar belgilash va qo'llash. Normativ hujjatlar, standartlar, yo'rqnomalari, usullar, talablarda aks ettiriladi.
<i>So'nggi qo'shilgan mahsulot</i>	<i>Marginal product</i>	<i>Предельный продукт</i>	eng so'nggi qo'shilgan omil (kapital yoki ishchi kuchi) evaziga o'sgan mahsulot hajmi.
<i>Tadbirkorlik faoliyati</i>	<i>Business activities</i>	<i>Предпринимательская деятельность</i>	shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalananish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.
<i>Tadbirkorlik sektori</i>	<i>Corporate sector</i>	<i>Предпринимательский сектор</i>	iqtisodiyotning daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi birlamchi bo'g'ini.
<i>Ta'sis hujjatlari</i>	<i>Constitutive documents</i>	<i>Учредительные документы</i>	yangi tashkil qilinuvchi korxona, kompaniya, aktsiyadorlik jamiyatini ta'sis etish va ularni belgilangan tartibda ro'yhatga olish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjatlar.
<i>Tarkibiy inqirozlar</i>	<i>Structural crises</i>	<i>Структурные кризисы</i>	iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat.
<i>Taqsimot</i>	<i>Distribution</i>	<i>Распределение</i>	ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va subyektlari o'rtasida taqsimlash jarayoni.
<i>Texnik qayta qurollantirish</i>	<i>Technical re-equipping</i>	<i>Техническое перевооружение</i>	ishlab chiqarish alohida uchastkalarining texnik imkoniyatlarni zamонави darajaga chiqarish jarayoni
<i>Tijorat</i>	<i>Commer-</i>	<i>Коммерче-</i>	korxonalar, birlashmalar va boshqa

<i>krediti</i>	<i>cial credit</i>	<i>ский кредит</i>	xo`jalik yurituvchi subyektlarning asosan to`lovni kechiktirish yo`li bilan tovar shaklida bir-biriga beradigan kreditlari.
<i>Tovar birjasi</i>	<i>Commodity exchange</i>	<i>Товарная биржа</i>	oldindan belgilangan qoidalar asosida ulgurji savdoni tashkil etish shakli.
<i>Turg'unlik (depressiya)</i>	<i>Depression</i>	<i>Депрессия</i>	ishlab chiqarishning bir joyda depsinib turishini anglatuvchi hamda iqtisodiy faollik jonlanishi uchun shart-sharoitlarning vujudga kelishiga imkon yaratiluvchi iqtisodiy tsikl fazasi.
<i>Uy xo`jaliklari</i>	<i>Household</i>	<i>Домашнее хозяйство</i>	iqtisodiyotning iste`mol sohasida faoliyat ko`satuvchi asosiy tarkibiy birlilik.
<i>Umumiy muvozanatlik</i>	<i>General equilibrium</i>	<i>Общее равновесие</i>	iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning bir-biriga teng kelgan holati.
<i>Umumiy mahsulot</i>	<i>Total product</i>	<i>Общий продукт</i>	jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmi.
<i>Fan-texnika taraqqiyoti</i>	<i>Scientific and technological progress</i>	<i>Научно-технический прогресс</i>	fan, texnika, texnologiyalar rivojlanishi, mehnat predmetlari, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning uzluksiz rivojlanish jarayoni.
<i>Firma</i>	<i>Firm</i>	<i>Фирма</i>	huquqiy shaxs maqomiga ega bo`lib, tovar ishlab chiqarish va sotishni bir umumiyo boshqaruv (va umumiy firma nomi) ostida birlashtiruvchi, korxona yoki turli mulkchilik shaklidagi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar majmuasi.
<i>Fiskal (soliq-byudjet) siyosati</i>	<i>Fiscal (fiscal) policy</i>	<i>Фискальная (налогово-бюджетная) политика</i>	davlat tomonidan iqtisodiyotga ta`sir ko`satish maqsadida soliqqa tortish va davlat sarfi tarkibini o`zgartirish bo`yicha qo'llaniluvchi chora-tadbirlar.
<i>Foiz normasi</i>	<i>The norm (rate)</i>	<i>Норма (ставка)</i>	foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining

<i>(стивкаси)</i>	<i>percent</i>	<i>процента</i>	фоизда ифодаланиши.
<i>Foyda</i>	<i>Profit</i>	<i>Прибыль</i>	корхона фаолиятингинякунин молиавиеви натижалари; пул тушуми ва хараятлар о'ртасидаги фарқ сифатидан аниqlанади.
<i>Fond qaytimi</i>	<i>Foundations</i>	<i>Фондовоо руженность</i>	асосиев исхлаб чиқариш фондларининг бир со'мига тоғ'ри келувчи маҳсулот миқдори.
<i>Fond sig'imi</i>	<i>Fond Capacity</i>	<i>Фондоемкость</i>	фонд қайтимига тескари бо'лган нисбат. Асосиев исхлаб чиқариш фондлари о'ртакча қиymatining исхлаб чиқарилган маҳсулот хажмига нисбати сифатидан hisobланади
<i>Foyda normasi</i>	<i>Profit rate</i>	<i>Норма прибыли</i>	foyda massasining исхлаб чиқариш хараятларига бо'лган нисбатининг foizdag'i ifodasi.
<i>Fond birjasi</i>	<i>Stock Exchange</i>	<i>Фондовая биржса</i>	qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha rasmiy jihatdan tashkil etilgan va muntazam amal qiluvchi bozor shakli.
<i>Franchayzer</i>	<i>Franchiser</i>	<i>Франчайзер</i>	franchayzi bilan franchayzing shartnomasi imzolovchi yirik корхона (korporatsiya, firma va hokazo).
<i>Franchayzing</i>	<i>Franchising</i>	<i>Франчайзинг</i>	yirik va kichik tadbirkorlikning aralash shakli; o'zaro foydali hamkorlik munosabatlari.
<i>Xalqaro kredit</i>	<i>International credit</i>	<i>Международный кредит</i>	ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakati.
<i>Xolding kompaniyasi</i>	<i>Holding company</i>	<i>Холдинговая компания</i>	o'z kapitalidan boshqa kompaniyalarni boshqarish, ularga rahbarlik qilish va dividend olish maqsadida ularning aksiyalarini sotib olishda foydalanuvchi aktsiyadorlik kompaniyasi.
<i>Xususiy-lashtirish</i>	<i>Privatization</i>	<i>Приватизация</i>	mulkka egalik qilish huquqining davlatdan xususiy va boshqa shaxslarga o'tishi.
<i>Eksport</i>	<i>Export</i>	<i>Экспорт</i>	tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda исхлаб чиқарилган tovarlar mamlakatdan tashqariga

			chiqariladi.
<i>Ekstensiv iqtisodiy o'sish</i>	<i>Extensive economic growth</i>	<i>Экстенсивный экономический рост</i>	ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.
<i>Yalpi daromad</i>	<i>Gross</i>	<i>Баловий</i>	korxona faoliyatining yakuniy natijalarini tavsiflaydi hamda yalpi pul tushumi va mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanuvchi barcha xarajatlar o'rtasidagi farqni ifodalaydi.
<i>Yalpi pul tushumi</i>	<i>Gross</i>	<i>Баловий</i>	tovar mahsuloti, ish, xizmat va moddiy boyliklarni sotishdan tushuvchi pulning umumiy miqdori.
<i>Yalpi ichki mahsulot (Yalm)</i>	<i>Gross domestic product (GDP)</i>	<i>Баловий внутренний продукт (ВВП)</i>	yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlardagi qiymati.
<i>Yalpi milliy mahsulot (YAMM)</i>	<i>Gross national product (GNP)</i>	<i>Баловий национальный продукт (ВНП)</i>	milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlardagi summasi.
<i>Qiyosiy narx</i>	<i>Comparable prices</i>	<i>Сопоставимые цены</i>	ishlab chiqarishning natijalari ma'lum yil (bazis yil) asosida hisoblanuvchi va boshqa yillar bilan taqoslanuvchi narx.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqımız bilan birga quramiz. - T.: O`zbekiston, 2017.
2. O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida. - T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagи ma`ruza 2016 yil 7 dekabr`. - T.: «O`zbekiston» NMIU, 2016.
4. Meskon M., Albert M., Franklin X. Osnovi menedjmenta. M.: Delo, 2002
5. Sharifxo`jaev M., Abdullaev YO. Menejmenti. Darslik.T.: SHarq. 2004. - 702
6. Zikriyoev E.Z. Paxtaga dastlabki ishlov berish. – T.: Mehnat, 2002-248 b.
7. Isaev R.A. va boshqalar. Ishlab chiqarishni tashkil qilish va biznes reja: darslik (I va II qism). – T: Tafakkur, 2011.-440 b.
8. Abdullaev A., Aybeshov X. Biznes-reja. - T.: Moliya, 2002-126 b.
9. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti: darslik.-Toshkent: TDIU, 2004-256 b.
10. Abdukarimov BX. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik- T.: Fan va texnologiya. 2013.
11. Abdurahmonov va boshqalar. Personalni boshqarish. T.: «Sharq», 1998.
12. Vixanskiy O.S. Naumov A.I. Praktikum po kursu Menedjment. Pod. red. A.I.Naumova. – M.: Gardariki, 2002.
13. Goremikin V.A., Bogomolov O.A. ekonomicheskaya strategiya predpriatiya. Uchebnik. M.: «Filin`-Rilant», 2001.
14. Zaynudinov Sr., Shermuhamedov A. Menejmenti. Darslik. T.: 2005.
15. Kezin A.V. Menedjment: metodologicheskaya kul'tura. M.: Gardariki, 2001.
16. Kostrov A.V. Osnovi informatsionnogo menedjmenta. Uchebnoe posobie. M.: Finansi i statistika, 2007.
17. Ruglova N.YU., Kruglov M.I. Strategicheskiy menedjment. Uchebnik. M.: RDL, 2006.
18. Mason Carpenter, Talya Bauer, Bwrrin erdogan. Management Principles. (v.1.0). 2012. Creative Commons. Californiya, America.
19. Husanov G.H.va boshqalar «Moliyaviy menejment» T.: Voris nashriyoti, 2016 yil
20. Yuldashev A. va boshqalar «Moliyaviy menejment» T.: Voris nashriyoti, 2016 yil
21. Neil Ritson. Strategik Management 2nd edition, 2013.G`ulomov S.S. Menejmenti asoslari. O`quv qo`llanma. T.: 2002.

Internet saytlari

- www.Ziyo.net
- www.Management.ru
- www.MBA.ru
- www.referat.ru
- www.stat.uz

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. «IQTISODIYOT VA MOLIYAVIY MENEJMENT» FANNING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI.....	5
1.1. Fanning o`rganish obyekti	5
1.2. Fanning predmeti va boshqa fanlar bilan bog`liqligi.....	6
1.3. Fanning o`rganish usullari.....	8
1.4. Fanning bozor iqtisodiyoti sharoitiga va islohotlar talabiga xos va mos vazifalari	10
II BOB. SANOAT – MILLIY IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG`I	12
2.2. Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar.....	12
2.3. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog`ining shakllanishi	12
2.4. Sanoat tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar.....	12
2.1. Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o`rni.....	12
2.2. Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar	15
2.3. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog`ining shakllanishi	18
2.4. Sanoat tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar.....	21
III BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING IQTISODIY VA IJTIMOIY SAMARADORLIGI.....	23
3.1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati va mezoni	23
3.2. Iqtisodiy samaradorlikni tavsiylovchi ko`rsatkichlar	28
3.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari va yo`llari.....	32
IV BOB. SANOATDA FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI.....	36
4.1. Fan-teknika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati	36
4.2. Fan-teknika taraqqiyotining asosiy yo`nalishlari.....	38
4.3. Fan-teknika taraqqiyotining samaradorligini baholash.....	42
V BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARI	46
5.1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi ..	46
5.2. Asosiy fondlarni baholash usullari	49
5.3. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi	52
5.4. Asosiy fondlardan foydalanish ko`rsatkichlari.....	55
5.5. Ishlab chiqarish quvvatining mohiyati va hisoblash usullari.....	59
5.6. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash yo`llari.....	62
VI BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING AYLANMA FONDLARI VA AYLANMA MABLAC`LARI.....	65
6.1. Aylanma mablag`lar tushunchasi, iqtisodiy tabiatи va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyati.....	65
6.3. Aylanma mablag`larni me`yorlashtirish	73

6.4. Aylanıma mablag`lardan foydalanish ko`rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo`llari.....	81
VII BOB. SANOATDA KADRLAR VA MEHNATGA HAQ TO`LASH.....	84
7.1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli.....	84
7.2. Kadrlar, ularning tarkibiy tuzilmasi. Kadrlar tanlash va uni joy-joyiga qo`yish.....	87
7.3. Xodimlar mehnatiga haq to`lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari..	90
7.4. Tarif tizimi elementlari.....	91
7.5. Mehnatga haq to`lash shakllari	95
VIII BOB. SANOAT MAHSULOTINING SIFATI VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGI.....	96
8.1. Sifat tushunchasi va uni oshirish zaruriyati	96
8.2. Mahsulotning sifat ko`rsatkichlari va ularni baholash usullari.....	98
8.3. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo`llari	101
8.4. Standartlashtirish, sertifikatlitashtirish, atesstatsiya va nazorat qilish.....	104
IX BOB. SANOATDA TANNARX, FOYDA VA ISHLAB CHIQARISH RENTABELLIGI.....	110
9.1. Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari.....	110
9.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhlash	111
9.3. Foydaning mohiyati va uning turlari.....	120
9.4. Rentabellik va uning turlari.....	124
9.5. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari	126
X BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHIDA BAHO VA BAHOLASH	130
10.1. Baho – bozor munosabatlarning iqtisodiy kategoriyasi sifatida	130
10.2. Baho tushunchasi, ahamiyati, zaruriyati va uning funktsiyalari.....	134
10.3. Bahoning turlari va tarkibi	135
XI BOB. SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY MENEJMENTNING XUSUSIYATLARI	137
11.1. Moliyaviy menejmentni tashkil etishning mohiyati va xususiyatlari....	137
Moliyaviy menejmentning aniq obyektlarini belgilovchi asosiy funktsiyalar quyidagilar hisoblanadi:.....	141
11.2. Boshqarish tamoyillari va usullari.....	142
11.3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni va bosqichlari.....	146
11.4. Moliyaviy menejmentining mexanizmi strategiyasi va vazifalari, moliyaviy boshqaruvning o`ziga xos jihatlari	154
XII BOB. SUBYEKTLAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNI AXBOROTLAR BILAN TA`MINLASH VA MOLIYAVIY HISOBOTLARDAN FOYDALANISH ..	157
12.1. Moliyaviy menejmentni tashkiliy va axborotlar ta`minot tizimining tuzilishi.....	157

12.2. Tadbirkorlik moliyaviy menejmentining tizimida moliyaviy hisobotlar tushunchasi va ularning qo'llanilish xususiyatlari.....	162
12.3. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarni tashkil qilish va yuritishning huquqiy-me'yoriy asoslari.....	165
12.4. Moliyaviy hisobot va uni yuritish talablari.....	172
XIII BOB. MOLIYAVIY TAHLILNING ASOSLARI	179
13.2. Moliyaviy koefitsientlar va ko`rsatkichlar bilan ishlash.....	182
13.3. Subyektlarni moliyaviy baholashda moliyaviy hisobotlar va koefitsientlardan foydalanish usullari.....	184
XIV BOB. AKTIVLARNI BOSHQARISH	190
14.1. Subyektlarning asosiy va aylanma kapitallarini boshqarishda moliyaviy axborotlardan foydalanish usullari.....	190
14.2. Subyekt aktivlarining iqtisodiy mohiyati va guruhanishi.....	192
14.3. Subyekt aktivlarining shakllanishi, baholash va ularni boshqarish. Xarajatlarni va daromadlarni boshqarishni optimallashtirish.....	199
XV BOB. KAPITALLARNI BOSHQARISH	203
15.1. Korxona kapitalini iqtisodiy mohiyati va guruhanishi	203
15.2. Korxona kapitalini shakllantirish tamoyillari	205
15.3. Kapital qiymatini baholash va uni muqobillashtirish	207
XVI BOB. INVESTITSIYALARNI BOSHQARISH	210
16.1. Investitsiyalar va ularni boshqarish. Subyektda investitsiyalarni boshqarishning umumiy asoslari	210
16.2. Investitsiya loyihasi, uning tarkibi va davom etish bosqichlari investitsiya loyihasi	212
16.3. Investitsiya faoliyati va uni moliyalashtirish. Investitsiya bozorini baholash va moliyalashtirish	216
16.4. Investitsiya xavf-xatarlarining turlari va ularni boshqarish	222
XVII BOB. SANOAT KORXONALARНИ FAOLIYATINI REJALASHTIRISH.	
KORXONA BIZNES-REJASI VA UNINNG ASOSIY BO`LIMLARI	228
17.1. Rejalashtirishning mohiyati va vazifalari. Korxona faoliyatini rejalashtirishning asosiy vazifalari	228
17.2. Rejalashtirish texnologiyasi	236
17.3. Korxona biznes rejasining tizimi. Biznes-rejani tayyorlash bosqichlari va uni tuzishning texnologiyasi	239
XVIII BOB. TAYYORLOV FAOLIYATINI REJALASHTIRISH	243
18.1. Paxta xom-ashyosini tayyorlash, saqlash va uni tashish rejasi	243
18.2. Paxta xom-ashyosini tayyorlash xarajatlari smetasi	246
18.3. Paxta xom-ashyosini tayyorlov maskanidan zavodga tashib keltirish xarajati smetasi	247
18.4. Quritish-tozalash sexi faoliyatini rejalashtirish	248

XIX BOB. PAXTA TOZALASH KORXONALARI MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH REJASI	253
19.1. Paxta tozalash korxonalarini ishlab chiqarish dasturini tuzish	253
19.2. Asosiy texnologik asbob-uskunalar ish faoliyatini rejalashtirish.....	254
19.3. Paxta tolasi assortimenti va sifatini rejalashtirish.....	258
19.4. Paxta tozalash korxonasi qo'shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish	263
XX BOB. TASHKILIY REJA VA MENEJMENT.....	265
20.1. Tashkiliy rejaning mazmuni, maqsadi va vazifalari.Korxonaning kadrlar siyosati va personalni boshqarish.....	265
20.2. Ish haqi to'lash shakllari: vaqtbay va ishbay. Tarif tizimi elementlari. Paxta tozalash korxonalarida ish haqi fondini hisoblash.....	267
20.3. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi va uni hisoblash.....	268
21.1. Paxta tozalash korxonalarini aylanma fondlari tarkibi	270
21.2. Xom-ashyo va materiallarni me'yorashtirish asoslari.	271
21.3. Paxta xom-ashyosi sarfini rejalashtirish. Paxta tolasi chiqishini rejalashtirish.....	278
XXII BOB. MARKETING REJASI.....	281
22.1. Marketing rejasi- biznes rejaning muhim bo'limi va uning ahamiyati ..	281
22.2. Bozorni baholash va iste'molchilar talabining tub maqsadlarini aniqlash	284
22.3. Korxonaning ojiz va ustunliklarini, imkoniyat va xavf-xatarlarini aniqlash	287
22.4. Marketing strategiyasini ishlab chiqish. Korxonada Marketing xizmati.	289
XXIII BOB. MAHSULOT TANNARXINI REJALASHTIRISH	292
23.1. Mahsulot tannarxining mohiyati va ahamiyati.....	292
23.2. Xarajatlarni moddalar bo'yicha turkumlash.....	293
23.3. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kal'kulyatsiyalash.	296
XXIV BOB. PAXTA TOZALASH KORXONASI MOLIYA REJASI	299
24.1. Paxta tolasini sotish rejasi. Qo'shimcha mahsulotlarni sotish rejasi....	299
24.2. Sotilgan mahsulotdan olinadigan yalpi foyda. Foydaninng mohiyati, ahamiyati, turlari va uni rejalashtirish.	302
GLOSSARIY.....	305
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	326

СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	4
Глава I. СОДЕРЖАНИЕ, ПРЕДМЕТ И МЕТОД ДИСЦИПЛИНЫ «ЭКОНОМИКА И ФИНАНСОВЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ».....	5
1.1. Объект изучения науки	5
1.2. Предмет науки и его связь с другими науками.....	6
1.3. Методы изучения науки.....	8
1.4. Специфические и соответствующие условиям рыночной экономики и требованию реформ задачи науки.....	10
ГЛАВА II. ПРОМЫШЛЕННОСТЬ-ВЕДУЩАЯ ОТРАСЛЬ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА.....	12
2.2. Отраслевая структура и структурные сдвиги 12	12
2.3.Общественное разделение труда и становление промышленности..12	12
2.4. Отраслевая структура и определяющие ее факторы.....	12
2.1. Промышленность и ее роль в развитии народного хозяйства.....	12
2.2. Отраслевая структура и структурные сдвиги.....	15
2.3. Общественное разделение труда и становление промышленности.18	18
2.4. Отраслевая структура и определяющие ее факторы.....	21
ГЛАВА III. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА.	23
3.1. Сущность и критерий эффективности производства.	23
3.2. Показатели, характеризующие экономическую эффективность	28
3.3. Факторы и пути повышения эффективности производства.....	32
ГЛАВА IV. НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС В ПРОМЫШЛЕННОСТИ...36	36
4.1. Сущность и значение научно-технического прогресса.....	36
4.2. Основные направления научно-технического прогресса.....	38
4.3. Оценка эффективности научно-технического прогресса.....	42
ГЛАВА IV. ОСНОВНЫЕ ФОНДЫ И ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ МОЩНОСТИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА.....	46
5.1. Экономическая сущность и значение, состав и структура основных фондов.....	46
5.2. Методы оценки основных средств.....	49
5.3. Износ и амортизация основных средств.....	52
5.4. Показатели использования основных фондов.....	55
5.5. Сущность и методы расчета производственной мощности.....	59
5.6. Пути улучшения использования производственных мощностей.....62	62
ГЛАВА VI. ФОНДЫ ОБРАЩЕНИЯ И ОБОРОТНЫЕ СРЕДСТВА ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА.....	65
6.1. Понятие, экономическая природа оборотных средств и их значение в деятельности предприятия.....	65
6.3. Нормирование оборотных средств	73
6.4. Показатели использования оборотных средств и пути ускорения их обновляемости.....	81
ГЛАВА ТРЕТЬЯ. КАДРЫ И ОПЛАТА ТРУДА В ПРОМЫШЛЕННОСТИ...84	84
7.1. Кадровая политика и ее роль в промышленном развитии.....	84
7.2. Кадры, их структура. Подбор персонала и его размещение	87

7.3. Основные принципы организации оплаты труда работников.....	90
7.4. Элементы тарифной системы.....	91
7.5. Формы оплаты труда.....	95
ГЛАВА VIII. КАЧЕСТВО ПРОМЫШЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ.....	96
8.1. Понятие качества и необходимость его повышения.....	96
8.2. Показатели качества продукции и методы их оценки.....	98
8.3. Управление качеством продукции и пути его повышения.....	101
8.4. Стандартизация, сертификация, аттестация и контроль.....	104
ГЛАВА IX. СЕБЕСТОИМОСТЬ, ПРИБЫЛЬ И РЕНТАБЕЛЬНОСТЬ ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	110
9.1. Теория стоимости и себестоимости, научные основы снижения издержек производства.....	110
9.2. Группировка затрат, образующих себестоимость продукции.....	111
9.3. Сущность прибыли и ее виды.....	120
9.4. Рентабельность и ее виды.....	124
9.5. Источники и факторы снижения себестоимости продукции.....	126
ГЛАВА X. ОЦЕНКА И ОЦЕНКА В ПРОМЫШЛЕННОМ ПРОИЗВОДСТВЕ	
10.1. Оценка – как экономическая категория рыночных отношений...130	130
10.2. Понятие, значение, необходимость оценки и ее функции.....	134
10.3. Виды и содержание оценки.....	135
ГЛАВА XI. ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСОВОГО МЕНЕДЖМЕНТА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	137
11.1. Сущность и особенности организации финансового менеджмента. Основными функциями, определяющими конкретные объекты финансового менеджмента, являются:.....	141
11.2. Принципы и методы управления.....	142
11.3. Процесс и этапы принятия управленческих решений.....	146
11.4. Механизм финансового менеджмента стратегия и задачи, специфика финансового менеджмента.....	154
ГЛАВА XII. ИНФОРМАЦИОННОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ СУБЪЕКТОВ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ.....	157
12.1.Структура системы организационно-информационного обеспечения финансового менеджмента.....	157
12.2.Понятие финансовой отчетности в системе управления предпринимательскими финансами и особенности их применения....162	162
12.3. Нормативно-правовые основы организации и ведения финансовой отчетности в Республике Узбекистан.....	165
12.4. Финансовая отчетность и требования к ее ведению.....	172
ГЛАВА XIII. ОСНОВЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА	179
13.2. Работа с финансовыми коэффициентами и показателями.....	182
13.3. Методы использования финансовой отчетности и коэффициентов при финансовой оценке субъектов.....	184

ГЛАВА XIV. УПРАВЛЕНИЕ АКТИВАМИ.....	190
14.1. Методы использования финансовой информации в управлении основными и оборотными средствами субъектов.....	190
14.2. Экономическая сущность и группировка активов субъекта.....	192
14.3. Формирование, оценка и управление субъектными активами. Оптимизация управления затратами и доходами.....	199
ГЛАВА XV. УПРАВЛЕНИЕ КАПИТАЛОМ.....	203
15.1. Экономическая сущность и группировка капитала предприятия.203	
15.2. Принципы формирования капитала предприятия.....	205
15.3. Оценка стоимости капитала и его альтернативность.....	207
ГЛАВА XVI. УПРАВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЯМИ.....	210
16.1. Инвестиции и управление ими. Общие основы управления инвестициями в субъекте.....	210
16.2. Инвестиционный проект, его структура и этапы продолжения инвестиционный проект.....	212
16.3. Инвестиционная деятельность и ее финансирование. Оценка и финансирование инвестиционного рынка.....	216
16.4. Виды инвестиционных рисков и управление ими.....	222
ГЛАВА XVII. ПЛАНИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. БИЗНЕС-ПЛАН ПРЕДПРИЯТИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ РАЗДЕЛЫ.....	228
17.1. Сущность и задачи планирования. Основные задачи планирования деятельности предприятия.....	228
17.2. Технология планирования.....	236
17.3. Система бизнес-плана предприятия. Этапы составления бизнес-плана и технология его составления.....	239
ГЛАВА XVIII. ПЛАНИРОВАНИЕ ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ	
18.1. План подготовки, хранения и транспортировки хлопкового сырья.....	243
18.2. Смета расходов на заготовку хлопкового сырья.....	246
18.3. Смета расходов на транспортировку хлопкового сырья с места заготовки на завод.....	247
18.4. Планирование деятельности сушильно-уборочного цеха.....	248
ГЛАВА XIX. ПЛАН ВЫПУСКА ПРОДУКЦИИ ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	253
19.1. Составление производственной программы хлопкоочистительных предприятий.....	253
19.2. Планирование работы основного технологического оборудования....	254
19.3. Планирование ассортимента и качества хлопкового волокна.....	258
19.4.Хлопкоочистительное предприятие планирование объема производства дополнительной продукции.....	263
ГЛАВА XX. ОРГАНИЗАЦИОННЫЙ ПЛАН И УПРАВЛЕНИЕ.....	265
20.1. Содержание, цели и задачи организационного плана. Кадровая политика предприятия и управление персоналом.....	265

20.2. Формы оплаты труда: замбай и ишбай. Элементы тарифной системы. Расчет фонда оплаты труда на хлопкоочистительных предприятиях.....	267
20.3. Показатель производительности труда и его расчет.....	268
21.1.Структура оборотных фондов хлопко очистительных предприятий	270
21.2. Основы нормирования сырья и материалов.....	271
21.3. Планирование расхода хлопкового сырья. Планирование выхода хлопкового волокна.....	278
ГЛАВА XXII. МАРКЕТИНГОВЫЙ ПЛАН.....	281
22.1.Маркетинговый план-важный раздел бизнес-плана и его значение	281
22.2.Оценка рынка и определение основных целей потребительского спроса.....	284
22.3.Определение слабых сторон и преимуществ предприятия, возможностей и рисков.....	287
22.4.Разработка маркетинговой стратегии. Служба маркетинга на предприятии.....	289
ГЛАВА XXIII. ПЛАНИРОВАНИЕ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ.....	292
23.1. Сущность и значение себестоимости продукции.....	292
23.2. Классификация затрат по веществам.....	293
23.3. Калькуляция себестоимости продукции.....	296
ГЛАВА XXIV. ФИНАНСОВЫЙ ПЛАН ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНОГО ПРЕДПРИЯТИЯ.....	299
24.1.План реализации хлопкового волокна. План реализации дополнительной продукции.....	299
24.2.Валовая прибыль от реализованной продукции. Сущность, значение, виды прибыли и ее планирование	302
Глоссарий.....	305
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ	326

CONTENT

Introduction.....	4
CHAPTER ONE. CONTENT, SUBJECT AND METHOD OF "ECONOMICS AND FINANCIAL MANAGEMENT"	5
1.1. Subject of study of science.....	5
1.2. Subject of Science and its connection with other sciences	6
1.3. Methods of study of science.....	8
1.4. Specific and suitable tasks of science on the condition of market economy and the demand for reforms.....	10
CHAPTER II. INDUSTRY-THE LEADING NETWORK OF THE NATIONAL ECONOMY.....	12
2.2. Industrial network structure and structural silencing.....	12
2.3. Social division of Labor and the formation of an industrial network.....	12
2.4. Industrial network structure and factors determining it.....	12
2.1. Industry and its role and role in the development of the national economy	12
2.2. Industrial network structure and structural silencing.....	15
2.3. Social division of Labor and the formation of the industrial Network.....	18
2.4. Industrial network structure and factors determining it.....	21
CHAPTER III. ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY OF INDUSTRIAL PRODUCTION.....	23
3.1. The essence and criterion of production efficiency.....	23
3.2. Indicators that characterize economic efficiency	28
3.3. Factors and ways to improve production efficiency.....	32
CHAPTER IV. DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TECHNOLOGY IN INDUSTRY	36
4.1. The essence and importance of Science and technology development	36
4.2. The main directions of development of Science and technology.....	38
4.3. Evaluation of the effectiveness of Science and technology development..	42
CHAPTER V. MAIN FUNDS OF INDUSTRIAL PRODUCTION AND PRODUCTION CAPACITY.....	46
5.1. Economic essence and importance of fixed assets, composition and structure.....	46
5.2. Methods of valuation of fixed assets.....	49
5.3. Depreciation and amortization of fixed assets.....	52
5.4. Indicators of the use of fixed assets.....	55
5.5. The essence of the production capacity and methods of calculation.....	59
5.6. Ways to improve production capacity utilization.....	62
CHAPTER VI. WORKING CAPITAL AND WORKING CAPITAL OF INDUSTRIAL PRODUCTION	65
6.1. The concept of working capital, its economic nature and their importance in the functioning of the enterprise	65
6.3. Normalization of working capital.....	73
6.4. Indicators of the use of working capital and ways to accelerate their circulation.....	81
CHAPTER VII. REMUNERATION OF PERSONNEL AND LABOR IN INDUSTRY	84
7.1. Personnel policy and its role in industrial development.....	84
7.2. Personnel, their structural structure. Personnel Selection and put it in place.....	87
7.3. The basic principles of organizing the payment of personnel labor.....	90
7.4. Tariff system elements.....	91
7.5. Labor remuneration forms.....	95
CHAPTER VIII. INDUSTRIAL PRODUCT QUALITY AND ITS COMPETITIVENESS	96
8.1. The concept of quality and the need to increase it.....	96
8.2. Quality indicators of products and methods of their evaluation.....	98
8.3. Product quality management and ways to improve it.....	101
8.4. Standardization, certification, attestation and control.....	104

CHAPTER IX. COST, PROFIT AND PROFITABILITY OF PRODUCTION IN THE INDUSTRY	110
9.1. Theory of value and cost, scientific basis for reducing production costs	110
9.2. Grouping the costs that make up the production cost of the product	111
9.3. The essence of profit and its types.....	120
9.4. Profitability and its types.....	124
9.5. Sources and factors of product cost reduction.....	126
CHAPTER X. ASSESSMENT AND EVALUATION IN INDUSTRIAL PRODUCTION	
10.1. An economic category of price - market relations.....	130
10.2. The concept of evaluation, importance, necessity and its functions	134
10.3. Types and composition of price.....	135
CHAPTER XI. CHARACTERISTICS OF FINANCIAL MANAGEMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	137
11.1. The essence and features of the organization of financial management.	137
11.2. Management principles and methods.....	142
11.3. The process and stages of management decision making.....	146
11.4. Strategy and objectives of the mechanism of financial management, specific aspects of financial management.....	154
CHAPTER XII. SUBY PROVISION OF INFORMATION ON THE MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF THE ENTITIES AND THE USE OF FINANCIAL STATEMENTS	157
12.1. Structure of financial management organizational and Information Retrieval system.....	157
12.2. The concept of financial reporting in business financial management system and the features of their application.	162
12.3. Legal and normative bases of organization and conduct of financial statements in the Republic of Uzbekistan.....	165
12.4. Financial statements and requirements of maintaining it.....	172
CHAPTER XIII. FUNDAMENTALS OF FINANCIAL ANALYSIS	179
13.2. Work with financial coefficients and indicators.	182
13.3. Suby methods of using financial statements and coefficients in financial evaluation of assets.	184
CHAPTER XIV. ASSET MANAGEMENT	190
14.1. Suby methods of using financial information in the management of fixed and working capital of assets.	190
14.2. Suby economic essence and grouping of asset assets.	192
14.3. Suby formation, evaluation and management of asset assets. Optimization of cost and revenue management.....	199
CHAPTER XV. CAPITAL MANAGEMENT	203
15.1. Economic essence and grouping of venture capital.....	203
15.2. Principles of formation of enterprise capital.	205
15.3. Evaluate the value of capital and its alternatives.	207
CHAPTER XVI. INVESTMENT MANAGEMENT	210
16.1.Investments and their management. Suby general principles of Investment Management in the sector.	210
16.2.Investment project, its composition and stages of continuation investment project.....	212
16.3.Investment activities and its financing. Investment market assessment and financing.	216
16.4. Types of investment risks and their management.....	222
CHAPTER XVII. PLANNING THE ACTIVITIES OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. ENTERPRISE BUSINESS PLAN AND MAIN SECTIONS OF THE UNINNG	228
17.1. The essence and objectives of planning. The main tasks of planning the activities of the enterprise.....	228

17.2. Planning technology	236
17.3. System of the enterprise business plan. Stages of preparation of a business plan and the technology of its compilation.	239
CHAPTER XVIII. PLANNING PREPARATORY ACTIVITIES.	243
18.1.Plan for the preparation, storage and transportation of cotton raw materials.....	243
18.2. Cost estimate of preparation of cotton raw materials.....	246
18.3. Cost estimate of transportation of cotton raw materials from the place of preparation to the plant.....	247
18.4. Planning the activities of the drying and cleaning shop.....	248
CHAPTER XIX. COTTON CLEANING ENTERPRISES PRODUCT PRODUCTION PLAN.....	253
19.1. Establishment of cotton cleaning enterprises production program....	253
19.2. Basic technological equipment performance planning.....	254
19.3. Plan the assortment and quality of cotton fibers.	258
19.4. Cotton cleaning enterprise planning the volume of production of additional products.....	263
CHAPTER XX. ORGANIZATIONAL PLAN AND MANAGEMENT	265
20.1. Content, purpose and objectives of the organizational plan.Personnel policy of the enterprise and management of personal.....	265
20.2. Forms of payment of wages: time and work. Tariff system elements. Calculation of wage fund in cotton cleaning enterprises.....	267
20.3. Indicator of labor productivity and its calculation.....	268
21.1. Composition of working capital funds of cotton cleaning enterprises.270	270
21.2. Fundamentals of normalization of raw materials and materials.....	271
21.3. Plan the consumption of cotton raw materials. Plan the output of cotton wool.....	278
CHAPTER XXI. MARKETING PLAN	281
22.1. Marketing plan is an important part of a business plan and its importance.....	281
22.2. Evaluate the market and determine the cardinal objectives of consumer demand.....	284
22.3. Identify the weaknesses and advantages, opportunities and risks of the enterprise.....	287
22.4. Develop a Marketing strategy. Marketing service at the enterprise.....	289
XXIII CHAPTER. PRODUCT COINAGE PLANNING.....	292
23.1. The essence and importance of the product coin.....	292
23.2. Classification of bills by substance	293
23.3. Calculation of product production cost.....	296
CHAPTER XXIV. COTTON CLEANING ENTERPRISE FINANCE PLAN	299
24.1. Plan for the sale of cotton wool. Plan to sell additional products	299
24.2. Gross profit from the sold product. Faytanining essence, importance, types and planning it.....	302
Glossary.....	305
LIST OF LITERATURE.....	326

Usmanova N.Yu.

IQTISODIYOT VA MOLIYAVIY MENEJMENT

Muharrir:

G'.Murodov

Texnik muharir:

G.Samiyeva

Musahih:

M.Raximov

Sahifalochi:

M.Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original –
maketdan bosishga ruxsat etildi: 29.12.2020. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. « Palatino Linotype» garn. Ofset bosma
usulida. Ofset bosma qog’ozi. Bosma tabog’i 21,25 Adadi 100.

Buyurtma № 93



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O’zbekiton Mustaqilligi ko’chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46



ISBN 978-9943-6894-9-7

9 789943 689497